

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

«MAKTABGACHA TA‘LIM» KAFEDRASI

Ro‘yxatga olindi:

№ _____

_____ 2019-yil

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ v.b.M.Y.Ergashov

“ ” - _____ 2019-yil

MAKTABGACHA TA‘LIM KAFEDRASI

**BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISH
FANIDAN**

O‘QUV- USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000-Gumanitar

Ta‘lim sohasi: 110000- Pedagogika

Bakalavriat
yo‘nalishi: 5111800 –Maktabgacha ta‘lim

Mazkur o`quv-uslubiy majmua oliy o`quv yurtlarining Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 2-kurs talabalari uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchilar:

S.S.Avezov- Maktabgacha ta`lim kafedrasida dotsenti, f.f.n.

M.B.Sharipova– Maktabgacha ta`lim kafedrasida o`qituvchisi

Sh.Sh.Nizomova– Maktabgacha ta`lim kafedrasida o`qituvchisi

N.N.Hamroyeva– Maktabgacha ta`lim kafedrasida o`qituvchisi

Taqrizchilar:

B.Jamilova – Boshlang`ich ta`lim kafedrasida dotsenti, f.f.n.

F.Safarov - Maktabgacha ta`lim kafedrasida dotsenti, f.f.n.

O`quv-uslubiy majmua Maktabgacha ta`lim kafedrasining 2019-yil ____ ____dagi ____-sonli yig`ilishi, Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim fakulteti kengashining 2019-yil ____ ____dagi ____-sonli yig`ilishida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

p.f.n.,G.Q.Hasanova

Fakultet dekani:

p.f.n.,B.J.Umarov

1-MAVZU: Bolalarning nutqini o'zlashtirish fanining predmeti maqsad va vazifalari

1. Ona tilining maktabgacha ta'limda tutgan o'rnini, mohiyati.
2. Maktabgacha ta'limda Bolalarning nutqini o'zlashtirish pedagogik fan sifatida.
3. Maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirish nazariyasi va metodikasining maqsad va vazifalari.
4. Maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirish nazariyasi va metodikasining mazmuni.

Tayanch tushunchalar: til, nutq, ta'lim, tarbiya, rivojlantirish, nutqiy intellekt, xotira, tasavvur, maqsad, vazifa, so'z boyligi, bog'lanishli nutq, nutqning tovush tomoni, nutqning grammatik tomoni, badiiy adabiyot, pedagogik tamoyillar: nimani o'rgatish kerak, qancha o'rgatish kerak, qanday o'rgatish kerak.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgan, huquqiy demokratik jamiyat qurishga intilayotgan Respublikamizda har bir insonning ozod va erkin, farovon yashashini ta'minlovchi jamiyat barpo etilmoqda, yoshlarning ilm - ma'rifatli bo'lishiga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiiq etish ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tilining asosiy o'quv predmeti ekanligini, fanlarni egallash uchun avvalo, ona tilida to'g'ri, ifodali, tartibli va ijodiy fikrlash zarurligini aniq namoyon etmoqda. Chunki bizning ertangi kunimiz O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek: "Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy mutaxassislarni talab etadi".

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlantirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'zlashtirish fanining o'rnini, ahamiyatini kattadir. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi.

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'zlashtirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'zlashtirish vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilmoqda.

Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'zlashtirish ularga ona tilini amaliy o'rganish demakdir.

Nutq o'zlashtirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920 yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi, so'ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutq o'rtirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'rtirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan "Ilk qadam" tayanch dasturini o'quv jarayoniga joriy etish, nutq o'rtirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'rtirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq meyyorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi.

Demak, nutq o'rtirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda nutq o'rtirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim beradi.

Nutq o'rtirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'rtirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi.

Nutq o'rtirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni usulika bolalar nutqini o'rtirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini to'zati boradi.

Nutq o'rtirish metodikasi pedagogik fan sifatida bolalar nutqini o'rtirishning pedagogik qonuniyatlari, pedagogik faoliyatning shakllanishi va talablarini o'rganadi, nutq o'rtirishning eng samarali omillari, vositalarini, usul va usullarini hozirgi zamon pedagogikasining yutuqlari, ilmiy pedagogik talablari asosida ishlab chiqadi, ta'limga, fanga tavsiya etadi. Nutq o'rtirish metodikasi ana shu pedagogik vazifadan kelib chiqqan holda pedagogikaning quyidagi asosiy savollariga javob beradi.

Nimani o'rgatish kerak? Bunda maktabgacha ta'lim ishidagi bolalarda qanday nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozimligini nazarda tutiladi. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasining ta'lim mazmunini zaruriy o'zagi hisoblangan ta'lim standarti asosida amalga oshiriladi, bunda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti bajariladi. O'quv yuklamalari meyyorga keltiriladi, tarbiyachi bolalarning o'quv faoliyati darajasi, shaxs sifatlari rivojlanishi, uning nutqiy faoliyatini nazarda tutgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi.

Qanday o'qitish kerak degan pedagogik savolga javob beradi. Buning uchun maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini o'rtirish usul va usullarini qo'llash imkoniyati, o'rnini, qo'llangan usullar samarasi nazarda tutiladi, usul va usullarni takomillashtirishga zamonaviy texnologiyani joriy etishga alohida diqqat qilinadi.

"Ta'lim to'g'risi"dagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda noan'anaviy, o'yin usulining qo'llanishi, mujassam mashg'ulotlarni tashkil etilishi, ayniqsa, hozirgi zamon yaxshi pedagogik texnologiyani ta'limda qo'llash kabilar bunga misol bo'la oladi.

Nima uchun aynan shunday o'qitish kerak? savoliga usulika fani nutq o'rtirishning nazariy va amaliy asoslangan omillari, vositalarini qo'llash zarurligini ifoda etadi.

Nutq o'zlashtirish metodikasining asosiy vazifasi tarbiyachilarni maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirishning ilmiy pedagogik asoslangan, eng samarali natija beradigan omillari, vositalari va usullarini ishlab chiqish, tarbiyachi, pedagog, ota-onalarni nutq o'zlashtirish usullari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, eng qulay usullardan foydalanish, nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Nutq o'zlashtirish metodikasining mazmuni maktabgacha ta'limda bolalar og'zaki nutqini o'zlashtirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qilishni bilishga o'rgatishdir. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar 2-3 ming so'z boyligiga ega bo'lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, ko'rganini gapirib berish, suratlariga qarab mazmun bo'yicha hikoya tuzish va uni aytib berish, asosiy tayanch so'zlar yordamida hikoya tuzishga o'rgatiladi. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi.

Bu vazifalarni bajarishda nutq o'zlashtirish metodikasi o'zining usulolohik asosi bo'lgan pedagogika fani yutuqlariga, g'oyaviy-nazariy asosi bo'lgan milliy g'oya va milliy mafko'ramiz tamoyillariga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslanadi. Shuningdek, nutq o'zlashtirish metodikasi maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirishni tashkil etishda ilg'or pedagoglarning amaliy tajribalari, tajriba-sinov natijalari, ilmiy-usuliy adabiyotlarda tavsiya etilgan fikr-muloqazalarga asoslanadi natijada yaxshi vazifalarni, muammolarni va tavsiyalarni chuqur talqin etadi, eng maqbo'lini ta'limga joriy etadi.

Maktabgacha ta'limda Bolalarning nutqini o'zlashtirishfanining vazifalari quyidagilardan iborat¹.

1. Bolalar bog'lanishli nutqini o'zlashtirish.
2. Bolalar lug'atini boyitish.
3. Nutqning grammatik tomonini tarbiyalash, so'zlarning gapda o'zaro birikishi va gap hosil qilish uchun zarur bo'lgan turli grammatik shakllar, qo'shimchalardan foydalanishni o'rgatish.
4. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, ovoz-oqangni tushunish, nutqiy nafas olishni to'g'ri bajarishni shakllantirish.
5. Maktabgacha ta'limda bolalarning nutqni tushunish, tinglash malakalarini shakllantirish, kattalarga nutq orqali murojaat qilish, dialogik va monologik nutqini o'zlashtirish, hikoya tuzishga o'rgatish.
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish, badiiy asarlar, ertak, hikoyalarni o'rganish, kitobga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, asar mazmunini tushunish, obrazlar xususiyati, nutqini ajrata bilishga o'rgatish.
7. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash.

Maktabgacha ta'limda Bolalarning nutqini o'zlashtirishfanining mazmuni quyidagilardan iborat.

¹ S.Nabiyeva. Maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirish metodikasi. O'quv dasturi. Qo'qon 2001-yil.

Nutq o'zlashtirish metodikasining maqsad vazifalari. Nutq o'zlashtirish metodikasining fan sifatida taraqqiy etishi, pedagogik fan ekanligi.

Maktabgacha ta'limda bog'lanishli nutq o'zlashtirish metodikasi.

Bolalar so'z boyligini oshirish metodikasi.

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish metodikasi.

Maktabgacha ta'lim ishidagi bolalarda nutqning tovush tomonini shakllantirish metodikasi.

Maktabgacha ta'limda badiiy adabiyot bilan tanishtirish metodikasi.

Bolalarni maktabga tayyorlashga doir ishlar metodikasi.

Maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirish ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish.

Nutq o'zlashtirishning asosiy vazifalarini aniqlash, uning mazmunini to'liq belgilash, nutq o'zlashtirish ishlarini tashkil etishni yengillashtiradi, bolalar nutqini o'zlashtirishning samarali bo'lishini ta'minlaydi, chunki eginakam oqilona ta'lim bola ongini ham, xulqini ham o'zgartiradi.

Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda: "Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"

Chunki bugungi xalqaro hayot, jamiyat taraqqiyotida har qanday salbiy faoliyat va muammolarni bartaraf etishda intellektual saloqiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, "Kuch-bilim va tafakkurda" (I.A.Karimov).

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'zlashtirishga doir barcha ishlar biz orzu etgan barkamol avlodni, komil insonni shakllantirishga qaratilishi lozim.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta'limda bolalarning nutqini o'zlashtirish fanining vazifalari nimalardan iborat?
2. Til va nutq birliklarini farqlang?
3. Kishilik jamiyatda nutqning o'rni
4. Til va nutq haqida allomalar fikri
5. Til va nutq haqida rivoyat bilasizmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

2-Mavzu: Nutq rivojlantirishning psixolingvistik va ta'limiy asoslari . Ta'lim muassasalarida nutqni rivojlantirish dasturini amalga oshirish vositalari

Reja:

1. Kichik, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'zlashtirishning vazifalari, metodlari va vositalari.
2. Dialogik va monologik nutqini o'zlashtirish, tovush tizimi, lug'at boyligini o'zlashtirishva grammatik qoidalarga amal qilishni ta'minlash.
3. Bolalar nutqini o'zlashtirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish; maktabgacha tarbiya muassasalari va oilada nutq o'zlashtirish bo'yicha metodik ish.
4. Ona tilida nutq o'zlashtirish metodikasini o'qitishning tashkiliy shakllari. Intonatsiya, temp, ritorika to'g'risida ma'lumot.
5. O'zbekiston Mustaqilligi sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, vositalari va usullari haqida tushuncha.
6. Maktabgacha ta'lim muassasasida nutqni rivojlantirish vositalari va usullari haqida ma'lumot
7. Og'zaki usullar va ularning turlari, qo'llanishi.
8. Ko'rsatmali usullar va ularni qo'llash.
9. Amaliy usullar va ulardan foydalanish.
10. O'yin usuli va uni qo'llash.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR: Ta'lim, tarbiya, bilish faoliyati, fan, shaxs, til, tafakkur, nutq, mantiqiy, ijodiy fikrlash, usul, og'zaki usul, ko'rgazmalilik usuli, amaliy usul, o'yin, ijodiy ish, evristik, o'zaro hamkorlik, kuzatish, suhbat.

Maktabgacha davrdagi bolalik lingvistlarni shunisi bilan jalb qiladiki, bunda o'rganilayotgan predmet (bola nutqi) lingvistik jihatdan ko'p qirrali va qiziqarlidir. Lingvist olimlar fikriga ko'ra, bola nutqiga oid har bir fakt kamida ikki yo'nalish bo'yicha ko'rib chiqilishi mumkin va shart: 1) «Kattalar tili» tomon borishdagi vaqtincha nutq sifatida (agarda so'z innovatsiya haqida borayotgan bo'lsa); 2) Bolaning avtonom til tizimi elementi sifatida, uning ichida bola muayyan funksional vazifaga ega bo'ladi.

Bolalar nutqini rivojlantirishning metodik masalalarini ishonchli tarzda psixologolingvistik asoslash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga xos jihatlar hisoblanadi. Rus pedagogika fanining eng yaxshi an'analari ruhida bajarilgan ushbu tadqiqotlar katta faktik materiallarga ega bo'ladi, bola nutqining ob'yektiv qonuniyatlarini aniqlaydi. F.A.Soxin va O.S.Ushakovlarning tasnifidan foydalangan holda bolalar nutqini psixologik-pedagogik tadqiq qilishni uchta yo'nalishga ajratish mumkin: tuzilmaviy (til tizimining turli tuzilmaviy darajalarini: fonetik, leksik, grammatik darajalarini shakllantirish), funksional (kommunikativ faoliyatda tilni egallash ko'nikmalarini shakllantirish); kognitiv (til va nutq hodisalarini oddiy anglashni shakllantirish).

«Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o'zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarur, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Nutqqa oid zamonaviy tadqiqotlar tizimli yondashuvga ega, bu «u yaxlit bir tizim sifatida mavjud bo'lgan ko'plab tashqi va ichki munosabatlar» (B.F.Lomov) hodisasini o'rganishda namoyon bo'ladi. Nutq-til tizimi ko'plab aloqalarga kirishadi, jumladan, ma'noni so'zga aylantiradigan hamda inson ongi va his-hayajonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan semantik axborot apparati, psixofizik hodisa (ya'ni, miya vazifasi, jismoniy tovushlar

chiqaruvchi hamda ularni qabul qiluvchi va tabaqalashtiruvchi qurilma), muloqot va ijtimoiy aloqa vositasilari ularning asosiylari hisoblanadilar.

Dastavval «nutq» tushunchasiga murojaat qilamiz. Nutqqa nisbatan ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatidagi umumiy yondashuvlarni tahlil qilish psixik rivojlanishning barcha jihatlarini tushunish uchun o'rganilishi favqulodda muhim bo'lgan ushbu hodisaning o'ta murakkabligi va ko'p qirraliligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. «Nutq o'ziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi...» (A.N.Leontyev).

Tilni turli nuqtai-nazardan tavsiflovchi mazkur yondashuvlarni taqqoslash orqali nutqning ilmiy o'rganish ob'yekti sifatidagi umumiy xususiyatlarini ajratish mumkin.

N u t q - bu tilni ishga solish jarayonidir (I.A.Zimnyaya, V.M.Solnsev). Sub'yektning nutqiy faoliyati ichki vosita va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o'z ichiga oladi.

N u t q - bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs mulkidir. U tildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasidir.

Lingvistika, psixofiziologiyaga doir ishlar zamonaviy tadqiqotlarda nutq semantikasi masalasi birinchi o'ringa qo'yilishi (T.N.Ushakova, A.M.Shaxnorovich), ushbu muammolar bo'yicha sinov ishlanmalariga qiziqish ortib borayotganligi haqida so'z yuritish imkonini beradi.

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini o'rganuvchi psixofiziologik tadqiqotlar fanning qiziqarli va istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Birinchi bo'lib ushbu muammoni N.I.Jitkin ko'tarib chiqqan. Uning qayd etishicha, «nutq mexanizmi - bu jonli, moslashuvchan va doimo takomillashib boradigan mexanizmdir».

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini tahlil qilishda olimlar bir tomondan, N.I.Jitkin konsepsiyasiga, ikkinchi tomondan, mexanizmlarni nutqiy faoliyat bosqichlari bilan taqqoslagan holda insoning nutqiy xulq-atvoriga nisbatan faoliyat nuqtai-nazaridan yondashishga oid asosiy qoidalarga asoslanadilar.

So'nggi o'n yillikda lingvistlar, psixologlar tomonidan «til qobiliyati» muammosi qizg'in muhokama qilinmoqda, bunda til qobiliyati deganda «til tizimini o'zlashtirishda ko'nikma va mahoratlarni tezlik bilan shakllantirishga yordam beradigan individual xususiyatlar» tushuniladi (F.De Sossyur, L.V.Sherba, J.Grin, M.K.Kabardov, V.I.Markova va boshq.).

Nutqni psixologik tadqiq qilishning istiqbolli vazifasi sifatida inson nutqiy qobiliyatining konseptual modelini qurish psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqiladi (T.N.Ushakova). Modelda quyidagi hodisalar o'z izohini topishi lozim: nutq yordamida mulohaza qilingan fikrni uzatish (ya'ni, nutqiy semantika muammosi), bunda grammatik qoidalardan foydalanish (ya'ni, tilni ishga tushirish), akustik kanalni ishga tushirish, muloqot va ijtimoiy aloqa sifatida nutqni qo'llash, ushbu barcha operatsiyalarni miya harakatlari bilan muvofiqlashtirgan holda bayon qilish imkoniyatining mavjudligi.

Nutqni tushunish borasida yuqorida bayon qilingan fikrlar va tavsiflardan kelib chiqqan holda «Nutqni rivojlantirish» tushunchasiga murojaat qilamiz. «Nutqni rivojlantirish - bu oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o'tishdan iborat bo'lgan o'zgarish; miqdoriy o'zgarishlarning asta-sekin yig'ilishi sifat o'zgarishlarining yuz berishiga olib keladigan jarayondir».

Bolalarga ona tilini o'rgatish va ularning nutqini rivojlantirishga doir ishlar maktabgacha tarbiya muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishlari ichida alohida o'rin tutadi. Ushbu ishning m a q s a d i quyidagilardan iborat: - bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli - og'zaki nutqni adabiy til me'yorlariga muvofiq holda egallashni, to'liq ko'rinishda esa

tushunish va faol nutqqa kirishishni o'rgatish. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshdagi

Bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash;

Lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;

Nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish;

Og'zaki (dialogik) nutqni o'rgatish;

Ravon nutqni rivojlantirish;

Badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash;

Savod o'rganishga tayyorlash.

Nutq va muloqot masalalarini, maktabgacha davrdagi bolalikning barcha yosh bosqichlarida ushbu yo'nalishdagi pedagogik ishlardan ko'zda tutilgan vazifalarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Go'daklik yoshi: 0 - 1

Bola hayoti kattalar hayoti va faoliyatiga uyg'unlashgan bo'ladi. Ayni paytda bolada unga ta'sir o'tkazish uchun biron-bir o'ziga xos insoniy vositaga mavjud bo'lmaydi. Bu mazkur rivojlanishning asosiy genetik vazifasi - kichkintoylarda katta odam bilan muloqotga kirishish qobiliyati va vositalarini shakllantirishdan iboratdir. Emotsional-erkin muloqot - ushbu yoshdagi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi.

Bolaning boshqalardan ajralib qolishi, kattalar bilan emotsional muloqotlarning yetishmasligi bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Bolaning kattalar bilan muloqotining dastlabki belgilari «jonlanish kompleksi», ya'ni bolaning kattalarga nisbatan emotsional-ijobiy munosabati ko'rinishida paydo bo'ladi. 2-2,5 oydan boshlab kichkintoy muloqotga kirishishni faol talab qila boshlaydi.

Muloqotning birinchi shakli - emotsional-erkin (vaziyat-shaxs) shaklidir. Bu boshqa odamga bo'lgan qiziqish, unga nisbatan emotsional munosabat bilan tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xos holatdir.

Muloqotning yanada rivojlangan ikkinchi shakli - ya'ni, emotsional-vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro'y beradi. Bu muloqot predmetlar orqali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning qiziqishlari atrof-dagi olamga yo'naltirilgandir. Unda yangi taassurotlarga ehtiyoj yorqin paydo bo'ladi. Bu yoshdagi rivojlantirish vazifalari quyidagilardan iborat:

Bolalar muassasalarida, oilada bolaga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan kattalarga nisbatan emotsional bog'liqlik va ishonch hissini tarbiyalash.

Unga nisbatan ijobiy diqqat-e'tiborga bo'lgan ehtiyojni qondirish.

Kichkintoyning uni o'rab turgan atrof-olamga va uning o'ziga nisbatan qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashish.

Ilk yosh: 1-3

Ilk yoshdagi ijtimoiy rivojlanish vaziyati va uning genetik vazifasi. Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib erishgan natijalari yangi ijtimoiy rivojlanish vaziyatini qurishni talab qiladi. Bu bolaning katta odam bilan birgalikdagi faoliyatiga oid vaziyatdir. Ushbu birgalikdagi faoliyat mazmuni - predmetlardan foydalanishning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini o'zlashtirishdan iborat (bola qoshiq bilan ovqatlanishni, stakandan ichishni, rasm chizishni, stulchaga o'tirish va hokazolarni o'rganadi).

Muloqot jadal rivojlanishda davom etadi, zero kattalar bilan bevosita muloqotsiz premetli faoliyat mumkin emas. Predmetli faoliyat bilan bog'liq muloqot faqat emotsionalligicha qolmaydi, u nutqiy muloqotga aylanadi. Shunday qilib, ilk yoshdagi bosh vazifa narsalardan foydalanishning insoniy usullarini o'zlashtirish va nutqni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bola narsalar bilan harakat qilgan ekan, hayotining ikkinchi yiliga kelib, ularning jismoniy (hajmi, shakli, rangi) va dinamik xususiyatlarini, masofaviy munosabatlarini (yaqin, uzoq), butun narsani qismlarga ajratish va qismlardan butun narsani yig'ishni (piramida, matreshka kabi o'yinchoqlarni qismlarga ajratadi va qayta yig'adi) o'zi uchun kashf qiladi. Biroq, bola narsalar bilan qanchalik ko'p harakat qilmasin, u baribir ularni amalda qo'llashning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini (qoshiq bilan ovqat yeyiladi, bo'tqa aralashtiriladi; sochiqqa qo'llar, yuz artiladi; qalam bilan rasm chiziladi va h.k.) mustaqil ravishda kashf qila olmaydi. Narsalarning vazifasi va ularni amalda qo'llash usullarini bolaga kattalar o'rgatadilar.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o'zlashtirish bolaning o'z faol nutqini ham talab qiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning ramziy vazifasi, ya'ni real narsalarning o'rnini almashtira olish hamda o'rin bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyatlari rivojlanadi. Biroq nutqqacha predmetli harakatlarni (aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish), juftlik o'yinlarni («ku-ku», «shar yumalatish» va boshq.) rivojlantirish va umumlashtirishga oid uzoq yo'lni bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam - bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, qiziqarli taassurotlar va borgan sayin so'z muhim ahamiyatga ega bo'lib boradigan o'yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan muloqotga kirishish, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanish haqidagi chaqiriqqa javob beradi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishadi, bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan iboraga aylantirish orqali uning «kamchiliklarini tuzatadi» (Timur dadasining mashinasini ko'rib qoldi: «Bi-bi, dada». Ona: «Dadasining mashinasi. Ketdik, dadaga boramiz»).

Bola tilni faol o'zlashtiradi. So'z ortida turgan tasavvur yagona o'xshashlikdan («lyalya» - katta va kichik qo'g'irchoq) ko'proq o'xshatishlargacha, keyinroq esa nisbatan aniq umumlashtirmalargacha («mol» so'zidan sigir, qo'y, echki va ot-eshaklarni ifodalashda foydalanishdan boshlab keyinchalik «mol» so'zini faqat sigir va buzoqchalarga nisbatan qo'llashgacha) rivojlanadi. Ayna bitta so'z yordamida ko'p obrazli munosabatlar ifodalanadi («nanna» so'zi bir vaqtning o'zida «bu non», «non so'z zahirasi 30-40 ta so'zni tashkil qiladi. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat bo'ladi. Bunda nonutqiy muloqot vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, ko'zlarning to'qnashuvi, mimikalar, imo-ishoralalar va boshq.) hamon hukmron bo'ladi. Bola maishiy vaziyatlar ma'nosini va ularda qo'llanilayotgan nutq mazmunini tushunib yetadi.

1 yoshu 6 oy - 2 yoshga kelib bolaning so'z zahirasi 200-300 tagacha o'sadi. Uning fikrlari grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki-uch tarkibli iboralardan iborat bo'ladi. Bola bilan katta yoshli odam bevosita muloqotga kirishgan vaziyatda esa nutqiy muloqot yetakchi muloqot turiga aylanadi.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib nutq rivojlanishi ko'proq keng qamrovli vazifalar doirasida, eng avvalo katta yoshli yaqin qarindoshlari va bolalar bilan munosabatga kirishish hamda ular bilan birgalikda harakat qilish (nutqning kommunikativ vazifasi), atrof-olamni bilish (nutqning intellektual vazifasi) orqali davom etadi. Bola nutqiy muloqotning asosiy shaklini - dialogik nutqni o'zlashtiradi. U tashabbus ko'rsatib fikr bildirishni, savollar berishni, javob kutishni, o'zi ham savollarga javob berishni, atrofdegilarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilishni o'rganadi.

Bola o'z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifodalash, kutilayotgan natijalarga erishish uchun so'zlardan foydalanadi. Biroq bola tomonidan foydalanilayotgan so'zlar fonetik jihatdan ancha nomukammal bo'lib, u keng qamrovli ma'nolarni anglatadi. So'z va predmetli harakatlarni qo'llash va ular bilan mos ravishda harakat qilish orqali katta yoshli odam bola bilan o'zaro bir-birini tushunishni va uning tilini boyitishni yo'lga qo'yadi.

Bola tashabbus ko'rsatish orqali muloqot sub'yekti, teng huquqli hamkor sifatida chiqadi. O'zini tushunishlariga intilish, o'z istak-xohishlarining bajarilishiga erishish bolani to'g'ri so'zlashga majbur qiladi. Ushbu yoshda tengdoshlari bilan muloqotga kirirish emotsional aloqa o'rnatish va o'z shaxsiga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi: bolalar bir-birlari bilan o'ynash jarayonida o'z harakatlarini nutq bilan sharhlab boradilar, ammo hozircha ular bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri yuzlanib, murojaat qilmaydilar.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib bolaning til muhitidagi faol yo'naltiruvchi faoliyati boshlanadi. Bu quvonchli kechinmalar ta'siri ostida vujudga keladigan tovushlar bilan turli o'yinlarda («shovqinli qo'shiqlar») va oddiy so'z ijodkorligida («golf-molflar», «o'yin-po'yin» va boshq.) ko'rinadi.

Qulay shart-sharoitlarda muloqotning uchinchi yiliga kelib bola kattalar bilan muloqotda ko'rgazmali-taassurotli vaziyatga tayanmagan holda o'z taassurotlarini nutqda ifodalay boshlaydi. Bolalar o'zlari o'qib chiqqan kitoblari, tinglagan ertaklari va o'zlarining ilgari tajribalari haqida («Mustaqillik» maydoniga, hayvonot bog'iga uyushtirilgan sayohat, Qorbobo sovg'alari va boshqalar haqidagi xotiralar) fikr bildirib boshlaydilar.

Bola hayotining ikkinchi yilida nutqiy rivojlantirish vazifalari: Nutqni tushunish. Bolaga eng oddiy, uning o'ziga tanish bo'lgan maishiy vaziyatlar, jarayonlar va o'yin vaziyatlarini ochib beruvchi oson tushuniladigan so'zlar va oddiy iboralar zahirasini kengaytirish. Odamlar, xonadagi va undan tashqaridagi narsalar, hayvonlar, o'simliklar, uy-joylar va ularning vazifasini ifodalovchi so'zlar zahirasini asta-sekin kengaytirib borish.

Old ko'makchilar va ravishlar yordamida ifoda qilinadigan vaziyatlarni tushunishni (ikkinchi yarim yillikda), buyumlar sifati, ularning hajmi va rangini belgilovchi so'zlarni tushunishni shakllantirish.

Kattalarning mazmuniga ko'ra bog'langan 2-3 ta harakatdan iborat bo'lgan topshiriqlarini diqqat bilan tinglash, tushunish va bajarishni o'rgatish («koptokni ol va menga uzat»).

Faol nutq. Barcha rejimli vaziyat jarayonlarida ishonch bildirilgan his-hayajonli muloqotni yo'lga qo'yish.

Bola imkoni bo'lgan har qanday nutqiy ko'rinishlar va vokallashuvlarning paydo bo'lishiga ko'maklashish.

Imo-ishoralar va yuz ifodasi bilan bir qatorda istak-hohishlarni ifodalash va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan so'zlardan foydalanishga; turli sabablar bilan kattalar va bolalarga murojaat qilish: savol berishga; ko'rganlarini bir nechta so'zlarda hikoya qilib berishni o'rganishga (yil oxirida) undash.

Bolalarning kishilarni ularning yoshi va jinsiga mos holda belgilovchi so'zlardan, xonadagi va xonadan tashqaridagi buyumlardan, ayrim hayvonlardan va o'simliklardan, atrofdagi kishilar va hayvonlar harakatlaridan, notirik va tirik ob'yektlardan, ayrim mehnat harakatlaridan foydalanishlari uchun tegishli holatni vujudga keltirish.

Bola hayotining uchinchi yilida nutqiy rivojlantirish vazifalari

Nutq funksiyalari va shakllari. Bolaning imkon doirasidagi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishish, kattalarning savollariga va takliflariga javob berish, o'z istak-xohishlarini, hissiyotlarini, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini qo'llab-quvvatlash; tengdoshlari ishlariga qiziqishini, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishni istashini, o'yin harakatlarini, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag'batlantirish; shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda bolaning o'ziga yaqin mavzular bo'yicha, hayvonlar hayoti, transport (shahar) haqida vaziyatdan tashqari muloqot qilishga undash.

Lug'at. Bolalarni buyumlar, ularning harakati va sifatini belgilash uchun so'zlardan foydalanishga undash.

Lug'atni so'zlar bilan - kishilar, o'simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari va ularning bolalari, o'yinchoqlarning nomlari bilan, buyumlar qimslarining nomlari

(ko'ylak yengi va yoqasi; mashina kuzovi va g'ildiriklari) bilan boyitib borish. O'yinlarda bolalarga harakatlarning so'zdagi ifodasini o'z ifoda harakatlari va o'yinchoqlar harakatlari bilan taqqoslashni o'rgatish.

Nutqning grammatik qurilishi. Bildirilgan fikrlarni grammatik rasmiylashtirishni, ya'ni so'zlarni o'zgartirish (soni, kelishigi va vaqtiga qarab), ularni gapda kelishtirish, kichraytiruvchi-erkalovchi nomlarni, tugallangan va tugallanmagan fe'llarni vujudga keltirishni o'zlashtirishga ko'maklashish.

Nutqning tovush madaniyati. Bolalarga unlilarni va oddiy undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirish.

Tovushga taqlid qilishga oid so'zlardagi tovushlar bilan mustaqil o'yinlarni va o'yin harakatlarini turli xil tovushlar bilan kuzatib borishni qo'llab-quvvatlash.

Tovush taqlidiga qarab personajlarni tanib olishni o'rgatish.

Maktabgacha davrdagi kichik yosh (3 - 5 yosh)

Ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davr nutqiy rivojlanishdagi ahamiyatiga ko'ra o'ziga xosdir: ushbu davrda bola tilga, uning tovush va mazmun jihatlariga yuqori darajada beriluvchan bo'ladi. Tilni boyitish muomalada va o'z faoliyatida vujudga keladigan yangi vazifalar bilan rag'batlantiriladi, va o'z navbatida ularning yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Ushbu yoshda nutqning asosiy irsiy vazifasi - aloqa funksiyasi, ijtimoiy aloqalar va atrof-dagilarga ta'siridan iborat. O'yin faoliyatini rivojlantirish, predmetli-manipulyativ va individual syujetli-aks ettirish o'yinlaridan birgalikda-rolli, syujetli-rolli o'yinga o'tish munosabati bilan muloqotga yangi ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa nutqiy faoliyatga qo'shilishning yangi usullariga - fikr bildirishga - bola faoliyatiga oid vaziyat tuzilmasiga olib keladi. Fikr bildirishning yangi vazifaviy turlari: o'z o'yin faoliyatini sharhlovchi, sherik xulqini tartibga soluvchi, yaqin harakatlarni rejalashtiruvchi va rollarni taqsimlovchi turlari paydo bo'ladi.

Bolalar jilmayish, kulgi, ifodali harakatlar, ko'z urishtirishlar kabi kommunikatsiya vositalaridan foydalanadilar. Bunda nutq faoliyati odatda muvofiqlashtirilgan bo'ladi. Bolalar bir-birining oldida ovoz chiqarib gapiradilar va ko'pincha qo'shnisining gapiga e'tibor bermaydilar. Tengdoshlar bilan dialogni rivojlantirish amaliy harakatlarni kelishib olish, sherik nutqiga mos tarzda javob berish va keyin esa fikrlarni kelishib olishda ifodalanadi.

Maktabgacha davrdagi kichik yoshda vaziyatga asoslangan nutqning (faqat muayyan vaziyatga nisbatan tushunarli bo'lgan) mutlaq hukmronligidan nutqning vaziyatli va matndan kelib chiquvchi (ko'rgazmali vaziyatdan alohida tarzda)vositalarini mos tarzda qo'llashga o'tish ro'y beradi.

Ikki yoshga kelib fonematik tinglash qobiliyati yangi ko'rinishda shakllanadi. Maktabgacha davrdagi kichik yoshda o'z tovush talaffuzini eshitish va unga tuzatish kirita olish, so'zdagi umumiy va turlicha tovushlarni ajrata olish (anglay olish) qobiliyati shakllanadi (3-4 ta so'zdan iborat bo'lgan qatordagi bir xil tovushlarni eshita olish, berilgan tovushli 2-3 ta so'zni tanlay olish, so'zni berilgan tovushni ta'kidlab ko'rsatgan holda talaffuz qilish, ajratib ko'rsatilgan tovushni tinglash). Besh yoshga kelib esa tovush talaffuzini o'zlashtirish asosan nihoyasiga yetadi. Talaffuzdagi faqat ayrim xatoliklar uchraydi: «sh»li so'zlar har doim ham aniq aytilmaydi; «R» L bilan yoki L bilan; «L» esa L bilan almashtiriladi.

Lug'at atrof-muhitda o'z yo'lini to'g'ri topib olishning kengayishi tufayli boyib boradi. Bola yangi maishiy buyumlar, tabiat ob'yektlari, ijtimoiy hayot ko'rinishlari bilan tanishadi va bir vaqtning o'zida ularning nomlarini bilib oladi. Lug'at nutqning turli qismlari nomlari (ot, fe'l, sifat), umumlashtiruvchi so'zlar (o'yinchoqlar, hayvonlar, sabzavotlar, mebellar va h.) va antonimlar (qarama-qarshi ma'noli so'zlar) bilan to'ldiriladi.

Bola ko'rgazmali vaziyatga qaramasdan so'zlardan foydalanishni o'rganadi. Buyumlar va hodisalar, ularning munosabati va aloqalari to'g'risida ko'p sonli savollar beradi. Fe'llarning

faollashuvi katta ahamiyat kasb etadi. Fe'llardan foydalanish nutqqa sur'at baxsh etadi, bayoniy tusdagi qisqa matnlarning tug'ilishi uchun sintaktik asos yaratadi.

Nutqning grammatik qatorini shakllantirish lug'atni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Bola har bir yangi so'zni o'zlashtirar ekan, uni to'g'ri o'zgartirishni, gapdagi boshqa so'zlarga moslashtirishni, ular o'rtasida so'z yasovchi qo'shimchalar o'rnatishni o'rganadi (o'rdak-o'rdakcha, qant-qanddon). Oddiy gap tuzilmasi takomillashadi, turli toifadagi murakkab gaplar, bevosita va bilvosita nutqlar gaplar faol qo'llaniladi. Bolalarni tilni tadqiq qilishning o'ziga xos bolalar usulidan (tovushlar, qofiyalar, so'z ijodkorligi o'yinlari) foydalangan holda o'rganadilar. So'z bilan o'ziga xos tarzda sinov o'tkazish, tovush bilan o'ynash, so'z shakllarini «ushlab ko'rish» bolalar tomonidan yasalgan, kattalar lug'atida mavjud bo'lmagan so'zlar va shakllar sonining keskin oshishiga olib keladi. Bu qonuniy jarayon butun nutq rivojining borishi uchun o'ta foydalidir.

Nutqiy rivojlanishda individual farqlar doirasi keng. Ilk rivojlanish bosqichida bolalar kattalar bilan muloqotda tashabbuskor bo'lib, ko'p savollar beradilar (nima uchun, nega), tanish ertaklarni jon deb aytib beradilar, o'yinlar to'plami, suratlar bo'yicha kichik hikoyalar to'qiydilar, bilishga ishtiyoqmand ekanliklarini namoyish etadilar, quvnoq so'zlar va qofiyalar o'ylab topadilar. Ular tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yinlarda nutqni faol qo'llaydilar.

Nisbatan sust bolalar kattalar bilan muloqotda tashabbus ko'rsatmaydilar, biroq ular kattalarning suratlarni ko'rish, yangi o'yinchoqlar bilan o'ynash, uydagi ana shunday o'yinchoqlar to'g'risidagi savollarga javob berish haqidagi takliflariga ishtiyoq bilan javob beradilar. Tengdoshlari bilan birgalikda o'yinlarni yo'lga qo'yar ekanlar, bunday bolalar ko'pincha muloqotning so'zsiz vositalarini qo'llaydilar. Ular pedagogni undash uchun tovushlar va so'zlar bilan o'ynaydilar (muammoli o'yin vaziyatlarida).

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalar nutqini rivojlantirishga doir vazifalar

Nutq vazifasi va shakli. Kattalar bilan ko'rgazmali vaziyatdan chetga chiqadigan mavzular bo'yicha muloqot qilishni yo'lga qo'yish. Tengdoshlar bilan jamoaviy o'yinlarda o'yinga kirishib ketish uchun sharoitlar yaratish. O'z nutq faolligi paydo bo'lishini rag'batlantirish: muloqotdagi sheriklarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilish; o'yin vaziyatlari, o'rin bosuvchi buyumlar, rollarni belgilashda nutqdan foydalanish. Buyumlar xususiyatlari va ularning qanday maqsadda ishlatilishiga, turmushdagi sababli aloqalar va munosabatlarga qiziqishni, qiziqtirayotgan masalaga oid savollarni va qisqa matn shaklidagi (3-4 ta gap) mulohaza va fikrlashlarni rag'batlantirish.

Lug'at. Bolalarni buyumlarning yangi nomlari, ularning sifati, umumlashtiruvchi nomlari bilan tanishtirish, qiyoslashda qarama-qarshi ma'noli (antonimlar) so'zlardan foydalanishga, ko'rgazmali vaziyatga tayanmasdan lug'atdan foydalanishga undash.

Grammatik qurilish. Yangi so'zlarni grammatik jihatdan o'zgartirishga va gapdagi so'zlar bilan kelishtirishga undash. So'zlar va ularning shakllarini mustaqil ravishda hosil qilish, nomlar o'rtasidagi rasmiy-semantik aloqalarni tadqiq qilishning o'ziga xos bolalar usuli sifatida so'z ijodkorligidan foydalanish. Narsalar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarga oid o'z tushunchalarini murakkablashtirilgan gap tuzilmasi (yoyilmagan oddiy, bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gap) orqali aks ettirish.

Nutqning tovush madaniyati. Fonematik qabul qilishni rivojlantirish (berilgan u yoki bu tovushni talaffuzda ajratish va so'zda eshitish qobiliyati). Artikulyatsiyani, unlilarni va oddiy undosh tovushlarni aniq talaffuz qilish, shovqin bilan chiquvchi va sonor tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni o'zlashtirish qobiliyatini takomillashtirish. Nutqning ifoda jihatini, nutq sur'atini, ovoz kuchini, nutqiy nafasni erkin tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish.

Maktabgacha davrdagi katta yosh (5-7 yosh)

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o'ringa o'tadi. Bola o'z tengdoshini kattalardan afzal ko'ra boshlaydi. O'yin jarayonidagi o'rtog'iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo'lgan muloqotga qaraganda ancha

mazmunliroq bo'la boshlaydi. Sherik bilan dialog - muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy faoliyat tusiga ega bo'ladi. Bolalar endi qo'shnilari e'tiborini jalb qila oladilar, o'zlari ham uning ishlari va bildirgan fikrlari bilan qiziqadilar.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqining vazifalari turlichadir. Nutqdan atrofdagilar bilan aloqa o'rnatishda, o'ziga, o'z ishlariga va kechinmalariga diqqatni jalb qilishda, bir-birini o'zaro tushunishda, sherik xulqiga, uning fikri va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishda, o'z faoliyatini tashkil etishda, o'yindagi o'z o'rtog'ining harakatlarini muvofiqlashtirishda foydalaniladi. Nutq atrof-muhit haqidagi muhim bilim manbai, tabiat, narsalar va odamlar dunyosi haqidagi tasavvurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyati vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning nutqi shuningdek, ob'yektiv aloqalarning o'ziga xos sohasi sifatida namoyon bo'ladi, u bularni so'z, tovush, qofiyalar va fikrlar bilan o'ynab turib anglaydi.

Nutqiy rivojlanishga til qobiliyatlarini - til elementlari va ular bilan operatsiyalar o'tkazish qoidalarini o'z ichiga oluvchi harakatchan, funksional tizimlarni shakllantirish sifatida qaraladi. Bu til umumlashtirmalari negizida yaratiladigan individual til tizimidir. Turli yosh bosqichlarida turli til vositalarini, ya'ni: nutq tovushlari, leksik-grammatik materiallar va boshqalarni o'zlashtirishda bolalar nutqida individual farqlar kuzatiladi. Shuningdek, bolalar nutqi shakllanishining asosiy bosqichlarida ham individual farqlar kuzatiladi.

Bolalar tili nafaqat kattalar tilining dastlabki bosqichi, balki o'z xususiy qonunlariga bo'ysunadigan to'la mustaqil tuzilmalar hamdir.

Bola nutqi - bolaga oid bo'lgan o'ziga xos submadaniyatning qimmatli ovozi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «...Tilni egallash jarayoni - bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy).

Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, «o'z-o'zidan harakatga kelishi» bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi.

Qayd etish lozimki, olimlar fikriga ko'ra, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari nafaqat nutqda, balki mutlaqo bolalar faoliyati bo'lmish o'yinlar va bolalar qiziquvchanligi jarayonida ham yorqin namoyon bo'ladi (N.N.Podyakov) hamda u kattalar rolini inkor etmaydi: kattalar bolalarning faolligiga javob beradi, bolaga e'tiborini qaratgani holda uni faoliyatga, muloqotga chorlaydi.

So'nggi yillarda nutq rivojlanishidagi ayrim bosqichlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, har bir inson butun umri mobaynida til boyliklarini egallagani holda o'z nutqini takomillashtirib boradi. Har bir yosh bosqichi uning nutqiy rivojlanishiga biron-bir yangilik olib kiradi. Nutqni egallashdagi eng muhim bosqich maktabgacha yoshga to'g'ri keladi.

Verbal bosqichgacha bo'lgan davrni (yoki tayyorgarlik bosqichini) psixologik tahlil qilish tadqiqotchilarni nutqning muhim omillari aynan ushbu davrda shakllanadi, degan xulosaga olib kelmoqda. Zero, mazkur davrda muloqotga ehtiyoj shakllanadi, atrofdagi kattalar bilan emotsional aloqa o'rnatiladi, ovoz munosabatlari, nutq-harakat apparati, fonematik tinglash qobiliyati, kattalar nutqini faol qabul qilish va tushunish rivojlanadi. Ushbu omillarning shakllanishi - rivojlanishning nutq bosqichiga o'z vaqtida o'tishning muhim shartidir.

So'nggi yillarda olingan faktlar bolaning o'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan kattalar bilan bevosita-emotsional muloqotining bolaning kattalar nutqini qanday tushuna boshlashini, uning qachon faol so'zlay boshlashini va kelgusida uning nutqi qanday sur'atda rivojlanishini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.

Ilk bolalik davri chegaralari bilan tutash bo'lgan nutqning shakllanish bosqichi turli soha olimlarini, jumladan: psixologlar, pedagoglar, lingvistlarni eng avvalo bu nutq rivojidadagi o'ziga xos alohida davrligi bilan qiziqtirib keladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, u nutqni rivojlantirish uchun sentiziv hisoblanadi; mazkur davrda nutq muloqot vositasi sifatida paydo bo'ladi va takomillashadi; uning rivojlanishi shunday tez sur'atlarda amalga oshadiki, keyin u kelgusidagi barcha ontogenez mobaynida boshqa kuzatilmaydi. K.D.Ushinskiy shunday qayd etgan edi: «bola... ikki-uch yoshida shunchalik yengil va tez o'zlashtirib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan o'qiganida ham uning yarmini ham o'zlashtira olmaydi».

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari ko'p yillar mobaynida ishlab chiqilgan. Ushbu davr tadqiqotchilarni nutq rivojlanishining nafaqat muayyan davrda, balki bolaning kelgusi rivojida ham katta rol o'ynaydigan tomonlari bilan o'ziga jalb qiladi. Nisbatan katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi nuqsonlar va kechikishlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning ko'pchiligi ko'pincha ilk bosqichlarda bola nutqi shakllanishining o'ziga xos jihatlarga bog'liq bo'ladi. **Ushbu jihatga Ye.I.Tixeyeva ham e'tiborni qaratgan. Ilk yoshlardagi bolalar nutqini o'rganish ishiga Ye.I.Tixeyeva, N.M.Shelovanov, V.I.Fradkina, N.M.Aksarina, G.M.Lyamina, V.A.Petrova kabi taniqli olimlar, amaliyotchi pedagoglar va metodistlar sezilarli hissa qo'shdilar.**

Bolaning faol nutqqa o'tishi paytida uning nutqini rivojlantirishga oid ko'p sonli tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, ushbu asosiy qoidalarni bayon qilamiz.

Ilk yoshda nutqni rivojlantirish ikki yo'nalish bo'yicha olib boriladi: bola nutqini takomillashtirish va uning o'z faol nutqini shakllantirish. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish chog'ida nutqning talaffuz jihatlari shakllantirish muddati va sur'atlaridagi individual farqlar juda sezilarli bo'ladi, odatda faol nutq 2-2,5 yoshlarga kelib paydo bo'ladi. Bolaning o'z yaqinlari bo'lgan kattalar bilan muloqotga ehtiyoji nutqni o'z vaqtida va to'g'ri rivojlantirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Kommunikativ funksiya nutqning birlamchi vazifasidir.

Ushbu davrda nutq bolani ijtimoiy tajriba bilan tanishtirish, uning faoliyatini kattalar tomonidan boshqarishning eng muhim vositasiga aylanadi, nutq ta'siri ostida barcha psixik jarayonlar qayta quriladi. Bolaning kattalar bilan amaliy hamkorligiga oid vaziyatlarda faol nutqdan foydalanishi nutq shakllanishining uchinchi bosqichiga - uni muloqot vositasi sifatida takomillashtirish davriga o'tishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Nutq ontogeneziga oid ko'p sonli tadqiqotlar aynan shu bosqichga bag'ishlangan.

90-yillarning oxiridan boshlab A.S.Vo'got'skiy, A.A.Leontyev, F.A.Soxin, A.M.Shaxnorovich, Ye.I.Negnevitskaya va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan qoidalarga tayangan holda R.M.Qodirovaning ilmiy rahbarligi ostida ona tilida va shu bilan birga chet tillardagi nutq ontogenezi qirralarini tadqiq qilish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, D.Babayeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ularda nutqni (ona tili - o'zbek tilida) rivojlantirish, N.Nurmuhammedova tomonidan ikki tillilik sharoitida bilingv bolalarda ravon nutqni (rus tilida) rivojlantirish, Sh.Sharipova tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda vaziyatli o'yinlar asosida nutqiy muloqot (rus tilida) madaniyati ko'nikmalarini tarbiyalash masalalari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan.

Tilga o'rgatish, nuqtni rivojlantirish nafaqat lingvistik sohada (bolaning til ko'nikmalarini – fonetika, leksika, grammatikani egallab olishi), balki bolalarning o'zaro hamda kattalar bilan muloqotini shakllantirish sohalarida ham ko'rib chiqilmoqda. SHundan kelib chiqqan holda, e'tiborga molik vazifa nafaqat nutq madaniyatini, balki muloqot madaniyatini ham shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Fanning turli yo'nalishlari vakillarining asarlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan kommunikatsiyaning nutqni rivojlantirishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab bermoqda.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning asosiy vazifasi bola tomonidan ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o'zlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Qayd etish lozimki, bir xil yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi bir-biridan mutlaqo farq qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish (ona tilini egallash) o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. U aqliy rivojlanish bilan uzviy bog'langan, chunki insonning rivojlangan tafakkuri – bu nutqiy, til, so'z-mantiqiy tafakkurdir. Nutqiy rivojlanish, tilni egallash va aqlni, bilishni rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tafakkurni rivojlantirish uchun tilning qanchalik muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga nutqiy (til) va intellektual rivojlanishdagi o'zaro bog'liqlikni teskari yo'nalishda – intellektdan tilga qarab ham ko'rib chiqish zarur. Bunday yondashuvni shartli ravishda intellektning til (lingvistik) funksiyasini tahlil qilish, ya'ni intellekt, fikrlash faoliyatining tilni egallashdagi ahamiyatini aniqlash sifatida ham belgilash mumkin (F.A.Soxin).

Ayniqsa, ravon nutqni, ya'ni mazmunli, mantiqiy, izchil nutqni shakllantirishda nutqiy va intellektual rivojlanish o'rtasidagi uzviy aloqa yanada aniqroq ko'rinadi. Biron-bir narsa haqida tushunarli qilib so'zlab berish uchun hikoya ob'ektini (predmet, voqeani) aniq tasavvur qilish, tahlil qila olish, asosiy xususiyat va sifatlarni tanlab olish, predmet bilan hodisalar o'rtasida turli nisbatlarni (sabab-oqibat, vaqt) o'rnatish lozim. Bundan tashqari, ushbu fikrni ifodalash uchun eng maqbul so'zlarni tanlab olishni, oddiy va qo'shma gaplarni tuzishni bilish, alohida gaplar va fikrlarning bo'laklarini bog'lash uchun turli vositalardan foydalanish zarur.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar tengdoshlar bilan muloqot asosiy o'rin egallaydigan muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liq. Bola katta yoshdagi odamdan ko'ra o'z tengdoshini afzal ko'ra boshlaydi. Birga o'ynayotgan o'rtog'iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo'lgan nutqdagiga nisbatan mazmunliroq bo'lib boradi. SHERIK bilan dialog muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy harakatlar tusiga ega bo'ladi. Bola endi qo'shnisining e'tiborini o'ziga jalb qilishni biladi, uning o'zi o'rtoqlarining ishlari va fikrlari bilan qiziqadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining funksiyalari ko'p qirralidir. Bunda bola nutqdan atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish, o'ziga, o'z ishlari va kechinmalariga e'tiborni jalb qilish, bir-birini tushunish, sherigining xulqiga, fikr va hissiyotlariga ta'sir qilish, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zining va birga o'ynayotgan o'rtoqlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun foydalanadi. Nutq atrofdagilar haqidagi bilimlarning muhim manbai, tabiat, narsalar va kishilar olami haqidagi tasavvurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyatining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bola uchun nutq ob'ektiv munosabatlarning alohida sohasi bo'lib, bola ularni so'zlar, tovushlar, qofiyalar, ma'nolar bilan o'ynash orqali anglab yetadi.

Bola o'zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'zida mavjud bo'lgan barcha vositalardan va noixtiyoriy vaziyatlarda fikr bildirishdan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralardan, mimika va harakat) va bevosita nutqning o'zidan foydalanadi. Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual portretini hosil qilgani holda o'zaro birgalikda mavjud bo'ladi.

Jaranglayotgan nutqqa bo'lgan qiziqishning shiddat bilan rivojlanishi, til borlig'ini eng oddiy anglashning shakllanishi maktabgacha katta yoshdagi bolalar erishgan eng muhim yutuq hisoblanadi. So'zga nisbatan lingvistik munosabat tovushlar, qofiyalar, mazmunlar bilan to'satdan boshlangan o'yinlar, so'z mazmuni, ularning jaranglashi va mazmuni haqidagi masalalarda ko'rinadi. Til borlig'ini anglash uning barcha – fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. Nutqqa nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga

(antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunishga), nutqning tovush madaniyatini (tovush talaffuzi, talaffuz, tinglay olish qobiliyati, ohang ifodaliligi) rivojlantirishga, nutqning grammatik to'g'riligini (morfologiya, so'z hosil qilish, sintaksisni) shakllantirishga, ravon nutqni rivojlantirishga ta'sir qiladi.

Lug'atni rivojlantirishda uni sifat jihatdan takomillashtirish dastlabki o'ringa chiqadi. Bu antonimiya (o'tkir-o'tmas, achchiq-chuchuk), sinonimiya (o'tkir - uchi o'tkirlangan, o'tkirlangan), ko'p ma'nolilik (o'tkir pichoq, achchiq qalampir, achchiq til) kabi hodisalarni tushunish va ularni nutqda faol qo'llashga taalluqlidir. Bolalar narsalar, tabiat hodisalari, insonlar qilmishlarini ko'rib, ulardagi har xillik va umumiylikni aniqlashni hamda ularni ma'nosi qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar, taqqoslashlar, aniq fe'llar, tashbeh (epitet)lar yordamida nutqda aks ettirishni o'rganadilar. So'z birikmasiga sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarga so'zlarning ko'p ma'noga egaligini tushuntiradi. Narsalarning funksiyalarini taqqoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar (hayvonlar, idish-tovoqlar, transport va boshq.) shakllanadi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ham til borlig'ini eng oddiy anglashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar **so'zlar, tovushlar, qofiyalar** bilan faol o'ynaydilar. Ular so'z jaranglagandagi umumiy va alohida jihatlarni payqay oladilar, artikulyatsion va akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni (S-SH, S-Z) farqlay oladilar, maqol, matal va tez aytyshlardagi 4-5 ta so'zda uchragan tovushlarni sezadilar.

Maktabgacha katta yoshda nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'lishi hamda rivojlanishi, aniq va to'g'ri so'zlashga intilish bilan bog'liq. To'g'ri so'zlashga intilish grammatikaning barcha sohalari – morfologiyada (aniq shakl hosil qilishda, shakllarning turli-tumanligini o'zlashtirishda: stollar, stullar, qavatlar va boshq.), so'z hosil qilishda, (non uchun – nondon, tuz uchun tuzdon va boshq.) sintaksisda (og'zaki nutq qurilmasini yengib o'tish: va bog'lovchisini ko'p marta qo'llash orqali gapni cho'zib yuborish, bitta gapda to'g'ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish va boshq.) ko'zga tashlanadi. Nutqning grammatik to'g'riligiga intilish ko'proq yetti yoshli bolalarga xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu so'z bilan mashqlar kelajakda grammatik jihatdan to'g'ri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi.

Lug'atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bog'lovchilar, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida bog'lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Turli funksiyalarni bajarish bilan bog'liq dialogli muloqot negizida rivojlangan nutqning barcha tomonlari til ongining shakllanishiga bevosita bog'liq bo'ladi va ular buning uchun bolaning kattalar bilan muayyan shakldagi muloqotiga, to'g'rirog'i, nafaqat tashqi olam va boshqa odamni bilishga qaratilgan muloqotga, balki tilning o'zini, uning tuzilishi va faoliyatini anglab yetishga qaratilgan muloqotga muhtoj bo'ladilar.

Nutqiy rivojlanishdagi individual qobiliyatlar kirishimlilikda ham, til hamda ravon nutqni o'zlashtirish sur'atlarida ham ifodalanadi. Ko'pchilik bolalar o'z harakatlarini sharhlashni, atrofdagilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilishni yoqtiradilar. SHu bilan birga bunda ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning amaliy faoliyatiga mos kelmaydi, natijada bunday sergap bola ish bajarishda guruhdagi boshqa bolalardan ortda qoladi. Unchalik kirishimli bo'lmagan bolalar kam gapiradilar, biroq odatda amaliy vazifalarni boshqalardan ko'ra tezroq va to'g'rirog' bajaradilar.

Ravon nutqning vujudga kelish muddatlari va uning mahsuldorligi ham farqlanishi mumkin. Nutqiy rivojlanishning ilk xilida bolaning maxsus o'qitilmasidan turib hikoya qilishi 4-5 yoshlarda paydo bo'ladi. Bolalar sehrli ertaklarni bir-birlariga aytib beradilar, o'yinchoqlar yordamida o'zlari ham original voqealarni to'qiydilar. Agarda bola yetti yoshda an'anaviy tanish

ertakni mustaqil aytib bera olsa, o'yinchoqlar, suratlar qaraib kichik og'zaki hikoya tuza olsa – bu normal holat hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining yuqori darajada rivojlanganligi quyidagilarni nazarda tutadi:

- bola ona tilining barcha tovushlarini va tovush birikmalarini to'g'ri, ya'ni adabiy til normalariga muvofiq holda talaffuz qiladi; ovozni ko'tarishni (pasaytirishni) biladi; aniq talaffuzga ega; fonematik qabul qilish va nutqni tinglash qobiliyati rivojlangan; nutqdagi xatoliklarni sezadi va ularni tuzatadi; maishiy leksikaga ega, mebel, poyabzal, kiyim, daraxtlarni anglatuvchi umumlashtiruvchi so'zlarni, narsalarning ayrim detallari va qismlarini biladi; antonimlar, otlarga ta'riflarni to'g'ri tanlay oladi; otdan sifat yasay oladi (yog'och-yog'ochdan ishlangan va boshq.); barcha ranglarni aytib bera oladi; turli kasb kishilarining (vrach, oshpaz va boshq.), hayvonlarning harakatlarini ko'rsatib bera oladi (vovullaydi, miyovlaydi, pishqiradi va boshq.); nutqda ravish, sifatdosh, ravishdoshlarni qo'llaydi;

- nutqda barcha kundalik so'zlarni, ayrim turlanmaydigan otlarni (pianino, metro, palto) to'g'ri qo'llaydi; otlarni sonda, kelishikda sifat bilan moslashtira oladi; qaratqich kelishik shaklini to'g'ri qo'llaydi; old qo'shimcha, suffiks, qo'shimchalar yordamida so'zlar hosil qiladi; nutqda oddiy (yoyiq, yig'iq), qo'shma (bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gap) gaplardan, har xil turlanadigan fe'llardan (xohlashmoqda, yugurishmoqda, uxlashmoqda, va boshq.) foydalanadi; hikoyani mustaqil aytib bera oladi; matn mazmunini voqealar ketma-ketligiga rioya qilgan holda ortiqcha pauzalarsiz aytib beradi; nutqda ifoda vositalaridan foydalanadi; asosiy qismlarni o'zga darajali qismlar bilan bog'lay oladi; narsalarni mustaqil bayon qiladi, o'z shaxsiy hayotida ro'y bergan voqealar (hodisalar) haqida hikoya qilib bera oladi.

Fikr bildirish hajmi va nutqning tezkorligi nafaqat bolaning faol lug'at zahirasi, balki uning «o'ta tezkor sintez» qila olish qobiliyatini ham tavsiflaydi. Bundan tashqari, fikr bildirish hajmi uning ob'ekt bilan tanishlik darajasidan dalolat bermoqda. Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik chuqur va xilma-xil bo'lsa, ularning fikr bildirishlari ham shunchalik keng bo'ladi.

Bolalarning nutqida oddiy gaplar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ba'zan ESA, VA kabi bog'lovchilar ishtirokida tuzilgan va ba'zan esa ularsiz bog'langan qo'shma gaplar ham uchray turadi. Bildirish xususiyatiga ko'ra bolalar hikoyalardagi aksariyat gaplar darak gaplardir, nutq bir xil ohangda jaranglaydi, ko'pincha so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'liqlik, ya'ni: gapdagi so'zlar tartibi, inversiya buzilishiga oid xatoliklarga yo'l qo'yiladi.

Bolalar fikrlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning nutqida aniq ma'noli otlar ustunlik qiladi. Nutqni otlar bilan boyitish quyidagi sharoitlar ta'sirida ro'y beradi: bola o'zi uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan narsalarninggina nomlarini o'zlashtirib olmoqda; unga tanish narsalar va shaxslar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bolalar nutqida sifatdosh va ravishdosh uchramaydi. Ularning nutqida qiyosiy daraja mavjud emas. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning ravon nutqini tadqiq etish natijalari

Ertakni aytib berishda bolalar tomonidan qo'llanilayotgan so'zlar soni 19 dan 65 tagacha yetdi; gaplar soni esa 5-14 ni tashkil qildi. Bolalar nutqda asosan, oddiy, ikki tarkibli gaplardan foydalanishdi.

O'zbek tilidagi nutq madaniyatini tadqiq etish natijalari shundan dalolat bermoqdaki, o'rganilayotgan bolalarning artikulyatsiya apparatlarida biron-bir organik kamchiliklar qayd etilmagan (qisqa qizilo'ngach, dislaliya – tinglash qobiliyati normal bo'lgani holda tovushlarni talaffuz qilishning buzilishi va boshq.). 3 nafar bolada yashirin rinolaliya (ovoz tembri va tovush talaffuz qilishning buzilishi) – ya'ni, poliplar tufayli burundan havo o'tmasligi aniqlangan; 4 nafar bolada disfoniya – haddan tashqari baland ovozda gapirish (qo'shiq aytish, o'yin paytida qichqirish) natijasidagi zo'riqish sababli ovozning zaiflashib, xirillab qolishi kuzatildi.

Bolalar nutqida nutqiy nafas olishning shakllanmaganligi, bolalarning nutqiy nafas

chiqarishni so'zlanayotgan jumlaning uzunligiga mos ravishda taqsimlay olmaganliklari tufayli pauzalar kuzatildi.

Leksik buzilishlar shundan iborat bo'ldiki, bolalar kerakli so'zlar o'rniga ushbu vaziyatga mos kelmaydigan boshqa so'zlarni qo'lladilar.

Grammatika sohasidagi kamchiliklar shundan iborat bo'ldiki, bolalar gapda so'zlarni noto'g'ri joylashtirdilar (inversiya).

Axborot tusiga ko'ra bolalar hikoyalariidagi aksariyat gaplar darak gaplardan iborat bo'ldi. Hikoya tuzishda bolalar nutqi bir xil ohangda jarangladi (monoton), savol yoki undov ovoz bilan ta'kidlanmaydi,

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ona (o'zbek) tilidagi ravon nutqini tadqiq qilish natijalari og'zaki matnni so'zlab berishda jumlar hajmi 4-10 ta gap doirasida, yoki 13-45 ta so'zdan iborat bo'lishini aniqlash imkonini berdi. Eng ko'p jumlar hajmi ertakni aytib berish, suratga qarab hikoya tuzish hissasiga to'g'ri keladi. Bolalarning hikoyalari leksik jihatdan juda sayoz bo'lib, ularda sifat, fe'lining sifatdash va ravishdash shakllari mavjud emas. Hikoyalar faqat sanab berish bilan cheklanildi, ularda obrazli so'zlar va ifodalar mavjud emas, o'z fikrlarini bayon etishda ketma-ketlikka rioya qilinmaydi. Bolalarning nutqi ifodali emas.

Hikoya qilish chog'ida bolalar tomonidan qo'llanilgan so'zlar 13-45 tani, gaplar esa 4-10 tani tashkil qildi. Bolalar asosan oddiy, ikki tarkibli gaplardan foydalandilar.

Jaranglayotgan nutqqa bo'lgan qiziqishning jadal rivojlanishi, til borlig'ini uning barcha – fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oluvchi oddiy anglashning shakllanishi maktabgacha katta yoshdagi bolalar erishgan eng muhim yutuqlardir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va zamonaviy talablar darajasiga kutarish, yaxshi pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy etish, yosh avlodning yosh xususiyati, bilish faoliyati, tafakkuri, iqtidorini nazarda tutgan holda ta'lim-tarbiya berish, davlat dasturlari, ta'limning davlat meyorlariga mos bo'lgan bilim va malakalarni shakllantirishga imkoniyat yaratdi, har bir fuqaroga O'zbekiston Konstitutsiyasining 29-moddasida ifoda etilgan "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga egadir", 41-moddasida ifoda etilgan "Har kim bilim olish huquqiga egadir, bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi" degan huquqidan to'la foydalanish imkoniyatini berdi, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi.

Demak, yurtimizda har bir inson o'z extiyojidan kelib chiqqan holda qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish imkoniga ega bo'ldi. Chunki Milliy istiklol mafko'rasining asosiy g'oyalaridan biri yoshlarning bilimli, aql-zakovatli bo'lishlari, har qanday sharoitda o'z bilimi, aql zakovatiga ishongan holda faoliyat ko'rsatishi, o'z ona tilida aniq, ravon, erkin fikrlashini shakllantirishdan iboratdir. Shu bois Mo'staqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab o'z ilmi, malakasi, teran fikri bilan Respublikamizning iqtisodiy, ma'naviy extiyojiga mos keladigan, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga ahamiyat berildi.

Ayniqsa, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yoshlar tarbiyasiga, ularning ilm-ma'rifatli bo'lishlariga alohida e'tibor berdilar, ularni mo'staqil fikrlashga o'rgatish zarurligini; "...tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qo'llikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi²", - deb ta'kidladilar.

Demak, Mo'staqil Respublikamizda yoshlarga ta'lim berish, fanlarni o'rgatish bilan birga ularni mo'staqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi belgalandi. Chunki fikrlash til va nutq,

² I. Karimov «Barkamol avlod orzusi» T.1999.

tafakkur bilan bohlik bo'lib, fikrlash jarayonida faraz, mo'shoxada, isbotlash, tahlil qilish paydo bo'ladi, aqliy faoliyat, ongli harakat, aql-zakovat, maqsad sari intilish, tafakkur shakllanadi, fikr esa nutq orqali ifoda etiladi.

Maktabgacha ta'limdan boshlab bolalar og'zaki nutqini o'zlashtirish, ularni ko'rgan, eshitgan voqea hodisalari haqida eslab qolganlarini erkin fikrlash orqali bayon qilish, o'z fikrini tushunarli, tartibli ifodalash bilan birga ijodiy fikr yuritishga ham o'rgatiladi, chunki nutq tufayli inson o'zaro fikrlasgadi, muloqot qiladi.

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'zlashtirish, ularni fikrlashga, uni boshqalarga tushunarli bayon etishga o'rgatish, bolalarning "obrazli, mantiqiy, ijodiy, abstrakt" fikrlashini shakllantirish va maktabga tayyorlashda nutq o'zlashtirish usullarining o'rni, mohiyati muhimdir. Shuning uchun har bir tarbiyachi pedagogning ta'lim usullarini puxta bilishi, bolalar nutqini rivojlantirishning eng qulay usullarini tanlashi va qo'llay olishi, uni takomillashtirishi lozim.

Bu esa tarbiyachi pedagogdan bolalarni yoshlikdan u yoki bu narsa, buyum, o'yinchoq, voqea-hodisa haqida fikr yuritish, fikrni bayon qilish uchun mos so'z tanlashi, fikrni nutq orqali ifodalashi kabi murakkab jarayonni boshqarishning eng qulay yo'li, usulini tanlay bilishni talab etadi.

Demak, ta'lim usuli va usullarining mazmuni tarbiyachi-pedagog va tarbiyalanuvchilarning tartibga keltirilgan o'zaro munosabati, nutqiy faoliyati shakli bo'lib, ta'limda maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi.

O'shbu jihatdan karaganda ta'lim usullari ko'p qirrali bo'lib, uni bir necha tomondan o'rganish, turkumga ajratish mumkin. Shuning uchun ham pedagogikada ta'lim usullari, ta'lim mazmuni, uni o'zlashtirish, o'quv jarayoni maqsadi, o'quv faoliyatini boshqarish, bilish faoliyati xususiyatlari, aqliy faoliyatni tashkil etish kabi jihatdan turkumga ajratiladi.

Yu.K.Babanskiy o'quvchi faoliyati nuqtai-nazaridan usullarni quyidagi turlarga bo'ladi.

o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullari;

o'quv-biluv faoliyatini rahbatlantirish usullari;

o'quv-biluv faoliyati samaradorligini nazorat qilish usullari;

O.R.Roziqov, S.Yu.Ogaev, M.M.Mahmudova, B.R.Adizovlar ta'lim usullarini ikki guruhga ajratadi; **o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish usullari;** o'zaro ta'sir natijasini nazorat qilish usullari. Har bir guruhdagi usullar o'z navbatida yana bir necha guruhlarga ajratiladi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirishning asosiy maqsadi bolalarning nutqni egallashga intilishi va qizikishini uyhotish, ona tilini o'rgatish, ya'ni "Fikrni ona tilida aniq, ravon, lo'nda ifoda etish" malakalarini shakllantirish, shaxs sifatlarini rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

O'shbu vazifani bajarish bolalarning obrazli, mantiqiy fikrlashi, bilishiga qizikishi, o'quv faoliyatini kuzatishi, eshitishi va eslab qolishi, ko'rib eslab qolishini rivojlantiradi.

Shuning uchun ham tarbiyachi nutq o'zlashtirish usullarini puxta bilishi, mashg'ulotlar jarayonida qo'llashi, eng qulay usullarni tanlashi va takomillashtirishi lozim.

Pedagogik adabiyotlarda nutq o'zlashtirish usullari quyidagicha tasnif qilinadi;

1. So'z yoki og'zaki usullar.
2. Ko'rsatmalilik usullari.
3. Amaliy usullar.
4. O'yin usuli.

Og'zaki usulda bolalarga beriladigan bilim, malaka va kunikma tarbiyachining so'zi, tushuntirishi, hikoya qilishi, tasvirlashi, suhbatlashishi, o'qib berishi, yoddan aytishi orqali

shakllantiriladi. Jumladan, tarbiyachi og'zaki usullardan foydalanganda aniq, lo'nda fikrlashi, gap va so'zlarni aniq oxanah va tuxamlarga rioya qilgan holda bayon qilishi, savollarni aniq, kiska tuzishi va unga bolalarning oson javob topishini uylashi lozim.

Og'zaki usullar o'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish, suhbat, savol-javob usuli kabilardir. O'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish usullari badiiy adabiyot, bolalar folklori materiallarini o'rgatish, she'ni ed oldirishda qo'llaniladi³.

Suhbat usuli maktabgacha ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan, eng qulay usul bo'lib, berilgan mavzu yo'zasidan savol-javob tarzidagi muloqotdir, ya'ni bolalar bilim, malaka, kunikmani tarbiyachi savollariga javob berish orqali egallaydilar. Shuning uchun tarbiyachi savollarni kiska, aniq, bolalarga tushunarli bo'lishi, ularning javob bera olish malakasini nazarda tutgan holda tuzishi, zarur urinlarda yullovchi savollar berishi, bolalarning ham savollarga aniq, lo'nda javob bera olishiga erishishi lozim.

Suhbat o'yinchoq, buyum, narsa, rasm, bolalar ko'rgan-kuzatgan, o'zlari ishtirok etgan voqea-hodisalar, tevarak-atrof, tabiat, badiiy asar mazmuni yo'zasidan bo'lishi mumkin.

Suhbat usuli qadimiy usullardan bo'lib, XI-XII asrda yashagan buyuk alloma, komo'siy olim Burxoniddin Zarnuji o'qitishning ko'satmali tajriba, amaliy (mashq, takrorlash) nazorat usullari bilan birga, so'zlash o'slublari, bilimni bayon qilish, hikoya qilish, savol-javob o'slubini ham tavsiya etadi.

Buyuk olim va mutafakkir Ibn Sino ham suhbat, tushuntirish usullarini eng qulay usul deb biladi.

Suhbat usulining afzalligi shundaki, mashg'ulotda bolalar ham, tarbiyachi ham faollik ko'rsatadi, o'zaro hamkorlik bir-birini qo'llab-kuvvatlash, o'zaro fikrlash, bilimni nazorat qilish, uni to'zatishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi, bolalar ta'limda sub'ekt va ob'ekt sifatida ishtirok etadilar.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda ta'limning so'z usullaridan maktabgacha ta'limda foydalanish imkoniyatlari yanada kengaydi. O'qib berish, hikoya qilib berish usullaridan barcha guruhlarda foydalanilmokda, ertak, hikoya, she'r, erkalama, ko'shik, lapar, aytishuv, tez aytish, topishmok kabi bolalar adabiyoti va halk og'zaki ijodi namunalari yuqorida aytilgan usullarda o'rgatilib, bolalarning nutqi, nutq madaniyati, badiiy nutq malakalari shakllantirilmokda.

Og'zaki usullardan foydalanish bolalarni maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, og'zaki usullar bolalarni kattalar bilan nutqiy muloqotga kirisga olishi, ularning savollarga javob berishi, hozirjavoblik, nutqni ifodali, tartibli bayon etish, nutq meyorlariga rioya qilishni o'rgatish bilan birga ularni maktabga tayyorlash, xotirasini shakllantirishga xizmat qiladi, ya'ni eshitib eslab qolish xotirasini rivojlantiradi.

Ko'rsatmalilik usuli. Bu usulda o'quv materiali ko'rgazma, texnik vositalar, turli didaktik materiallar asosida o'rgatiladi. Ko'rsatmalilik usuli maktabgacha ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biridir. **Ko'rsatmalilik usulida** bolalar narsa, buyum, voqea hodisani ko'rish, kuzatish, rasm-illyo'stratsiyalarni ko'rish, sayr ekskursiyadagi kuzatishlari asosida mulohaza qiladi, fikrlaydi va nutqni bayon qiladi. Bu usulda guruh xonasidagi buyumlar, tabiat burcagahidagi o'simlik, hul va hayvonlar, ko'shlarni kuzatishi, kattalar mexnati, tevarak - atrofda voqea-hodisalar ko'rgazmalilik

³ F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.

vositasi bo'lib xizmat qiladi, bolalar bilim, malaka va kunikmalarni ko'rish orqali idrok qiladilar va eslab qoladilar, ularda ko'rib eslab qolish xotirasi rivojlanadi.

Ko'rgazmali vositalar bolalarning tasavvuri, fikrlashi va nutqining tartibli, izchil bo'lishini, umumlashtirish, bilimlarni tartibga solish imkoniyatini shakllantiradi, fikrlash faoliyatlarini mustahkamlaydi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, Ko'rsatmalilik usuli og'zaki usullar bilan birgalikda qo'llaniladi, ya'ni ko'rgazma yo'zasidan bolalarga savollar berish, ko'rgazma mazmunini tushuntirish, hikoya tuzish kabi faoliyatlar og'zaki usulda amalga oshiriladi, natijada bolalar bilim va malaka, nutqni ham ko'rish, ham eshitish, tarbiyachi savollariga javob berish orqali egallab boradi.

Ko'rsatmalilik usulida kuzatish muhim ahamiyatga ega, chunki kuzatish bir necha usullar bilan bohlik bo'lib, rasm-illyo'stratsiyalarni kuzatish, diafilm, teleKo'rsatuvlarni ko'rish, ularni tasvirlash, u xakda mazmunli hikoya tuzish yoki suhbat uyo'shtirish orqali bolalar nutqini o'zlashtirish mumkin. Bu jarayonda tarbiyachining tushuntirishi, savollar berishi, rasm-illyustratsiyalarni izoxlab berishi, bolalarning ko'rib tushunish va eslab qolishi bilan birga eshitib eslab qolishini ta'minlaydi.

Ko'rsatmalilik usulida quyidagilarga diqqat qilish lozim.

1. Rasm-illyustratsiya, narsa, buyum va boshqa ko'rgazmalar-ning bolalar yoshiga mos bo'lishi, ranglarning aniq yorqin bo'lishiga ahamiyat berish.
2. Ko'rgazmali vositalarning asosiy mazmunini ifodalovchi jihatlarga bolalar diqqatini jalb etish.
3. Ko'rsatmali vositalarni bolalarning kuzatishlari uchun imkoniyat berish va har bir yosh guruh uchun bu usulda olib boriladigan ishlarni aniq belhilab olish.

Maktabgacha ta'limning kichik guruhidan boshlab ko'rgazmali usulni qo'llash orqali bolalar nutqi o'zlashtiriladi, bunda kiyoslash, ajratish, tuplash, umumlashtirish va tasvirlashga alohida ahamiyat beriladi.

Katta va tayyorlov guruhlarda ko'rgazmali vositalar asosida tasviriy, ijodiy hikoya tuzishga alohida e'tibor beriladi, bunda quyidagigga ish olib boriladi.

Rasm, buyum ko'rgazmani bolalar ko'zlatadilar; tarbiyachi tomonidan ko'rgazma yo'zasidan suhbat uyo'shtiriladi; ko'rgazma asosida tasviriy va ijodiy hikoyalar to'zilatadi, bolalar hikoyani so'zlab beradilar; hikoya mazmuni, gap qurilishi, bolalarning hikoyani bayon qilish qobiliyatlari, nutqni egallashi, nutq odobiga rioya qilishiga ko'ra tahlil qilinadi.

Amaliy usul. Amaliy usulning asosiy maqsadi bolalar egallagan bilimlarni amalda qo'llash, nutqiy malakasini oshirishdan iboratdir. Amaliy usulda bilim va malakalar mashq qilish, topshirikni mo'staqil bajarish orqali, oddiy tajribalar o'tkazish kabi amaliy faoliyatda egallanadi, amaliy usulda ko'rgazmalilik usuli, so'z usuli birgalikda qo'llaniladi va nutq o'zlashtirishning barcha vazifalarini bajarishda ishtirok etadi, bolalar mo'staqil ravishda tapshiriklarni bajaradi, nutq uchun so'z va gapni o'zi amaliy izlanish orqali topadi; bolalarning xonani tozalashi, kitoblarni tartibga keltirishi, o'yinchoqlarni ta'mirlashi, tabiat burcagahidagi mexnat faoliyatida amaliy usuldan foydalaniladi, ular o'zi bajargan ishlarni so'z va gap orqali ifodalaydilar.

Amaliy usulda bolalarning xotirasi, tafakkuri, ishlash qobiliyati shakllanadi, mo'staqil faoliyat, mo'staqil fikrlashi o'sadi, tevarak-atrofdagi hayotga, kattalar mexnatiga qiziqishlari, qadriyatlarimizga xurmati ortib boradi, kasb egallashga doir amaliy malakalari shakllanadi.

O'yin usuli. Maktabgacha ta'limda o'yin usulining bir necha turi kenh qo'llaniladi, ya'ni didaktik o'yin, so'z o'yini, harakatli o'yin, rolli, mazmunli o'yin kabilar nutq o'zlashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "Bu uyda kim yashaydi", "Nima o'zgardi", "Kimga nima kerak", "O'yinchoqlar

dukoni”, “Hikoyani kim davom ettiradi” kabi didaktik o'yinlar bolalarning so'z boyligini oshirish, bohlanishli nutqini o'zlashtirish, nutqning tovo'sh madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktabgacha ta'limda bolalar ta'lim tarbiyasining davlat talabi meyoriga ko'ra katta va tayyorlov guruhda bolalar faoliyatining 80 foizi o'yin mashg'ulotlaridan iborat bo'lmohi lozim. Bu talabni bajarish uchun maktabgacha ta'limda bolalarning so'z boyligini oshirish, nutq tovo'shlarini aniq eshitishi va talaffo'z qilishini, ularni so'zlardan ajrata bilishini, bolalarning fikrlash kunikmasini, urtoklarini tushunishi, urtoklari va tarbiyachi bilan hamkorlik qilishini shakllantirish uchun nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida o'yin usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, bolalar xotirasini rivojlantirishga, aqliy faoliyatini shakllantirishga doir didaktik va rivojlantiruvchi o'yinlarga keng ahamiyat berilmokda. Chunki o'yin bolaning narsalar olami, odamlar faoliyati va munosabatini anhlash negizidir.

Har bir tarbiyachi nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida bolalar bilish faoliyati, nutqiy rivojlanishini hisobga olgan holda usullarni tanlash va qillab qo'llashga, mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga, bolalar nutqiy malaka va kunikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi eng qulay usullarni qo'llashga ahamiyat berishi lozim.

Shuningdek, nutq o'zlashtirish usullarining har biri nutq o'zlashtirish maqsadi vazifasiga ko'ra bir necha usullarni o'z ichiga oldi. Masalan, suhbat usuli kuzatish, ko'rish kabi usullarni o'z ichiga olsa, o'qib berish usuli to'liq o'qib berish, kiskartirib o'qish, tanlab o'qib berish kabi usullarni o'z ichiga oladi.

Nutq o'zlashtirish usullari usul kabi so'z-og'zaki usullar, Ko'rsatmali va o'yin usullarga ham bo'linadi. Og'zaki usullarda nutq namunasini berish, tasvirlash, tavsiflash, aytilganlarni takrorlash, Ko'rsatma berish, yullanma berish kabi usullar qo'llanilsa, Ko'rsatmalilik usulida rasmni, o'yinchoqni Ko'rsatish va harakatlantirish, tushuntirish, boshlab berish kabi usullar muhimdir.

Nutq o'zlashtirish usullari yuqoridagi kabi bolalarning, yosh xususiyati, mashg'ulot turiga ko'ra tanlanadi va qo'llaniladi.

Respublikamizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida “Uchinchi mingyillikning bolasi” tayanch dasturini amalga oshirish, bolalarni intellektual jihatdan maktabga tayyorlashda nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun eng qulay usullarni qo'llash orqali bolalar nutqini o'zlashtirish, mashg'ulotda o'zaro bir-birini tushunish, qo'llab quvvatlash, hamkorlik asosida bilimlarni egallashga e'tibor berish zamon talabidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Nutqni rivojlantirish tadrijiyligi
2. Nutqni ifodalash usullari
3. Mashg'ulot jarayonida va mashg'ulotdan tashqari nutqni o'zlashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlar
4. Ko'rsatmali va amaliy usullarga oid misollar keltirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., “O'qituvchi”1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyazbon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., “O'qituvchi” 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., “Sano-standart”, 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqlol”, 2006.

3-mavzu: K.D.Ushinskiy-bolalarga ona tilini birlamchi o'rgatish asoschisi, KD.Ushinskiy-bolalarga ona tilini birlamchi o'qitish maqsadlari, ushbu maqsadlarni amalga oshirish mohiyati va mazmuni haqida

Reja:

1. Ushinskiyning pedagogika tizimining asosiy yetakchi g'oyasi haqida
2. Ushinskiy ona tili – xalqonalikning eng yaxshi ifodasi sifatida
3. Ona tilining bola psixologik kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai.

Tayanch tushuncha va iboralar: maktabgacha pedagogika, So'z imkoniyatlari fikrni ifodalash, ona tilining boyliklari, til qonunlari, "Ona tili" kitobi, farzand tarbiyasi, kitobxonlik.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1870) rus burjua-demokratik pedagogikasi, xususan, maktabgacha pedagogikaning asoschisi hisoblanadi. U bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti masalalarini boshlang'ich ta'lim muammosi bilan bog'lagan.

Ushinskiy pedagogika tizimining asosiy yetakchi g'oyasi xalqona tarbiya g'oyasi hisoblanadi, bunda har bir xalqning u yashaydigan va mehnat qiladigan tarixiy, tabiiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xosligini tushunadi.

Ushinskiy ona tili – xalqonalikning eng yaxshi ifodasini tan olgan hamda ta'lim va tarbiya ishida ona tili asosiy o'rinni egallashi lozim, deb hisoblagan.

Ona tilining bola psixologik kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai ekanligi haqidagi ta'limot K.D.Ushinskiy pedagogik ta'limotida markaziy o'rinlardan birini egallaydi hamda uning metodik tizimini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

K.D.Ushinskiy ona tilini birlamchi o'qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan:

I. So'z imkoniyatlarini rivojlantirish;

II. Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, bolalarni "ona tilining boyliklarini egallash"ga jalb qilish.

III. Til qonunlarini, uning grammatikasini o'rganish⁴.

Ona tilini birlamchi o'qitishning barcha uch maqsadiga ketma-ket emas, balki bir vaqtning o'zida erishiladi.

1861 yilda Ushinskiyning "Ona tili" nomli asari chop etildi. Mazkur asar Konstantin Dmitriyevichning bolalarga birlamchi savod o'rgatish va ularni tarbiyalash bilan bog'liq pedagogik g'oyalari hamda estetik tamoyillarining o'ziga xos yakunlari va amaliy ifodasi bo'ldi. O'qish kitobining butun mazmuni muayyan tizim bo'yicha berilgan. "Ona tili" kitobi nafaqat bilimlar qomusi, balki badiiy ensiklopediya ham hisoblanadi.

Uning birinchi qismidan 19 ta ertak, 30 ta topishmoq, 123 ta maqol va matal, 13 ta tez aytish, 14 ta qo'shiq, 14 ta turli shoirlar she'rlari hamda Ushinskiyning o'zi yozgan 43 ta hikoyasi joy olgan.

Ushinskiy birinchi bor kitoblarida bolalarni o'z zamondoshlari – Tyutchev, Nekrasov, Ogarev, Turgenev asarlari, shuningdek Karamzin, Lermontov, Knyazev asarlari bilan tanishtirdi.

Kitobni tuzish tartibi quyidagicha: u bolaning tabiat, kishilar va jamiyat haqidagi bilimlarini kengaytirgani va chuqurlashtirgani holda uni tanish narsadan notanish narsalar tomon boshlab boradi.

⁴ F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.

Ushinskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan: tovushning tushunarsizligi, lug'at boyligining yetarli emasligini, o'zaro bog'liqlikning yo'qligini alohida ta'kidlagan. U bolalar bilan mashg'ulot o'tkazishning turli shakllarini taklif qilgan:

- bolalar hayotidan hikoyalar;
- bolaga narsalarning xususiyatlarini ko'rishda, 6 yoshga kelib esa narsalar juftligini bir-biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni topishda yordam beruvchi mashqlar;
- suratlar asosida hikoya qilish, bu bolalarga savollarga javob berish, so'ngra esa ravon, tushunarli va erkin hikoya qilib berishni o'rgatadi;
- bolalarni o'qish va yozishga tayyorlovchi amaliy mashqlar.

K.D.Ushinskiyning til va uning bolani ruxan shakllanishida tutgan o'rni haqidagi ta'limoti nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fan sifatida ajratish uchun muhim ahamiyatga egadir.

1. Til haqida, uning vujudga kelishi haqidagi ta'limot – metodikaning nazariy asoslari ishlab chiqildi; uning har bir odamning rivojlanishida tutgan o'rni ko'rsatib berildi, bu esa bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda ona tilining yetakchi o'rin tutishini asoslash imkonini berdi.

2. Bolalar nutqini rivojlantirish ishi maktab ta'limiga qadar boshlanadigan ish sifatida alohida bo'limga ajratilgan.

3. Bolalar nutqini rivojlantirishga bolaning uzoq davom etadigan ona tili, uning mazmuni va shakllarini o'zlashtirish jarayoni sifatida qaralgan. Ushbu murakkab jarayon ustoz tomonidan to'g'ri va faol rahbarlik qilishni talab qiladi.

4. Ona tilini o'qitish jarayoniga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari: ona tilini birlamchi o'qitishning maqsadlari; ularni amalga oshirish mazmuni va shakli; nutqni rivojlantirishda ko'rgazmaviylikning ahamiyati ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.

5. Bola nutqini uning fikrlashi, ma'naviy va estetik xis-tuyg'ulari bilan birgalikda rivojlantirishni ta'minlovchi ish usullari ko'rsatib berilgan.

K.D.Ushinskiy shunday yozadi; «Bola ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'ragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar harakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hech qanday tarixchi bunga qodir emas; U bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hech bir estetika bunga qodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, adbatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas»⁵. Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafaqat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafaqat ko'p narsani o'rgatadigan, balki hayron qolarli darajada oson, qandaydir yetishib bo'lmaydigan metod asosida o'qitadigan»⁶ o'qituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, pedagog har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yoshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

⁵ Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. Т., М., 1974, 148-бет.

⁶ Уша жойда, 149-бет.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. So'z imkoniyatlari nimalardan iborat?
2. K.D.Ushinskiyning til va uning bolani ruxan shakllanishida tutgan o'rni haqidagi ta'limoti
3. "Ona tili" kitobi haqida nimalarni bilasiz?
4. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

7. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
8. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
9. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
10. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
11. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
12. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
13. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

4-mavzu: Ye.N.Vodovozovaning nutqni rivojlantirish uslubiyatiga qo'shgan hissasi

Reja:

Ye.N.Vodovozovaning nutqni rivojlantirish uslubiyatiga qo'shgan hissasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va jamiyatda tarbiyalash tizimining asosiga xalqonalikning kiritilishi

1. Xulosa

Tayanch so'z va iboralar: tarbiya, Ye.N.Vodovozova, nutqni rivojlantirish, farzand tarbiyasi, xalq pedagogikasi, oila, jamiyat, maktabgacha tarbiya masalalari.

Vodovozova maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va jamiyatda tarbiyalash tizimining asosiga xalqonalikni kiritdi. U bolalarni ilk yoshidan boshlab tarbiyalash tizimi xalq nutqi, xalq qo'shiqlari, topishmoqlari, ertaklari va o'yinlaridan foydalanish asosiga qurilishi lozim, deb hisoblagan. Bu tizim bolalarda xalqiga, vataniga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalashni ta'minlashi lozim.

Yelizaveta Nikolayevna Vodovozova (1844-1923) K.D.Ushinskiyning shogirdi va izdoshi bo'lib, u maktabgacha tarbiya masalalarini nazariy ishlab chiqishga sezilarli hissa qo'shgan. Ayni paytda ye.N.Vodovozova taniqli bolalar yozuvchisi bo'lib, o'z davrida Rossiya tabiati hamda g'arbiy yevropa davlatlari xalqlari hayotidan hikoya qiluvchi ajoyib ocherklar va hikoyalar yozgan.

1871 yilda uning maktabgacha pedagogikaga oid asosiy asari – “Bolalarda ong paydo bo'lgan paytdan boshlab to 8 yoshgacha ularni aqlan rivojlantirish” nomli kitobi chop etildi. Vodovozova tarbiyaning bosh maqsadi – “Insonni – insoniylik g'oyalarini o'zida jo qilgan bo'lajak ijtimoiy arbob va o'z vatani fuqarosini tarbiyalashdan iborat⁷”, deb hisoblagan.

Vodovozova maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va jamiyatda tarbiyalash tizimining asosiga xalqonalikni kiritdi. U bolalarni ilk yoshidan boshlab tarbiyalash tizimi xalq nutqi, xalq qo'shiqlari, topishmoqlari, ertaklari va o'yinlaridan foydalanish asosiga qurilishi lozim, deb hisoblagan. Bu tizim bolalarda xalqiga, vataniga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalashni ta'minlashi lozim.

E.N.Vodovozovaning ulkan xizmatlari shundaki, u bolalarda ona tilini rivojlantirish dasturini va bolalarni tarbiyalashda rus folkloridan foydalanish metodikasini ishlab chiqdi. Vodovozova ham xuddi K.D.Ushinskiy kabi ertaklarni, ayniqsa xalq ertaklarini himoya qilib chiqqan. ye.N.Vodovozovaning fikriga ko'ra ertak bolalarning boy kuzatishlari va bilimlariga tayanadi, u bolalar xayolini rivojlantiradi, bolalar nutqining boyishiga ko'maklashadi, ularga xalq iboralarini, nutq oborotlarini oddiy va jonli obrazlarni yod saqlab qolishga yordam beradi, ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ko'maklashadi.

Biz «til» so'zini qo'llaganimizda ikki narsani – til va nutqni nazarda tutamiz. Bu farqlashlarni lingvistika faniga birinchi bo'lib shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur kiritdi va u tilni nutqqa qarshi qo'ydi, bu lingvistika fanining keyingi rivoji uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, chunki «biz til va nutqni ajratish orqali ijtimoiyatni individuallikdan ajratamiz»⁸. Boshqacha qilib aytganda, bu aloxida bir odam tomonidan aloxida holatda amalga

⁷ F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqlol”, 2006.

⁸ Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. М., 1933, 38-бет.

o'shish bilan biron-bir tilda so'zlayotgan barcha odamlar tomonidan birgalikda amalga oshirish o'rtasidagi farqlashdir.

Biz uchun bu farqlashlar juda muhimdir, chunki biz til xaqida xam (bola nutqi tildan tashqaridagi tizim bilan belgilangan) va nutq xaqida xam (bola nutqiy faoliyatni, ya'ni til tizimining mavjud bo'lish qoidalari va usullari) so'z yuritimiz. O'tgan davr mobaynida boshqacha tushunchalar tizimini joriy etishga bir necha bor harakat qilingan. Bulardan biri sovet davrining taniqli tilshunosi L.V.SHerbaga tegishlidir. U nutqiy uyushishni (individdning psixofiziologik uyushuvi), til tizimini («barchalar asosida» chiqariladigan qoidalarni umumlashtirish) nazariyada («muayyan davrda u yoki bu ijtimoiy gurux hayotida ro'y bergan so'zlash va tushunish hodisalari»⁹) xamda til materialini (nutqiy faoliyatni) ajratdi. So'nggi holatni L.V.SHerba «so'zlash va tushunish hodisalarining umumiyliigi» deb ataydi. L.V.SHerbaning ushbu uch a'zoli tizimi sovet davri lingvisti A.A.Leontev tomonidan takomillashtirilgan.

A.A.Leontev «tilga qobiliyat»ni – til tizimining ushbu tilda so'zlayotgan inson ongida aks etishini, «til jarayoni»ni, ya'ni tilga qobiliyatni amalga oshirish vositasi bo'lgan nutqning o'zini, va «til standartini»ni – tilni individdan tashqarida mavjud bo'ladigan tizim sifatida ajratgan¹⁰.

Shunday qilib, u tomonidan til va nutqni farqlashdan tashqari odam ongida mavjud bo'lgan xamda unga tildan foydalanish, so'zlash va aytilgan so'zlarni tushunish (tilga qobiliyat) imkonini beruvchi bir narsani xam ajratib ko'rsatgan. Bu – nutqiy faoliyatni ta'minlash mexanizmidir.

Odatda nutqiy faoliyat to'rtga ajratiladi: o'qish, yozish, tinglash, so'zlash. Ular o'zaro juft holatda bog'lanadi va til tizimini amalga oshirishning ikki shakli – og'zaki va yozma shakli orqali belgilanadi.

Tildan foydalanish insonning psixologik faoliyati bilan mos ravishda uyg'unlashadi. Til uning faoliyatiga «qo'shimcha» emas.

Til eng bevosita tarzda fikrlash bilan bog'liqdir. Aslida tilning o'zi fikrlash qurolidir. Fikrlash jarayoni doimo tilda kuzatib boriladi, ammo uning natijasi til shakliga o'tkazilishi va shu tufayli kelgusi avlodlarga yetib borishi mumkin.

Til aqliy faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. Rejalashtirish jarayonida tilning yana bir muhim vazifasi – insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo'ladi. Til insoniyatning o'tmishi mobaynidagi butun tajribasini to'plash va bir joyga jamlash, insonni ushbu tajriba natijasida ishlab chiqilgan me'yorlarga bo'ysundirishga yordam beradi. Biz o'z o'tmishimizda, bugungi kunimizda ko'rgan, va xattoki kelgusida ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsalarning barchasi bizga til orqali keladi. Insonning xulq-atvorini boshqaradigan narsalarning barchasiga, jumladan dunyoqarash, axloqiy va estetik ideallar, madaniy me'yorlarga til va nutqiy muloqot orqali erishiladi.

Inson butun hayoti mobaynida borliqni anglash jarayonida ishtirok etadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj ko'p jixatdan til orqali qondiriladi.

Bola atrofni o'rab turgan borliqni qabul qilish va anglash uchun tarqoq predmetlardan foydalana olmaydi, u ahamiyatga molik jixatlarni (kublar, mashinalar va x.k.) ajratib ko'rsatgan holda ob'ektlar, toifalarni birlashtira boshlaydi va oxir-oqibatda belgilarni umumlashtirish natijasida so'z bilan ifodalanadigan tushunchalar paydo bo'ladi. Biron-bir tushunchaning, xox u maishiy bulsin, xox ilmiy bo'lsin, uning so'z qobig'isiz yashashi qiyin. SHu tufayli biz o'z bilimlarimizni tilimizda qayd etishimiz, ularni boshqa odamlarga yetkazishimiz va til orqali yangi bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin. Amerikalik olim CH. Pirs shunday qayd etadi, «til shunday bir narsaki, biz uni bilish orqali yanada ko'proq narsalarni bilib olamiz». SHunday

⁹ Щерба Л.В. О тройном аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. Языковая система и речевая деятельность. Л., 364.

¹⁰ Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. М., 1965.

qilib, tilning boshqa yana bir muhim vazifasi ko'zga tashlanmoqda, ya'ni: til insonning bilish qurolidir.

Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy extiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan muloqotga extiyojmandlik, «emotsional muloqotga extiyojmandlik»dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu extiyoj tufayli dastlab til paydo bo'lgan. Muloqotga extiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so'zlashni o'rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganini tushunishi va o'zi xam so'zlashi lozim. Bu o'rinda «tilning uch sifati» (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) xaqida so'z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko'plab dolzarb amaliy vazifalarni xal etishda ulkan ahamiyatga egadir. Ushbu vazifalarning ayrimlari bevosita tilning yuqorida sanab o'tilgan vazifalaridan kelib chiqadi – til yordamida insoniy tajribani aniqroq qayd etish, til yordamida ifoda etilgan madaniy me'yorlar insonning xulq-atvoriga yanada kuchliroq va mustahkamroq tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatishi uchun, kishilarning o'zaro muloqoti (masalan, ijtimoiy munosabatlar sohasida) yanada muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun tilni tadqiq qilish zarur.

Bundan tashqari, xal etilishi til muammolarini tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa amaliy vazifalar xam mavjud. Psixologiya, boshqaruv nazariyasi, ijtimoiy fanlar sohasida ish olib borayotgan olimlar qator lingvistik vazifalarga duch keladilar. Xususan, psixologik jarayonlarni tadqiq qilish dastlabki nutqiy jarayonlarni xam tadqiq qilishni ko'zda tutadi. Tushunchalarni rivojlantirish, aqliy va amaliy vazifalarni xal etish qay tarzda davom etmoqda, bola tashqi muxitga (moddiy va ijtimoiy) muxitga qanday moslashmoqda – bu savollarga javoblar nafaqat predmetli harakatlarni, balki nutqning o'zini xam o'rganishni ko'zda tutadi.

Muloqot va boshqaruv – lingvistikaning boshqa bir ulkan sohasi hisoblanadi. Targ'ibot va tashviqot (u bevosita muloqot tarzida yoki ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishidan qat'iy nazar) moxiyatan insonning psixologik olamiga ta'sir ko'rsatish uchun tildan foydalanish shaklidir. Til orqali ta'sir ko'rsatish samarali bo'lishi uchun ushbu ta'sirning mexanizmlarini, o'ziga xos nutqiy mexanizmlarni bilish zarur.

Sof lingvistik vazifalar masalan samolyot, kosmik kema va xokazolar bilan so'z orqali aloqa qilishni amalga oshirayotgan operator faoliyatini oqilona tashkil etish paytida yuzaga keladi.

Lingvistikani qo'llashning yana bir sohasi – tibbiyotning miyaning yaralanishi, jaroxat olishi yoki unga shikast yetishi natijasida nutqdagi buzilishlarni o'rganuvchi soha bo'lmish afaziologiyadir. Bu nuqsonlarni aniqlash va davolash ko'p jixatdan bemorning nutqida aynan qanday o'zgarishlar yuz berganiga bog'liq bo'ladi. Bu anomal nutq uchun maxsus til xususiyatlarini shakllantirish zarurati paydo bo'ladi, o'z-o'zidan ushbu o'rinda vrach-afaziolog lingvistning yordamiga muxtoj bo'ladi.

Nutqdagi buzilishlar – inson axvolini baxolashda til parametrlari yordam berishi mumkin bo'lgan yagona holat emas. Ayrim vaziyatlarda (psixologik zo'riqish, siqilish paytida) yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan odamlarda fiziologik parametrlar bo'yicha ayrim nuqsonlar sezilmaydi. Ammo ularning nutqi mutaxassis bo'lmagan odam tushunishi qiyin bo'lgan darajada o'zgaradi. Ko'pincha faqat til mezonlarigina bunday holat yuz berishidan dalolat berishi mumkin.

YUqorida qayd etilganidek, til bevosita bilish jarayonlari bilan bog'liq va bundan tashqari tilning rivojlanish darajasi umumiy aqliy rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. SHuning uchun bola nutqini maxsus tadqiq qilish psixologik rivojlanishdagi nuqsonlarni yoki rivojlanish sekinlashganini aniqlashda yordam berishi mumkin, xattoki bu usul boshqa tekshiruv turlari bunday nuqsonlarni aniqlamagan taqdirda xam qo'l kelishi mumkin.

Lingvistika kriminalistga xam katta yordam berishi mumkin. Masalan, jinoyatchini uning nutqining bir parchasi (yozma yoki og'zaki) bo'yicha topish, ko'rsatmalarining yolg'onligini fosh

qilish (ataylab yolg'on so'zlaganda inson nutqi mutuxassis bo'lmagan odam sezmaydigan darajada o'zgaradi) mumkin.

Va nixoyat, lingvistikaning an'anaviy amaliy vazifasi – chet tillarga o'qitishdir. Tilni batafsil tavsiflamasdan turib undagi nutqni o'rganish mumkin emas.

Zamonaviy lingvistika – bu nafaqat mavjud tillarni bayon qilish, balki tilga faoliyat sifatida yondashish, so'zlayotgan odamni o'rganish xamdir.

«Tilda insonni va uni o'rab turgan olamni bilish uchun bitmas-tuganmas xamda xali qo'l tegmagan imkoniyatlar mavjud, biroq unga tilni tavsiflash orqali emas, balki uni o'rganish vositasida erishish mumkin» (V.A.Zveginsev).

Tilni faoliyat sifatida tadqiq qilish bilan tez rivojlanib borayotgan fan – psixolingvistika shug'ullanmoqda, u hozirda muxandislik, aviatsiya va kosmik psixologiyaning ajralmas qismiga aylandi, undan turli nutqiy nuqsonlarni aniqlash va davolashda foydalaniladi, u bolalar nutqidagi muammolarni o'rganishda, sud psixologiyasi va kriminalistikada katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishdan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga extiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi.

Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro xamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan extiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sabablari ularning muloqot faoliyatlarining asosini extiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgaraganligidadir.

Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jixat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (xamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jixati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jixati u yoki bu darajada va o'z xolicha bolalarning kommunikativ vazifani xal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida – uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan extiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bola nutqning yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jixatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning psixologik shakllanishida nutqning xal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar xaqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli xam aloxida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir.

Vodovozovanning “Aqliy rivojlanish” nomli asarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun imkon doirasidagi va foydali bo'lgan xalq ertaklari turkumi bayon qilingan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ye.N.Vodovozovanning nutqni rivojlantirish uslubiyatiga qo'shgan hissasi haqida gapiring?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va jamiyatda tarbiyalash tizimining asosiga xalqonalikning kiritilishi ?
3. E.N.Vodovozovanning bolalarda ona tilini rivojlantirish borasidagi ulkan xizmatlari?
4. Tildan foydalanish insonning psixologik faoliyati bilan mos ravishda uyg'unlashadi. Til uning faoliyatiga «qo'shimcha» emas-jumlasini izohlang
5. «Tilda insonni va uni o'rab turgan olamni bilish uchun bitmas-tuganmas xamda xali qo'l tegmagan imkoniyatlar mavjud, biroq unga tilni tavsiflash orqali emas, balki uni o'rganish vositasida erishish mumkin» V.A.Zveginsvning ushbu fikrlarini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., “O'qituvchi”1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., “O'qituvchi” 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., “Sano-standart”, 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqlol”, 2006.
7. Babayeva D.R. “Nutq o'zlashtirish metodikasi” T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

5-Mavzu: Bolalarda ravon nutqni shakllantirishning nazariy asoslari. Ravon nutq tushunchasi, mazmuni, mohiyat, uni rivojlantirish vazifalari, turlari

Reja:

1. Ravon nutq haqida umumiy tushuncha
2. Bolalarga dialogik nutqni o'rgatish
3. Ravon nutqning bola hayotidagi amaliy ahamiyati

Tayanch tushuncha va iboralar: ravon nutq, dialogik matn, muloqot, ta'lim jarayoni, ta'lim va tarbiya, nutq shakllari, nutq vazifalari, nutq turlari.

Ravon nutq – bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi.

Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur.

Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallaro, ichkiindividual va umuminsoniy. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi –individuallaro – kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq – monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbat sifatida chiqadi.

2-vazifa – ichkiindividual – bu yerda nutq ko'plab psixologik jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tiniq anglash darajasiga ko'targani hamda shaxsga psixologik jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3-vazifasi – umuminsoniy – bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda – bu grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida maktabgacha bosqichdagi turli davrlarda bolalarda o'zgarib turadigan kommunikativ tushunchadagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Kommunikativ tushunchadagi omillar deganda muloqotni yo'lga qo'yishga, muloqotga ehtiyoj tug'ilishiga ta'sir qiladigan omillar tushuniladi.

Dastlabki yetti yilda bolada kattalar bilan muloqotga ehtiyoj rivojlanishining 4 ta bosqichi ro'y beradi.

I-bosqich – vaziyatli-shaxsli muloqot (bola hayotining birinchi yarim yilida) – kattalarning diqqat-e'tiboriga va yaxshi muomalasiga bo'lgan ehtiyoj;

II-bosqich – vaziyatli-amaliy muloqot (6 oydan boshlab 2 yil 6 oygacha) – kattalar bilan hamkorlikka va ularning ishtirokiga muhtojlik;

III-bosqich – vaziyatsiz-bilish muloqoti (2 yil 6 oydan boshlab 4 yoshgacha) – kattalarning hurmat bilan munosabatda bo'lishlariga muhtojlik. U bolaning jismoniy olamdagi

his qilinmaydigan o'zaro bog'liqliklarini aniqlashga yo'naltirilgan bilish faoliyati doirasida vujudga keladi. Ushbu davrda bola kattalar bilan o'ziga xos "nazariy" hamkorlikka intiladi, u predmetli olamning hodisa va voqealarini birgalikda muhokama qilishda ifodalanadi.

IV-bosqich – vaziyatsiz-shaxs muloqoti (4 yoshdan 7 yoshgacha) – kattalar bilan o'zaro bir-birini tushunishga va kattalarning g'amxo'rlik ko'rsatishiga ehtiyojmandlik. Bu ehtiyoj bolaning insoniy munosabatlar olamiga qiziqishi tufayli vujudga kelib, u bolaning munosabatlar qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bola kattalar bilan qarashlar umumiylikiga erishishga intiladi va bu unga ulardan o'z xatti-harakatlarida qo'llanma sifatida foydalanish imkonini beradi.

SHunday qilib, nutqni rivojlantirish jarayoniga muloqot vositasi, ya'ni kommunikativ faoliyat sifatida qarash kerak. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi bolaning muloqot va umumiy hayot faoliyati ehtiyojlariga bog'liqdir.

Nutqqa u bajaradigan tahlil vazifasidan kelib chiqib yondashish, nutqning eng avvalo bolaning atrofdagi odamlar bilan muloqot vositasi sifatida paydo bo'lishini tushunib yetishga olib keladi. O'z-o'zidan, agarda bolaning muloqoti nutqqa jon bag'ishlasa, uning rivojlanish sur'ati va muddati bolalarda muloqot faoliyati turli yosh bosqichlarida qanday yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liqdir, ushbu vazifalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bolaning ong va erkinlikning yuqori darajasiga qanchalik tez erishishi, bolaning unga turli sohalaridagi bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradigan yozma nutqni qancha muddatda o'zlashtira olishiga bog'liqdir.

Matndan kelib chiqadigan ravon nutqni shakllantirish, uning vazifalarini o'zgartirish bola faoliyatining murakkablashayotgani oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqoti mazmuni, sharti va shakllariga bog'liqdir. Nutq vazifasi fikrlashning rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanadi, ular bola til vositasida ifodalaydigan mazmun bilan uzluksiz ravishda bog'liq bo'ladi.

Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish – maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblanadi, maktabgacha yoshining nihoyasiga kelib bola kattalarga xos bo'lgan og'zaki nutqning asosiy shakllarini egallashi, ya'ni ravon nutqning ikki shakli – dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart.

Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi – bolalarda ravon so'zlashuv nutqni (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllanadi.

4 yoshdan boshlab bolalarga suhbatda ishtirok etishni, uzuq-yuluq fikrlardan nisbatan keng, izchil fikrlarga o'tish, savollar berishni o'rgatish zarur; 5-6 yoshli bolalar uzoq davom etadigan maqsadli suhbatlarga qodir bo'ladilar. Bolalarga qo'yilgan savollarga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda qisqa yoki keng qilib aniq javob berish, suhbatdoshi so'zini bo'lmasdan diqqat bilan tinglash, ularning javoblarini to'ldirish, tuzatishlar kiritish, o'zlari ham savollar berishni o'rgatish zarur va x.k. Ayni paytda shaxsning nutqiy sifatlarini tarbiyalash – bolalarga kirishimlilik, xushmuomalalik, xushyorlik, bosiqlik kabi sifatlarini shakllantirish; suhbat jarayonida nutqiy muloqot madaniyati ko'nikmalarini, tengdoshlar jamoasi oldida chiqish qila olish qobiliyati va telefon orqali suhbatlashish madaniyatini tarbiyalash lozim.

Monologik nutqning o'quv vazifasi mustaqilligi, tugallanganligi, qismlari o'rtasida mantiqiy aloqasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan ravon fikr bildirishni o'rgatishdan

iboratdir, ya'ni bu –qisman (nutqiy) ko'nikmalar va ona tilida fikr bildirish uchun zarur bo'lgan murakkab qobiliyatlarni shakllantirish demakdir.

Ravon nutq ustidagi ishlarning asosiy rivojlantiruvchi vazifasi – bolalarning fikrlashini, o'z fikrini til vositalari yordamida aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, nutqiy fikrlashga oid vazifalarni mustaqil ijodiy xal etish ko'nikmalarini shakllantirish, xotirani, tasavvurni faollashtirishdan iborat.

Vazifalarni muvaffaqiyatli xal etish uchun pedagog o'ziga quyidagilarni aniq tasavvur qilish zarur: 1 – ravon nutqni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan til materiali; 2 – ushbu materialda shakllantirish mumkin bo'lgan nutqiy ko'nikmalar va maxoratlar umumiyligi; 3 – ushbu ko'nikmalarni “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida mashq qilishning ketma-ketligi.

Monologik nutq hikoya qilishni o'rgatish jarayonida shakllanadi – bolalar og'zaki monologik nutqning ikki toifasini – qayta hikoya qilish va hikoya qilish, tavsiflovchi hikoyalar, bayon qiluvchi hikoyalar, isbotlovchi hikoyalarni o'zlashtirib oladilar.

YUqorida qayd etilganidek, ravon nutqning ikki turi mavjud: dialogik (dialog) va monologik (monolog) nutq.

Dialog – ikki yoki bir necha kishining o'zaro suhbat. Suhbat maqsadi odatda biron narsa haqida so'rash va javob olish, biron-bir harakatga undashdan iborat.

Monolog – bir shaxsning ravon nutqi. Monologning maqsadi – biron-bir fakt haqida xabar berishdir.

Dialog o'z uslubiga ko'ra asosan, og'zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi.

Dialogik ravon nutqda ko'pincha noto'liq gaplardan foydalaniladi, tushirib qoldirilgan gap a'zolarini so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib tushunib oladi, va og'zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (qolip) to'liq gaplardan ko'proq foydalaniladi: “u kelmay qo'ya olmaydi” – ya'ni u albatta keladi.

Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda qo'llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uchratishlari sababli uni ancha oson o'zlashtirib oladilar.

Biron-bir narsani tavsiflashda, biron narsa haqida bayon qilishda yoki mulohaza yuritishda nutqning monologik shaklidan foydalaniladi. Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi.

Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin.

Bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladigan faktlar haqidagi xabarlar **tavsif** deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar **bayon qilish** deyiladi. Sabab-oqibatli munosabatlarda bo'lgan faktlar haqidagi xabarlar esa **mulohaza** deb yuritiladi.

Bolalar monologik nutqni tushunib yetishlari va o'z xabarlarini uzatish maqsadida uni o'zlashtirib olishlari uchun ular tegishli sintaktik tuzilmani o'zlashtirib olishlari lozim. Hamonki, bola oddiy keng tarqalgan gaplarni tuzishni o'rganib ololmas ekan, uning nutqi ravon bo'lishi mumkin. Oqibatda – monologik nutqning turli toifalarini o'qitish – bu eng avvalo grammatika – sintaksisga o'qitishdir.

Bolalarga monologik nutqni o'qitish qiyin, chunki bolalar kundalik hayotda va kattalar nutqida ham monologik nutqni kamdan-kam xollarda eshitadilar: bolalar bilan so'zlashganda kattalar ko'pincha dialog shaklidan foydalanadilar.

Monologik nutqning dastlabki ko'nikmalarini maktabgacha bo'lgan davrda rivojlantirish lozim, chunki maktabda monologni o'qitishni boshlash uchun kech bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogi bolalarga monolog-tavsif, bayon qilish, muloxaza yuritishni o'rgatish uchun maqbul didaktik material topishga harakat qilishi zarur.

Ilk yoshda bola ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan luqmalar, so'ngra esa ertaklar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo'ladi. Ravon nutqdan til elementlari – tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplarni ajratib olar ekan, bola ravon matnda har bir til elementining o'rmini eslab qoladi, bu esa ilk yoshdan boshlab nutqdan oldingi mashqlar boshlanadigan til sezgilarini rivojlantirish jarayonini tashkil etadi.

Bolalarga dialogik nutqni o'rgatish

Dialog – suhbat bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg'ulotlarda.

Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitish, talaffuzga oid, grammatik ko'nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.

Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); maktabgacha ta'lim muassasasida kun mobaynida bola pedagog va boshqa bolalar bilan erkin muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi.

Agarda maktabda suhbat bilimlarni yetkazish vositasi sifatida qo'llanilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda qo'shimcha ijobiy hodisa ko'rinishida qabul qilinadi, maktabgacha ta'lim muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Biroq, nutq albatta borliq hodisasini aks ettirishi, kodlashtirishi bois maktabgacha ta'lim muassasasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi.

Suhbatlar mavzusi va mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda "Ilk qadam" tayanch dasturi bilan belgilanadi.

Suhbat ta'lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhi bilan (yoki alohida har bir bola bilan) aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan so'zlashuvidir. Maktabgacha ta'lim muassasasida takrorlovchi, umumlashtiruvchi va nazorat-tekshiruv suhbatlaridan foydalaniladi.

Takrorlovchi va umumlashtiruvchi suhbatlarda tarbiyachi turli usullar yordamida bolalarga ko'rgan narsalarni taxlil qilish, taqqoslash, to'ldirish, chuqurlashtirish usullarini o'rgatadi, bolalardagi mavjud bilimlarni tizimlashtiradi, ularni muayyan xulosalarga kelishga undaydi.

Nazorat-tekshiruv suhbatlari pedagog tomonidan biron-bir o'tilgan mavzu bo'yicha bolalarning bilimlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Pedagog savollar yordamida bolalarning biron-bir mavzuni o'tish jarayonida olgan bilimlari darajasini aniqlashi mumkin.

Bolalar bilan ishlash jarayonida pedagog tayyorlanmagan va tayyorlangan suhbatdan foydalanadi.

Tayyorlanmagan suhbat (buni faqat bolalarga nisbatgina qo'llash mumkin, chunki bolalar ular bilan nimalar haqida so'zlashishlarini, nimalarga diqqat-e'tiborini jalb qilishlarini bilmaydilar) rejimli jarayonlarni o'tkazishda, bolalar faoliyatining har xil turlarida: o'yinlarda, mexnatda tashkil etilishi mumkin. Tarbiyachi esa har qanday muloqot turiga tayyor turishi zarur. Zero, buning uchun u kasbiy ta'lim olgan bilimlarining muhim qismlaridan birini bolalar bilan suhbatlashish tashkil etadi. SHuning uchun tarbiyachi bolalar bilan shunday so'zlashishi lozimki, toki u o'z nutqi bilan bolalarga ona tilini o'rgatsin.

Nutqiy muloqotga bo'lgan zarurat tufayli to'satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o'zining til sezgisiga ishongani holda o'z nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasi)ni tayyorlamaydi, ammo u har bir suhbatning mavzusiga tayyorgarlik ko'rishi shart.

Tayyorlangan suhbat deb nomlanishining sababi shuki, bunda tarbiyachi mashg'ulotdan oldin (mashg'ulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday vaziyatda qoldiradiki, bunda ularning diqqat-e'tibori bo'lajak suhbat mavzusi bo'ladigan atrof-olamdagi hodisalarga jalb qilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungacha tanish bo'lishi lozim.

Suhbatni tashkil qilish, uning tuzilmasi mavzu va mazmunga, bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Har bir suhbatda quyidagi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kirish (boshlash); 2) asosiy qism (suhbat mavzusini rivojlantirish); 3) nihoyasiga yetish.

Kirish maqsadi bolalarning diqqat-e'tiborini suhbat mavzusiga jalb qilish, ularda suhbatda ishtirok etish xohishini paydo qilish, bolalar xotirasida ilgari olingan taassurotlarni, imkoni boricha obrazli va emotsional taassurotlarni jonlantirishdan iborat.

Tarbiyachi suhbatlashadigan narsa (hodisa) haqida taklif qilgan topishmoq ham kirish bo'lishi mumkin. Suhbatni tegishli mavzudagi she'ri o'qish yoki suratlarni ko'rish bilan boshlash mumkin. Suhbat boshlanishida tarbiyachi bo'lajak suhbat mavzusini (maqsadini) shakllantiradi, uning muhimligini asoslaydi, uni tanlash sabablarini bolalarga tushuntirib beradi.

Asosiy qism maqsadi – bolalar ko'rgan narsalarni esga olish, qo'shimcha bilimlarni taxlil qilish, ularni tushuntirish hisobiga chuqurlashtirish, qo'shimcha bilimlarni ma'lum qilish, ularni bir tizimga keltirish va mustahkamlashdan iborat.

Suhbatning asosiy qismi mikromavzu yoki bosqichlarga ajratilishi mumkin. Har bir bosqich – bir mavzuni bo'g'in qismlari bo'yicha taxlil qilishdan iboratdir. Pedagog mashg'ulotga tayyorlanar ekan, barcha bosqichlarni belgilab olishi lozim.

Suhbat mavzusini rivojlantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, tarbiyachi imkoni boricha bolalarning mazkur mavzudan chetga chiqishlarining oldini olishi zarur (ba'zan ortiqcha faktlarni aniqlash uchun undan chekinish mumkin, biroq so'ngra yana asosiy suhbat mavzusiga qaytish darkor). Tarbiyachi suhbat rejasini oldindan belgilab oladi. Tarbiyachining qo'lida reja bo'lsa, bolalar qanchalik mavzudan chetga chiqmasinlar, u ilgarigi savol o'z ahamiyatini yo'qotdi, deb hisoblagan paytda o'z rejasidagi navbatdagi savolni berish orqali ularni yana mavzuga qaytarish mumkin.

Pedagog unutmazligi lozim, bolalarning fikrlash xususiyati shundayki, ular suhbat mavzusini oson unutadilar, har bir mayda-chuyda narsaga chalg'iyveradilar. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik tezroq chalg'iydi, xozirgina o'zi aytgan narsalarni tezlik bilan unutadi va boshqa mavzuga o'tadi.

Mashg'ulot – suhbat bolalarda mantiqiy fikrlash, boshlagan mavzuni oxiriga yetkazish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar biladigan narsalar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni xabar qilish suhbat asosiy qismining zarur elementi hisoblanadi. Bu bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Tarbiyachining qisqa va aniq axboroti suhbatni aniq maqsadni ko'zlagan holda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Suhbat topishmoq, she'rlar va tarbiyachining tegishli suratga oid sharxlari bilan tugallanishi mumkin, ammo u ko'pincha pedagogning ushbu suhbatdan kelib chiqqan holda bolalarning axloq borasida o'rganishi lozim bo'lgan jihatlar haqidagi mantiqiy xulosasi bilan yakunlanadi. Ayni paytda pedogog o'z xulosasida o'zi suhbat mobaynida bolalarga o'rgatishi lozim bo'lgan so'zlar, so'z shakllari va sintaktik tuzilmalarni qo'llashi lozim.

Suhbatni shunday uyushtirish lozimki, toki unda barcha bolalar ishtirok etsinlar. Agarda bola faqat tarbiyachining boshqa bolalar bilan suhbatini tinglab o'tirsa va o'zi ushbu fikr bildirishlarda ishtirok etmasa, bu bola "suhbatlashishni" mashq qilmaydi va uning suhbatdagi ishtiroki faqat nomigagina bo'ladi, xolos.

Suhbatni cheklangan sondagi bolalar (6-8 nafar bola) bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Agarda guruhda 25-30 ta bola bo'lsa, bu holda mashg'ulotni bolalarni uchta-to'rtta kichik guruhga bo'lgan holda o'tkazish zarur. Belgilangan vaqtdan oshib ketmaslik uchun har bir kichik guruh bilan suhbat davomiyligini qisqartirish mumkin. Biroq har bir bolaning nafaqat tinglab o'tirishini, balki so'zlashishni mashq qilishiga ham erishishi lozim. Pedagog yordam uchun ota-onalarni jalb qilishi va ularga tayyorgarlik suhbatini qanday olib borish lozimligi haqida batafsil ko'rsatmalar berish zarur. Ota-onalarning barchasi og'zaki nutqni yaxshi bilishlari bois ushbu vazifani bajara oladilar.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- Tayyorgarlik suhbatini (so'zlashish) usullari;
- Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

- To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdosh so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

- Yo'ldosh – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning yetakchi usuli savollar hisoblanadi. Bolalar bilan suhbatning muvaffaqiyati va pedagogik samaradorligi ko'p jihatdan savollarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Savollar berish hamda uning javobining murakkabligi va qiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir. Savol qo'yish – bolalar oldiga ularning kuchi yetadigan darajadagi nutqiy fikrlash vazifasini qo'yish demakdir. Ayni paytda u xaddan tashqari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday vazifani qo'yishdan maqsad – bolalarni fikrlashga, eslashga undashdan iborat. Qanday fikrlash-nutqiy vazifalarini qo'yishiga qarab, savollarni reproduktiv, qidiruv va muammoli savollarga ajratish mumkin.

Suhbatda ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, taqqoslashlardan foydalanishni hamda Nima uchun? Nega? Nima tufayli? Ular nimasi bilan o'xshash? Nima uchun? Qanday qilib? kabi savollarga javob berishni talab qiluvchi qidiruv va muammo tusidagi savollar yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Suhbatning har bir bosqichida savollarni taxminan quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish zarur: dastlab bolalar tajribasini jonlantirish uchun reproduktiv, keyin yangi materialni hazm qilish uchun oz sonli, biroq murakkab bo'lgan qidiruv savollari va oxirida 1-2 umumlashtiruvchi savollar. Savollar aniq va maqsadli bo'lishi lozim. Noaniq bo'lgan savollar bolalarga javob berishni qiyinlashtiradi – ular javob bera olmaydilar yoki noto'g'ri javob beradilar. Savol aniq, shoshmasdan, mantiqiy urg'ular, mazmuniy pauzalarga rioya qilgan holda berilishi zarur. Bolaga javob qaytarishga vaqt berish uchun tarbiyachi pauza saqlab turadi. Agarda savol tez berilsa, bola uning mazmunini tushunishga ulgurmaydi va tarbiyachi savolini bir necha marta takrorlashiga to'g'ri keladi, bu esa bolaga javobni o'ylashda xalaqit beradi, uni tarbiyachiga quloq tutmaslikka o'rgatib qo'yadi. Bolaga savolni birinchi martada qabul qilishni o'rgatish zarur.

Tarbiyachi suhbat jarayonida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- Bolalar tomonidan o'zlashtirilmagan, qo'shma gaplar yoki bir turdagi a'zoldan iborat bo'lgan gaplarning ayrim sintaktik tuzilmalarini aytib turish;
- Gapning bolalar o'zlashtirmagan mazmunli bo'laklarining intonatsiyasini aytib berish (masalan, o'gohlantirish, xayratlanish, tashvishga tushish, xursand bo'lish intonatsiyasi va x.k.);
- Bir o'zakli so'zlarni hosil qilishni aytib turish: suyuq-suyuqlik, sabzavot-sabzavotli va boshq.
- Turlanmagan fe'l shakllarini hosil qilishda yordam berish: sepish-sepilgan, qo'yish-qo'yilgan.

Suhbat jarayonida bolalarni savol berishga undash, ularning qiziquvchanligini rivojlantirish zarur. Bolaning savol bera olishga qodirligi uning fikrlash faoliyatidan dalolat beradi.

Badiiy asarlar – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni teatrlashtirish usuli – bu bolalarning ularga tarbiyachi o'qib bergan asarlarni o'sha shaxslar nomidan qayta aytib berish usullaridir.

Boshqa shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni o'z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma'qul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og'zaki nutqini, xususan, murojaat, sanash, xayratlanish, xayron bo'lish intonatsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq emotsional jihatdan yanada boyiydi – u personajlarning axvolidan kelib chiqqan holda gox xursand, gox qayg'uli va gox iltijonamo jaranglaydi.

Bolalarga og'zaki dialogik nutqni o'rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, qo'g'irchoq teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Sahnalashtirish o'yini – bu bolalarning badiiy asarni uning qahramonlari obrazlarida qayta hikoya qilib berishlari; bolalarning matnni erkin qayta aytib berishlari va bolalarning syujetli-rolli o'yinlaridir.

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalarga birinchi navbatda, o'z nutqida ertak matnidan chetga chiqishga ruxsat beriladi. Tarbiyachi ularni faqat grammatika yoki leksikada adabiy so'zlashuv

nutqi me'yorlaridan chekingan xollardagina to'g'rilaydi; o'yin chog'ida fonetik xatoliklarga yo'l qo'yilganida uni to'g'rilash shart emas.

Teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtirish o'yinlaridan shunisi bilan farqlanadiki, unda badiiy asar matnini yoddan biladigan bolalar ishtirok etadilar, ularning bu chiqishdan ko'zlagan maqsadi – o'z tinglovchi do'stlarining ko'nglini olishdir; bu tomoshada bolalar teatr kostyumlarida (maska qalpoqchalar va boshqa kiyimlar) chiqadilar.

Qo'g'irchoq teatri – bu syujetli «rejissyorlik» o'yinning har xil turlaridir: bolalar bir vaqtning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petrushkalar (qo'l barmoqlariga kiyiladigan qo'g'irchoqlar, suratlar qirqimlari va x.k.)ni asar qahramonlari rolini o'ynashga majbur qilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar.

Qo'g'irchoq teatri shakli quyidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petrushkalar teatri, «barmoqlar» teatri, soya teatri, stol teatri, flanelegraf.

Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar.

YUqorida sanab o'tilgan qo'g'irchoq teatri turlari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutqini faollashtiruvchi metodik vositalar sifatida foydalaniladi: bolalar pedagog yordamida, katta guruhlarda esa o'zlari mustaqil ravishda qo'g'irchoqlarga, qirqilgan rasmlarga rejissyorlik qiladilar, ular nomidan ishtiyoq bilan so'zlaydilar va shu tariqa o'zlarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Sahnalashtirish o'yini – maktabgacha yoshdagi har qanday bolaning teatrlashtirilgan chiqishidir.

Bolalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishining borishiga qarab, ularning savollarga javoblari yanada aniq, mulohazali va mazmunli bo'ldib borishi lozim.

Suhbat jarayonida bolalar bilan so'zlashuvning jonliligi ko'p jihatdan og'zaki nutqqa va nutqiy muloqotning savol-javob shakliga xos bo'lgan grammatik tuzilmalarining turlichaligi bilan bog'liqdir.

Suhbatlarda bolalar keng qamrovli fikr bildirishlari va bir-ikkita so'zdan iborat bo'lgan javob berishlari mumkin (Sizga ertak yoqdimi – Xa.). Bolalarni keng qamrovli javoblarga savollarni to'g'ri qo'yish orqali yo'naltirish zarur: «Baxorda ob-havo ko'proq qanday bo'ladi? Bu xaqda aytib bering».

Bolaga mana bunday ko'rsatma berish mumkin: «Qisqa javob ber. Batafsil javob ber (ammo to'liq javob bilan emas)», ulardan so'rash mumkin: «Kim qisqa javob bera oladi (yoki o'rtog'ingizdan chiroyliroq javob bera oladi)». Zarur holatlarda pedagog qo'yilgan savolga keng qamrovli javob namunasini namoyish qilishi mumkin.

Suhbat jarayonida bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Muloqot ko'nikmalari qachon shakllanadi?
2. Sharqona tarbiyada nutqning o'rni?
3. Tayyorgarlik suhbatlari (so'zlashish) usullari?
4. Teatrlashtirish usullari ?
5. Tayyorlangan suhbatning qanday vazifalari mavjud?
6. To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashish nima?Bunday ko'nikmani shakllantirish uchun qanday ishlar olib borilishi kerak?
7. Yo'ldosh usuli nima?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

6-mavzu: Bolalarga dialogik nutqni o'rgatish. Dialogik nutqni shakllantirish shartlari. Dialogik nutqda qo'llanadigan asosiy usullar. Bolalarning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida dialogning ahamiyati

Reja:

1. Dialog nutqning mazmuni va vazifalari
2. Dialogik nutqni rivojlantirishga doir ishlar tizimi
3. Bolalarni dialogik nutqqa o'rgatish

Tayanch tushunchalar va iboralar: dialogik matn, suhbat metodi, Maktabgacha ta'lim muassasasi, takrorlovchi suhbat, umumlashtiruvchi suhbat, nazorat-tekshiruv suhbat, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi nutqi.

Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); maktabgacha ta'lim muassasasida kun mobaynida bola pedagog va boshqa bolalar bilan erkin muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi.

Agarda maktabda suhbat bilimlarni yetkazish vositasi sifatida qo'llanilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda qo'shimcha ijobiy hodisa ko'rinishida qabul qilinadi, maktabgacha ta'lim muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Biroq, nutq albatta borliq hodisasini aks ettirishi, kodlashtirishi bois maktabgacha ta'lim muassasasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi.

Dialog nutqning mazmuni va vazifalari

Dialog – suhbat – bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi. Bolalar bog'chasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg'ulotlarda. Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); Bolalar bog'chasida bo'lib turgan vaqti mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi.

Suhbatlar mavzusi va mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda "Ilk qadam" tayanch dasturi bilan belgilanadi.

Suhbat ta'lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhi bilan (yoki alohida har bir bola bilan) aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan so'zlashuvidir. Maktabgacha ta'lim muassasasida takrorlovchi, umumlashtiruvchi va nazorat-tekshiruv suhbatlaridan foydalaniladi.

Takrorlovchi va umumlashtiruvchi suhbatlarda tarbiyachi turli usullar yordamida bolalarga ko'rgan narsalarni taxlil qilish, taqqoslash, to'ldirish, chuqurlashtirish usullarini o'rgatadi, bolalardagi mavjud bilimlarni tizimlashtiradi, ularni muayyan xulosalarga kelishga undaydi.

Nazorat-tekshiruv suhbatlari pedagog tomonidan biron-bir o'tilgan mavzu bo'yicha bolalarning bilimlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Pedagog savollar yordamida bolalarning biron-bir mavzuni o'tish jarayonida olgan bilimlari darajasini aniqlashi mumkin.

Bolalar bilan ishlash jarayonida pedagog tayyorlanmagan va tayyorlangan suhbatdan foydalanadi.

Tayyorlanmagan suhbat (buni faqat bolalarga nisbatgina qo'llash mumkin, chunki bolalar ular bilan nimalar haqida so'zlashishlarini, nimalarga diqqat-e'tiborini jalb qilishlarini bilmaydilar) rejimli jarayonlarni o'tkazishda, bolalar faoliyatining har xil turlarida: o'yinlarda, mexnatda tashkil etilishi mumkin. Tarbiyachi esa har qanday muloqot turiga tayyor turishi zarur. Zero, buning uchun u kasbiy ta'lim olgan bilimlarining muhim qismlaridan birini bolalar bilan suhbatlashish tashkil etadi. SHuning uchun tarbiyachi bolalar bilan shunday so'zlashishi lozimki, toki u o'z nutqi bilan bolalarga ona tilini o'rgatsin.

Nutqiy muloqotga bo'lgan zarurat tufayli to'satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o'zining til sezgisiga ishongani holda o'z nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasi)ni tayyorlamaydi, ammo u har bir suhbatning mavzusiga tayyorgarlik ko'rishi shart.

Tayyorlangan suhbat deb nomlanishining sababi shuki, bunda tarbiyachi mashg'ulotdan oldin (mashg'ulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday vaziyatda qoldiradiki, bunda ularning diqqat-e'tibori bo'lajak suhbat mavzusi bo'ladigan atrof-olamdagi hodisalarga jalb qilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungacha tanish bo'lishi lozim.

Suhbatni tashkil qilish, uning tuzilmasi mavzu va mazmunga, bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Har bir suhbatda quyidagi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kirish (boshlash); 2) asosiy qism (suhbat mavzusini rivojlantirish); 3) nihoyasiga yetish.

Kirish maqsadi bolalarning diqqat-e'tiborini suhbat mavzusiga jalb qilish, ularda suhbatda ishtirok etish xohishini paydo qilish, bolalar xotirasida ilgari olingan taassurotlarni, imkoni boricha obrazli va emotsional taassurotlarni jonlantirishdan iborat.

Tarbiyachi suhbatlashadigan narsa (hodisa) haqida taklif qilgan topishmoq ham kirish bo'lishi mumkin. Suhbatni tegishli mavzudagi she'rni o'qish yoki suratlarini ko'rish bilan boshlash mumkin. Suhbat boshlanishida tarbiyachi bo'lajak suhbat mavzusini (maqsadini) shakllantiradi, uning muhimligini asoslaydi, uni tanlash sabablarini bolalarga tushuntirib beradi.

Asosiy qism maqsadi – bolalar ko'rgan narsalarni esga olish, qo'shimcha bilimlarni taxlil qilish, ularni tushuntirish hisobiga chuqurlashtirish, qo'shimcha bilimlarni ma'lum qilish, ularni bir tizimga keltirish va mustahkamlashdan iborat.

Suhbatning asosiy qismi mikromavzu yoki bosqichlarga ajratilishi mumkin. Har bir bosqich – bir mavzuni bo'g'in qismlari bo'yicha taxlil qilishdan iboratdir. Pedagog mashg'ulotga tayyorlanar ekan, barcha bosqichlarni belgilab olishi lozim.

Suhbat mavzusini rivojlantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, tarbiyachi imkoni boricha bolalarning mazkur mavzudan chetga chiqishlarining oldini olishi zarur (ba'zan ortiqcha faktlarni aniqlash uchun undan chekinish mumkin, biroq so'ngra yana asosiy suhbat mavzusiga qaytish darkor). Tarbiyachi suhbat rejasini oldindan belgilab oladi. Tarbiyachining

qo'lida reja bo'lsa, bolalar qanchalik mavzudan chetga chiqmasinlar, u ilgari savol o'z ahamiyatini yo'qotdi, deb hisoblagan paytda o'z rejasidagi navbatdagi savolni berish orqali ularni yana mavzuga qaytarish mumkin.

Pedagog unutmashligi lozim, bolalarning fikrlash xususiyati shundayki, ular suhbat mavzusini oson unutadilar, har bir mayda-chuyda narsaga chalg'iyveradilar. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik tezroq chalg'iydi, xozirgina o'zi aytgan narsalarni tezlik bilan unutadi va boshqa mavzuga o'tadi.

Mashg'ulot – suhbat bolalarda mantiqiy fikrlash, boshlagan mavzuni oxiriga yetkazish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar biladigan narsalar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni xabar qilish suhbat asosiy qismining zarur elementi hisoblanadi. Bu bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Tarbiyachining qisqa va aniq axboroti suhbatni aniq maqsadni ko'zlagan holda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Suhbat topishmoq, she'rlar va tarbiyachining tegishli suratga oid sharhlari bilan tugallanishi mumkin, ammo u ko'pincha pedagogning ushbu suhbatdan kelib chiqqan holda bolalarning axloq borasida o'rganishi lozim bo'lgan jihatlar haqidagi mantiqiy xulosasi bilan yakunlanadi. Ayni paytda pedagog o'z xulosasida o'zi suhbat mobaynida bolalarga o'rgatishi lozim bo'lgan so'zlar, so'z shakllari va sintaktik tuzilmalarni qo'llashi lozim.

Suhbatni shunday uyushtirish lozimki, toki unda barcha bolalar ishtirok etsinlar. Agarda bola faqat tarbiyachining boshqa bolalar bilan suhbatini tinglab o'tirsa va o'zi ushbu fikr bildirishlarda ishtirok etmasa, bu bola “suhbatlashishni” mashq qilmaydi va uning suhbatdagi ishtiroki faqat nomigagina bo'ladi, xolos.

Suhbatni cheklangan sondagi bolalar (6-8 nafar bola) bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Agarda guruhda 25-30 ta bola bo'lsa, bu holda mashg'ulotni bolalarni uchta-to'rtta kichik guruhga bo'lgan holda o'tkazish zarur. Belgilangan vaqtdan oshib ketmaslik uchun har bir kichik guruh bilan suhbat davomiyligini qisqartirish mumkin. Biroq har bir bolaning nafaqat tinglab o'tirishini, balki so'zlashishni mashq qilishiga ham erishishi lozim. Pedagog yordam uchun ota-onalarni jalb qilishi va ularga tayyorgarlik suhbatini qanday olib borish lozimligi haqida batafsil ko'rsatmalar berish zarur. Ota-onalarning barchasi og'zaki nutqni yaxshi bilishlari bois ushbu vazifani bajara oladilar.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari;
- Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

- To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdosh so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

- Yo'ldosh – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy mulohazani ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini,

xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning yetakchi usuli savollar hisoblanadi. Bolalar bilan suhbatning muvaffaqiyati va pedagogik samaradorligi ko'p jihatdan savollarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Savollar berish hamda uning javobining murakkabligi va qiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir. Savol qo'yish – bolalar oldiga ularning kuchi yetadigan darajadagi nutqiy fikrlash vazifasini qo'yish demakdir. Ayni paytda u xaddan tashqari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday vazifani qo'yishdan maqsad – bolalarni fikrlashga, eslashga undashdan iborat. Qanday fikrlash-nutqiy vazifalarini qo'yishiga qarab, savollarni reproductiv, qidiruv va muammoli savollarga ajratish mumkin.

Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyati.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari;

Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).


Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

Yo'ldosh – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi.

Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyati bo'yicha Ven diagrammasi to'ldiring.



Suhbatda ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, taqqoslashlardan foydalanishni hamda Nima uchun? Nega? Nima tufayli? Ular nimasi bilan o'xshash? Nima uchun? Qanday qilib? kabi savollarga javob berishni talab qiluvchi qidiruv va muammo tusidagi savollar yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Suhbatning har bir bosqichida savollarni taxminan quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish zarur: dastlab bolalar tajribasini jonlantirish uchun reproduktiv, keyin yangi materialni hazm qilish uchun oz sonli, biroq murakkab bo'lgan qidiruv savollari va oxirida 1-2 umumlashtiruvchi savollar. Savollar aniq va maqsadli bo'lishi lozim. Noaniq bo'lgan savollar bolalarga javob berishni qiyinlashtiradi – ular javob bera olmaydilar yoki noto'g'ri javob beradilar. Savol aniq, shoshmasdan, mantiqiy urg'ular, mazmuniy pauzalarga rioya qilgan holda berilishi zarur. Bolaga javob qaytarishga vaqt berish uchun tarbiyachi pauza saqlab turadi. Agarda savol tez berilsa, bola uning mazmunini tushunishga ulgurmaydi va tarbiyachi savolini bir necha marta takrorlashiga to'g'ri keladi, bu esa bolaga javobni o'ylashda xalaqit beradi, uni tarbiyachiga quloq tutmaslikka o'rgatib qo'yadi. Bolaga savolni birinchi martada qabul qilishni o'rgatish zarur.

Tarbiyachi suhbat jarayonida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- Bolalar tomonidan o'zlashtirilmagan, qo'shma gaplar yoki bir turdagi a'zoldan iborat bo'lgan gaplarning ayrim sintaktik tuzilmalarini aytib turish;
- Gapning bolalar o'zlashtirmagan mazmunli bo'laklarining intonatsiyasini aytib berish (masalan, o'gohlantirish, xayratlanish, tashvishga tushish, xursand bo'lish intonatsiyasi va x.k);
- Bir o'zakli so'zlarni hosil qilishni aytib turish: suyuq-suyuqlik, sabzavot-sabzavotli va boshq.
- Turlanmagan fe'l shakllarini hosil qilishda yordam berish: sepish-sepilgan, qo'yish-qo'yilgan.

Suhbat jarayonida bolalarni savol berishga undash, ularning qiziquvchanligini rivojlantirish zarur. Bolaning savol bera olishga qodirligi uning fikrlash faoliyatidan dalolat beradi.

Badiiy asarlar – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni teatrlashtirish usuli – bu bolalarning ularga tarbiyachi o'qib bergan asarlarni o'sha shaxslar nomidan qayta aytib berish usullaridir.

Boshqa shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni o'z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma'qul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og'zaki nutqini, xususan, murojaat, sanash, xayratlanish, xayron bo'lish intonatsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq emotsional jihatdan yanada boyiydi – u personajlarning axvolidan kelib chiqqan holda gox xursand, gox qayg'uli va gox iltijonamo jaranglaydi.

Bolalarga og'zaki dialogik nutqni o'rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, qo'g'irchoq teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Sahnalashtirish o'yini – bu bolalarning badiiy asarni uning qahramonlari obrazlarida qayta hikoya qilib berishlari; bolalarning matnni erkin qayta aytib berishlari va bolalarning syujetli-rolli o'yinlaridir.

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalarga birinchi navbatda, o'z nutqida ertak matnidan chetga chiqishga ruxsat beriladi. Tarbiyachi ularni faqat grammatika yoki leksikada adabiy so'zlashuv

nutqi me'yorlaridan chekingan xollardagina to'g'rilaydi; o'yin chog'ida fonetik xatoliklarga yo'l qo'yilganida uni to'g'rilash shart emas.

Teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtirish o'yinlaridan shunisi bilan farqlanadiki, unda badiiy asar matnini yoddan biladigan bolalar ishtirok etadilar, ularning bu chiqishdan ko'zlagan maqsadi – o'z tinglovchi do'stlarining ko'nglini olishdir; bu tomoshada bolalar teatr kostyumlarida (maska qalpoqchalar va boshqa kiyimlar) chiqadilar.

Qo'g'irchoq teatri – bu syujetli «rejissyorlik» o'yinning har xil turlaridir: bolalar bir vaqtning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petrushkalar (qo'l barmoqlariga kiyiladigan qo'g'irchoqlar, suratlar qirqimlari va x.k.)ni asar qahramonlari rolini o'ynashga majbur qilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar.

Qo'g'irchoq teatri shakli quyidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petrushkalar teatri, «barmoqlar» teatri, soya teatri, stol teatri, flanelegraf.

Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar.

Yuqorida sanab o'tilgan qo'g'irchoq teatri turlari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutqini faollashtiruvchi metodik vositalar sifatida foydalaniladi: bolalar pedagog yordamida, katta guruhlarda esa o'zlari mustaqil ravishda qo'g'irchoqlarga, qirqilgan rasmlarga rejissyorlik qiladilar, ular nomidan ishtiyoq bilan so'zlaydilar va shu tariqa o'zlarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Sahnalashtirish o'yini – maktabgacha yoshdagi har qanday bolaning teatrlashtirilgan chiqishidir.

Bolalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishining borishiga qarab, ularning savollarga javoblari yanada aniq, mulohazali va mazmunli bo'ldib borishi lozim.

Suhbat jarayonida bolalar bilan so'zlashuvning jonliligi ko'p jihatdan og'zaki nutqqa va nutqiy muloqotning savol-javob shakliga xos bo'lgan grammatik tuzilmalarining turlichaligi bilan bog'liqdir.

Suhbatlarda bolalar keng qamrovli fikr bildirishlari va bir-ikkita so'zdan iborat bo'lgan javob berishlari mumkin (Sizga ertak yoqdimi – Xa.). Bolalarni keng qamrovli javoblarga savollarni to'g'ri qo'yish orqali yo'naltirish zarur: «Baxorda ob-havo ko'proq qanday bo'ladi? Bu xaqda aytib bering».

Bolaga mana bunday ko'rsatma berish mumkin: «Qisqa javob ber. Batafsil javob ber (ammo to'liq javob bilan emas)», ulardan so'rash mumkin: «Kim qisqa javob bera oladi (yoki o'rtog'ingizdan chiroyliroq javob bera oladi)». Zarur holatlarda pedagog qo'yilgan savolga keng qamrovli javob namunasini namoyish qilishi mumkin.

Suhbat jarayonida bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

NAZORAT SAVOLLARI:

- «Ravon nutq» tushunchasi nimani anglatadi?
- Nutq inson faoliyatida qanday vazifalarni bajaradi? Ularning har birini tavsiflang.
- Kommunikativ tushunchadagi omillar deganda nimani tushunish lozim?
- Monologik nutqni shakllantirishda nimalar o'quv va yo'ldosh vazifalar hisoblanadi?
- Tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritishning nimaligini aniq misollar orqali tavsiflab bering.
- Bolalarga dialogik nutqni o'qitishning asosiy metodini tavsiflab bering.
- Suhbatdan qaysi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin?

- Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarda pedagog qaysi asosiy metodlardan foydalanishi zarur?
- Tayyorlangan suhbat qanday vazifalarga ega bo'ladi?
- Reproduktiv va qidiruv savollari nimaning anglatadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyazbon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

7-mavzu: Monologik nutqni shakllantirishning nazariy asoslari, xususiyatlari, shakllantirish usullari. Turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o'qitish ishining mazmuni va uning vazifalari

Reja:

1. Dialog nutqning mazmuni va vazifalarini izohlaydi.
2. Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyatiga ta'rif beradi.
3. Monologik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyatiga ta'rif beradi.
4. Turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o'qitish ishining mazmuni va uning vazifalari.
5. Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi.
6. Hikoyalar turlari va ularni o'rgatishning izchilligi..

Tayanch tushunchalar va iboralar:nutq shakllari, hikoyalash turlari, so'zlashuv madaniyatini shakllantirish, bolalarning yosh xususiyatiga ko'ra so'zlashish.

Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi – bolalarda ravon so'zlashuv nutqni (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllanadi.

4 yoshdan boshlab bolalarga suhbatda ishtirok etishni, uzluq-yuluq fikrlardan nisbatan keng, izchil fikrlarga o'tish, savollar berishni o'rgatish zarur; 5-6 yoshli bolalar uzoq davom etadigan maqsadli suhbatlarga qodir bo'ladilar. Bolalarga qo'yilgan savollarga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda qisqa yoki keng qilib aniq javob berish, suhbatdoshi so'zini bo'lmasdan diqqat bilan tinglash, ularning javoblarini to'ldirish, tuzatishlar kiritish, o'zlari ham savollar berishni o'rgatish zarur va x.k. Ayni paytda shaxsning nutqiy sifatlarini tarbiyalash – bolalarga kirishimlilik, xushmuomalalik, xushyorlik, bosiqlik kabi sifatlarini shakllantirish;

suhbat jarayonida nutqiy muloqot madaniyati ko'nikmalarini, tengdoshlar jamoasi oldida chiqish qila olish qobiliyati va telefon orqali suhbatlashish madaniyatini tarbiyalash lozim.

Monologik nutqning o'quv vazifasi mustaqilligi, tugallanganligi, qismlari o'rtasida mantiqiy aloqasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan ravon fikr bildirishni o'rgatishdan iboratdir, ya'ni bu –qisman (nutqiy) ko'nikmalar va ona tilida fikr bildirish uchun zarur bo'lgan murakkab qobiliyatlarni shakllantirish demakdir.

Ravon nutq ustidagi ishlarning asosiy rivojlantiruvchi vazifasi – bolalarning fikrlashini, o'z fikrini til vositalari yordamida aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, nutqiy fikrlashga oid vazifalarni mustaqil ijodiy xal etish ko'nikmalarini shakllantirish, xotirani, tasavvurni faollashtirishdan iborat.

Vazifalarni muvaffaqiyatli xal etish uchun pedagog o'ziga quyidagilarni aniq tasavvur qilish zarur: 1 – ravon nutqni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan til material; 2 – ushbu materialda shakllantirish mumkin bo'lgan nutqiy ko'nikmalar va maxoratlar umumiyli; 3 – ushbu ko'nikmalarni “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida mashq qilishning ketma-ketligi.

Monologik nutq hikoya qilishni o'rgatish jarayonida shakllanadi – bolalar og'zaki monologik nutqning ikki toifasini – qayta hikoya qilish va hikoya qilish, tavsiflovchi hikoyalar, bayon qiluvchi hikoyalar, isbotlovchi hikoyalarni o'zlashtirib oladilar.

YUqorida qayd etilganidek, ravon nutqning ikki turi mavjud: dialogik (dialog) va monologik (monolog) nutq.

Dialog – ikki yoki bir necha kishining o'zaro suhbat. Suhbat maqsadi odatda biron narsa haqida so'rash va javob olish, biron-bir harakatga undashdan iborat.

Monolog – bir shaxsning ravon nutqi. Monologning maqsadi – biron-bir fakt haqida xabar berishdir.

Dialog o'z uslubiga ko'ra asosan, og'zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi.

Dialogik ravon nutqda ko'pincha noto'liq gaplardan foydalaniladi, tushirib qoldirilgan gap a'zolarini so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib tushunib oladi, va og'zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (qolip) to'liq gaplardan ko'proq foydalaniladi: “u kelmay qo'ya olmaydi” – ya'ni u albatta keladi.

Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda qo'llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uchratishlari sababli uni ancha oson o'zlashtirib oladilar.

Biron-bir narsani tavsiflashda, biron narsa haqida bayon qilishda yoki mulohaza yuritishda nutqning monologik shaklidan foydalaniladi. Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi.

Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin.

Bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladigan faktlar haqidagi xabarlar **tavsif** deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar **bayon qilish** deyiladi. Sabab-oqibatli munosabatlarda bo'lgan faktlar haqidagi xabarlar esa **mulohaza** deb yuritiladi.

Bolalar monologik nutqni tushunib yetishlari va o'z xabarlarini uzatish maqsadida uni o'zlashtirib olishlari uchun ular tegishli sintaktik tuzilmani o'zlashtirib olishlari lozim. Hamonki, bola oddiy keng tarqalgan gaplarni tuzishni o'rganib ololmas ekan, uning nutqi ravon

bo'lishi mumkin. Oqibatda – monologik nutqning turli toifalarini o'qitish – bu eng avvalo grammatika – sintaksisga o'qitishdir.

Bolalarga monologik nutqni o'qitish qiyin, chunki bolalar kundalik hayotda va kattalar nutqida ham monologik nutqni kamdan-kam xollarda eshitadilar: bolalar bilan so'zlashganda kattalar ko'pincha dialog shaklidan foydalanadilar.

Monologik nutqning dastlabki ko'nikmalarini maktabgacha bo'lgan davrda rivojlantirish lozim, chunki maktabda monologni o'qitishni boshlash uchun kech bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogi bolalarga monolog-tavsif, bayon qilish, muloxaza yuritishni o'rgatish uchun maqbul didaktik material topishga harakat qilishi zarur.

Ilk yoshda bola ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan luqmalar, so'ngra esa ertaklar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo'ladi. Ravon nutqdan til elementlari – tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplarni ajratib olar ekan, bola ravon matnda har bir til elementining o'rnini eslab qoladi, bu esa ilk yoshdan boshlab nutqdan oldingi mashqlar boshlanadigan til sezgilarini rivojlantirish jarayonini tashkil etadi.

Bolalarga dialogik nutqni o'rgatish

Dialog – suhbat bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg'ulotlarda.

Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitish, talaffuzga oid, grammatik ko'nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.

Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); maktabgacha ta'lim muassasasida kun mobaynida bola pedagog va boshqa bolalar bilan erkin muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi.

Agarda maktabda suhbat bilimlarni yetkazish vositasi sifatida qo'llanilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda qo'shimcha ijobiy hodisa ko'rinishida qabul qilinadi, maktabgacha ta'lim muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Biroq, nutq albatta borliq hodisasini aks ettirishi, kodlashtirishi bois maktabgacha ta'lim muassasasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi.

Suhbatlar mavzusi va mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda “Ilk qadam” tayanch dasturi bilan belgilanadi.

Suhbat ta'lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhi bilan (yoki alohida har bir bola bilan) aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan so'zlashuvidir. Maktabgacha ta'lim muassasasida takrorlovchi, umumlashtiruvchi va nazorat-texshiruv suhbatlaridan foydalaniladi.

Takrorlovchi va umumlashtiruvchi suhbatlarda tarbiyachi turli usullar yordamida bolalarga ko'rgan narsalarni taxlil qilish, taqqoslash, to'ldirish, chuqurlashtirish usullarini o'rgatadi, bolalardagi mavjud bilimlarni tizimlashtiradi, ularni muayyan xulosalarga kelishga undaydi.

Nazorat-tekshiruv suhbatlari pedagog tomonidan biron-bir o'tilgan mavzu bo'yicha bolalarning bilimlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Pedagog savollar yordamida bolalarning biron-bir mavzuni o'tish jarayonida olgan bilimlari darajasini aniqlashi mumkin.

Bolalar bilan ishlash jarayonida pedagog tayyorlanmagan va tayyorlangan suhbatdan foydalanadi.

Tayyorlanmagan suhbat (buni faqat bolalarga nisbatgina qo'llash mumkin, chunki bolalar ular bilan nimalar haqida so'zlashishlarini, nimalarga diqqat-e'tiborini jalb qilishlarini bilmaydilar) rejimli jarayonlarni o'tkazishda, bolalar faoliyatining har xil turlarida: o'yinlarda, mexnatda tashkil etilishi mumkin. Tarbiyachi esa har qanday muloqot turiga tayyor turishi zarur. Zero, buning uchun u kasbiy ta'lim olgan bilimlarining muhim qismlaridan birini bolalar bilan suhbatlashish tashkil etadi. SHuning uchun tarbiyachi bolalar bilan shunday so'zlashishi lozimki, toki u o'z nutqi bilan bolalarga ona tilini o'rgatsin.

Nutqiy muloqotga bo'lgan zarurat tufayli to'satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o'zining til sezgisiga ishongani holda o'z nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasi)ni tayyorlamaydi, ammo u har bir suhbatning mavzusiga tayyorgarlik ko'rishi shart.

Tayyorlangan suhbat deb nomlanishining sababi shuki, bunda tarbiyachi mashg'ulotdan oldin (mashg'ulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday vaziyatda qoldiradiki, bunda ularning diqqat-e'tibori bo'lajak suhbat mavzusi bo'ladigan atrof-olamdagi hodisalarga jalb qilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungacha tanish bo'lishi lozim.

Suhbatni tashkil qilish, uning tuzilmasi mavzu va mazmunga, bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Har bir suhbatda quyidagi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kirish (boshlash); 2) asosiy qism (suhbat mavzusini rivojlantirish); 3) nihoyasiga yetish.

Kirish maqsadi bolalarning diqqat-e'tiborini suhbat mavzusiga jalb qilish, ularda suhbatda ishtirok etish xohishini paydo qilish, bolalar xotirasida ilgari olingan taassurotlarni, imkoni boricha obrazli va emotsional taassurotlarni jonlantirishdan iborat.

Tarbiyachi suhbatlashadigan narsa (hodisa) haqida taklif qilgan topishmoq ham kirish bo'lishi mumkin. Suhbatni tegishli mavzudagi she'rni o'qish yoki suratlarini ko'rish bilan boshlash mumkin. Suhbat boshlanishida tarbiyachi bo'lajak suhbat mavzusini (maqsadini) shakllantiradi, uning muhimligini asoslaydi, uni tanlash sabablarini bolalarga tushuntirib beradi.

Asosiy qism maqsadi – bolalar ko'rgan narsalarni esga olish, qo'shimcha bilimlarni taxlil qilish, ularni tushuntirish hisobiga chuqurlashtirish, qo'shimcha bilimlarni ma'lum qilish, ularni bir tizimga keltirish va mustahkamlashdan iborat.

Suhbatning asosiy qismi mikromavzu yoki bosqichlarga ajratilishi mumkin. Har bir bosqich – bir mavzuni bo'g'in qismlari bo'yicha taxlil qilishdan iboratdir. Pedagog mashg'ulotga tayyorlanar ekan, barcha bosqichlarni belgilab olishi lozim.

Suhbat mavzusini rivojlantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, tarbiyachi imkoni boricha bolalarning mazkur mavzudan chetga chiqishlarining oldini olishi zarur (ba'zan ortiqcha faktlarni aniqlash uchun undan chekinish mumkin, biroq so'ngra yana asosiy suhbat mavzusiga qaytish darkor). Tarbiyachi suhbat rejasini oldindan belgilab oladi. Tarbiyachining qo'lida reja bo'lsa, bolalar qanchalik mavzudan chetga chiqmasinlar, u ilgari savol o'z ahamiyatini yo'qotdi, deb hisoblagan paytda o'z rejasidagi navbatdagi savolni berish orqali ularni yana mavzuga qaytarish mumkin.

Pedagog unutmashligi lozim, bolalarning fikrlash xususiyati shundayki, ular suhbat mavzusini oson unutadilar, har bir mayda-chuyda narsaga chalg'iyveradilar. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik tezroq chalg'iydi, xozirgina o'zi aytgan narsalarni tezlik bilan unutadi va boshqa mavzuga o'tadi.

Mashg'ulot – suhbat bolalarda mantiqiy fikrlash, boshlagan mavzuni oxiriga yetkazish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar biladigan narsalar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni xabar qilish suhbat asosiy qismining zarur elementi hisoblanadi. Bu bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Tarbiyachining qisqa va aniq axboroti suhbatni aniq maqsadni ko'zlagan holda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Suhbat topishmoq, she'rlar va tarbiyachining tegishli suratga oid sharxlari bilan tugallanishi mumkin, ammo u ko'pincha pedagogning ushbu suhbatdan kelib chiqqan holda bolalarning axloq borasida o'rganishi lozim bo'lgan jihatlar haqidagi mantiqiy xulosasi bilan yakunlanadi. Ayni paytda pedogog o'z xulosasida o'zi suhbat mobaynida bolalarga o'rgatishi lozim bo'lgan so'zlar, so'z shakllari va sintaktik tuzilmalarni qo'llashi lozim.

Suhbatni shunday uyushtirish lozimki, toki unda barcha bolalar ishtirok etsinlar. Agarda bola faqat tarbiyachining boshqa bolalar bilan suhbatini tinglab o'tirsa va o'zi ushbu fikr bildirishlarda ishtirok etmasa, bu bola “suhbatlashishni” mashq qilmaydi va uning suhbatdagi ishtiroki faqat nomigagina bo'ladi, xolos.

Suhbatni cheklangan sondagi bolalar (6-8 nafar bola) bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Agarda guruhda 25-30 ta bola bo'lsa, bu holda mashg'ulotni bolalarni uchta-to'rtta kichik guruhga bo'lgan holda o'tkazish zarur. Belgilangan vaqtdan oshib ketmaslik uchun har bir kichik guruh bilan suhbat davomiyligini qisqartirish mumkin. Biroq har bir bolaning nafaqat tinglab o'tirishini, balki so'zlashishni mashq qilishiga ham erishishi lozim. Pedagog yordam uchun ota-onalarni jalb qilishi va ularga tayyorgarlik suhbatini qanday olib borish lozimligi haqida batafsil ko'rsatmalar berish zarur. Ota-onalarning barchasi og'zaki nutqni yaxshi bilishlari bois ushbu vazifani bajara oladilar.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari;
- Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

- To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdosh so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

- Yo'ldosh – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning yetakchi usuli savollar hisoblanadi. Bolalar bilan suhbatning muvaffaqiyati va pedagogik samaradorligi ko'p jihatdan savollarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Savollar berish

hamda uning javobining murakkabligi va qiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir. Savol qo'yish – bolalar oldiga ularning kuchi yetadigan darajadagi nutqiy fikrlash vazifasini qo'yish demakdir. Ayni paytda u xaddan tashqari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday vazifani qo'yishdan maqsad – bolalarni fikrlashga, eslashga undashdan iborat. Qanday fikrlash-nutqiy vazifalarini qo'yishiga qarab, savollarni reproduktiv, qidiruv va muammoli savollarga ajratish mumkin.

Suhbatda ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, taqqoslashlardan foydalanishni hamda Nima uchun? Nega? Nima tufayli? Ular nimasi bilan o'xshash? Nima uchun? Qanday qilib? kabi savollarga javob berishni talab qiluvchi qidiruv va muammo tusidagi savollar yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Suhbatning har bir bosqichida savollarni taxminan quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish zarur: dastlab bolalar tajribasini jonlantirish uchun reproduktiv, keyin yangi materialni hazm qilish uchun oz sonli, biroq murakkab bo'lgan qidiruv savollari va oxirida 1-2 umumlashtiruvchi savollar. Savollar aniq va maqsadli bo'lishi lozim. Noaniq bo'lgan savollar bolalarga javob berishni qiyinlashtiradi – ular javob bera olmaydilar yoki noto'g'ri javob beradilar. Savol aniq, shoshmasdan, mantiqiy urg'ular, mazmuniy pauzalarga rioya qilgan holda berilishi zarur. Bolaga javob qaytarishga vaqt berish uchun tarbiyachi pauza saqlab turadi. Agarda savol tez berilsa, bola uning mazmunini tushunishga ulgurmaydi va tarbiyachi savolini bir necha marta takrorlashiga to'g'ri keladi, bu esa bolaga javobni o'ylashda xalaqit beradi, uni tarbiyachiga quloq tutmaslikka o'rgatib qo'yadi. Bolaga savolni birinchi martada qabul qilishni o'rgatish zarur.

Tarbiyachi suhbat jarayonida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- Bolalar tomonidan o'zlashtirilmagan, qo'shma gaplar yoki bir turdagi a'zoldan iborat bo'lgan gaplarning ayrim sintaktik tuzilmalarini aytib turish;
- Gapning bolalar o'zlashtirmagan mazmunli bo'laklarining intonatsiyasini aytib berish (masalan, ogoxlantirish, xayratlanish, tashvishga tushish, xursand bo'lish intonatsiyasi va x.k.);
- Bir o'zakli so'zlarni hosil qilishni aytib turish: suyuq-suyuqlik, sabzavot-sabzavotli va boshq.
- Turlanmagan fe'l shakllarini hosil qilishda yordam berish: sepish-sepilgan, qo'yish-qo'yilgan.

Suhbat jarayonida bolalarni savol berishga undash, ularning qiziquvchanligini rivojlantirish zarur. Bolaning savol bera olishga qodirligi uning fikrlash faoliyatidan dalolat beradi.

Badiiy asarlar – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni teatrlashtirish usuli – bu bolalarning ularga tarbiyachi o'qib bergan asarlarni o'sha shaxslar nomidan qayta aytib berish usullaridir.

Boshqa shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni o'z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma'qul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og'zaki nutqini, xususan, murojaat, sanash, xayratlanish, xayron bo'lish intonatsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq emotsional jihatdan yanada boyiydi – u personajlarning axvolidan kelib chiqqan holda gox xursand, gox qayg'uli va gox iltijonamo jaranglaydi.

Bolalarga og'zaki dialogik nutqni o'rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, qo'g'irchoq teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Sahnalashtirish o'yini – bu bolalarning badiiy asarni uning qahramonlari obrazlarida qayta hikoya qilib berishlari; bolalarning matnini erkin qayta aytib berishlari va bolalarning syujetli-rolli o'yinlaridir.

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalarga birinchi navbatda, o'z nutqida ertak matnidan chetga chiqishga ruxsat beriladi. Tarbiyachi ularni faqat grammatika yoki leksikada adabiy so'zlashuv nutqi me'yorlaridan chekingan xollardagina to'g'rilaydi; o'yin chog'ida fonetik xatoliklarga yo'l qo'yilganida uni to'g'rilash shart emas.

Teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtirish o'yinlaridan shunisi bilan farqlanadiki, unda badiiy asar matnini yoddan biladigan bolalar ishtirok etadilar, ularning bu chiqishdan ko'zlagan maqsadi – o'z tinglovchi do'stlarining ko'nglini olishdir; bu tomoshada bolalar teatr kostyumlarida (maska qalpoqchalar va boshqa kiyimlar) chiqadilar.

Qo'g'irchoq teatri – bu syujetli «rejissyorlik» o'yinning har xil turlaridir: bolalar bir vaqtning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petrushkalar (qo'l barmoqlariga kiyiladigan qo'g'irchoqlar, suratlar qirqimlari va x.k.)ni asar qahramonlari rolini o'ynashga majbur qilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar.

Qo'g'irchoq teatri shakli quyidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petrushkalar teatri, «barmoqlar» teatri, soya teatri, stol teatri, flanelegraf.

Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar.

Yuqorida sanab o'tilgan qo'g'irchoq teatri turlari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutqini faollashtiruvchi metodik vositalar sifatida foydalaniladi: bolalar pedagog yordamida, katta guruhlarda esa o'zlari mustaqil ravishda qo'g'irchoqlarga, qirqilgan rasmlarga rejissyorlik qiladilar, ular nomidan ishtiyiq bilan so'zlaydilar va shu tariqa o'zlarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Sahnalashtirish o'yini – maktabgacha yoshdagi har qanday bolaning teatrlashtirilgan chiqishidir.

Bolalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishining borishiga qarab, ularning savollarga javoblari yanada aniq, mulohazali va mazmunli bo'ldib borishi lozim.

Suhbat jarayonida bolalar bilan so'zlashuvning jonliligi ko'p jihatdan og'zaki nutqqa va nutqiy muloqotning savol-javob shakliga xos bo'lgan grammatik tuzilmalarining turlichaligi bilan bog'liqdir.

Suhbatlarda bolalar keng qamrovli fikr bildirishlari va bir-ikkita so'zdan iborat bo'lgan javob berishlari mumkin (Sizga ertak yoqdimi – Xa.). Bolalarni keng qamrovli javoblarga savollarni to'g'ri qo'yish orqali yo'naltirish zarur: «Baxorda ob-havo ko'proq qanday bo'ladi? Bu xaqda aytib bering».

Bolaga mana bunday ko'rsatma berish mumkin: «Qisqa javob ber. Batafsil javob ber (ammo to'liq javob bilan emas)», ulardan so'rash mumkin: «Kim qisqa javob bera oladi (yoki o'rtog'ingizdan chiroyliroq javob bera oladi)». Zarur holatlarda pedagog qo'yilgan savolga keng qamrovli javob namunasini namoyish qilishi mumkin.

Suhbat jarayonida bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o'qitish ishining mazmuni va uning vazifalari

Bolalarga monologik nutqni muntazam o'qitish taxminan besh yoshdan boshlanadi. Lekin bunga tayyorgarlik bola hayotining ikkinchi yilida - bolalarning o'qish va sanoq she'rlarni yodlash jarayonida boshlanadi. To'rt yoshdan boshlab bolalar monologning tavsiflash va bayon qilish turlarini qo'llashga, Yetti yoshdan boshlab esa – qisqa mulohaza yuritishga qodir bo'ladilar. Monologning qiyinligi shundaki, u diqqat-e'tiborini o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan voqea yoki badiiy asarga qaratgan boladan bir vaqtning o'zida nafaqat narsalar, hodisalarni payqash, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham sezishni talab qiladi. Bu bir vaqtning o'zida fikrlash va nutqni rivojlantirish vositasi hisoblangan xotirani ham ishga solishga olib keladi.

Kattalar bolaga g'amxo'rlik ko'rsatib, monologlar uchun mavzu qidirish, bolalarni tinglash orqali bu mushkulotlarni yengib o'tishda ularga yordam beradilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy natijalar muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o'ringa o'tadi. Bola o'z tengdoshini kattalardan afzal ko'ra boshlaydi

Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi

Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi Qayta hikoya qilib berish va hikoya to'qish monologga o'qitish metodi hisoblanadi. Bolalar monologik matnlarni qayta hikoya qilib beradilar, real va xayoliy voqealar haqida hikoya qiladilar, hikoyalar to'qiydilar.

Monologik nutqni o'qitish metodini o'zlashtirib olish pedagog uchun quyidagilarni anglatadi: bolalarni tinglashni o'rganish; qayta hikoya qilish va hikoya qilish, shuningdek hikoya to'qishda bolalarga yordamlashishni o'rganish. Qayta hikoya qilish – eshitilgan badiiy asarni ravon, ifodali aytib berish. Qayta hikoya qilish nisbatan oson nutqiy faoliyatdir, chunki, bola tayyor mazmuni qayta aytib beradi, bunda u muallifning tayyor nutqiy shakllaridan (lug'at, so'z oborotlari, tuzilish), uni o'qiyotgan tarbiyachining nutq ifodaliligi usullaridan foydalanadi. Ammo bu mexanik ravishdagi takrorlash emas, balki matnni tushungani holda erkin va emotsional aytib berishdir.

Qayta hikoya qilib berishni o'rgatish vazifasi ilk yosh guruhlarida asta-sekin qiyinlashtirilib boriladi – yaxshi tanish ertaklar, hikoyalarni aytib berish, yangi o'qib chiqilgan asarlarni aytib berish, hikoyachi shaxsini o'zgartirgan holda (birinchi shaxs nomidan emas, balki uchinchi shaxs nomidan va aksincha) aytib berish, tarbiyachi rejasi asosida aytib berish, bolalar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida aytib berish, o'xshashlik asosida (analogiya bo'yicha) aytib berish (qahramonni, mavsumni o'zgartirish va h.k.), sahnalashtirgan holda aytib berish (o'yinchoqlar siluyetlar), bolalar tanlovi bo'yicha aytib berish.

Hikoyalar turlari va ularni o'rgatishning izchilligi

Hikoya – biron-bir fakt, voqeaning mustaqil tuzilgan keng qamrovli bayonidir.

Hikoya tuzish – hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o'zi ushbu mavzu bo'yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, uni ketma-ket (tarbiyachi yoki o'z rejasi asosida) bayon qilishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

-qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);

-xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya);

-tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod mahsuli bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga qarab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi. Bitta mashg'ulotda bitta fikrda hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l qo'yish mumkin: bola o'yinchoqni tavsiflab (qabul qilish asosidagi hikoya) bo'lganidan so'ng uni qayerda sotib olganligi yoki uni qanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan barcha hikoyalar turlari ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash, bayon qilish yoki shunchaki mulohaza yuritish sifatida bajarilishi mumkin.

Turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o'qitish ishining mazmuni va uning vazifalari yuzasidan VEN diagrammasini to'ldiring.

shakllantirish

1. Bolalarga monologik nutqni o'qitishga qaysi yosh bosqichida zarur bo'lganligi ko'rish lozim?
2. Monologning bola uchun qiyinligi sababi nimada?
3. Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning nutqiy imkoniyatlari xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bola nutqi vazifalarining turli-tumanligini aniq misollar orqali tavsiflang.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

NAZORAT SAVOLLARI:

- «Ravon nutq» tushunchasi nimani anglatadi?
- Nutq inson faoliyatida qanday vazifalarni bajaradi? Ularning har birini tavsiflang.
- Kommunikativ tushdagi omillar deganda nimani tushunish lozim?
- Monologik nutqni shakllantirishda nimalar o'quv va yo'ldosh vazifalar hisoblanadi?

- Tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritishning nimaligini aniq misollar orqali tavsiflab bering.
- Bolalarga dialogik nutqni o'qitishning asosiy metodini tavsiflab bering.
- Suhbatdan qaysi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
- Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarda pedagog qaysi asosiy metodlardan foydalanishi zarur?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'qitish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

8-mavzu: Hikoya qilib berishga o'rgatish. Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi
Reja:

1. Hikoya haqida umumiy ma'lumot
2. Hikoya aytish metodikasi
3. Hikoya qilib berishga o'rgatishda tarbiyachining kommunikativ mahorati
4. Qayta hikoya qilishni o'rgatish.
5. Qayta hikoya qilish usullari.
6. Qayta hikoya qilishni o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil etish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: hikoyalash, nutqiy shakllar, bayon, tavsif, mulohaza, monologik nutq, dialogik nutq, ta'lim va tarbiya, xalq pedagogikasi, mashg'ulot jarayoni.

Hikoya – biron-bir fakt, voqeaning mustaqil tuzilgan keng qamrovli bayonidir.

Hikoya tuzish – hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o'zi ushbu mavzu bo'yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, uni ketma-ket (tarbiyachi yoki o'z rejasi asosida) bayon qilishlari zarur.

Hikoyalar shakliga ko'ra tavsifiy va syujetli bo'lishi mumkin.

Tavsiflash – narsa yoki hodisaning o'ziga xos belgilarini bayon qilishdir. Tavsiflash qisqa bo'lishi va muayyan tuzilma asosida tuzilishi lozim: dastlab narsaning nomi aytiladi, so'ngra uning o'ziga xos belgilari, uning qismlarining nimaga mo'ljallanganligi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda narsaning vazifasi bayon qilinadi. Tavsifiy hikoyalar qiyosiy (qarama-qarshi belgili hamda hajmi, rangi, materiali, qismlari, shakliga qarab bosqichma-bosqich taqqoslanadigan ikki narsani tavsiflash) va izoxlovchi (mulohaza yuritish, isbotlash bilan birgalikda hikoya qilish va aytilayotgan harakatlarni bajarib ko'rsatish) bo'lishi mumkin.

Syujetli (bayoniy) hikoya – voqealarni biron-bir qahramon bilan birgalikda vaqt bo'yicha ketma-ketlikda aytishdir. Bolalarga uni odatdagi tuzilma asosida tuzishni o'rgatish zarur – dastlab qahramonning nomi aytiladi, ba'zan uning tashqi ko'rinishi tavsiflanadi, birinchi voqea bayon qilinadi, u qachon va qayerda yuz berganligi tushuntiriladi, so'ngra ikki-uch lavxa keltiriladi va hikoya yakunlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

- qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);
- xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya);
- tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod maxsul bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga qarab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi.

Bitta mashg'ulotda bitta fikrdagi hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l qo'yish mumkin: bola o'yinchoqni tavsiflab (qabul qilish asosida hikoya) bo'lganidan so'ng uni qayerdan sotib olganligi yoki uni qanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin.

YUqorida sanab o'tilgan barcha hikoyalar turlari ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash, bayon qilish yoki shunchaki mulohaza yuritish sifatida bajarilishi mumkin.

Bolalarni hikoya qilishga xuddi suhbatga tayyorlagandek tayyorlash lozim: bolalar hikoya predmetini butun hayotiy to'liqlikda, sezgilari bilan birgalikda (hajmi, shakli, rangi, xidi, ta'mi, ovozi, harakat tusi va boshq.) o'ziga tasavvur qilishi zarur; narsaning barcha belgilarini, harakatlarini va ularning munosabatlarini aytish uchun bolalarda zahirada so'zlar, grammatik shakllar bo'lishi lozim. Hikoya qilishni mashq qilishdan oldin leksik, grammatik (zarur xollarda – fonetik) mashqlar bajarilishi, shuningdek, suhbatlashishni mashq qilish zarur.

Hikoyaning maxsus vazifasi (qayta hikoya qilish vazifasi kabi) – monologik nutqni rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachi hikoya qilishni o'rgatishni savollar zanjiri yordamida, ya'ni bolaning bayon qilish, tavsiflash yoki mulohaza yuritishda mantiqqa amal qilishni ko'zda tutuvchi reja yordamida amalga oshiradi.

Hikoya rejasi oddiy bo'lishi, ya'ni bir chiziqdagi savollar zanjiri shaklida yoki murakkab, ya'ni keng tarmoqlangan qo'shimcha (aytib turuvchi yoki faqat yo'naltiruvchi) savollar zanjiri shaklida bo'lishi mumkin.

Turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan mashg'ulotlar turlicha o'tkaziladi va ushbu mashg'ulotlarda bolalarga qo'yiladigan talablar ham turlicha bo'ladi.

Hikoyaga oid mashg'ulotlarda doimo taniqli she'rlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlarni esga olish maqsadga muvofiqdir: bu bolalarning emotsional kayfiyatini ko'taradi va ularning hikoyalari yanada ifodali qiladi.

Monologik nutqqa oid mashg'ulotlarni real ob'ektlarga (quyoncha) tayanish usullari yordamida va real narsalarni eslash (farrosh mexnati haqida hikoya) asosida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar suratlariga qarab hikoya qilishni tegishli suratlarni (harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan) ko'rib chiqish jarayonida o'rganadilar.

Statik suratlar – bu tavsiflash uchun didaktik materiallardir: ularda tasvirlangan narsalar yoki harakatlar haqida hikoya qilish bir vaqt rejasida olib boriladi.

Harakatlanadigan suratlar – (bosmaxonada chop etilgan turkum suratlar, diafilmlar, diapozitivlar va boshq.) – bayon qilish uchun didaktik materiallardir: ularda tasvirlangan narsalar yoki harakatlar bir-biridan keyin keladigan vaziyatlardan iboratdir.

Mulohaza yuritish uchun materialni har qanday surat berishi mumkin, faqat buning uchun “nima uchun?” (u yoki bu voqea, harakat yuz berdi) yoki “qanday vaziyatda?” (narsa u yoki bu belgiga ega bo'ladimi-yo'qmi?) degan savol to'g'ri qo'yilsa bo'ldi.

Bolalar tarbiyasi mavzusiga oid statik suratlardan didaktik material sifatida foydalaniladi: ular oson kompozitsiyaga ega bo'lib, ularda ayrim ob'ektlarni ajratib ko'rsatish, ularning o'zaro munosabatini aniqlash ham osondir (“Biz o'ynayapmiz”, “Uy xayvonlari”, “YOvvoyi xayvonlar”, “Yil fasllari” va boshq.).

Harakatlanadigan suratlar bilan ishlash metodikasi kitobning o'z shakli bilan belgilanadi. Bolalarga yaxshi tanish bo'lgan ertaklar va hikoyalarga ishlangan diafilmlar va diapozitivlar bolalarga monologik nutqni o'rgatish uchun ayniqsa, juda qulaydir. Dastlab bolalar ularni ko'p marta tomosha qiladilar, uning titrlari o'qib chiqiladi (pedagog yoki ota-ona tomonidan), so'ngra titrlarni o'qishdan bolalarning kadrlarda tasvirlangan lavxalarni hikoya qilib berishiga o'tiladi.

Monologga o'rgatish jarayoni (bayon qilish, tavsiflash, mulohaza yuritish) shundan iboratki, tarbiyachi o'z rejasi (savollar zanjiri) asosida birinchidan, bolaga mavzudan chiqib ketmaslikka, voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilishga yordam beradi, ikkinchidan, hikoyachi nutqining emotsional ifodaliligi haqida qayg'uradi va ushbu mavzu uchun mos keladigan she'rlar, ertaklar, topishmoqlar, yozuvchilar hikoyalari parchalarini taklif qiladi.

Bolalarning tasavvur asosidagi og'zaki to'qima hikoyalari monologik nutq turlaridan biri hisoblanadi. Xayolparast bolalar suratlarining boshlanishi yoki nihoyasini ishtiyoq bilan o'ylab topadilar, ya'ni suratlarda tasvirlangan voqealardan oldin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni yoki suratda tasvirlangan voqealardan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni o'zlari to'qiydilar; tanish ertaklar yoki hikoyalar mavzusida kontaminatsiya¹¹ tuzadilar, qahramon nomidan (1 –shaxs nomidan hikoya qilish) hikoya qiladilar, unda yil faslini o'zgartiradilar va x.k.; o'zlari ertak hamda hikoyalar to'qiydilar.

¹¹ Kontaminatsiya (lotincha Contaminatio – to'qnashish, o'rini almashtirish; matn usuli, bir asarning turli tahrirdagi qismlarini birlashtirish), BSE, 622-bet, 4-nashri, M., 1987.

Bolalar ijodlarini quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

- suratlar asosida ijodiy to'qima;
- badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar;
- ertaklar, hikoyalarni erkin to'qish.

Surat asosida ijodiy to'qishni maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan amalga oshirish tavsiya etiladi. Hikoya suratda tasvirlangan har qanday narsa haqida bo'lishi mumkin.

Badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar. Bolalar katta ishtiyoq bilan o'zlarini o'z sevimli qahramoni (qahramonlari) tushib qolgan vaziyatlarga qo'yib ko'radilar, uning harakatlarini o'zlashtiradilar, muallifni "tuzatadilar», asar qahramonlarining muayyan vaziyatlardagi sarguzashtlarini ijodiy jihatdan qayta hazm qiladilar. Bolalarning ushbu xususiyatidan eng avvalo, ularda oliyjanob karakter qirralarini tarbiyalashda foydalanish zarur. Nutqni rivojlantirish uchun – monologni o'rgatish: tarbiyachi yoki ota-onalardan birortasining iltimosi bilan rag'batlantirilgan bolalar ishtiyoq bilan xayol sura boshlaydilar, o'zlarini badiiy asarning biron-bir qahramoni (ijobiy yoki salbiy) sifatida tasavvur qiladilar.

Yaxshilik va go'zallikka qarama-qarshi qo'yilgan ertakdagi hamda real hayotdagi yomonlik va badbashaalik obrazlari ham tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Hikoya to'qish – kombinatsiyani o'rgatish metodikasi quyidagicha: bolaga ertak yoki hikoyaning muayyan lavxasini bu xuddi uning o'zi bilan yuz bergani kabi o'z nomidan aytib berish taklif qilinadi. Pedagog «to'qish»ning borishini hamdardlik bilan kuzatib boradi, o'zini bolaning har so'ziga ishonayotgandek qilib ko'rsatadi, ayni paytda bolaning nutqini kuzatib boradi, uning nutqidagi kamchiliklarni unga xalaqit bermasdan tuzatib boradi. Asarni tanlashda pedagog uning bola asar qahramonlarining ijobiy xususiyatlaridan namuna oladigan darajada munosib bo'lishiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Zero, ushbu yoshda bolaning o'rganganlari butun umrga muxrlanib qoladi.

Erkin to'qish shundan iboratki, bunda bolaga ertak yoki «bo'lishi mumkin bo'lmagan» loflarni to'qish uchun to'liq erkinlik beriladi. To'qishga ataylab o'rgatilmaydi, ammo erkin (mustaqil) ijod qilish qobiliyati maktabgacha ta'lim muassasasida va uyda bola nutqini rivojlantirish ishlarining butun tizimi doirasida tarbiyalab boriladi. Bola nutqiy jihatdan qanchalik yaxshi tayyorlangan bo'lsa, undagi tasavvur va ijodiy qobiliyat shunchalik yaxshi rivojlanadi.

Leksikasi boy, grammatik to'g'ri bo'lgan, eng asosiysi – mantiqiy va ifodali mustaqil ijod qilish olti-etti yoshli bolalarning qo'lidan keladi. Bungacha ularning to'qimalari – o'zlariga tanish bo'lgan badiiy asarlarning mantiqiy jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan so'zlar to'plamidan iborat bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning hikoya to'qishga qodir emasliklarini me'yordan chekinish, deb hisoblamaslik lozim. Bu tabiiy bo'lib, bolalarning nutqi va fikrlash darajasi hali hikoya to'qish uchun yetarli emasligi bilan izoxlanadi.

Qayta hikoya qilishni mashq qilishni hikoya to'qish borasidagi tayyorgarlik ishi hisoblanadi.

Ravon nutqni (hikoya qilishni) rivojlantirishning asosiy sharti kattalar va bolaning birgalikdagi so'z ijodkorligi hisoblanadi. YUqorida qayd etilganidek, hatto besh yoshli bolalar ham tanish ertaklarni, to'qima voqealarini hikoya qilishga, o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib hikoya qilishga qiziqqa boshlaydilar. Katta odam yo'naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollar berish, o'zining qiziqayotganligini bildirish, o'yin vaziyatlarini hosil qilish (o'yinchoqlar, rasmlar to'plami, qo'g'irchoq teatri qahramonlari yordamida) bola tashabbusini qo'llab-quvvatlashi zarur. Pedagogning hikoya mavzusini, voqealar rivojini, voqealarning extimoliy yakunini, so'z shaklini aytib berishi birgalikdagi so'z ijodkorligi uchun katta ahamiyatga egadir. Birgalikda hikoya qilib berish dastlab dialog ko'rinishiga ega bo'ladi, bunda katta odam savol beradi, bola javob beradi, katta odam gapni boshlaydi, bola esa uni nihoyasiga yetkazadi. Bunday dialogdan – monolog nutqi tug'iladi. Keyinchalik bola monologni asosida bolalarning

birgalikdagi ijodkorligi boshlanadi, u kattaning bola bilan dialogi shaklini takrorlaydi. Birgalikda hikoya qilish uchun yaxshi asos rasmlar turkumi bilan ishlashda, rollarga bo'linib hikoya qilib berishda, o'yin sahnalashtirishlarda yaratiladi.

Maktabgacha katta yosh – bolaning nutqini o'rganishga qizg'in kirishish, til voqeligini eng oddiy tarzda anglash davridir. Maktabgacha yoshdagi bolaning til sohasidagi boy tajribasi, aniq, obrazli so'zda ifodalangan yorqin taassurotlari, kechinmalari uning til va nutq sohasidagi mustaqil faoliyatining muhim shartidir.

Muammoli nutq holatlari fonetik, leksik va grammatik mazmundagi turli so'zli didaktik o'yinlarda modellashtiriladi. SHuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik o'yinlarni tashkil qilishni bolalarda so'zga nisbatan lingvistik munosabatni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Leksik mazmundagi o'yinlar va mashqlar nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli buyumlar va ob'ektlarni qiyoslash, ularning turli umumiy xususiyatlari va vazifalarini ajratish muhim ahamiyatga egadir.

Real ob'ektlar (o'yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebellar va x.) ham va tasavvur qilinadigan vaziyatlar (quvnoq va ma'yus ayiqcha, ertagi va kechki ob-havo, qahramonning voqea boshidagi va uning yakunidagi kayfiyati) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoyani boshlashdan oldingi lug'at mashqlari bolalar ravon nutqining aniq va obrazli so'zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Turli toifadagi so'zli o'yinlar, mashqlar, muammoli vaziyatlarning o'zaro bog'liqligi, ularning asta-sekin murakkablashuvi, muammoli nutq vazifalarini muntazam ravishda qo'yib borish-to'laqonli nutqiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar tili va ularning ravon nutqini rivojlantirishga doir doimiy ishlarning maqbul shakli maxsus nutq mashg'ulotlari hisoblanadi, unda nutqni rivojlantirishga oid vazifalar yalpi tarzda va o'zaro bog'liqlikda xal etiladi.

Qayta hikoya qilish — hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish bolalar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zni e'gallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib bera olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish sanjarali boiishi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish uchun matnlarni to'g'ri tanlash lozim. Har bir asar bolalarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak.

Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy -mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazlilik, voqealarning ketma-ketlilik, mazmunining qiziqarliligi. Shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning bola yoshiga mos kclishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdek, dasturda bolalarning qayta hikoyalariga bir qancha talablar qo'yilgan:

- 1) Ma'nosiga tushungan holda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;
- 2) Asarni to'liq bayon etish, ya'ni asardagi muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish;
- 3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;
- 4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;
- 5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq pauzalarning bo'lmasligi;
- 6) og'zaki nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda g'avnani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma'nodorligidan (ifodaliligidan) foydalanish, yetarlicha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish.

Ushbu talablarning barchasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish usullari

Ma'lumki, qayta hikoya qilish monolog nutqni shakllantirishda eng birinchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun har bir bola qayta hikoya qilishni yaxshi egallab olishi shart. Buning uchun har xil usullardan foydalaniladi. Bular quyidagilar:

1. Tarbiyachining bola bilan birga qayta hikoya qilishi. Tarbiyachi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalanishi kerak. Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga sezdirilmagan holda gavdasini to'g'rilashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg'ulotning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: „Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin“.

2. Qayta hikoyani takrorlash. Bu usuldan ko'proq o'rta va katta guruhlarda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bo'lgan usuldir, chunki u tarbiyachining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jumalarni ham takrorlashga to'g'ri keladi.

3. So'z va jumalarni aytib turish. Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi. Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda sekin bo'lsa, tarbiyachi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini to'plashi kerak. Agar bola hikoya qilayotgan vaqtda tebranib (chayqalib) tursa, boshini egasa, qo'li bilan ortiqcha harakatlarni qilsa, uning hikoyasini bo'lib tanbeh berish yaramaydi, balki bunday hollarda imo-ishora, ko'z qarashi bilan lining xatosini, kamchiligini tuzatishi, hikoya qilib bergandan keyin esa hammaga eshitarli qilib: „Hikoya qilayotganingda tinch turishing. boshingni pastga egmasdan, o'rtoqlaringga qarab turishing kerak. Axir ular sening hikoyangni tinglashadi-ku“, deb aytishi kerak. Tarbiyachi bolaning bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo'ysa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib berish mashg'ulotidan oldin yana bir marta bolani ogohlantirishda bundan foydalanadi. Tarbiyachi aytib turish orqali, bolani qayta hikoya qilayotganida yo'l qo'ygan grammatik xatolarni to'g'rilaydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o'rgatishning keyingi bosqichlarida ham qollaniladi.

4. Savollar berish. Bu usul keng tarqalgan bo'lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg'ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatilishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan bolalarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: „Sen nima haqida hikoya qilasan, o'la quyon to'g'risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina o'la quyon sheriklariga...“. Yoki: „Turna Tulkini o'zi bilan olib, osmonga ko'tarilibdi va unga nima debdi? Yerni ko'ryapsanmi? Mana shu Turnaning aytgan gaplarini, Tulkining esa javobini aytib bering... Ha, mushtumday...“ Bu yog'ini o'zing davom ettir. Bola qayta hikoya qilib bergandan keyin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini bola qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joylarini tiklashga yordam beradi. Ayrim hollarda qayta hikoya qilishdan keyin qahramonlarning fe'l-atvori yoki ularning ifodali nutqi haqida savol berish mumkin. Qayta hikoya qilish o'rtasida uncha katta bo'lmagan mashqlar o'tkazish yoki ko'rsatma berishdan foydalanish mumkin. Shuningdek, asar matnining ayrim joylarini yana bir marta takrorlash usulini qo'llash mumkin.

5. Rag'batlantirish. Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolani jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so'z aytish („Yasha“, „Barakalla“) bilan rag'batlantiradi. Qayta hikoya qilib bergandan so'ng bolani maqtaydi. Bunda qayta hikoya qilishning biror ijobiy sifatini ta'kidlab o'tadi.

6. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish. Bu usul bolalar idrokining qimmatini yo'qotmaydi, chunki qayta hikoya qilish uchun bolalarga mazmuni tanish bo'lgan asar tanlanadi. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg'ulotni tashkil etish jarayoni bolalardan kun davomida so'rash imkonini yaratib beradi.

7. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish. Bu usul nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachi tom onidan ishtirok etuvchi shaxslar harakterining izohlanishi bolalar nutqining oydinlashishiga, diqqatining faollashishiga katta ta'sir etadi. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish o'rta guruhdan boshlab qo'llaniladi. Bu usuldan mashg'ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8. O'yin usuli (dramalashtirilgan o'yin). Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlamlari harakatlar bilan boshqariladi: bolalar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozlari taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o'yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. Tarbiyachi avval o'zi muallif nomidan gapiradi, so'ngra bola gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo'sh rivojlangan bolalar chiqariladi. Dramalashtirilgan o'yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotining tuzilishi (o'tkazish uslubiyoti) har xil boladi. Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn bolalar uchun tushunarli bolishi kerak. Qayta hikoya qilish mashg'ulotlari har bir yosh guruhining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Bu yoshdagi bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatish ularga tanish bo'lgan ertaklarni („Bo'g'irsoq“ „Sholg'om“, „Bo'ri bilan echki“, „Och ko'z it“) takrorlashdan boshlanadi. Tarbiyachi kichik bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda quyidagi usuldan foydalanadi. Bolalar tarbiyachining takroriy hikoyasidagi bitta-ikkita so'zni yoki to'liq gapni takrorlaydilar:

— Chol bilan kampir...

— Yashashar ekan.

— Bir kuni chol...

— Sholg'oni ekibdi.

So'ngra bolalar sekin-asta savollar yordamida qayta hikoya qilishga o'rgana boshlaydilar. Savollar voqealar ketma-ketligini belgilashga, ishtirok etuvchilarning nomini aytishga qaratilgan bo'ladi:

— Bo'g'irsoq kimni uchratdi?

— Quyonni.

Agar boia ertakning boshlanishini yaxshi eslab qolgan bo'lsa, u holda uni mustaqil hikoya qilib bera oladi. So'ngra qayta hikoya qilish jarayonida bola qiynalsa, tarbiyachi yordamlashadi, ya'ni matnni esiga tushirishdan foydalaniladi, bu ertak mazmunini oson takrorlashga yordam beradi. Qisqa xalq ertaklarini qayta hikoya qilishdan so'ng kichik hajmdagi hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'tishi mumkin (Mirmuhsin. „Olxo'ri“, „Tosh“). Mashg'ulotda asarga ishlangan illustratsiyalar ko'rsatiladi. Ko'rsatish savollar, ko'rsatmalar berish bilan birga qo'shib olib boriladi. Illustratsiyalarni asarni o'qib berishdan avval yoki o'qib bergandan keyin ko'rsatgan ma'qul. Tarbiyachi shunday deydi: „Hozir men sizlarga rasmlarni ko'rsataman, so'ngra hikoya o'qib beraman“ yoki „Hozir hikoyani o'qib beraman, so'ng rasmlarni ko'rsataman“.

O'rta guruhda bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda ancha murakkab bo'lgan vazifalar hal etiladi: bolalarni kichik hajmli va tanish bo'lgan ertak va hikoyalarni hikoya qilib berishga o'rgatib qolmasdan, balki asar qahramonlarining gaplarini ifodali qilib bayon etishga, boshqa bolalarning qayta hikoya qilishlarini diqqat bilan tinglashga va matnga

taalluqli bo'lmagan jummalarni topishga o'rgatadi. Ushbu guruhda bolalar butun yil davomida 8—10 ta adabiy matni (o'zbek ertaklaridan „Tulki bilan Turna“, „Maqtanchoq quyon“, „Fil va xo'roz“, „Ikki o'rtoq“, A.Oripovning „Bobo va nabira“ she'ri)ning mazmunini qayta hikoya qiladilar.

O'rta guruh bolalariga qayta hikoya qilishlari uchun tavsiya etilgan asarlar mavzusi, mazmuni va shakli jihatdan katta farq qiladi. Shuning uchun o'rta guruh bolalarini qayta hikoya qilishga o'rgatishdagi muhim vazifa — bu ularga asarning mantiqiy bog'lanishini, uning mazmunini tushunib olishga yordam berishdir. Bunga asarni dastlabki o'qishdan so'ng o'tkaziladigan suhbat orqali erishish mumkin. Bunday suhbatda tarbiyachining savollari asosiy metodik usul bo'lib hisoblanadi.

Badiiy asarlar yuzasidan ikki guruhdagi savollar berilishi mumkin:

1) asar mazmunini tushunib olishga yordam beruvchi;

2) voqeaning ketma-ketligini esga tushirishga yordam beruvchi.

Shuningdek, asar o'qib berilgandan keyingi suhbat bola nutqidagi lug'at boyligini aniqlash va faollashtirish, qahramonlarning ovozlari ifodali bayon etishga ta'sir etish kabilarni amalga oshirishga yordam beradi. Adabiy matn o'qib berilgandan so'ng, bolalar asar mazmunini tushunib olganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan qisqa suhbat o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga shunday savollar beradi: „Ertak nima haqida ekan? Bu ertakdagi quyon qanday? (qo'rqqoq, yolg'onchi, tarbiya ko'rmagan.) Quyon sheriklariga nima deb maqtanibdi va u bilan qanday voqea ro'y beribdi? Agar siz maqtanchoq quyonchani uchratib qolsangiz, unga nima degan bo'lar edingiz?

(Uyalmaysanmi, maqtanchoqlik qilishga. Yolg'onchi, qo'rqqoq sanku. Bundaylarni biz o'zimizga sherik, o'rtoq qilib olmaymiz, u bilan birga o'ynamaymiz.) Asar matni yuzasidan suhbat o'tkazilgach, u ikkinchi marta o'qib yoki hikoya qilib beriladi va bolalar tomonidan qayta hikoya qildiriladi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: „Endi diqqat bilan tinglanglar. Hozir men bu ertakni yana bir marta o'qib (hikoya qilib) beraman. So'ngra sizlar menga qayta hikoya qilib berasizlar“. O'rta guruhda tarbiyachi va bolaning birgalikda (hamkorlikda) qayta hikoya qilishlaridan keng foydalaniladi. Bola qayta hikoya qilayotganda tarbiyachi jummalarni uning esiga tushirib turadi, esidan chiqargan so'zlarni aytib turadi. Bu qayta hikoya qilishning ravonligini ta'minlaydi, jumlar uzilib qolishining oldini oladi. Sekin-astalik bilan bolaning qayta hikoya qilishiga talab orta boradi. Endi tarbiyachi boladan hikoyaning to'liq bo'lishini („Sen nima haqida hikoya qilib berishni esingdan chiqarding?“), asarni qayta hikoya qilib berayotganda bola diqqatini asardagi personajlarning so'zlarini ifodali qilib aytib berishga jalb qilish kerak. Masalan: „Tulki xo'rozdan derazadan qarashini qanday so'raydi?“ — „Samimiy, ayyorona“; „Maqtanchoq quyon o'rtoqlariga nima deb maqtandi?“ — „Ve-e. Yem bo'lib bo'pman. Boshiga chiqib bir tepdim, til tortmay o'lib qoldi“ — (Maqtanib, gerdayib.) Ushbu guruhda savollar bo'yicha qayta hikoya qilishdan ham foydalanish mumkin. Ba'zi hollarda bolalar asar mazmunini o'z so'zlari bilan bayon etadilar. Bunday holda bola tomonidan tanlangan so'zlarni muallifning fikrini aniq va to'g'ri ifodalashini nazorat qilib borishi kerak. Bolalarning qayta hikoya qilishlarini baholash muhim uslubiy (metodik) usullardan hisoblanadi. O'rta guruhda bolalarning hikoyasini tarbiyachi baholaydi. Bolalarning qayta hikoya qilishini baholashda uning yaxshi tomonlarini va kamchiliklarini, harakatchanligini aytib, qisqa tahlil qilish lozim. Bu bilan quyidagi dastur vazifasini bajarish zarur: bolalarda qayta hikoya qilishda matnga to'g'ri kelmaydigan joylarni seza olish qobiliyatini tarbiyalash. Tarbiyachi bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali ularning nutq faoligini, mustaqilligini rivojlantirishga ta'sir etadi. Katta guruhlarda adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda yangi vazifalarni haletish nazarda tutiladi: tarbiyachining yordamchi savollarisiz ertak va hikoyalarning mazmunini bir-biriga bog'lab, izchillik bilan, ifoda vositalaridan foydalanib, grammatik tomondan to'g'ri bayon etishga o'rgatish. Endi bu guruhda ancha murakkab, hajmi

kattaroq bo'lgan asarlarni qayta hikoya qilish taklif etiladi. (Bu guruhlarda qayta hikoya qilish uchun tavsiya etilgan asarlar ro'yxati „Badiiy terma kitob“da ko'rsatilgan. Tuzuvchilar: S. G'oziyeva, D. Ochilova, L. Dolimova. T., „O'qituvchi“, 1993.)

Masalan: „Bo'ri bilan tulki“ (o'zbek xalq ertagi), „Chumchuq“ (o'zbek xalq ertagi), Gulxaniyning „Toshbaqa bilanchayon“ masali, „Zumrad va Qimmat“ (o'zbek xalq ertagi) va hokazolar.

Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish mashg'ulotida tarbiyachi o'z oldiga bolalarning boglanishli nutqini rivojlantirish, matn mazmunini bir-biriga bog'lab, kctma-ketlik bilan, nutqning ifodali vositalaridan foydalanib, aniq, grammatik jih atdan to'g'ri bayon etishga o'rgatish vazifasini qo'yadi. Qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotini o'tkazish uslubiyoti (metodi) ushbu guruh bolalari bog'lanishli nutqining rivojlanganlik darajasiga, tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan vazifasiga, shuningdek, qayta hikoya qilib berish uchun tavsiya etilgan adabiy asar matniga bog'liq bo'ladi.

Qayta hikoya qilib berish mashg'uloti ushbu qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Kirish suhbat. Bu suhbat asar mazmunini idrok qilishga, bolalarning tasavvurlarini aniqlashga, kerakli emotsional holatni vujudga keltirishga va hokazolarga qaratilgandir.

2. Badiiy asarni o'qib berish. Asarni dastlabki o'qib berishda bolalarga uning mazmunini esda saqlab qolish kerakligini, so'ng uni qayta hikoya qilib berish lozimligini ta'kidlamaslik kerak, aks holda, badiiy asarning g'oyaviy tomonini idrok eta olmasligi mumkin. Asar matnini ma'noli qilib, ishtirok etuvchilarning dialogini intonatsiya bilan ajratib o'qib berish (yoki hikoya qilib berish) juda muhimdir. Shunday qilinganda bolalarga asardagi qahramonlarga va voqealarga o'z munosabatlarini bildirishga yordam bergan bo'lamiz.

3. O'qib berilgan asarning mazmuni va shakli yuzasidan suhbat. O'qib berilgan yoki hikoya qilib berilgan asar mazmuni yuzasidan beriladigan savollar oldindan yaxshilab o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerak. Mashg'ulotning bu qismi uncha uzoq bo'lmasligi, bolalarga 4 — 5 savol berish bilan kifoyalanish lozim.

4. Adabiy asar matnini ikkinchi marta o'qib berish (yoki hikoya qilib berish). O'qib berishdan avval tarbiyachi bolalarga asarni diqqat bilan tinglashni, uning mazmunini esda olib qolishni, keyin qayta hikoya qilib berishlarini ta'kidlaydi.

5. Bolalar tomonidan asarni qayta hikoya qilib berish. Misol tariqasida o'zbek xalq ertaklaridan „Uch tulki“ ertagini qayta hikoya qilish mashg'ulotini keltiramiz.

Tarbiyachi ertakni o'qib berishdan (yoki hikoya qilib berishdan) avval bolalarga quyon, qo'ng'iroq, eshak va uning bolasi xo'tikning, tulkining (ona tulki, ota tulki, bola tulki) rasmlarini ko'rsatadi va bolalardan ularning nomini so'raydi. Tarbiyachi bolalardan tulki qanday hayvon ekanligini, eshak, uning bolasi xo'tik, quyon qanday hayvon ekanligini so'rab oladi. So'ngra tarbiyachi bolalarga mana shu hayvonlar, „Uch tulki“ ertagida uchrashini aytadi va bolalarga bu ertakni hikoya qilib beradi (yoki o'qib beradi). Shundan so'ng asar mazmuni yuzasidan savollar beradi: „Hozir men sizlarga qaysi ertakni hikoya qilib berdim? Bu ertak qaysi hiylagar hayvon haqida yozilgan? Ertakdagi tulkilar qanday? Rahmdilmi yoki hiylagarmi? Ular qanday qilib quyonni aldashdi? Ertak oxirida tulkining bolasi Qashqani (quyonni) qanday qilib aldaganini kim eslab qoldi?

Tarbiyachi bolalarga savollarga hammalari to'g'ri va aniq javob berganlarini, asar mazmuniga yaxshi tushunib olganlarini aytib, „Hozir men bu ertakni yana bir marta hikoya qilib beraman, sizlar esa uni diqqat bilan tinglanglar, keyin uni menga qayta hikoya qilib berasizlar, — deydi. Asarni ikkinchi marta hikoya qilib bergach, 5 — 6 bolani ertakni qayta hikoya qilib berishga chiqaradi. Har bir bolaning qayta hikoya qilib berishlari baholanadi. Masalan: „Behzod ertakni juda qiziqarli, ifodali qilib aytib berdi, ammo uning hikoyasi to'liq bo'lmadi. U ona tulki quyonni qanday aldaganini hikoya qilib bermadi“.

Katta guruh bolalarini qayta hikoya qilishga o'rgatishda turli usullardan foydalaniladi:

- a) tarbiyachi tomonidan tuzilgan reja asosida qayta hikoya qilish;
- b) bolalarga tanish bo'lgan ikkita-uchta asarlardan birini o'z xohish-istaklari bilan qayta hikoya qilish;
- d) asarni sahnalashtirib, qayta hikoya qilish.

Katta guruh bolalari o'rtirlarining hikoyalarini baholashga jalb etiladi. Bunday muhokamani uyushtirish metodik jihatdan juda murakkab bo'lib, u tarbiyachidan katta mahoratni, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini bilishni talab etadi. Yana bu ishning murakkabligi shundan iboratki, bolalar hamma hikoyalarni eslarida saqlashlari lozim bo'ladi, shuning uchun bolalarning hikoyasini yozib borgan ma'qul, so'ngra ularning ba'zilarini muhokamadan avval o'qib berishi kerak. Muhokamani tashkil etish bolalarni qayta hikoya qilishdagi yaxshi va yomon tomonlarni seza olishga, o'rtirlariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bolishni tarbiyalashga yordam beradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Bolalarga monologik nutqni o'rtirishga qaysi yoshdan boshlab tayyorgarlik ko'rish lozim?
- Monologning bola uchun qiyinligi sababi nimada?
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqiy imkoniyatlari xususiyatlari nimalardan iborat?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bola nutqi vazifalarining turli-tumanligini aniq misollar orqali tavsiflang.
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- Monologik matnni qayta hikoya qilishda yordam beradigan savollar toifalarini tavsiflang.
- Qabul qilish, xotira va tasavvur asosida qayta hikoya qilishni aniq misollar orqali tushuntirib bering.
- Real ob'ektlarga tayanish usullarini tavsiflab bering.
- Bolalar to'qimalarini tasniflang va ularni tavsiflang.
- Nutqni mazmun jihatidan rivojlantirishning asosiy shartlarini tavsiflab bering.
- Bolalarga monologik nutqni o'rtirishga qaysi yoshdan boshlab tayyorgarlik ko'rish lozim?
- Monologning bola uchun qiyinligi sababi nimada?
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqiy imkoniyatlari xususiyatlari nimalardan iborat?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bola nutqi vazifalarining turli-tumanligini aniq misollar orqali tavsiflang.
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- Monologik matnni qayta hikoya qilishda yordam beradigan savollar toifalarini tavsiflang.
- Qabul qilish, xotira va tasavvur asosida qayta hikoya qilishni aniq misollar orqali tushuntirib bering.
- Real ob'ektlarga tayanish usullarini tavsiflab bering.
- Bolalar to'qimalarini tasniflang va ularni tavsiflang.
- Nutqni mazmun jihatidan rivojlantirishning asosiy shartlarini tavsiflab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

9-mavzu: Lug'at ishining vazifalari va mazmuni. Lug'at ishining asosiy usullari

Reja:

1. Lug'at ishining mohiyati.
2. Lug'at ishining mazmuni va vazifalari.
3. Lug'at ishining metodlari va usullari.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati
5. Lug'at boyitish uchun yordam beradigan ta'limiy o'yinlarning turlari
6. Ko'rgazmali materiallar bilan o'ynaladigan ta'limiy o'yinlar

Tayanch tushunchalar va iboralar: lug'at ishi, til leksikasi, tarbiyachi, sheva leksiaksi, adabiy me'yori, o'zbek tili, boyish manbalari, til tadrijiyligi, bola leksikasi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishlarining mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o'z amaliyotida qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan, to'satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so'zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa'y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma'lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so'zlar doirasini aniqlashga yordam beradi.

Bolalar lug'atini boyitish bir vaqtning o'zida ularni atrofda borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so'zni ma'lum qilish va uning ma'nosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

Lug'at ishlarini o'tkazishda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf qiladi (ta'qiqalaydi), ularni adabiy me'yorlar bilan almashtiradi.

«Lug'atni egallash» atamasi – bu nafaqat so'zni o'zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta qo'llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir.

Insonning yuqori nutq madaniyati, lug'atining boyligi haqida u «eshitilgan», insonning jonli nutqini bezab turgan taqdiridagina so'z yuritish mumkin.

Lug'at ishida asosiy jihat – bu faqat bolalarga yangi so'zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishi – bu bolalarning faol lug'atini notanish yoki ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir.

O'zbek tili lug'ati to'xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo'ladi. Undagi o'zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yangi narsalar va hodisalarning paydo bo'lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so'zlar ham paydo bo'ladi. Bundan tashqari ilgari mavjud bo'lgan ayrim so'zlar yangilanadi, ularning ma'nosi o'zgaradi, ko'p so'zlar muomaladan chiqib ketadi. Bolalar bilan lug'at ishlarini o'tkazishda so'zning rivojlanuvchi tusga egaligini hisobga olish zarur.

O'zbek tilining lug'at tarkibini umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil qiladi. Bu o'zbek tilida so'zlashayotgan odamlarga qo'shimcha izoxlarsiz tushunarli bo'lgan va muomala uchun zarur bo'lgan so'zlar guruhidir. U uzoq vaqt mobaynida yaratilgan. Bu leksikaga nutqning turli qismlari kiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida lug'at ishining mazmunini asosan umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil etishi tufayli tarbiyachi bolalar nutqini nafaqat otlar bilan, balki fe'llar, sanoq so'zlar, old ko'makchilar, sifatlar va boshqa nutq qismlari bilan ham boyitishi zarur.

Bolalar lug'atini folklor elementlari (qo'zim, toychog'im, ona qizim) bilan ham boyitish darkor, chunki ma'lum xollarda (qayta hikoya qilish mashg'ulotlari, ertak to'qish, sahnalashtirish, o'yinlar va boshq.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif qilinadi,

so'ngra alohida emotsional jihatlar (erkalash, yupatish, iltimos qilish va x.k) bolaning maishiy nutqini bezashi mumkin.

Lug'at ishining o'ziga xosligi adabiy me'yorlardan chekinish sifatida qaraladigan oddiy so'zlashuv so'zlarini, vulgarizmni qo'llashni ta'qiqlashdan iborat.

Bundan tashqari, unutmazlik lozimki, tilda ayrim so'zlarni ta'qiqlash hodisasi mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasasida ham ushbu hodisa bilan yuzma-yuz kelishga to'g'ri keladi: masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda biz bolalarga xojatga borishni anglatuvchi so'zlarni shartli obrazlar bilan almashtirishni o'rgatamiz.

O'zbek frazeologiyasining ayrim misollari bilan tanishtirish lug'at ishining mazmuniga kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga, ayniqsa ushbu katta yoshdagi bolalarga xalq-so'zlashuv frazeologiyasidan ularning imkoni yetadigan, mazmunan oddiy bo'lgan ayrim so'zlarni, shu jumladan o'zbek folklorining barqaror oborotlari, maqollar va matallarni qabul qilish, tushunish, eslab qolish va kezi kelganda foydalanishni o'rgatish zarur. Biroq ushbu ishni amalga oshirishda unutmazlik lozimki, bolalar so'zning raqobatchi mazmuniga, uning tarkibiga bog'liq bo'lmagan butun so'z birikmasining umumiy mazmunini o'zlashtirishlari qiyin kechadi (masalan, og'zi qulog'ida, yettinchi osmonda va boshq.). SHuning uchun tarbiyachi o'z nutqiga ma'nosi bolalarga muayyan vaziyatlarda tushunarli bo'ladigan, yoki tegishli tushuntirish natijasida tushuniladigan ifodalarni kiritishi lozim. Bunday ifodalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: «o'zim, shunchaki», «eng shimarib», «azamat paxlavon» va x.k.

Har bir so'zda quyidagilarni ajratish mumkin: uning mazmuni yoki unga yashiringan ma'nosi; so'zning tovush tarkibi, uning morfologik tuzilmasi.

Bolalar bilan lug'at ishlarini amalga oshirishda so'zning ushbu uchta xususiyatini hisobga olish zarur.

Amaliyotda ko'pincha bolalarning so'z ma'nosini bilmasliklari yoki uning ma'nosini buzib talqin qilishlarini uchratish mumkin (masalan, langar – bir qo'ng'izcha. Bu suvga tashlanadigan narsa). SHuningdek, mazmuniga ko'ra bolalarga yaxshi tanish bo'lgan so'zning tovush tarkibini buzish xollariga duch kelish mumkin (tramvay, kutubxona, kotlet, kompot va x.k.). Bu buzilishlarni sabr-toqat bilan tuzatish, shuningdek yangi so'zlarning bolalar talaffuzida to'g'ri jaranglashini nazorat qilish lozim. Morfologik tizimga oid murakkab holatlarni bilgani holda tarbiyachi bolalarning diqqat-e'tiborini ataylab ayrim so'zlarning grammatik jihatiga, ularning so'z bilan birikishiga qaratishi mumkin. Masalan: Paltoning yoqasi qunduzli ekan. Paltoning ilgichi ham bor ekan va x.k.

Alohida holatlarda tarbiyachi maxsus usullar bilan ba'zan atrofdagilar nutqida buzib talaffuz qilinadigan so'zlarda to'g'ri urg'u qo'yilishini mustahkamlashi lozim (masalan, sur'at – surat).

Bolalarga ayrim otlarni tanishtirishda tarbiyachi ularning turini ta'kidlashi, otni sifatlar bilan birgalikda qo'llashi, bunda sifatning yakuniga e'tiborni qaratishi zarur: palto-kichik, ko'ylak-chiroyli, qizil, oq, sichqon – kulrang va x.k.

Leksikaning asosiy hajmini mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar (otlar, sifatlar, ravishlar, fe'llar) so'zlar tashkil etadi. Bular eng to'la xuquqli so'zlar bo'lib, ular nomlar sifatida xizmat qiladi. Tushunchani ifodalaydi va gapning asosi bo'lib xizmat qiladi (ya'ni, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, xol vazifasida chiqadi). Pirovardida, bolalar nutqini boyitish eng avvalo mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar sohasida olib borilishi lozim.

Sanoq so'zlarni o'zlashtirish bolalarga ancha qiyin kechadi.

Bolalar nutqini sanoq so'zlar bilan boyitish asosan, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir mashg'ulotlarda ro'y beradi, ushbu so'zlarni faollashtirish va mustahkamlash ona tili mashg'ulotlarida lug'at ishining maxsus mavzusi bo'lmog'i lozim.

Maktabgacha yoshda bola shunday lug'atga ega bo'lishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. SHuning uchun maktabgacha

ta'lim pedagogikasi lug'atni rivojlantirishga nutqni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraydi.

Lug'atni rivojlantirishni xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to'plangan lug'at zahirasi o'zlashtirishning uzoq davom etadigan jarayoni sifatida tushunish darkor.

Ushbu jarayonning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratish mumkin. Eng avvalo bola lug'atidagi miqdoriy o'zgarishlarni qayd etish lozim. Chunonchi, 1 yoshda kichkintoy 10-12 ta so'zni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lug'ati 3-3,5 mingtagacha ortadi.

Lug'atning sifat xususiyatlari haqida so'z yuritganda bolalar so'zning bilish natijasini aks ettiruvchi ijtimoiy biriktirilgan mazmunini asta-sekin egallab olishlarini nazarda tutish lozim. Ushbu bilish natijasi so'zda mustahkamlanadi, shu tufayli odamlar tomonidan anglanadi va muloqot jarayonida boshqa odamlarga uzatiladi.

Har bir so'zning mazmuni tushunchadir. Fikr, so'z umumiylikni ko'rsatadi. Psixologiyada ham so'z mazmuni umumlashtirma yoki tushuncha sifatida belgilanadi. «So'z mazmuni psixologik jihatdan aynan umumlashtirilgan tushunchaning o'zidir. Biz so'z mazmunini fikrlash fenomeni sifatida ko'rib chiqishga xaqlimiz» (L.S. Vygotskiy¹²). SHuning uchun lug'atni egallash jarayoni tushunchalar bilan uzviy bog'liq va shu tufayli u quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

I-xususiyati – bolalar lug'atining mazmuni. Fikrlashning ko'rgazmali-ta'sirchan va ko'rgazmali-obrazli tusga egaligi bois bola eng avvalo ko'rgazmali taqdim etilgan yoki uning faoliyati uchun mumkin bo'lgan, bolalar lug'atida ancha keng aks ettirilgan narsalar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarni o'zlashtirib oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning lug'atida nisbatan mavxum tushunchalarni belgilaydigan bunday so'zlarning yo'qligi yoki ularning ma'nosi buzilishi ham shu bilan izoxlanadi.

II-xususiyati – so'zning ma'nosi, mazmun-mohiyatini asta-sekin egallash. Maktabgacha yoshdagi bolada tushunchalar asosida fikrlash hali shakllanmaganligi sababli u egallab olgan so'zlarning ma'nosi ham muayyan yosh bosqichida tushunarli bo'lmaydi. Dastlab bola so'zni muayyan narsa yoki hodisa bilan bog'laydi. Bunday so'z umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas, u faqat bolaga muayyan narsa, hodisa haqida signal beradi va ularning obrazini chaqiradi (masalan, bola uchun soat so'zi faqat uning xonasida osilib turgan soatni anglatadi, xolos.).

Maktabgacha yoshdagi bolaning atrof-dagi borliqni – narsalar, hodisalar (xususiyatlar, xossalalar, sifatlar)ni o'zlashtirishining borishiga qarab u ularni u yoki bu belgisiga qarab umumlashtirishni boshlaydi. Ko'pincha umumlashtirishlar ahamiyatsiz, biroq bola uchun emotsional jihatdan muhim bo'lgan belgilariga qarab qilinadi.

Shunday qilib, maktabgacha bosqichdagi bolalikda so'z mazmuni bolaning bilish imkoniyatlari rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi.

III-xususiyati – bola lug'ati hajmining kattalar lug'ati hajmidan ancha kamligi. CHunki bolaning bilish tajribasi va pirovardida atrof-olam haqida to'plagan ma'lumotlari katta yoshli odamning bilimlari hajmidan ancha kam bo'ladi.

Lug'atni rivojlantirishdagi mazkur xususiyatlar maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalar bilan olib boriladigan lug'at ishlarining vazifalarini aniqlash imkonini beradi.

• Mazmunli muloqot uchun zarur bo'lgan miqdordagi so'zlar to'planishini ta'minlash

a) so'zlar mazmunini atrof-olamdagi ob'ektlarga taqqoslash, ularning xususiyatlari va munosabatlari asosida egallab olish;

b) narsalar va hodisalarning ahamiyatli belgilarini ajratish asosida so'zning umumlashtiruvchi ma'nosini o'zlashtirish;

s) nutqning obrazli qatoriga kirish va undan foydalana olish.

• Ijtimoiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan so'zning o'zlashtirilishini ta'minlash.

¹² Vygotskiy L.S. Izbranniye psixologicheskiye issledovaniya. M., 1956, 322-bet.

Ushbu vazifani xalq etish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- Lug'atni faollashtirish, ya'ni nafaqat so'zlarni bilish, balki ularni muloqot amaliyotiga kiritish.

Bolalar lug'atining xususiyati va lug'at ishlarining vazifasini maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishlari dasturi va metodikasining asosini tashkil etadigan tamoyillar belgilab beradi:

- Bolalar lug'atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta'sirchan bilishlariga tayanish.

- Lug'at ishlari mazmunining bolaning asta-sekin atrof-olamni bilish imkoniyatlari rivojlanayotgani bilan bog'liqligi.

Lug'at ishlari dasturi mazmunini murakkablashtirish uchta yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

- Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug'atini kengaytirish.

- Atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi so'zlarni kiritish.

Lug'at ishining ushbu yo'nalishlari barcha yosh guruhlarida ro'y beradi va turli mazmunda kuzatiladi: ob'ektlar va tabiat hodisalari, moddiy madaniyat buyumlari, ijtimoiy hayot ko'rinishlari bilan tanishtirishda va x.k.

Lug'at ishlarining mohiyati – til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir.

- Lug'atni rivojlantirish – bu xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to'plangan lug'at zahirasi o'zlashtirishning uzoq davom etadigan jarayondir.

- Lug'atni egallash jarayoni tushunchalarni egallash bilan uzviy bog'liqdir va shu tufayli u o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi: bolalar lug'ati tarkibi; so'zning mazmuni, mohiyatini asta-sekin o'zlashtirish, kattalar lug'atiga qaraganda lug'at hajmining ancha kamligi.

- Lug'at ishining vazifasi – bu lug'atni boyitish; so'zning ijtimoiy-mustahkamlangan mazmunini o'zlashtirish; lug'atni faollashtirishdir.

- Lug'at ishining tamoyillari bu – bolalar lug'atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta'sirchan bo'lishlariga tayanish; lug'at ishlari mazmuni bolaning asta-sekin rivojlanayotgan atrof-olamni bilish imkoniyatlari bilan bog'liqligidir.

- Lug'at ishi barcha yosh guruhlarida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmog'i lozim: Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug'atini kengaytirish; narsalarni sezilarli belgilariga qarab farqlash va umumlashtirish asosidagi oddiy tushunchani belgilovchi so'zlarni o'zlashtirish; atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi so'zlarni kiritish.

- Lug'at ishining yetakchi vositasi – ta'limdir.

- Lug'atni boyitish metodlari bu: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish;; badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (bilish uchun xizmat qiladigan xujjatli filmlar) ko'rsatishdan iboratdir.

- Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari bu o'yinchoqlar, rasmlarni, ko'zdan kechirish, didaktik o'yinlar, so'zli mashqlar va boshq.

Lug'at ishining metod va usullari

Bolalarning lug'ati ularga atrof-dagi olamni tanishtirish bilan bir vaqtda o'sib boradi. Lug'atni shakllantirish jarayonida tarbiyachi bolalarning psixologik jarayonlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini: sezgi, diqqat-e'tibor, xotira, fikrlash, (kuzatish) kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Umumiy pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish bilan birgalikda bolalarning xissiyotlari va xulq-atvori, madaniy-gigiyenik ko'nikmalari, axloqiy tasavvurlari va xatti-harakatlari, estetik tuyg'ulari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ushbu vazifalari lug'at ishlarini o'tkazishda nazarda tutiladi. Kelgusida lug'at ishlarining muayyan usullari va metodlarini ko'rib chiqqan holda biz bu umumpedagogik masalalarga to'xtalib o'tirmaymiz.

Lug'at ishlarining metodi – bu: Lug'atni boyitish metodlari: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish; badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (xujjatli filmlar) ko'rsatish.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari: bolalarga tanish mazmundagi o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chiqish, didaktik o'yinlar.

Har bir bolaning leksik zahirasini to'ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro'y beradi: so'z bolaning o'zi belgilagan (nusxa ko'chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xotiraga kiradi.

Bolaning ona tilidagi so'zni o'zlashtirish jarayoni ushbu so'zlarga mos keluvchi narsalarni «tadqiq qilishi» bilan bir vaqtda ro'y beradi: bola narsalarni ko'zdan kechiradi, qo'l tekkizadi, ushlab ko'radi, siypalaydi, uning qanday ovoz chiqarishiga quloq tutadi, ta'mini ko'rmoqchi bo'ladi, xidlab ko'radi. Bola o'z diqqat-e'tiborini jamlagan narsa uning ongiga barcha beshta sezgi – ko'rish, tinglash, xidlash, ta'm, ushlab ko'rish, sezish orqali kiradi. Dunyoni bu kabi sezgilar orqali anglash bolaning emotsional dunyosini rivojlantiradi; u nafaqat keskin holatlarni («ajoyib» - «rasvo») boshdan o'tkazishga, balki barcha oraliq xis-tuyg'ularni sezishga qodir bo'ladi.

Narsani sezgi bilan qabul qilish so'z yordamida bola xotirasida ushbu narsa haqidagi tasavvur sifatida muxrlanib qolganidan so'ng uning nomini atovchi so'z bolada eng avvalo u mazkur narsa bilan bevosita to'qnash kelganida boshdan o'tkazgan xis-tuyg'ularni uyg'otadi.

Masalan, archa so'zi. Bola bu so'zni eshitishi bilan uning ilgari xis qilgan barcha xis-tuyg'ulari darhol jonlanadi: u o'z xayolot dunyosida muayyan archani, uning yashil barglarini ko'radi, deyarli uning xidini tuyadi va x.k.

So'zni bu tarzda qabul qilish she'riy qabul qilish deyiladi. Agarda tarbiyachi bolaga ilk yoshdan boshlab ona tilidagi so'zlarni ularning butun she'riy ifodasida o'rgatib kelgan bo'lsa (ya'ni, ularni qabul qilishning xis-tuyg'u negizi haqida qayg'ursa), bu holda bolada insonga nafaqat o'zi ijod qilishi uchun, balki shoirlarning ijodini tushunish uchun ham zarur bo'lgan shoirlik qobiliyati rivojlanadi.

Bola so'zning «xis-tuyg'uli asosini» o'zlashtirib olgandan so'ng u uning umumlashtiruvchi ahamiyatini tushunishga qodir bo'ladi. Aynan shuning uchun ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atini boyitish ularni atrof-dagi maishiy hayot, tabiat, kishilar mexnati, ularning ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish jarayonida uyushtirilishi zarur. Ayni paytda tarbiyachi (va bola atrof-dagi barcha kattalar) bola bilan grammatik jihatdan rasmiylashtirilgan ravon nutqda (ya'ni oddiy nutqda, chunki bir-biriga bog'lanmagan so'zlar to'plamini nutq deb bo'lmaydi) muloqot qilishlari lozim. Pirovardida, bola kattalar nutqidan eshitgan ayrim so'zlarini o'zi ajratadi.

Bola hayotning 3-yilida bolalar «birinchi savollar davrini» boshdan kechiradilar. Bunda ularning atrofda ko'rgan barcha narsalar nomlarini bilib olishga intilishlari paydo bo'ladi: «Kim bu?», «Ismi nima?», «Bu nima?», «Nima uchun?».

Ushbu yoshda bolaning qiziquvchanligi eng avvalo «lingvistik» tusga ega bo'ladi: bunda bolani ushbu so'zlar bilan ataladigan narsalar mohiyati qanchalik qiziqтира, so'zlar ham shu darajada qiziqtiradi. Bola bilan erkin muloqot chog'ida uning savollariga javob qaytarish uchun

tarbiyachi bolaga uchragan va e'tiborini o'ziga jalb qilgan narsa nomini aytish orqali bola lug'atini boyitadi. CHunonchi, narsa belgilari (sifat) nomlarini; harakat va holatni; (fe'llar, sifatsohlar, ravishdosh va ularning ravishlik belgilari) bilib oladi va esda saqlab qoladi.

Bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan narsalar nomlarini bolalar ular tasvirlangan suratlarini ko'rish orqali bilib oladilar. Insonning narsani uning tasviri (modeli) bilan oson taqqoslashga qodirligi – tug'ma qobiliyatdir.

Bola juda erta yoshdan boshlab ishtiyoq bilan ko'rib turgan narsalar rasmlarini chizishni boshlaydi, bunda u chizgan rasmlari ko'rgan narsasiga o'xshashiga ich-ichidan ishonadi (ayni paytda uning o'zi aytgan dastlabki so'zning tovush tarkibi u kattalardan eshitgan so'zlar tovushiga o'xshashligiga ishonchi komil).

Shunday qilib bola o'z nutqini kattalar bilan jonli nutqiy muloqotda boyitadi, shu bilan birga u mazkur muloqot orqali haqiqatda kuzatayotgan yoki suratlar asosida tasavvur qilayotgan narsalari nomlarini bilib oladi. Pirovardida, lug'at ishlari real ob'ektlar yoki suratlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Ushbu metod barcha yosh guruhlarida qo'llaniladi. Narsalar bilan o'ynash chog'ida bolalar ularning joylarini o'zgartiradilar, har tomonga tashlaydilar, suradilar, ushlab ko'radilar, yurg'izadilar, narsalarni kuzatadilar va ularning sifati, harakatlarini aytib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bola bilan unga yo'naltiruvchi savollar bergan holda so'zlashishi lozim. Bola javob qaytarar ekan, tarbiyachi o'z savoli orqali aytib berayotgan so'zlarni takrorlaydi. SHu tariqa bolaning leksikasi kengayadi. Ayniqsa, syujetli-rolli «rejissyorlik» o'yinlarida, sahnalashtirish jarayonida nutqni rivojlantirish uchun juda ko'plab qulay vaziyatlar yuzaga keladi.

Rolli o'yinda bola o'zi kuzatgan yoki hikoyalar orqali bilgan va esda saqlab qolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kattalarning ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan ko'chirma oladi.

«Rejissyorlik» o'yinida bola o'ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o'yinchoqlar o'rtasida taqsimlaydi; syujetlar – Maktabgacha ta'lim muassasasi, xayvonot bog'i va boshq. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi.

Sahnalashtirish o'yinida bola o'ziga tanish ertak qahramonlaridan biri rolini o'ynaydi, o'yin jarayonida u qahramon so'zlarini takrorlaydi va shu tariqa o'z nutqini boyitadi.

Syujetli o'yinlar o'zlashtirilgan til materialini mustahkamlashda bolalarga ajoyib mashq sifatida xizmat qiladi. Bolalar ataylab o'z oldiga muayyan hayotiy vaziyatlarda kattalardan eshitgan nutqini yoki ertak qahramoni nutqini aniq berishni maqsad qilib qo'yadilar.

Harakatchan o'yinlar, qoida asosidagi o'yinlar yod olingan sanoq she'rlar, qo'shiqlari bilan bolalar nutqini boyitadi. YOD olish tarbiyachi nutqiga taqlid qilish jarayonida ro'y beradi, bu o'yinlarni tarbiyachi bolalar bilan birga o'ynaydi va dastlab o'zi qiziqarli, sanoq she'rlarni aytadi, qo'shiq kuylaydi.

Bola u yoki bu narsa nomini belgilovchi so'zni (ba'zan, bir marta eshitib) tez va mustahkam (umrbod) esda saqlab qoladi, ammo bu faqat tarbiyachi so'zlarni talaffuz qilishning metodik qoidalariga rioya qilgan taqdirdagina ro'y beradi. YA'ni, u:

- etarli darajada baland ovozda so'zlashi;
- aniq talaffuz qilishi, ya'ni artikulyatsiya organlarini g'ayrat bilan va to'g'ri ishlatishi;
- orfoepiya qoidalariga rioya qilishi, bunda u yoki bu so'z komponentini bo'rttirib yuboruvchi sun'iy talaffuzdan qochishi lozim.
- So'zni gapga uning grammatik shakllari imkoniyatlari ko'rinadigan darajada qo'shish kerak.

Masalan, bizga ayiqcha mexmon bo'lib keldi. Ayiqchanning ko'zlari qora, panjalari katta. Bolalar ayiqcha bilan o'ynashni juda yoqtiradilar.

Bola bu gapni eshitar ekan, «Ayiqcha» so'zi nutqda o'zgarayotganini sezib qoladi. Albatta, tarbiyachi kichkintoyga grammatik atamalarni ma'lum qilmaydi, ammo bir vaqtning o'zida unda lug'at boyishi bilan birga grammatik sezgi ham rivojlanadi.

Biroq, bolalar har doim ham atrof-dagi narsalarga qiziqish bildiravermaydilar va har doim ham ularning nomlarini so'rayvermaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqat-e'tiborini narsalarga, ularning sifatlariga, harakatlariga jalb qilishi zarur. Buni muntazam ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Hafta davomida bolalar quyidagi miqdordagi so'zlarni o'zlashtirishlari mumkin:

3 yoshda	- 5 ta so'z
4 yoshda	- 10 ta so'z
5 yoshda	- 15 ta so'z
6 yoshda	- 20 ta so'z
7 yoshda	- 30 ta so'z

Lug'at ishining metod va usullari

Lug'atni boyitish metodlari: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish; badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar) ko'rsatish.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish: bolalarga tanish mazmundagi o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chiqish, didaktik o'yinlar. Har bir bolaning leksik zahirasi to'ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro'y beradi: so'z bolaning o'zi belgilagan (nusxa ko'chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xotiraga kiradi. Rolli o'yinda bola o'zi kuzatgan yoki hikoyalar orqali bilgan va esda saqlab qolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kattalarning ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan ko'chirma oladi.

«Rejissyorlik» o'yinida bola o'ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o'yinchoqlar o'rtasida taqsimlaydi; syujetlar – bolalar bog'chasi, hayvonot bog'i va boshq. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi. Sahnalashtirish o'yinida bola o'ziga tanish ertak qahramonlaridan biri rolini o'ynaydi, o'yin jarayonida u qahramon so'zlarini takrorlaydi va shu tariqa o'z nutqini boyitadi.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Bolalarda lug'atni shakllantirishga doir mashg'ulotlar turlari

Lugʻat ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashgʻulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim uch xil koʻrinishdagi mashgʻulotlardan tashkil topadi:

Lugʻat ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashgʻulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish va h.k.);

Lugʻat ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashgʻulotlar (sifatlar, xususiyatlar, oʻziga xos jihatlari bilan tanishtirish);

Umumlashtirishlar jarayonida lugʻat ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat boʻlgan mashgʻulotlar.

Nutqiy va Lugʻatni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash).Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni koʻzlagan holda tashkil etilishi.bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida koʻrgazmaviylikning mavjudligi.

Oʻtilgan mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalar bogʻchasidagi lugʻat ishlarining mohiyati nimalardan iborat?
2. Soʻzning psixologik jihatdan ahamiyatini tavsiflab bering.
3. Bolalarning lugʻatni egallash jarayoni qanday oʻziga xos xususiyatlarga ega?
4. Barcha yosh guruhlarida lugʻat ishlari dasturi tarkibini qiyinlashtirish qaysi yoʻnalishlarda roʻy beradi?
5. Siz lugʻatni shakllantirish borasida qanday mashgʻulot turlarini bilasiz? Har bir mashgʻulot turini aniq misollarda tavsiflang.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. Oʻzbekiston bolalar bogʻchalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni oʻrgatish. T., "Oʻqituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni oʻzbekcha soʻzlashishga oʻrgatish. T., "Oʻqituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariogʻoch, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni oʻrgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq oʻzlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. Oʻquv qoʻllanma

10-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirishning mazmuni

REJA :

1. Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligi to'g'risida.
2. Maktabgacha ta'limda nutqning grammatik tomonini shakllantirish metodikasi
3. Talabalarning nutq o'qitishga o'rgatishning usullari haqidagi nazariy bilimlarining mavjud holatini aniqlash.
4. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o'zlashtirish bolaning o'z faol nutqini ham talab qilishi haqida

Tayanch tushuncha va iboralar.

Grammatika, morfologiya, sintaksis, leksik ma'no, grammatik ma'no, shakl, qo'shimcha, grammatik kategoriya, kelishik, ko'plik, shaxs, zamon, uyushiq bo'lak, sodda gap, qo'shma gap.

Grammatika tilning grammatik qurilishi haqidagi ta'limot bo'lib, unda so'zlarning shakllari, bog'lanishi, gap qurilishi va uning turlari o'rganiladi. Grammatika morfologiya va sintaksisdan tarkib topadi.

Morfologiya so'zning grammatik shakllari, so'z turkumlari, grammatik o'zgarishlar haqidagi ta'limot bo'lib, so'z leksik va grammatik ma'noga ega bo'ladi. Sintaksis so'zlarning o'zaro bog'lanishi, gap uning ma'no turlari va tuzilishi jihatdan turlarini o'rgatadi.

Tilda so'zning obyektiv borlik haqidagi tushunchani ifodalashi uning leksik ma'nosidir. So'zning morfologik tuzilishi, ularning o'zaro bog'lanishiga ko'ra ifodalangan ma'nosi esa so'zning grammatik ma'nosi hisoblanadi. Grammatik ma'no so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, so'zga qo'shilgan qo'shimchalar-grammatik shakl yoki yordamchi so'zlar orqali grammatik ma'no ifodalanadi. Masalan, olma, qalam, o'yinchoq so'zlarining leksik ma'nosi meva turi, yozuv quroli, o'ynaladigan narsa nomini ifodalashi bo'lib, ularning birlikda va bosh kelishikda ekanligi grammatik ma'no ifodalashidir. Olmani, qalam bilan, o'yinchoqlar kabi so'zlarning tushum kelishikda ekanligi, ko'plikni bildirishi ham grammatik ma'noni ifodalaydi. Demak, grammatik ma'no grammatik shakl bilan bir butunlikni hosil qiladi, bu esa grammatik kategoriyalarni tashkil etadi, grammatik kategoriyalar xilma- xil bo'lib, tilshunoslikda ular son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik, zamon kategoriyalarini tashkil etadi. So'z shakllari esa so'zning asosiy va shakl qismga bo'linishi xususiyatini ifodalaydi, so'zning morfologik tuzilishini ifoda etadi. Ya'ni so'zning grammatik qismga bo'linmas qismi morfema deyiladi, u o'zak morfema yoki asosiy morfema hisoblanib, so'zga qo'shimcha qo'shish yoki yordamchi so'z qo'shish yordamchi morfemani ifodalaydi. Masalan, quyoncha, mushukni, kanddon kabi so'zlarda asosiy va yordamchi morfemalar mavjuddir. Masalan, quyon-asosiy morfema, -cha esa qo'shimcha morfemadir. So'zning grammatik shakli ikki xil bo'ladi: sintetik shakl va analitik shakl.

Sintetik shaklda so'zga qo'shimcha qo'shiladi: Masalan, quyidagi misolda so'zga bir necha qo'shimchalar qo'shilgan bo'lib, u sintetik shakldir;

Kapalaklar gulzorda,
Qanot qoqib uchishar.
Xursand bo'lib gulzordan,
Guldan gulga qo'nishar.

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'zlashtirishda nutqning grammatik tomonini o'rgatish, ya'ni nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishga o'rgatishda tarbiyachining so'zning asosiy va qo'shimcha morfemalarini bilishi va uni bolalarga amaliy o'rgatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqning grammatik tomonini o'rgatish bolalarning nutqni to'g'ri ifodalash malakalarini shakllantiradi, ular nutqidagi grammatik xatolarni bartaraf etish, nutqni to'g'ri, ifodali, tushunarli bayon etishga o'rgatadi.

Nutqning grammatik tuzilishini o'rgatish maktabgacha ta'limning kichik guruhidan boshlanadi va quyidagilarni amaliy o'rgatish asosiy vazifa hisoblanadi:

- a) otlarni kelishiklar bilan to'g'ri turlash (Anvarning, Anvarni, Anvarga va hokazo)
- b) fe'llarni shaxs-zamon qo'shimchalari bilan to'g'ri turlashga o'rgatish (oldim, oldi)
- v) hayvon va parrandalarning nomini birlik va ko'plik ifodalashga o'rgatish
- s) uyushiq bo'laqli gaplar tuzishga o'rgatish (Odil tupni, sharni va bayroqchani oldi)
- d) ertak, she'rni ifodali aytish ko'nikmasini tarkib toptirish, chiroyli, to'g'ri gapirishni o'rgatish
- e) grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish, rasm asosida, suhbat orqali bolalar nutqida sifatlarni to'g'ri qo'llash, otlarni kelishikda to'g'ri turlashga o'rgatish.

O'rta guruhda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish mazmuni quyidagicha:

1. Gapirganda, hikoya qilganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashga, ya'ni kelishiklarda to'g'ri turlashga o'rgatish.
2. So'zlarni birlik, ko'plik aytish, fe'llarni shaxs va zamonda to'g'ri turlash, ayrim so'zlarning yasashini bilish.
3. Jumlani to'g'ri tuzish, nutqda sodda, qo'shma gaplardan foydalanish.
4. Topishmoq, tez aytish orqali ogzaki nutqni shakllantirish.
5. Nutqda fe'lning buyruk maylini qo'llash va to'g'ri ishlatishni o'rgatish.

Katta guruhda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish davom etadi, bunda quyidagilar amalga oshiriladi.

1. To'g'ri gapirish, so'zlarni o'zaro bog'lash, jumlani to'g'ri tuzish.
2. Nutqda uyushiq bo'laqli, sodda yoyiq va qo'shma gaplardan foydalanish.
3. Fikrni xilma-xil ma'noda bayon etish.
4. Yangi so'z yasashni, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish talab etiladi.

Maktabga tayyorlov guruhida nutqning grammatik tuzilishi buyicha quyidagilarga ahamiyat beriladi:

1. Nutqning morfologik va sintaktik tuzilishini shakllantirishni davom ettirish.
2. Bolalarda o'z nutqi va boshqalar nutqiga tanqidiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash.
3. Ot, sifat, fe'llarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qilish.
4. So'z yasash malakasini mustahkamlash.
5. Rasmga karab hikoya qilishga o'rgatishni davom ettirish.
6. Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni bartaraf etish.

Nutqning grammatik tomonini o'rgatish amaliy mashqlar, Ko'rsatib berish, o'rgatish orqali amalga oshiriladi, quyidagilar nazarda tutiladi.

1. Bolalarning psixologik va fiziologik rivojlanishi, rivojlanganlik darajasi.

2. Bolalar so'z boyligi, nutqni tinglash, eshitish qobiliyati, nutq a'zolarining harakati, holati.
3. Nutqning grammatik tomonini tarbiyalashda bolalar ruhiyatining shakllanganligi.
4. Kattalar nutqining grammatik jihatdan to'g'ri, ifodali bo'lishi, bolalar nutqining to'g'riligini kuzatib borishi.

Shunday qilib nutqning grammatik qurilishini o'rgatish kichik guruhdan boshlab amaliy tarzda olib boriladi, ya'ni nutqning grammatik qurilishini o'rgatish nutq o'zlashtirish Mashg'ulotlarida bolalarning so'z boyligini oshirish, tevarak-atrof haqidagi bilimlarini kengaytirish, bolalarning tanish hikoya, ertakni qayta hikoya qilishi, suhbatda tarbiyachi savollariga javob berishi kabi faoliyatlarida amalga oshiriladi va quyidagi metodlardan foydalaniladi.

1. Tarbiyachining nutqiy namuna bo'lishi.

Tarbiyachi bolalarga gapirayotganda, hikoya qilib berayotganda so'z va jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri, ifodali, bolalarga tushunarli bo'lishiga ahamiyat beradi, bolalarni so'zlashga qiziqtiradi. Masalan, savatchada olma bor. Men savatchadan olmani oldim, kani sen ham savatchadan olmani ol. Sen nima qilding? Savatchadan nimani olding? kabi nutqiy namuna bo'lish metodidan foydalanadi, bolalar nutqni aytishga, nutq anglatgan harakatni bajarishga qiziqadi, nutqning grammatik qurilishini egallay boradi. Bu metod ko'pincha kichik guruhda qo'llaniladi.

2. Mashq-topshiriq metodi.

Bu metodda tarbiyachi bolalarga biror so'zni aytadi, so'z ishtirokida gap tuzish yoki birlikdagi o'zlikni aytish, so'zni kelishlik bilan turlash, tarbiyachining savoliga javob berish kabi topshiriq-mashq metodidan foydalanadi, Bolalar ushbu mashq orqali nutqning grammatik qurilishini o'rganib boradilar. Masalan, mana bu ayiqcha, mana bu ham ayiqcha. Bo'lar ayiqchalar, Ayiqchani Ravshanga berdim. Ravshan nima qildi? Bolalar: Ravshan ayiqchani oldi. Ayiqchani stulga utkazdi kabi javob beradilar.

3. Ko'rsatmalilik metodi.

Tarbiyachi o'yinchoq, narsa, buyumlarni bolalarga Ko'rsatadi, ular o'yinchoqlar nomini aytadilar, aytilgan so'zlar yordamida gap tuzishni mashq qiladilar. Masalan, tarbiyachi o'yinchoqni Ko'rsatib, bu nima? uni nima qilasan? kimga berasan? kabi savollar beradi, ular yordamida gap tuzish, nutqiy mashq qilishni tashkil etadi. Bolalar bu mashina, mashinani xaydayman, mashinani Zokirga beraman kabi gaplarni tuzadilar, bu mashqda kelishlik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llash, fe'lni shaxs va zamonda turlash, gap tuzish kabi amaliy mashqlarni bajaradilar, shu asosda ogzaki nutqni egallab boradilar.

4. Didaktik o'yin metodi.

Ushbu metodda bolalar o'yinchoq, qo'g'ri choqlar yordamida didaktik o'yin o'ynaydilar, o'yin jarayonini gap bilan ifodalaydilar, bajargan ishlarini nutq orqali tushuntiradilar, shu tarzda nutqning grammatik jihatdan to'g'ri, ifodali bo'lishini bilib oladilar. Masalan, "Qo'g'ri choqni mexmon qilamiz" didaktik o'yinida bolalar qo'g'ri choq mexmonga keldi, qo'g'ri choqni stulga o'tkazamiz, Shaxlo dasturxon yozdi, Gulchexra choy, murabboni dasturxonga qo'ydi. Biz qo'g'ri choqni choy bilan mexmon qildik. Choyni piyolada o'zatkid kabi gaplarni aytadilar, hikoya tuzadilar.

5. So'z-mashq metodi.

Bunda tarbiyachi bolalarga narsa buyum nomini aytadi, bolalar tarbiyachi savollariga so'z va gap bilan javob beradilar: Olma qanday? Olma qizil, dumaloq, shirin. Behi - sariq, nordon.

Sabzi - qizil, suvli, qattiq.

Tarvuz- shirin, qizil, suvli, dumaloq, va hokazo.

Qizil, chiroyli, xidli-gul;

Yumalok, qizil, mayda, achchik-olcha;

Qora, dumaloq, ichi qizil, shirin-tarvuz kabi misollarni aytadilar.

Shuningdek, katta va tayyorlov guruhida “Bu nimadan ishlangan?” “ So’zni davom ettir” kabi didaktik mashqlar ham muhimdir.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirishda bolalarni tasviriy va ijodiy hikoya tuzishga o’rgatish ham qo’lay usuldir. Chunki bolalar hikoyani tuzish uchun mavzuga mos mazmunni uylaydi, fikrni bayon qilish uchun so’z tanlaydi, gap tuzishni mashq qiladi, uz nutqini mazmunli ifodali bo’lishiga harakat qiladi.

Demak, nutqning grammatik qurilishini o’rgatish bolalarning so’z boyligini oshirish, lug’atini boyitish, ko’rgan-kuzatganlari, eshitganlarini so’zlab berish, tarbiyachi savollariga javob berish, tasviriy va ijodiy hikoya tuzish, nutqda so’zni urinli qo’llash, obrazli bayon etish malakalarini shakllantiradi, bolalarda bilishga intilish, ijodiy fikrlash malakalari shakllanadi.

Ushbu natijaga erishish, ularda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish uchun bolalarning kundalik hayoti, o’yin, mehnat faoliyatlari, kattalar bilan nutqiy muloqati, turli o’yinchoq, narsa, buyum, voqea-hodisalar, didaktik o’yin, Mashg’ulotlar, sayr, ekskursiyalar muhim omil bo’lib xizmat qiladi, bolalar nutqining ifodaliligini ta’minlaydi.

XULOSALAR:

- Grammatika - fikr bildirish va boshqalar bildirgan fikrlarni tushunish uchun insonga zarur bo’lgan bilimlar umumiyligidir.

- Bola tilga sust emas, balki faol, amaliy yondoshadi, o’zi anglamagan holda doimo til hodisalarini taxlil qiladi.

- Butun til rivojining asosini bolaning predmetli faoliyati tashkil qiladi. Bolaning til borlig’i elementlari bilan harakatlari xuddi predmetli olam elementlari bilan bo’lgani kabidir.

- So’z hosil qilishni (va so’z o’zgartirishni) egallashda bola morfemaning tovush qiyofasiga yo’naladi.

- Bolalarning so’z ijodkorligi - qoidalar, umumlashtirmalar, obrazli munosabatlar harakatlarini shakllantirish jarayonining yaqqol ko’rinishidir.

- Grammatik elementlarni egallash jarayoni ko’rgazmali tasavvurni shakllantirish asosida ro’y beradi va u bir nechta bosqichlarga ega.

- Bugungi kun lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri - son-sanoqsiz gaplarni tuzish hamda ularni tushunish qobiliyatini rivojlantirish tabiati va mexanizmini tushunishdan iboratdir.

- Bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal qilmaydi, aksincha u o’zining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan o’z so’zlari kategoriyasini yaratadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Grammatika deganda nimani tushunish lozim?
- Imitatsiya nazariyasi nimani anglatadi?
- Imitatsiya nazariyasiga qarshi qanday ilmiy dalillar mavjud?

- Butun til rivojlanishining asosini nima tashkil qiladi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

- Bolaning grammatik elementlarni o'zlashtirishi qaysi faoliyat negizida ro'y beradi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

11-mavzu: Turli yosh guruhlaridagi bolalarda grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish metodikasi

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishning ahamiyati.
2. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish usullari va yo'llari.
3. Turli yosh guruhlaridagi bolalarda grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi
4. Xulosa

Tayanch tushncha va iboralar: grammatik ko'nikmalar, nutq shakllari, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim muassasasi va oila, nutq ko'nikmalari, tarbiyachi vazifasi.

Grammatikaga oid mashqlar bir vaqtning o'zida bolalarning leksika va fonetika bo'yicha o'zlashtirib olgan materiallarini mustahkamlashga doir mashqlar ham hisoblanadi. Bolalarning eng oz miqdordagi so'zlar va tovushlarni artikulyatsiya qilish hamda gap intonatsiyasini modellashtirish qobiliyatini oldindan o'zlashtirib olmaslaridan turib grammatik mashqlarni bajarishlari mumkin emas.

Uch-to'rt yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Tarbiyachining asosiy vazifasi shundan iboratki, u bolalarga iborali nutqdan amalda foydalanishni o'rgatishi, ya'ni nutqda asosiy grammatik kategoriyalarni to'g'ri qo'llash, so'zni soni, kelishigi, shaxsi, zamoniga qarab amalda o'zgartirishni o'rgatishi lozim.

Grammatik qator ustidagi ishlarni otlar bilan tanishuvdan boshlagan ma'qul, chunki, otlar nutqimizning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Bundan tashqari, otlarni o'zgartirish orqali nutqning boshqa qismlari ham, ya'ni: sifatlar - kelishiklar, turlar va sonlar bo'yicha; o'tgan zamondagi sifatlar va fe'llar - turlari va soni bo'yicha o'zgaradi.

Otlarni o'zgartirish ishlarini tushum kelishigidan boshlash lozim. Buning uchun uni bosh kelishik bilan taqqoslash, so'ngra eng aniq va imkonli kelishiklar sifatida jo'nalish va birgalik kelishiklarini o'rganish zarur, shundan keyingina bolalarga qaratqich va old ko'makchili kelishiklarning ayrim ma'nolarini, ushbu kelishiklar hamda Qayerga? Qayerdan? kabi farklovchi savollar asosida hosil qilingan old ko'makchili tuzilmalarni tanishtirish lozim.

Ayniqsa old ko'makchi ustidagi ishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Old ko'makchili tuzilmalar bilvosita kelishiklarning asosiy shakllari bilan bog'likdir, shuning uchun old ko'makchilar bilan amaliy tanishuvni kelishiklarni qo'llash bilan birlashtirgan ma'qul. Birinchi navbatda bolalardan, ostida-ustida kabi ko'makchilar o'rtasidagi farqlarni tushunib olishlari zarur. Ushbu tushunchalarni mustahkamlash uchun harakat va nutqni taqqoslash juda muhimdir.

Bolalarga nutqda old ko'makchilardan foydalanishni o'rgatishda old ko'makchi va o'zgartiriladigan qo'shimchani ohang bilan ajratib ko'rsatish muhimdir: stol ustida, stol tagida yotibdi, stoldan olib tashladi va x.k.

Bu vaqtga kelib bolalar «bitta», «ko'p» so'zlarini farqlay olishlari lozim. Turli narsalarni tanlab olganlari holda ular «bir», «bizning» so'zlarini mazkur predmetlar bilan kelishtirishni o'rganadilar.

Uchinchi yilning boshiga kelib, bola muayyan darajada fe'l leksikasini, ya'ni: noaniq shakldagi ichmoq, bermoq fe'llarini va bor, ber, olib kel, yuv kabi buyruq maylidagi ayrim fe'llarni o'zlashtirib oladi.

Bolalarga o'tgan zamon fe'lini tanishtirishni ular otlarning kelishik shakllarini o'zlashtirib olganlaridan so'ng amalga oshirish zarur. O'tgan zamon fe'llari oson o'zlashtiriladi

va u bolalarning faol lug'ati tarkibiga kiradi. O'tgan zamon fe'llari materiallari asosida bolalar nutqiga fe'lni o'zgartirishning tur va son shakllari oson kiritiladi: yuvdi; yuvdik; chizdi, chizdik. So'ngra «bo'laman» fe'li bilan bola kelasi zamon shaklini o'zlashtirib oladi. Oddiy kelasi zamon fe'llari shakllari to'rt yoshlarga kelib bola nutqida paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishning ahamiyati

Grammatika bolalarning o'zga tilni o'zlashtirish jarayonida strategik o'rin tutadi, zero «Grammatika – shunday vositalar repertuariki, uning vositasida birinchidan, mustaqil narsalar va fikrlar o'rtasidagi munosabatlar muayyan qoidalar asosida ifodalanadi, o'zgan, muayyan qoidalar asosida yangi so'zlar hosil bo'ladi» (L.V.SHerba). SHunday qilib, grammatik tizim nafaqat mantiqiy munosabatlar ifodalovchisi sifatida sintaksis va morfologiyani, balki so'z hosil qilishni ham o'z ichiga oladi. Bolalarda grammatik operatsiyalar ko'nikmalarini shakllantirish uchun bola o'rganilayotgan tildagi u yoki bu grammatik elementlarni qo'llashga zarurot bo'ladigan o'yinlardan foydalanish lozim: otlarning ko'plikdagi soni, son – ko'plik yoki birlikdagi otdir va boshq. O'rganilayotgan tilning grammatik tuzilishini bola turli xil nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Bola sabab-oqibat, miqdor va boshqa munosabatlarni bilish orqali, bir vaqtning o'zida ularni grammatik shakllar va tuzilmalar orqali ifodalash (birlik va ko'plik, rod, otlar kelishigi, fe'l zamonlar va turlari va boshq.) usullarini ham bilib oladi. Bola turli-tuman grammatik vositalarni o'zlashtirib oladi (Qaratqich kelishigi qo'shimchalari, so'z hosil qilishda ko'plik son, suffikslar).

Bolalar nutqiga turli xildagi fe'llarni kiritishni «harakat - nutq» usulidan foydalangan holda fe'l ustki old qo'shimchalarni kuzatish ishlari bilan birgalikda amalga oshirgan ma'qul. Bundan tashqari, bola muayyan surat yoki harakatga yo'nalgani holda old qo'shimcha fe'lga olib kirayotgan (ketdi, kirdi, yaqinlashdi, chiqdi) ma'no qirrasini anglab olishi mumkin. Bolalar old qo'shimcha ma'nosini o'zlashtirib olganlaridan keyin uni old ko'makchi bilan taqqoslash mumkin (...ga kirdi,dan kirdi, ...dan chikdi va x.k.).

Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishga doir maxsus mashg'ulotlarda tarbiyachiga o'yinchoqlar, narsalar, kiyimlar, poyabzal, idish-tovoqlar, oziq-ovqatlar va boshq, syujetli o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalar o'ynaganlari holda atrofdagi kattalar faoliyatiga taqlid qiladilar. Tuzilayotgan gapni rang-barang qilish uchun o'yin syujetini o'zgartirish - yangi o'yin personajlarini kiritish, bolaga yo'naltiruvchi savollar berish va shu bilan uni muayyan iboralar bilan javob berishga o'rgatish zarur.

Namoyish qilinayotgan harakatlar bo'yicha «bilan» old ko'makchisi ishtirokidagi tuzilmalarni kiritish qulaydir: ayiqcha bilan, kuchukcha bilan o'ynadi; quyoncha bilan, oyisi bilan, Samat bilan gaplashdi.

Namoyish etilayotgan harakatlar bo'yicha tuzilayotgan butun gapni bolalar albatta o'zlari aytib ko'radilar. Agarda bola gapda xatolikka yo'l qo'ysa, tarbiyachi uni tuzatishi va gapni yana bir bor takrorlashi lozim.

Bolalarga iboralarni tegishli grammatik shakl bilan rasmiylashtirishni o'rgatishni o'yinli vaziyatlar asosida ham amalga oshirish mumkin. O'yinli usullardan bolalar bilan grammatik tuzilmalarni qo'llash borasidagi suhbat sifatida barcha kelishik shakllarini mustahkamlashda foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishning ahamiyati.

B./ B. /B texnologiyasini qo'llash qoidalari

	Mavzu savoli	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.				
2				
3.				
4.				
5.				
6				
7				
8				

Bolalarga old ko'nikmalarni qo'llashni o'rgatishga doir mashg'ulotlarda predmetlarning kenglikdagi munosabatlarini albatta ko'rsatish shart. Buning uchun kubiklar, piramidalar, kitoblar va boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, uycha qurilishini ko'rsatib beruvchi harakatlarni quyidagi so'zlarni aytgan holda amalga oshirish zarur: «Kubikning ustiga kubik qo'yamiz, devor hosil bo'ldi. Devor ortida stolcha turibdi» (bu o'rinda devor ortidagi narsa harakatini ko'rsatish zarur). Stolcha atrofida quyoncha va ayiqcha o'tirishibdi. Stol ustida piyolalar bor, stol tagida esa taburetka turibdi». Stol ustidagi va tagidagi narsalar holatini albatta ko'rsatish zarur, shundagina bola narsalarga oid so'z birikmalarini oson o'zlashtirib oladi.

Maxsus grammatik mashqlarni suratlardan foydalangan holda amalga oshirish lozim. Ularni sinchiklab ko'rib chiqqandan va savollarga bir so'zli javob berilganidan so'ng to'liq bilvosita qo'shimchani tuzish va aytib ko'rishga o'tish darkor, chunki, ularga fe'lga bog'liq so'zni rasmiylashtirish ancha qiyin kechadi. Masalan, Alisher Barno bilan koptok o'ynayapti. Qizcha choynagi bilan gullarni sug'ormokda.

Bitta surat syujeti asosida savollar berish va bolaning unga javob qaytarishi savol-javob tusidagi qiziqarli mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Masalan, «Bola qo'lini yuvmoqda» surati asosida qator savollar berish mumkin:

«Xurshid, Timur, Alisher nima qilishayapti?», «Alisher nimani yuvmoqda?», «Biz qo'limizni nima bilan yuvamiz?», «Kimning qo'li toza?» va x.k.

Bola hayotining to'rtinchi yilida unga bir tarkibli gaplar tuzishni o'rgatish, shuningdek uning nutqiga umumlashtiruvchi tushunchalarni kiritishga katta e'tibor beriladi. Mashg'ulotlarda suratlar asosida, tayanch so'zlar yordamida, namoyish etilayotgan harakatlar asosida, gapning yetishmayotgan qismlarini to'ldirish asosida gap tuzish kabi turli xil ishlarni amalga oshirish zarur.

Bir tarkibli aniqlovchilar bilan gap tuzishga doir ishlarni bolalar bilan «Bu nima, topingchi?» o'yinini uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin. Bola ajralib turuvchi belgilariga qarab narsa nomini aytishi zarur, masalan: «dumaloq, sersuv, sariq, shirin, dumi bor, foydali» - sholg'om. YOki: - «katta, dumalok, ko'k, rezinali» - koptok.

Bir tarkibli kesimli gaplarni tuzish uchun «Esla va ayt» o'yinidan foydalanish mumkin. Tarbiyachi bolaga topshiriqni hech kim eshitmaydigan qilib aytadi. Bola topshiriqni izchil ravishda bajara boshlaydi, bolalar esa u nima qilayotganini aytib beradilar: «Abduazim qaychini oldi, qizil va ko'k qog'ozlardan bo'laklar kesib olib, ularni Zuxra va Farruxga berdi».

Nutqni rivojlantirishga doir mashqlar - ya'ni, nutqiy grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashqlar boshqa ishlar bilan, masalan kitob o'qish bilan birgalikda bajarilishi mumkin. Kichik asarlarni o'qish o'qilayotgan matnga mos o'yinlar va harakatlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Grammatik mashqlar o'yin, sayr soatlarida, navbatchilik paytida bajarilishi lozim, shunda kichikintoylarning nutqiy maxoratlari yanada ortadi.

Umuman olganda, bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi butun faoliyati uning diqqat-e'tibori, xotirasi, fikrlash doirasini rivojlantirishga, uning nutqini takomillashtirishga xizmat qilishi lozim.

Besh-olti yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Bu yoshga kelib bola quyidagi asosiy grammatik shakllarni o'zlashtirib olishi mumkin va shart: birlik va ko'plik sondagi otlarning old ko'makchi-kelishik shakli, ko'p sonli sifatlarni kelishiklar, sonlar bo'yicha o'zgartirish, fe'l shakllari, ravishlarni to'g'ri qo'llash. Besh yoshda bola o'z nutqida garchi ayrim gap turlari uning uchun hali ancha qiyin bo'lsa ham, qo'shma gaplardan foydalanadi. Old ko'makchilar va bog'lovchilar turli xil ma'nolarda qo'llaniladi. Ko'proq umumlashtiruvchi so'zlar qo'llay boshlanadi: mebel, ovqat, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar, transport. Umuman bolaning so'z zahirasi ortib borgani sayin uning nutqi ravon va izchil bo'lib boradi. Besh yoshli bolalar tuzayotgan gaplarda ular o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan hodisalarning (ertaga, kechasi, yakshanba va x.k.) sabab-oqibatli munosabatlarini ifodalaydilar.

Dasturga muvofiq tarbiyachi besh yoshli bolalarga nutq asosiy qismlarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llashni o'rgatishga doir ishlarni davom ettirishi lozim.

Bolalarga o'z nutqida vaqtli, maqsadli va sababli sintaktik munosabatlarni (Qachon? Qaysi maqsadda? Qaysi maqsad uchun? Nima uchun? Nega? kabi savollarga javob berish) ifodalashni o'rgatish zarur. Tarbiyachi nutqqa qator old qo'shimchali fe'llarni kiritadi, ayni paytda Nima qilding? Nimani qilib bo'lding? (chizdim-chizib tugatdim, yuvdim - yuvib bo'ldim va x.k.) savollariga javob beruvchi fe'llar; savolga qarab asosi o'zgaradigan fe'llar (Nima qilayapman, Nimani qilib tutataman?: qurib tugataman - qurib tugatayapman, sakrayman - sakrayapman); kelgusi oddiy va kelgusi murakkab zamonli, -di qo'shimchali va usiz shakldagi fe'llar («Men o'ynamoqchiman» - «Men o'ynayapman», «U kiyinmoqchi», «U kiyinadi»); baxoni (yaxshi-yomon, ifodali, tez, sekin, past, baland); vaqtni (bugun, qishda, yozda va boshq.); joyni (bu yerda, anavi yerda, shu yerda, o'ngda, chapda, balandda, pastda, anavi tomonga) belgilovchi eng ko'p tarqalgan ravishlar; gapda so'zlarni bog'lash va gaplarni bog'lash uchun foydalaniladigan to'qima bog'lovchilar (va, esa, ammo, biroq); gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan bo'ysundiruvchi bog'lovchilar (uchun, chunki, agar, qachonki, zero) ustidan birlamchi kuzatishni amalga oshiradi.

Hayotining beshinchi-oltinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish maishiy muloqot jarayonida va ayni paytda predmetli mashg'ulotlarda maxsus nutqiy mashqlarni o'tkazishda, suratlar bilan ishlashda ro'y beradi. Mashg'ulotlar uchun taklif etilgan didaktik material zamon kategoriyalari, sonlar, shaxslar, fe'llarni o'zlashtirishga, nutqda tugallangan va tugallanmagan ko'rinishdagi fe'llarni amalda

qo'llashga yordam berishi zarur. Bolalarni amalga oshirilayotgan va amalga oshirib bo'lingan harakatlarni farqlashga o'rgatish uchun ularga tanish vaziyat bilan bog'liq holda aniq xususiyat baxsh etish lozim.

Gap tuzishda «bugun», «hozir», «endi» ravishlarini hozirgi zamon fe'li bilan, «kecha», «anchadan buyon», «yaqinda» ravishlarini o'tgan zamon fe'li bilan bog'lash muhimdir.

Maxsus mashqlarda bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gaplardan iborat bo'lgan qo'shma gaplar tuzishga doir ishlar sezilarli ahamiyat kasb etishi darkor. Buning uchun savol-javob shaklidan foydalangan ma'qul. Dastlab bola qo'shma gapning faqat ikkinchi qismini (aslida qo'yilgan savolga javob ham shu) aytadi, keyinchalik esa undan qo'shma gapni butunicha aytishini talab qilish zarur. Ko'pincha bolalar aynan ergash gaplarni qo'llashda xatoga yo'l qo'yadi.

Qo'shma gaplarni tuzishga doir mashg'ulotlar turlicha o'tkazilishi mumkin: suratlar bilan: syujeti bir-biriga yaqin bo'lgan ikki surat tanlab olinadi: uning birida o'rin-ko'rparasini yozayotgan qizcha, ikkinchisida esa - uxlayotgan qizcha tasvirlangan. Tarbiyachi rahbar ligida bola gap tuzadi: «Guli endigina joy solayapti, Lola bo'lsa uxlab qoldi».

Gap tuzish «Nima oldin, nima keyin?», «Hammasi teskari», «Xatosini top» kabi o'yinlar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ushbu o'yinlarni o'tkazishda bolalar «va» biriktiruvchi bog'lovchisi va «yoki» ajratuvchi bog'lovchisi yordamida g'ap tuzadilar.

Nima uchun? Nega? savollariga javob beruvchi gaplarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday gaplarni tuzish uchun o'yinchoqlardan, suratlar turkumidan foydalanish, syujetli-rolli o'yinlarni tashkil qilish mumkin. Bu borada «Telefon» o'yini katta imkoniyatlar yaratadi - bolalar o'zlarining «telefon» suhbatlarini hikoya qilishda qo'shma gap tuzishlari shart: «Barno unga qo'g'irchoqni keltirishimni iltimos qildi»,

Qo'shma gaplarni tuzishga doir ishlar sayrda, tabiat bilan tanishuvda, rasm chizish, musiqa mashg'ulotlarida davom ettirilishi lozim. Ortirilgan nutqiy ko'nikmalar sahnalashtirish, didaktik va harakatli o'yinlarni o'tkazishda mustahkamlanadi.

Hayotning yettinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. yetti yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya'ni: otlarni turlash, eng keng qo'llaniladigan fe'llarni tushlashni egallashi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vaqt, harakat obrazi) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ularni so'z birikmasi va gap qatorida qo'llaydilar: tez yurdi, sekin gapirdi, chapga burildi va boshq.

Etti yoshli bolalar nutqida old ko'makchilar ko'pincha nafaqat o'z ma'nosida, balki noaniq tarzda ham qo'llaniladi. SHunisi diqqatga sazovorki, old ko'makchilar dastlab kenglik ma'nosi ko'rsatkichi sifatida to'rt-besh yoshli bolalar nutqida paydo bo'ladi (uydan, devordan uzoqlashdi); so'ngra besh-olti yoshli bolalar ushbu old ko'makchini ob'ektiv ma'no ko'rsatkichi sifatida ham qo'llaydilar (onamning sovg'asi, dadamning xati) va faqat, keyinroq, yetti-sakkiz yoshlarga kelib, bola sabab ma'nosini ifodalash uchun «dan» old ko'makchisidan foydalanishi mumkin (qo'rqanidan qichqirib yubordi, og'riqning' zo'ridan yig'lab yubordi).

Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish usullari va yo'llari.

O'rganilayotgan tilning grammatik tuzilishini shakllantirish metodlari va usullari: ayrim so'zlar va iboralar misolida grammatik shakllarni ko'rgazmali namoyish qilish; o'yin

vaziyatlari, nutqiy mashqlar, ijodiy tushdagi rolli o'yinlar, hajmi unchalik katta bo'lmagan matnlarni tinglash va boshq.

Bolalarga o'zga tilni o'rgatishda grammatik qoidalar alohida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan predmet hisoblanmaydi va uni bolalarga yod olish taklif etilmaydi. Qoidalarni amalda o'zlashtirib olish ko'nikmalari maxsus tashkil etilgan va bolalarning o'rganilayotgan grammatik hodisa mohiyatini tushunib yetishlariga qaratilgan o'yin-mashqlarda shakllantiriladi. O'yindagi harakatlar ko'plikdagi ot ishtirok etgan fikrlarni tuzishdan iborat bo'lmog'i lozim. Bunda boshqa har qanday grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etishga intilish talab etiladi. Bolaning minimal o'z fikrini aytishi ikki so'zdan iborat bo'lishi kerak: ikki qo'g'irchoq, beshta ayiqcha, sakkizta koptok va h.q. Bunday jumlar motivini hosil qilish uchun bir nechta o'yinchoqlar, hayvonlar, narsalar tasvirlangan suratlarni namoyish qilish tavsiya etiladi yoki pedagog (bola) nomlanishi bir xil bo'lgan bir nechta o'yinchoqlarni qo'liga oladi.

Yetti yoshga kelib, odatda, nutqning sintaktik qatori shakllanadi: bola oddiy gaplarni, bir xil a'zoli gaplarni to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi bog'lovchilarni qo'llaydi; u o'z nutqida qo'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintaktik munosabatlarni ifodalovchi ergashgan qo'shma gaplardan foydalanadi: qo'shimcha gaplar - «Kamol nima ko'rganligimizni so'radi»; maqsadli gaplar - «Biz oziq-ovqat harid qilish uchun do'konga ketayapmiz»; shartli gaplar - «Agar yomg'ir yog'masa, biz sayr qilgani chiqamiz» va boshq.

O'z taassurotlari haqida hikoya qilgan ekan, olti yoshli bola ravon monologik nutq shaklidan foydalanishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasining tayyorlov guruhida grammatik rasmiylashtirilgan nutqni rivojlantirish borasidagi ishlar asosiy o'rinni egallashi lozim. Xuddi oldingi yillardagi kabi, u maxsus mashg'ulotlarda va boshqa faoliyat turlari bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Aynan bir fikrni turli vositalar yordamida rasmiylashtirish maktabga tayyorlash guruhidagi bolalarda grammatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga doir ishlarning asosiy turi bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'yin-kulgi qilayotgan syujetli suratni taxlil qilishda qator gaplarni tuzish mumkin: «Bolalar quvonchdan sakrab yuborishdi», «Xursand bo'lib, bolalar osmonga sakradilar»; «Bolalar sakrab yuborishdi, chunki ular xursand edilar». Aynan bir mavzuda turlicha gaplar tuzishga doir bunday ishlar maktabgacha yoshdagi bolalarga bitta fikrni turlicha ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan gaplar tuzishni o'rgatadi.

Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o'yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin. Aynan bitta fikrni ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar yetti yoshli bolalarda grammatik to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rinni egallashi lozim.


Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatdoshlarni qo'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarning ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Bolalar nutqiga sifatdosh shakllarni kiritish uchun bolalar, kattalar, xayvonlar, qushlarning turli harakatlarini tasvirlovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'qiyotgan bola, raqs tushayotgan qiz, yugurayotgan quyon va x.k.).

Bolalar surat asosida gap tuzadilar: «Bola o'qiyapti». Tarbiyachi o'qiyotgan bola so'z birikmasini tuzishga yordam beradi. Tarbiyachi so'z birikmasidagi sifatdoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi: «Qaysi bola?» - «O'qiyotgan bola».

Mashg'ulot uchun eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarni olish va ulardan hozirgi zamondagi xaqiqiy sifatdoshlarni hosil qilish darkor. Bolalarga hech qanday atamalar ma'lum qilinmasligi kerak, bunda ularning ayrim sifatdoshlarni esda saklab qolishlari va zarur bo'lganda ularni o'z nutqiga qo'sha olishlari juda muhimdir.

Klaster metodi



Bolalarning sifatdoshlarni qo'llashlariga oid ishlar tabiatni kuzatish chog'ida, rasm chizish mashg'ulotlarida, badiiy adabiyotni o'qish jarayonida o'tkazilishi mumkin. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Predmetni, uning belgilarini ko'rsatish va nomini aytishni ularning mohiyatini ochib beradigan izoxlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, tushayotgan barg so'z birikmasida - bu tushayotgan bargdir. Bolalarga tanishtiriladigan sifatdoshlarni yaxshisi, oldin alohida-alohida, keyin jo'r bo'lib aytgan ma'qul.

- muayyan so'zning hosil bo'lishini tushuntirib berish: «chizayotgan» so'zi chizmoq so'zidan, «raqsga tushayotgan» so'zi raqsga tushmoq so'zidan.

- Sifatdoshga savollar qo'yish: «Dala qanday, sarg'ayayaptimi?» - «Sarg'ayayapti».

- Ot va sifatdoshdan iborat bo'lgan so'z birikmasi asosida gap tuzish: sarg'ayayotgan barglar - «Olmaning sarg'ayayotgan barglari ko'rinib turibdi»; g'irillayotgan samolyot - «g'irillayotgan samolyot shahar ustidan uchib o'tdi» va x.k.

Agarda o'qilayotgan asar matnida sifatdosh uchrasa, bolalarning uni hikoya qilib berishida mazkur sifatdoshni unga taalluqli bo'lgan otlar bilan birgalikda qo'llashlariga,

tarbiyachi savol berganida esa ushbu sifatdosh hosil bo'lgan fe'l nomini ayta olishlariga e'tibor berish juda muhimdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga mustaqil hikoya-tavsiflar (o'yinlar, narsalar bo'yicha) yoki syujetli suratlar turkumi asosida hikoyalar tuzishni o'rgatish maqsadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni o'tkazishda tarbiyachi bolalarning o'zlariga ma'lum bo'lgan barcha grammatik shakllarni qo'llashlariga erishishi lozim: otlarning kelishik shakli va sifatlar, sifatlar to'liq va qisqa shaklda, sifatarni taqqoslash darajalari (yuqori, baland, eng baland); fe'llarning tuslanadigan shakllari; eng keng tarqalgan ravishlar (o'ngga, chapga, oldinga, orqaga, bu yerda, anavi yerda, yuqorida, pastda, yaxshi, tez), xozirgi zamon xaqiqiy sifatdoshlari; old ko'makchilar va bog'lovchilar.

Bolalar nutqining sintaktik qatorini rivojlantirar ekan, tarbiyachi bolalarning oddiy gaplarni, bir xil a'zoli, gaplarni tuzish, qo'shma gaplarni to'g'ri tuzishlariga e'tiborni qaratishi lozim. Faqat yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha grammatik shakllarni o'zlashtirgan takdirdagina bola maktabda o'qishga yaxshi tayyorlangan bo'ladi.

XULOSALAR:

- Bolalarning so'z ijodkorligi - qoidalar, umumlashtirmalar, obrazli munosabatlar harakatlarini shakllantirish jarayonining yaqqol ko'rinishidir.

- Grammatik elementlarni egallash jarayoni ko'rgazmali tasavvurni shakllantirish asosida ro'y beradi va u bir nechta bosqichlarga ega.

- Bugungi kun lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri - son-sanoqsiz gaplarni tuzish hamda ularni tushunish qobiliyatini rivojlantirish tabiati va mexanizmini tushunishdan iboratdir.

- Bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal qilmaydi, aksincha u o'zining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan o'z so'zlari kategoriyasini yaratadi.

- Tilni rivojlantirishning mohiyati (lug'at to'plash bilan parallel ravishda) shundan iboratki, toki o'rganayotgan bola ko'p sonli yangi fikrlar talqinini yaratish uchun qoidalar tizimini egallab olsin.

- Ona tilining grammatik ahamiyatlari ma'nosini tushunish - o'sib borayotgan insonning aqli shakllanayotgani va rivojlanayotganidan dalolat beradi.

- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklar grammatik ahamiyatni o'zlashtirish jarayoni normal holatda davom etayotganligidan, bolaning o'z ona tilida grammatik ahamiyat mavjudligi haqidagi g'oyani o'zlashtirib olganidan va mazkur ahamiyatni u atrofdagi kattalarning pedagogik qobiliyatidan kelib chiqqan holda egallab olayotganidan dalolat beradi.

- Nutqni rivojlantirishga doir mashqlar - ya'ni, nutqiy grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashqlar boshqa ishlar (kitob o'qish, rasm chizish, o'yin o'ynash va boshq.) bilan birgalikda bajarilishi lozim.

- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga syujetli suratlar asosida mustaqil ravishda hikoyalar tuzishni o'rgatish maqsadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni o'tkazishda tarbiyachi bolalarning o'zlariga ma'lum bo'lgan barcha grammatik shakllarni qo'llashlariga erishishi lozim.

• Faqat barcha grammatik shakllarni o'zlashtirgan taqdirdagina bola maktabda o'qishga yaxshi tayyorlangan bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Boladagi mavjud qoidalarining shakllanganligi va barqarorligini qanday qilib tekshirish mumkin?
- Bolalar so'z ijodkorligi nimani bildiradi?
- So'z ijodkorligining psixofiziologik negizini nima tashkil qiladi?
- Bolaning ona tili sintaksisini egallash jarayoni qanday amalga oshadi?
- Bolalar nutqida qanday fikr bildirish turlari ajratilgan?
- Bolaning til tizimini egallash, til qobiliyatlariga ega bo'lish jarayonining asosini nima tashkil qiladi?
 - Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagog oldida grammatika sohasida qanday vazifalar turibdi? Ularning har birini tavsiflab bering.
 - Maktabgacha yoshdagi bolaning grammatik xatoliklari nimadan dalolat beradi?
 - Bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
 - Bolalarning suffikslar, prefikslar, so'z qo'shimchalarining grammatik ahamiyatini qay darajada tushunishlaridan dalolat beruvchi grammatik xatoliklariga misollar keltiring.
 - Tarbiyachi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarni qanday qilib tuzatishi mumkin?
 - Uch-to'rt yoshli bolalar nutqining asosiy grammatik belgilarini aytib bering.
 - Uch-to'rt yoshli bolalar nutqining grammatik qatori ustidagi ishlarni nimalardan boshlash zarur?
 - Besh-olti yoshli bolalar nutqini grammatika nuqtai-nazaridan tavsiflang.
 - Besh-olti yoshli bolalar o'z nutqida qaysi asosiy sintaktik munosabatlarni aks ettirishlari mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

12-Mavzu: Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish. Tovushlarning to'g'ri talaffuzi yuzasidan olib boriladigan ishlarning xususiyati va ahamiyati.

Reja:

1. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda tarbiyachining vazifalari.
2. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash usullari.
3. Turli yosh davrlarida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bo'yicha ishlarni tashkil etish
5. Ravon gapirish ustida ishlash.
6. So'zni talaffuz qilishda urg'u va nutqning orfoepiyasi (juda to'g'ri talaffuz qilish qoidasi) ustida ishlash.

Tayanch tushncha va iboralar: grammatik ko'nikmalar, nutq shakllari, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim muassasasi va oila, nutq ko'nikmalari, tarbiyachi vazifasi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytish, ularni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg'ular, nutq sur'ati, ritmi va tembr) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Bolalarda to'g'ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, tarbiyachi quyidagi vazifalarni xal etishi zarur:

- bolalarda tinglash qobiliyatini tarbiyalash, uning komponentlarini, ya'ni: tinglash e'tibori (biron-bir tovushni jaranglashiga qarab qanday tovush ekanligini va uning yo'nalishini aniklay olish), fonematik tinglash, mazkur nutq sur'ati va ritmini qabul qila olish qobiliyatlarini asta-sekin rivojlantirib borish;

- artikulyatsiya apparatini rivojlantirish;

- nutqiy nafas olish ustida ishlash, ya'ni iboralar bilan erkin so'zlay olish uchun qisqa nafas olish va davomli nafas chiqarishni o'rgatish;

- muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshqarish qobiliyatini tarbiyalash;

- ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;

- har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli talaffuz qilishga, umuman yaxshi talaffuzga odatlanish;

- so'zlarni o'zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari me'yorlariga mos holda talaffuz qilishni rivojlantirish;

- normal nutq sur'atini shakllantirish, ya'ni so'zlar va iboralarni nutqni tezlashtirmay va sekinlashtirmay sekinlik bilan hamda shu bilan birga tinglovchiga aniq tushunish imkoniyatini yaratgan holda talaffuz qilishni o'rgatish;

- nutqning ohangiy ifodaliligini tarbiyalash, ya'ni fikrlar, xissiyotlar va kayfiyatni mantiqiy pauza, urg'u, ohang, sur'at, ritm va tembr yordamida aniq ifodalash qobiliyatini shakllantirish.

Tarbiyachi nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va uni mutaxassisga yuborishdan oldin bunday nuqsonlar haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Endi har bir vazifani batafsil ko'rib chiqamiz.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish

Nutqni shakllantirishning dastlabki davrida nutqni tinglashga oid asosiy komponentlarni rivojlantirish bir tekisda bormaydi. Chunonchi, nutqni rivojlantirishning birinchi bosqichlarida tinglash e'tiboriga alohida ahamiyat beriladi. Vaxolanki, bunda asosiy mantiqiy vazifa yuqori tovush tinglash qobiliyati zimmasiga tushadi. Bolalar tovush balandligi o'zgarishini nutqning xis-xayajonli xususiyatiga (jaxd qilinsa unga javoban yig'laydilar hamda xushmuomala va

mayin munosabatga javoban jilmayadilar) va tembriga (onasi va boshqa yaqinlarini ovozlaridan taniydi) muvofiq holda qarab tanib olishni biladilar, shuningdek so'zning ritmik suratini, ya'ni uning sheva-bo'g'in tarkibini (so'zning bo'g'inlar soni va asosiy urg'uning joyiga bog'liq bo'lgan tovush tuzilishi xususiyatlari) nutq sur'ati bilan birlikda to'g'ri qabul qiladilar.

Kelgusida nutqni rivojlantirishda fonematik tinglash qobiliyatini, ya'ni bir tovushni boshqasidan aniq ajrata olish va buning natijasida ayrim so'zlarni tanish hamda tushunish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Yaxshi rivojlangan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq va to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi, so'z aytishda uning balandligini to'g'ri boshqara olish va uni oxista sur'atda, ohang jihatdan ifodali qilib so'zlash imkonini beradi.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish artikulyatsiya apparatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Nutqni tinglash qobiliyatini tarbiyalash bolalarda nutq jarangdorligining turli xil ko'rinishlarini, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni aniq va tushunarli aytish, ovozni pasaytirish yoki kuchaytirish, nutq balandligi, tezligi, oxistaligi, uni jadallashtirish va sekinlashtirish, tembral ishlov berish (iltimos, buyruq va boshq.) kabilarni qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgandir.

• **Artikulyatsiya apparatini rivojlantirish**

Nutqiy tovushlar og'iz bo'shlig'ida shakllanadi, uning shakli va hajmi harakatchan a'zolar: lablar, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach holatiga bog'liq bo'ladi. Muayyan tovushni talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan nutq organlarining to'g'ri holati va harakati artikulyatsiya deb ataladi.

Artikulyatsiya apparati tuzilishidagi buzilishlar, masalan, qisqa tilosti tuguni, noto'g'ri tishlashish, og'iz yuqori qismining xaddan tashqari balandligi yoki pastligi va boshqa ayrim kamchiliklar tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanishga olib keluvchi dastlabki omillar hisoblanadi. Biroq, agarda bolaning artikulyatsiya apparati organlari harakatchan bo'lsa, u yaxshi tinglash qobiliyatiga ega bo'lsa, bu holda ko'pchilik holatlarda uning o'zi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qodir.

Agarda bolaning artikulyatsiya apparati harakatida nuqsonlar mavjud bo'lsa (masalan, til kam harakatlansa), bu holda u tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, sust, noaniq va tushunarsiz nutqqa olib kelishi mumkin.

SHuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: tilning harakatchanligini rivojlantirish; lablarning yetarli darajadagi harakatchanligini rivojlantirish; pastki jag'ni tovushlarni talaffuz qilish uchun muhim bo'lgan muayyan holatda tutib turishni o'rganish.

• Nutqiy nafas olishni rivojlantirishga doir ishlar.

O'pkadan kekirdak, bo'g'iz, og'iz bo'shlig'i yoki burun orqali chiqayotgan havo oqimi tovush hosil qiluvchi manba hisoblanadi. Nutqiy nafas olish o'z-o'zidan ro'y beradigan nonutqiy nafas olishdan farqli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi. Nonutqiy nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish burun orqali amalga oshiriladi, nafas olish o'zining davomiyligi bo'yicha nafas chiqarishga deyarli teng bo'ladi.

Nutqiy nafas olish og'iz orqali amalga oshiriladi, nafas olish tez, nafas chiqarish esa sekinroq ro'y beradi. Nonutqiy nafas olishda nafas olishdan keyin darxol nafas chiqariladi, so'ngra pauza saqlanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olinganidan keyin pauza saqlanadi, so'ngra asta-sekinlik bilan nafas chiqariladi.

To'g'ri nutqiy nafas olish to'g'ri tovush hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning tegishli balandlikda bo'lishini ta'minlash, pauzalarga aniq rioya qilish, nutqning asta-sekinligini va intonatsion ifodaliligini saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Nutqiy nafas olishdagi xatoliklar umumiy zaiflik, adenoidik o'simtalar, turli yurak-tomir kasalliklari oqibati bo'lishi mumkin. SHuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga salbiy tas'ir ko'rsatuvchi nafas chiqarishdan oqilona foydalana olmaslik, nafas olayotib so'zlash, o'pkani yetarli darajada havo bilan to'ldirmaslik kabi nutqiy nafas olishdagi

nomutanosibliklar noto'g'ri tarbiya, kattalarning bolalar nutqiga yetarli darajada e'tibor bermaganliklari oqibatida ham yuz bergan bo'lishi mumkin.

Zaif nafas oladigan va nafas chiqaradigan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda, past ovozda so'zlaydilar, uzun iboralarni talaffuz qilishda qiynaladilar. Nafas chiqarishda havodan nooqilona foydalanilganida nutqning izchilligi buziladi, chunki bolalar iboraning o'rtasida nafas olishga majbur bo'ladilar.

Ko'pincha bunday bolalar so'zlarni oxirigacha aytmaydilar va ba'zan ibora so'ngida ularni shivirlab aytadilar. Ba'zida bolalar uzun iborani nihoyasiga yetkazish uchun nafas olib so'zlashga majbur bo'ladilar, buning natijasida nutq noaniq bo'ladi, bolalar xuddi tiqilib qolgandek so'zlaydilar. Chunki, tezlashtirilgan nafas chiqarish iboralarni mantiqiy pauzalarga rioya qilmasdan jadal sur'atda so'zlashga majbur qiladi.

Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: maxsus o'yinli mashqlardan foydalangan holda erkin, bir tekis va uzaytirilgan nafas chiqarishni o'rgatish; pedagog nutqiga taqdid qilgan holda undan to'g'ri, oqilona foydalanishni (kichik iboralarni uzoq nafas chiqarish bilan talaffuz qilish) tarbiyalash.

- Ovoz ustidagi ishlar

Ovoz apparati vositasida balandligi, kuchi va temбри turlicha bo'lgan tovushlar chiqariladi: ularning umumiyliги aynan inson ovozi ni aniqlaydi.

Har bir ovoz xususiyatlarini alohida ko'rib chiqamiz.

Ovoz balandligi - ohangning ko'tarilishi va pasayishi, yuqori ovozdan past ovozga o'tish va aksincha.

Ovoz kuchi - tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish qobiliyati.

Ovoz temбри - ovozga sifat jihatdan ishlov berish (jarangdor, ma'nosiz, titroq, bo'g'iq va boshq.)

Ovoz tugunchalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Uning sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori nafas yo'llarining turlicha tebranishlari, surunkali shamollash, adenoid o'simtalar va xokazolar ovozdagi buzilishlarning yuz berishiga yordam beradi. Ko'pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishi undan noto'g'ri foydalanish: doimiy ravishda baqirib so'zlash, ayniqsa yilning sovuq davrida ko'chalarda baland ovozda so'zlash orqali ovoz tugunchalarini zo'riqtirish, bola ovozi diapazoniga mos kelmaydigan ohangda so'zlash (masalan, bolalar anchaga yosh bolalarning chiyilloq nutqiga takdid qiladilar yoki «adasi nomidan» past ovozda so'zlashga urinadilar) oqibatida yuz beradi. Ovozda buzilishlar buruntomoq yoki yuqori nafas yo'llariga oid kasalliklarni boshdan kechirgan hamda kasallik paytida yoki sog'ayganidan so'ng darxol ovozni asrash rejimga rioya qilmagan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin.

Ovoz imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari (juda uyatchan bola ko'pincha past ovozda so'zlaydi; tezda g'ayratga keladigan bolalar baland ohanglarda so'zlaydilar); noto'g'ri tarbiyaga (agarda atrofdagilarning o'zlari baland ovozda so'zlasalar bolalar ham noiloj shunga o'rganadilar); agarda xonada doimiy shovqin-suron bo'lsa (radio, televizor, maktabgacha ta'lim muassasasi guruhidagi doimiy shovqin-suron va x.k.) bolalarning baland ovozda so'zlashga majbur bo'lishlariga bog'liqdir.

Tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: o'yinlarda, o'yinli mashqlarda ovozning asosiy sifati - kuchi va balandligini rivojlantirish; bolalarni zo'riqmasdan so'zlashga o'rgatish, ularni ovozdan turli vaziyatlarga mos holda foydalanishga odatlantirish (past-baland).

- Ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish

Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu ishlar maktabgacha ta'lim muassasasida nihoyasiga yetkazilmog'i lozim.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni faqatgina bolalarda artikulyatsiya apparati organlarining harakatchanligi va tez o'zgarishi, nutqiy nafas olishi yetarli darajada rivojlangan, ular o'z ovozlarni boshqarishni uddalay olgan taqdirdagina shakllantirish mumkin. To'g'ri talaffuzni shakllantirish uchun yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyatiga ega bo'lish ham juda muhimdir, chunki u o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi, o'z-o'zini nazorat qilish esa doimo o'z ustida ishlashga undaydi.

Tovushni talaffuz qilishdagi kamchiliklar nutqiy apparatdagi nuqsonlar (og'izning yuqorigi qattiq va yumshoq qismlaridagi nuqsonlar), tish-jag' tizimi tuzilishdagi xatoliklar, til osti tugunchalarining qisqaligi, artikulyatsiya organlarining yetarli darajada harakatchan emasligi, fonematik tinglay olish qobiliyati (bir tovushni boshqasidan farqlay olmaslik) yetarli rivojlanmaganligi oqibatida yuz berishi mumkin. Jismoniy tinglay olish qobiliyatining susayganligi, o'z nutqiga beparvolarcha munosabatda bo'lish (o'zini ham, boshqalarni ham tinglay olmaslik), atrofdegilarning noto'g'ri nutqlarini o'zlashtirib olish ham talaffuzda kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning tovushni noto'g'ri talaffuz qilishlari tovushlarni tashlab ketishda, bir tovushni boshqasi bilan almashtirishda va tovushni buzib talaffuz qilishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tovushlarni almashtirib yoki buzib talaffuz qilish holatlari aniqlangan bolalar bilan ishlashni o'z vaqtida boshlash juda muhimdir, chunki tovushlar o'rnini almashtirish keyinchalik yozma nutqda ham paydo bo'lishi mumkin (bir harfni boshqasi bilan almashtirish), buzib talaffuz etilayotgan hamda o'z vaqtida tuzatilmagan tovushlar keyinchalik uni bartaraf etish uchun logoped va bolaning birgalikda ko'p vaqt hamda mexnat sarflashlarini talab qiladi.

Bundan tashqari, unutmazlik zarurki, tovush talaffuzidagi kamchiliklar ko'pincha bolaning o'zi nutqda xatolikka yo'l qo'yishi emas, balki faqat maxsus davolash va ta'lim berishni talab qiluvchi nisbatan murakkab nutq buzilishlarining (alaliya, dizatriya va boshq.) bir belgisi hisoblanadi.

Tarbiyachi quyidagilarni amalga oshirishi lozim: bolalarga har qanday pozitsiyada (so'z boshida, o'rtasida va oxirida) va so'z tarkibi turlicha bo'lganida (har qanday undosh birikmalari va bo'g'inlar soni istalgancha bo'lganida) barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish; nutqda kamchilik bo'lgan bolalarni o'z vaqtida aniqlash va zarur xollarda ularni o'z vaqtida maxsus bolalar muassasalariga yuborish.

Diksiyaga oid ishlar

Yaxshi diksiya, ya'ni har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni alohida va aniq, tushunarli qilib talaffuz etish bolada bir vaqtning o'zida artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan birgalikda asta-sekin shakllanadi. Diksiyaga oid ishlar ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirishga doir ishlar bilan uzviy bog'liqdir.

Bola nutqining barcha tomonlari jadal rivojlanayotgan 2 yoshdan b yoshgacha bo'lgan davrda uning so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli talaffuz etishiga e'tiborni qaratish, bolalarda so'zlardagi barcha tovushlarni aniq aytgan, iboralardagi barcha so'zlarni tushunarli qilib talaffuz qilgan holda oxirida sur'atda taqlid qilish nutqini tarbiyalash zarur. Biroq har doim ham faqat taqlid qilish orqali yaxshi diksiyaga erishib bo'lmaydi. Bunga nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, artikulyatsiya apparati organlarining yetarlicha harakatchan emasligi, o'z ovozi boshqara olmaslik va boshqa kamchiliklar to'siq bo'lishi mumkin.

Ko'pincha noaniq diksiya so'zlovchilarning nutqini diqqat-e'tibor bilan tinglay olmaydigan va o'z-o'zini nazorat qilish yetarli darajada rivojlanmagan, e'tiborini bir narsaga jamlay olmaydigan va salga jaxli chiqadigan bolalarda yuz beradi. Bunday bolalar nutqi noaniq, aralash bo'ladi, ular har doim ham so'zlar, iboralarni oxirigacha aytmaydilar.

Asta-sekin atrofdegilar va o'z nutqini diqqat bilan tinglashni o'rganishi, nutqiy nafas olish, artikulyatsiyani rivojlantirishi, ovozni boshqarishni o'rganishi natijasida bolaning diksiyasi ham yaxshilanib boradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga grammatik jihatdan to'g'ri nutqni, yaxshi diksiyani o'rgatishi, ularni atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglash va o'z talaffuzining aniqligini kuzatib borishga odatlantirishi zarur.

•Orfoepiyaga doir ishlar

Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ular og'zaki nutqining tovush qismi bir xil bo'lishi darkor. SHuning uchun tarbiyachilar nafaqat o'zlari og'zaki nutq qoidalariga rioya qilishlari lozim, balki ular bolalarni ham shunga odatlantirishlari kerak.

Biz bir necha bor bolalarning o'z nutqida maxalliy shevani, jaydari so'zlarni qo'llayotganini, urg'uni noto'g'ri qo'yayotganliklarini, so'zlarni harfiga qarab aytayotganliklariga duch kelamiz.

Tarbiyachi bolalarning adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasi quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim: ona tilining orfoepik me'yorlarini o'zlashtirib olish yo'li bilan o'z nutqining talaffuz madaniyatini oshirish, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda muntazam ravishda turli qo'llanmalar, lug'atlardan foydalanish.

•Nutq sur'atiga doir ishlar

Nutq sur'ati deganda, nutqning vaqt bo'ylab davom etish tezligi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar sekin so'zlashdan ko'ra ko'proq tez sur'atda so'zlaydilar. Bu nutqning tushunarligi, aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, tovush artikulyatsiyasi yomonlashadi, ba'zan alohida tovushlar, bo'g'inlar va hatto so'zlar tushib qoladi. Ayniqsa bu nuqsonlar uzun so'zlar yoki iboralarni talaffuz qilishda ko'p uchraydi.

Tarbiyachining faoliyati bolalarda so'zlar juda aniq jaranglaydigan oxista nutq sur'atini shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

•Intonatsion ifodalilikka oid ishlar

Intonatsiya – bu nutqdagi barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

musiqiylik - iborani aytishda ovozning kuchayishi va pasayishi, bu nutqqa turli buyoqlar baxsh etadi va birxillikdan qochish imkonini beradi. Musiqiylik jaranglayotgan nutqning har bir so'zida ishtirok etadi. Balandligi va kuchiga qarab o'zgartirish holda unlilar unga ishlov berishni nihoyasiga yetkazadilar;

sur'at - nutqiy kesimlar o'rtasidagi pauzalarni hisobga olgan holda nutqning aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda jadallashishi va sekinlashuvi;

ritm - urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning bir tekis o'rin almashishi (ya'ni, ularning quyidagi sifatlari: uzoqlik va qisqalik, ovozni balandlatish va pasaytirish);

iboraviy va mantiqiy urg'ular - aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda pauzalar, ovozni balandlatish, so'zlarni talaffuz qilishdagi zo'riqish va uzoqligi bilan ajratish;

nutq tembri - (tovush tembri va ovoz tembri bilan aralashtirib yuborilmaslik) tovushning ekspressiv-emotsional buyoqlari (qayg'uli, quvnoq, xazin tembr).

Ifodalilikning ushbu vositalari yordamida muloqot jarayonida fikrlar va iboralarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniqlashtirish amalga oshiriladi. Intonatsiya tufayli fikr tugallangan tusga ega bo'ladi, aytilgan fikr asosiy ma'noni o'zgartirmagan holda qo'shimcha ma'noga ega bo'lishi mumkin. SHuningdek, aytilgan fikr mazmuni ham o'zgarishi mumkin.

Ohang jihatidan ifodali bo'lmagan nutq odatda, tinglash qobiliyatining sustligi, nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, noto'g'ri nutqiy tarbiyalash, nutqdagi turli nuqsonlar (dizartriya, rinolaliya va boshq.) oqibatida yuz berishi mumkin.

Bola o'z nutqida turli his-hayajon va kechinmalarini tinglovchiga yetkazish uchun ifoda vositalarini to'g'ri qo'llashni bilishi lozim. Tarbiyachi nutqi his-hayajonga to'liq bo'lishi hamda intonatsion ifodalilik namunasi bo'lib xizmat qilishi lozim.

Intonatsion ifodalilikka doir ishlar asosan taqdid yo'li bilan amalga oshiriladi. Tarbiyachi she'rlarni yod olishda, hikoya qilib berishda o'zi ham nutqning ifoda vositalaridan foydalanadi va bola nutqining ifodaliligiga e'tiborni qaratadi. Bolalar tarbiyachining to'g'ri, ifodali nutqini eshitgani sayin asta-sekin mustaqil nutqda zarur intonatsiyalarni qo'llay boshlaydilar.

Nutqning tovush madaniyatiga doir barcha ishlar bo'limlari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir o'yinlar va mashg'ulotlarni muntazam hamda izchil ravishda amalga oshirish uchun unga «jonli» ovoz ustidagi ishlar asos qilib olinishi lozim. Har bir yosh bosqichida materialni asta-sekin murakkablashtirib unga nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir bo'limlarni kiritgan holda uni murakkablashtirib borish darkor.

Bolalar nutqini rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich - bu 1 yoshu b oydan to 3 yoshgacha bo'lgan davr. Ushbu bosqichda (ayniqsa, uning boshida) faol lug'at jadal rivojlanadi. Ilgari shakllanib ulgurgan artikulyatsiya harakatlari yaxlit so'zlarni talaffuz qilishda ishtirok etgani holda unga ayrim o'zgartirishlar kiritiladi, ya'ni bunda aniqlashtirish yuz beradi, u yanada barqarorlashadi. Bolaning yaxlit so'zni aytishga ongli ravishda taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi, shu tufayli tarbiyachi bola nutqining tovush jihatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Turli tovush taqlidlaridan foydalanish nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarning asosini tashkil qiladi.

Ishning samaradorligi ortadi, chunki ushbu yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar kichik guruhlarda olib boriladi.

Ikkinchi bosqich - 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr. Bu yoshda so'zning fonetik va morfologik tarkibini shakllantirish jarayoni boradi. Eng qiyin artikulyatsiya harakatlarini takomillashtirish davom ettiriladi. Bu bola uchun oraliq, affrikat va sonor tovushlarini chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu bosqichdagi ishlar bolalarning so'zning tovush jihatiga nisbatan sezilarli ravishda ajralib turadigan ongli munosabatiga tayanadi va u ona tilining barcha tovushlarini izchil ravishda mashq qilish asosida quriladi.

Uchinchi bosqich - 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr. Bu bosqich go'yoki maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar nutqining tovush tomonini shakllantirishdagi yakunlovchi davr hisoblanadi. Davr boshida eng qiyin artikulyatsiya harakatlari shakllanib bo'ladi, biroq bunda shu narsa muhimki, artikulyatsiya yoki akustik belgilari bo'yicha yaqin bo'lgan (s-sh, z-x, s-z va boshq.) tovushlar bir-biridan aniq farqlanishi (talaffuzda ham, nutqni tinglash orqali qabul qilishda ham) lozim. Bunday tovushlarni tabaqalashtirish, farqlashni takomillashtirishga oid maxsus ishlar bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini yanada rivojlantirishga, fonemalarni mazmun farqlovchi tovushlar sifatida o'zlashtirishga yordam beradi (surat - sur'at, dur-tur va boshq.).

Mazkur davrda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash asosiy tovushlar juftligini tabaqalashtirish asosida quriladi va bir vaqtning o'zida diksiya, sur'at, intonatsion ifodalilik va x.k. larni o'z ichiga oladi.

Tarbiyachi har bir bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning asosiy mazmunini nazarda tutgani holda ayni paytda bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

Xulosa:

• «Nutq madaniyati» atamasi ko'p qirralidir: 1-uni keng ma'noda tushunish mumkin, bunda u «nutq madaniyati» sinonimiga ega bo'ladi (bu o'rinda u namunaviy xusnixat matnlarini va umuman olganda, til tizimining potensial xususiyatlarini ko'zda tutadi); 2-tor ma'noda, nutq madaniyati - bu kundalik, og'zaki va yozma muloqot sharoitida til xususiyatlari hamda imkoniyatlarini aniq yuzaga chiqarishdir; 3-nutq madaniyati - bu mustaqil lingvistika fanidir.

• Nutq madaniyati - og'zaki va yozma adabiy nutq me'yorlarini (talaffuz, urg'u, grammatika, so'zni qo'llash qoidalari va boshq.), shuningdek nutq maqsadi va tarkibiga muvofiq holda til vositalaridan foydalana olish qobiliyatini o'zlashtirish.

• Lingvistik adabiyotlarda odatda, adabiy tilni o'zlashtirishning ikki bosqichi haqida, ya'ni: nutqning to'g'riligi va nutqiy maxorat haqida aytish qabul qilingan.

• Maktabgacha yoshda nutqda tovush madaniyatini tarbiyalash vazifasi bu - bolalarda so'zdagi tovushlarni sof va tushunarli qilib talaffuz etishni, so'zlarni o'zbek tili orfoepiyasi me'yorlariga muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilishni, aniq talaffuz qilishni (yaxshi diksiya) hamda nutq ifodaliligini tarbiyalashdan iborat.

• Bolalarning tovush artikulyatsiyasini o'zlashtirish jarayoni ancha davomli bo'lib, u 5-7 yilga cho'ziladi.

• Agarda bolalarga o'z vaqtida va muntazam ravishda o'rgatilsa ular hech bir qiyinchiliksiz barcha prosodemalarni (intonatsiyalarni) o'zlashtirib olishlari mumkin.

• Intonatsiyalarning 6 ta turi mavjud: sanash intonatsiyasi, qarama-qarshi qo'yish, chaqirish, ogoxlantirish (yoki ikki nuqta), kirish, ajratib qo'yish.

• O'zbek tilining fonetik va fonologik vositalaridan ravon nutqda bir vaqtning o'zida foydalanilmoqda.

• Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash nutqning boshqa jihatlarini ham, ya'ni: lug'at, ravon, grammatik to'g'ri nutqni rivojlantirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

• Nutqiy rivojlantirishning dastlabki bosqichida tinglash qobiliyatiga alohida o'rin beriladi (garchi asosiy mazmun yuki yuqori tovushni tinglay olish qobiliyati zimmasiga tushsa ham).

• Yaxshi rivojlantirilgan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq, tushunarli va to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlaydi, so'zni talaffuz qilish balandligini to'g'ri boshqara olish, oxista sur'atda, intonatsion ifodali so'zlash imkoniyatini beradi.

• Artikulyatsiya apparati organlarining yaxshi harakatchanligi, yaxshi tinglash qobiliyati bolaning tovush talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish imkonini beradi.

• To'g'ri nutqiy nafas olish normal tovush vujudga kelishini ta'minlaydi, tegishli nutq balandligiga, pazualarga aniq rioya qilishni ta'minlash, nutqning bir tekisligini va intonatsion ifodalilikni saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

• Ovoz sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

• Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. 7 yoshgacha bola ona tilining barcha tovushlarini adabiy til me'yorlariga muvofiq holda talaffuz qilishni o'rganib olishi shart.

• Diksiya (tovushlar, so'zlar, iboralarni to'g'ri talaffuz qilish) artikulyatsiya apparati faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir vaqtda asta-sekin shakllantiriladi.

• Pedagog (bola atrofidagi kattalar) bolalarning adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishlari, barcha xatoliklarni to'g'ri talaffuz namunalari ko'rsatgan holda bartaraf etishlari lozim.

• Maktabgacha yoshda barcha bolalarda so'zlar ancha tiniq talaffuz etiladigan oxista nutq sur'atini shakllantirish darkor.

• Intonatsiya - bu jaranglayotgan nutqqa oid barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo'lib, uning yordamida muloqot jarayonida fikrlar va ifodalarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniqlashtirish amalga oshiriladi.

• Bolalar nutqining intonatsion ifodaliligi ustidagi ishlar asosan taqlid yo'li bilan amalga oshiriladi.

• Nutqni rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni 3 ta bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqich - 1 yil 6 oydan 3 yoshgacha; 2-bosqich - 3 yoshdan 5 yoshgacha; 3-bosqich - 5 yoshdan 7 yoshgacha.

• 1-bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish kattalarning bolalar bilan muntazam muloqoti orqali amalga oshiriladi. Asosiy vazifa -tinglash qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borish, artikulyatsiya apparati organlarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunda har xil tovush taqlidlarini o'zida jamlagan o'yinlar, she'rlar, qo'shiqlar, hikoyalardan foydalanish mumkin.

• 2-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga doir ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa -bolalarda fonematik tinglash va ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq hamda tushunarli qilib talaffuz etish; ovoz balandligini vaziyatdan kelib chiqqan holda boshqarish qobiliyatini tarbiyalash, so'zlarni ulardagi urg'ularga aniq rioya qilgan holda to'g'ri va aniq talaffuz qilishdan iborat. Ayni paytda tovush taqlididan foydalanish darkor. Ona tilidagi barcha tovushlarni mashq qilish navbati bilan bir-birini almashtiruvchi to'rtta turni ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish va ushbu tovushni boshqalari ichidan ajrata olish, iborali nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

• 3-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni bolalar tomonidan ko'p xollarda aralashtirib yuboriladigan tovushlarni (shuvillovchi, xushtaksimon, jarangli, jarangsiz va boshq.) tabaqalashtirishga doir ishlar bilan bog'liq holda amalga oshirish lozim. Bunda asosiy vazifa nutqiy tinglashni yanada takomillashtirish, aniq, to'g'ri, intonatsion ifodali nutq ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat.

• Tabaqalashtirish ajratib qo'yilgan tovushlar bo'yicha ham va ayni paytda so'zlar hamda iborali nutqlar bo'yicha ham amalga oshiriladi. Bu esa bir vaqtning o'zida bolalarda nutqiy nafas olish, diksiya, intonatsion ifodalilik, ya'ni nutq tovush madaniyatining barcha qirralarini takomillashtirish imkonini beradi.

• Har qanday tovush juftligini tabaqalashtirish uch turdagi ishni amalga oshirishni ko'zda tutadi: ajratib qo'yilgan tovushlarni tabaqalashtirish; so'zlarda tovushlarni tabaqalashtirish; nutqda tovushlarni tabaqalashtirish.

• Tovushlarni tabaqalashtirish uchun materiallarni she'rlar, hikoyalar, tez aytishlar orqali berish va bir vaqtning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diksiya, ovozdan to'g'ri foydalana olish, so'zlarni adabiy me'yorlarni hisobga olgan holda talaffuz qilishni mashq qilish lozim.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bo'yicha ishlarni tashkil etish

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tovushlarni talaffuz etish ular nutqini harakatga keltiruvchi apparatning ishlashiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish bilan bir vaqtda, nutqni harakatga keltiruvchi apparatning alohida a'zolarini doimiy mashq qildirish kerak; ayniqsa, lablarning muskullarini, luj (chakak), tilni; jag'larning harakatchanligini rivojlantirish zarur. Bu a'zolarining aniq harakat qilishi tovushlarning aniq, ravon, to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi. Nutq apparati a'zolarining harakatchanligini rivojlantiruvchi mashqlar kichik guruhlarda har kuni, katta guruhlarda esa haftada 3 — 4 marta (mashg'ulotda va mashg'ulotdan tashqari vaqtda) o'tkaziladi. Artikulyatsiya mashqlari o'yin tarzida o'tkaziladi. Masalan: „Ayt-chi, xo'roz qanday qichqiradi?“, „Qarg'a qanday qag'illaydi, kuchuk qanday vovullaydi?“ (birinchi kichik guruh) va boshqalar.

To'g'ri tovush talaffuzini tarbiyalash bo'yicha ishlarni tashkil etishda quyidagi asosiy uslubiyotlardan (metodlardan) foydalaniladi: ko'rgazmali material bilan o'tkaziladigan yoki so'zli ta'limiy o'yin („Kimning uychasi?“ , „Do'kon“, „Orkestr“); harakatli o'yinlar („Otlar“, „Poyezd“); tovushga taqlid qiluvchi ertak va hikoyalardan („Qo'lqop“, „Mitti jo'ja“, „Chin do'st“, „Ahmoq sichqon haqida ertak“ va boshqalar); she'rlar, sanamalar, aytishuvlar, tez aytishlardan foydalaniladi. Shuningdek, to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: 1) to'g'ri talaffuz namunasi (tarbiyachi to'g'ri tovush talaffuzini aytib ko'rsatadi); 2) jo'r bo'lib va yakkama-yakka takrorlash; 3) tushuntirish; 4) to'g'ri artikulyatsiya ni ko'rsatish.

Agar tovush talaffuzi bo'yicha o'yin mashg'ulotdan tashqari vaqtda o'tkazilsa va unda hamma bolalar qatnashmasa, u vaqtda tovushni yaxshi talaffuz eta olmaydigan bolalar bilan birga tovush talaffuzida hech qanday nuqsoni bo'lmagan bolalardan bir nechtasini o'yinga jalb qilish kerak. (Taqlid qilish uchun namuna bo'ladi.) Noto'g'ri tovush talaffuzini tuzatish usullariga alohida talablar qo'yiladi: unga tez-tez qaytish kerak emas (ya'ni noto'g'ri tovush talaffuziga): bu bolani asabiylashtiradi, o'yindan yoki boshqa faoliyatdan chalg'itadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolaga mashq qilishga imkon yaratish uchun uning diqqatini to'g'ri tovush talaffuziga yo'naltirish kerak. O'yin mazmuni sekin-astalik bilan murakkablashtirib boriladi, ya'ni o'yindagi tovush materiali murakkablashadi.

Ravshan (burro) gapirish ustida ishlash

Tovush talaffuzini shakllantirish ravshan gapirish bilan mustahkam bog'liqdir. Bizga ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi ko'pchilik bolalar noaniq, mujmal gapiradilar. Buning asosiy sababi lablarning, til va pastki jag'ning sust harakat qilishidir. Buning natijasida og'iz yetarli ochilmay, unli tovushlar aniq jaranglamaydi. So'zlarning aniq talaffuz etilishi — unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish hamda undosh tovushlarning hosil bo'lishida nutqni harakatga keltiruvchi a'zolarining (lablar, til, pastki jag' va boshqalar) aniq harakatiga bog'liqdir. Kichik guruhlarda ravshan gapirishni shakllantirish uchun tovushga taqlid qiluvchi bir qancha o'yinlardan foydalanish mumkin. Tarbiyachi tovush birikmalarini talaffuz etish namunasini bolalarga ko'rsatar ekan, og'iz bilan harakatlarni juda aniq bajarishi, unli tovushlarni yengil cho'zib talaffuz etishi kerak. Bolalar tarbiyachining bunday harakatlariga beixtiyor taqlid qiladilar. Tovushga taqlid qiluvchi o'yinlarni tanlashda shu narsaga e'tibor berish kerakki, bu o'yinlarda bir qancha tovushga taqlid qiluvchi holatlar mavjud bo'lishi kerak. Masalan, o'yinda va hikoyalarda ushbu tovushga taqlid qilish birlashgan bo'lishi kerak: g'a - g'a - g'a (o'rdak), va q va q (qurbaqa), qo -qo -qo (tovuq), miyov-miyov (mushuk). Kichik guruhdagi (4 — 5 yosh) bolalar nutq jarayonida lablar bilan to'g'ri harakat qilishga, og'izni to'g'ri ochishga o'rganib olishsa, ravshan gapirish (yaxshi diksiya) yengil shakllanadi. Agar katta guruhdagi bolalarning lablari kam harakat qilsa, tishlari bir-biriga birikkan holda gapirishsa, ularni ravshan gapirishga o'rganish ancha qiyin bo'ladi. Chunki avval noto'g'ri shakllangan nutq apparati a'zolari harakatini to'g'rilash zarur. Katta guruhlarda ravshan gapirishni takomillashtirish uchun maxsus mashqlar va tez aytishlardan foydalaniladi. Tez aytishuv — bir xildagi tovushlar te'z-tez uchraydigan, qiyin talaffuz etiladigan jumladir (yoki bir nechta jumla). Tez aytishlardan quyidagi tartibda foydalaniladi. Avvalo tarbiyachi tez aytishlarni tanlaydi. Agar bolalar oyiga 1 — 2 marta tez aytishlardan yod olsalar, u vaqtda bir yilga 8 — 15 ta tez aytishni tanlaydi va ularni qiyinligiga qarab (yengil talaffuz etiladiganlarini oldinroq o'rgatish kerak) taqsimlaydi. Tez aytishlarni mashg'ulotlaridagina o'rgatilmay, balki mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda, o'yin jarayonida ham o'rgatish mumkin. Maktabga tayyorlov guruhida katta guruhda o'rganilgan tez aytishlar ham takrorlanadi. Bolalarga murakkab tez aytishlarni o'rgatmaslik kerak, chunki uni hamma bolalar o'zlashtira olmaydilar, natijada bu mashq o'zining ta'limiy ahamiyatini yo'qotadi va hech qanday natija bermaydi. Tez aytishlardan foydalanishning maqsadi — ravshan gapirish (burro gapirish)ni mashq qildirishdan, mashg'ulotlarda uni bolalarga o'rgatish

uslubiyotini belgilashdan iboratdir. Tarbiyachi yangi tez aytishni sekinlashgan sur'atda, aniq, tez-tez uchraydigan tovushni ajratib, yoddan aytib beradi. Uni baland bo'lmagan ovozda, ohangdor qilib, bir necha marta takrorlaydi. Bolalar oldiga quyidagi o'quv vazifasini qo'yish mumkin: tez aytishni qanday aytish kerakligini diqqat bilan tinglashga; esda olib qolishga harakat qilishga; uni juda aniq aytishga o'rgatish kabilar. So'ngra bolalar tez aytishni mustaqil tarzda yarim ovozda aytadilar (agar tez aytish matni yengil bo'lsa, bu bosqichni o'tkazmasa ham bo'ladi). Bunday mashqlarning umumiy davomiylik vaqti 3 — 10 daqiqadir. Bunday mashqlarni xilma-xillashtirish mumkin, masalan, bolalarning „talablariga ko'ra tez aytishni takrorlashni taklif etish mumkin, boshlovchining rolini bolalarga topshirish mumkin va hokazo. Tez aytish matnini qator bo'yicha qismlarga ajratib qaytarish ham mumkin. 1- qator: olma shoxida olmaxon, 2- qator: olmaxonni olma, Olmaxon. Agar tez aytish bir qancha jumladan iborat bo'lsa, uni rollarga bo'lib, guruhlar bilan takrorlash mumkin. 1- guruh: Mashhura moshxo'rdani, 2- guruh: Ma'suda moshurani. 3- guruh: Shura sho'rvani shoshib shimirdi. Hamma birgalikda: Mashhura moshxo'rdani, Ma'suda moshurani, Shura sho'rvani shoshib shimirdi. Bu usullarning barchasi bolalarni faollashtiradi, ularning ixtiyoriy diqqatlarini rivojlantiradi. Tez aytishni takrorlashda tarbiyachi bolani oldiga chaqiradi, chunki boshqa bolalar uning artikulasiyasini, imo-ishorasini ko'rsin. Bolalar javobini baholaganda, talaffuzining aniqlik darajasini ko'rsatish lozim. Ba'zan esa bola diqqatini lab harakatining sifatiga ham yo'naltirish kerak. Tez aytishlarni kechki o'yin, adabiy ertaliklar dasturiga ham kiritish mumkin. Bu ularning mazmunan xilma-xil bo'lishiga, bolalarni faollashtirishga yordam beradi. Bu ish mazmuni kichik guruhlarda alohida ahamiyatga ega. Chunki bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi so'zning bo'g'in tarkibini buzib talaffuz etadilar. To'g'ri so'z tarkibini saqlash uchun shoshilmay, tekis so'zlash zarur. Bolalarda bu sifatlar matnidagi so'zlar jo'r bo'lib aytiladigan o'yinlar, oddiy taqildiy so'zlarni sekin o'qib berish (aytib berish) orqali tarbiyalanadi. So'zni talaffuz etish ustida ishlash uchun ta'limiy o'yinlardan („Do'kon“, „Bu nima?“) foydalaniladi. Ta'limiy o'yinlarni kichik guruhlarda tashkil etishda avval nomi osonlik bilan aytiladigan (ikki bo'g'indan iborat bo'lgan so'zlar: kubik, mushuk, quyon, kuchuk va boshqalar, so'ngra murakkabroq so'zlardan) o'yinchoqlardan foydalaniladi. Talaffuzi murakkab bo'lgan so'zlarni quyidagi o'yinlar orqali talaffuz etishga o'rgatish mumkin: „Top, mon nima dedim?“ , „Telefon“ , „Yo'qlama“ va boshqalar. Katta guruhlarda ushbu o'yinlardan tashqari „K im yaxshiroq aytadi?“ musobaqa-mashqi o'tkaziladi. Musobaqa-mashqda birdaniga 2 ta zveno (har bir zvenoda 2 — 3 ta bola bo'ladi) qatnashadi. Bir zveno murakkab so'zlar va so'z birikmalarini talaffuz etadi: issiq choy, termometr, trolleybusda, akvariumda, nordon anor, achchiq garmdori, plastmassali boshqa zveno ushbu so'zlarni diqqat bilan tinglaydi, so'ngra ular murakkab so'zlarni talaffuz etadilar. Agar katta guruh bolalari qiyin so'zlarni buzib talaffuz etsalar, masalan, bidon, suvoq, maymunjon, magnitofon, tipratikan, motoroller va boshqalar — bu so'zlarni „Gapni oxiriga yetkaz“ nomli so'zli o'yin va mashqning tarkibiga, qisqa ta'limiy hikoyalarga kiritish mumkin.

So'zlarda urg'ularni ishlatishda ham xilma-xil xatolar uchrab turadi: otlarni bosh kelishikda (kapalak, bola, paxta, ruchka va boshqalar), qaratqich kelishigida (bo'ringa, o'rdakning, tipratikanning) ishlatishda, o'tgan zamon fe'lini (oldi, berdi, tushundi va boshqalar) aytishda. Bular ichida shunday so'zlar borki, bola atrofida qolgan nutqidan bu so'zlarni qabul qila olmay, o'zi mustaqil tarzda, noto'g'ri urg'uli so'z hosil qiladi. Katta guruh bolalarida so'zlarga urg'uni to'g'ri qo'yishda mustahkam orfoepik malakalarni shakllantirish, so'zning bo'g'in tarkibini to'g'ri idrok etishda eshituv diqqati yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Oddiy so'z talaffuziga o'rganib qolgan bola nutqini to'g'rilash ancha murakkab. Ba'zan xatoni to'g'rilash ustida olib borilgan ish kutilgan natijani bermaydi, bola urg'uni noto'g'ri ishlatishda davom etadi. Buning asosiy sababi nimada? Bola nima haqidadir gapirib berar ekan, u gapning mazmuni bilan band bo'lib,

so'zning jarangdorligiga diqqatini yo'naltirmaydi. Bundan tashqari, tarbiyachi shu vaqtning o'zida so'zning talaffuzini turli shakllarda ko'rsatishi zarur. Ixtiyoriy diqqatning, esda olib qolishning boshlang'ich shakllaridan foydalanilsa, bolada o'zining nutqiga yangicha munosabatda bo'lish imkoniyati hamda eshituv idrokida analiz va sintez qilish uchun sharoit vujudga keladi. So'zlarda urg'uni ishlatishdagi xatolarni tuzatish uchun maxsus mashqlar o'tkaziladi. Agar bola boshlamoq fe'lida xatoga yo'l qo'ysa, mashg'ulotda namuna hikoyani tinglash taklif etilishi mumkin. Fe'ldagi urg'uli bo'g'in {boshlamoq fe'lining turli shakllari) ovoz bilan ajratiladi: „Bahor keldi. Bahorda havo isiy boshlaydi. Qorlar eriydi. Yerni ko'm -ko'k maysalar qoplay boshlaydi. Daraxtlar gullab, barg chiqara boshlaydi. Dalalarda ish qaynaydi. Chigit ekiladi. Qushlar uchib kela boshlaydi“ yoki „Salim va Lobar bog'chaga kelishdi. Salim koptok o'ynay boshladi. Lobar aravachada qo'g'irchoqni sayr qildiradi boshladi. So'ngra ular birgalikda kubiklardan uy qura boshlashdi“. Bolalarning o'zlariga ham xuddi shunga o'xshash (boshlamoq fe'li ishtirokida) hikoya tuzish taklif etiladi. Hamma bolalar ham ushbu fe'lni darrov to'g'ri talaffuz eta olmaydilar. Keyingi mashg'ulotlarda hikoya mavzusini o'zgartirish mumkin: „Navbatchilar nima qila boshlashdi?“ va boshqalar. Tushum kelishigidagi otlarda urg'ularni to'g'ri ishlatishni mustahkamlash uchun sifat mazmuniga doir (3 — 4 jumladan iborat) ta'limiy hikoya taklif etish mumkin. Bu ta'limiy hikoyada yetishmaydigan so'zni qo'yish taklif etiladi, masalan: Bola anhora ... (g'ozni) haydayapti, g'ozchalar ... (g'ozning) ketidan lapanglab ketishyapti va hokazolar. Bolalar nutqining orfoepik tomondan to'g'riligi kattalar nutqiga taqlid qilish orqali shakllanadi. Og'zaki nutqning ikki xil uslubi bor:

So'zlashuv uslubi — bu uslub til vositalarini qo'llashda erkin bo'ladi. So'zlovchi fikrni aytadi-da, keyin yana biror unutilgan so'zini o'sha gapning ketidan keltira beradi: Dadam yengil mashina oldilar, „Neksiya“. So'zlashuv uslubida so'z tartiblash qoidalarga, orfoepik qoidalarga amal qilinmaydi. Publitsistik uslub tilning ta'sir qilish funksiyasi bilan bog'liq. Bu uslub so'z tartiblash qoidalarga, orfoepik qoidalarga rioya qilgan holda, biroz sekinlashgan sur'atda ravshan gapirish bilan ajralib turadi. Bu uslubda ilmiy atamalar kam ishlatiladi, unda turli uslub elementlari (ilmiy, badiiy, kitobiy, so'zlashuv uslublari) aralash qo'llaniladi. Tarbiyachining nutqi pedagogik yo'nalishning kuchiga qarab, publitsistik nutq harakteriga ega bo'lishi, orfoepik qoidalarga asoslanishi kerak. Bolalar tarbiyachining nutqi ta'sirida gapirishga o'rganadilar, nutq orfoepik tomondan to'g'ri shakllanib boradi. Tarbiyachi ba'zan, ayniqsa, maishiy faoliyat jarayonida so'zlashuv uslubidan foydalanadi. Shuning bilan bir qatorda, shunday daqiqalar bo'ladiki, tarbiyachi to'liq publitsistik uslubda gapirishi shart: mashg'ulotlarda, yangi qoidalarni tushuntirishda, bolalarga badiiy asarlarni hikoya qilib berish, o'qib berishda, ertaliklarda so'zga chiqishda va boshqalarda. Katta guruhlarda ba'zi bir orfoepik qoidalarni mustahkamlash uchun ayrim mashqlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Masalan, „Do'kon“ „Kutubxona“ va boshqalarda „keluvchilar“ boshlovchining (sotuvchi yoki kutubxonachining) ismi va otasining ismini aytib murojat etadi. „G apni tugalla“ mashqida -choq (qo'zichoq, toychoq), -voy (Laylakvoy, bo'rivoy, quyonvoy), -gina qo'shimchalarini (qizgina, bolagina) olgan so'zlarni kiritish mumkin. Katta guruhlarda uzluksiz tarzda radioeshittirishlarni, magnitofon yozuvlarini, plastinkalami, teleeshittirishlarni (mash g'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda) tinglashni tashkil etish kerak. Tarbiyachi bu ishlarni tashkil etish jarayonida bolalar diqqatini so'zlovchilarning to'g'ri va chiroyli nutqlariga yo'naltiradi, adabiy talaffuz bilan shug'ullanuvchi kishilar bilan uchrashuvlar tashkil etadi. Tarbiyachining o'zi esa adabiy talaffuzni takomillashtirish ustida uzluksiz ishlashi lozim. Shunday qilib, bolalar nutqiga fonetik ta'sir etish bilan bir qatorda, ularning tovush talaffuzini va ravshan gapirishini, so'zni to'g'ri talaffuz etishini va adabiy so'z urg'ularini to'g'ri ishlatishini ham takomillashtirib boramiz.

NAZORAT SAVOLLARI:

- «Nutq madaniyati» atamasi nimani anglatadi?
- Maktabgacha ta'lim muassasasida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash borasidagi vazifalarni aniq misollar orqali tushuntirib bering.
- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning qaysi bo'limlarini bilasiz?
- Bolalarning nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirishga doir ishlar mazmunini aniq misollar yordamida tavsiflab bering.
- Artikulyatsiya apparati harakatchanligini qanday qilib rivojlantirish mumkin?
- Nutqiy nafas olishni rivojlantirish borasidagi ishlar nutq uchun qanday ahamiyatga ega? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
- Ovoz ustidagi ishlarni qanday amalga oshirish lozim?
- Ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish qanday ahamiyatga ega? O'z javobingizni aniq misollar yordamida asoslang.
- Diksiya ustidagi ishlarni qanday qilib amalga oshirish lozim?
- Orfoepiya ustidagi ishlar nimani anglatadi?
- Bolalar bilan nutq sur'atiga doir ishlarni amalga oshirish shartmi? Qaysi maqsadda va qanday qilib?
- Nutqning intonatsion ifodaliligi nimani anglatadi? U muloqotda qanday ahamiyatga ega?
- 1-bosqichda (1 yil 6 oydan 3 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash jarayonida qaysi metod va usullardan foydalanish lozim?
- 2-bosqichda (3 yoshdan 5 yoshgacha) qo'llaniladigan ishlar turlarini tavsiflab bering.
- 3-bosqichda (5 yoshdan 7 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga doir ishlar mazmuni va metodini tavsiflang.
- Nutqning tovush madaniyati ko'nikmalarini amaliyotda qanday qilib tarbiyalash lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

13-mavzu:Turli yosh guruhlarida nutqning tovush madaniyatini shakllantirish metodikasi

REJA:

1. Tovush madaniyatini tarbiyalash dasturi haqida.
2. Tovushlarni talaffuz qilish, diktsiya, ovoz sifati, nutq ifodaliligiga kuyiladigan talablar haqida tushuncha.
3. Turli yosh guruhlarida nutqning tovush madaniyatini shakllantirish metodikasi

Tayanch tushncha va iboralar: tovush madaniyati, nutq shakllari, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim muassasasi va oila, nutq ko'nikmalari, tarbiyachi vazifasi, nutq ifodaligi.

1-bosqich - 1 yilu 6 oydan boshlab to 3 yoshgacha bo'lgan davr

Bir yarim yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutqni tushunish tez rivojlanadi, lug'at boyligi keskin ortadi, so'z tarkibi takomillashadi. Ular dastlab tovush birikmalarini, so'ngra esa oddiy iboralar, kichik she'rlarni oson takrorlaydilar. Agarda ikki yoshda bola ikki-uchta so'zdan iborat bo'lgan iboralarni qo'llayotgan bo'lsa, u uch yoshga kirganida uch-beshta va undan ortiq so'zlar ishtirokida murakkab iboralarni tuzadi. Ushbu davrda nutq nafaqat kattalar bilan, balki tengdoshlar bilan ham muloqot vositasi sifatida shakllanadi. Bu davrda bolalarda nutqning tovush tomoni, ya'ni: ovoz va artikulyatsiya apparati, tovush talaffuzi, tinglash qobiliyati jadal rivojlanadi. Yaxshi, aniq va intonatsion jihatdan to'g'ri bo'lgan ifodali nutqqa erishish uchun ilk yoshlardan boshlab bolalar bilan nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirish zarur.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning kattalar bilan muntazam ravishda muloqotda bo'lishi orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu davrdagi asosiy vazifa-tinglash qobiliyatini doimiy rivojlantirish, artikulyatsiya apparati a'zolarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun muayyan tovushlar guruhi tanlab olinadi va bolalar tovushga taqlid qilish asosida ularni mashq qiladilar. Asosan bu eng oddiy tovushlar guruhlaridir: unlilar - a, i, o; lab-lab - p, b, m; orqa tillilar - k, g, x; lab-tishlilar - v, f; old tillilar - t, d, n. Ikki yildan keyin asta-sekin artikulyatsiya jihatidan nisbatan murakkab bo'lgan old tilli tovushlar ham beriladi -xushtaksimolar - s, z; shuvillovchilar - sh, j, ch; sonorlilar - l, r, ammo bu 3 yoshdan boshlab bolalarning to'g'ri talaffuz qilishlariga erishish zarur, degani emas. Bolalar ushbu tovushlarni muntazam mashq qilish natijasida asta-sekin, 5-6 yoshlarga to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar.

Tovushga taqlid qilishni turli ish shakllariga qo'shish bolalarning nafaqat turli ko'rinishdagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishlarini aniqlash va mustahkamlashga yordam beradi, balki yaxshi diktsiyaga erishishda, ya'ni ularning tovushlar hamda so'zlarni aniq va tushunarli qilib talaffuz etishlariga erishishda ham ko'maklashadi. Aynan bir xil tovush taqlidlarini bir necha marta qo'shib talaffuz qilish nutqiy nafasning rivojlanishiga yordam beradi, ularni turli balandlikda talaffuz qilish bolaning ovoz apparatini rivojlantiradi.

Tovush taqlidlari bola tomonidan ko'p marta amalga oshirilgani bois u bola uchun namunaga aylanib qoladi hamda akustik va artikulyatsiya ko'nikmalarini orttirish uchun yaxshi material bo'lib xizmat qiladi.

Dastlab ikki yoshgacha shunday tovush taqlidlarini berish kerakki, toki ular bolaning tinglash-nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga mos kelsin, masalan: na-na, ba, u, mu, av, ga-ga, tu-tu, va x.k. Bolaning fonetik imkoniyatlariga va uning oddiy so'zlari, tovushga taqlid qilish shakllariga moslashish tovush talaffuzini aniqlash imkonini beradi. Bu nutqiy harakat taxlilchisiga normal rivojlanish va «pishib yetilish» imkoniyatini, bolaga esa - ayrim tovushlarga quloq tutish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida tinglash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

2-3 yoshli bolalar bilan ishlashda tovushga taqlid qilish murakkablashadi, xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lgan tovushlarni o'z ichiga oladi, masalan: dish-dish, g'a-g'a-g'a, ku-ku-ku va x.k. Bu tovushga taqlid qilishda ham, mustaqil nutqda ham tovushlarni aniq, tushunarli qilib talaffuz qilishga yordam beradi, shuningdek nutqiy tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, tovushga taqlid qilishga maktabgacha yoshdagi bolalar noaniq talaffuz qiladigan yoki umuman ayta olmaydigan tovushlarni asta-sekin qo'shib borish tovush talaffuzini yaxshilashga yordam beradi. Bolalarda mavjud tovushlar aniqlashtiriladi, yangilari paydo bo'ladi.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda va undan tashqarida turli tovush taqlidlarini muntazam ravishda qo'llagan holda tarbiyachi bir vaqtning o'zida nutqning tovush madaniyatini ham shakllantiradi. Talaffuz uchun osonlashtirilgan nutqiy materialda bola nutqning tovush madaniyatiga oid qator bo'limlarni mashq qiladi hamda shu bilan nutqni tinglash va nutqiy harakat analizatorlarini nisbatan murakkab akustik-artikulyatsiya ishiga tayyorlaydi.

Ishlarning ushbu bosqichida bolalarning yoshiga qarab ularga o'zida turli tovush taqlidlarini jamlagan o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar, sanoq she'rlar va hikoyalar beriladi.

Tarbiyachi tovushga taqlid qilishni o'yin-mashqlar, nutqni rivojlantirish va atrof-muxit bilan tanishtirishga oid mashg'ulotlar, didaktik o'yinli mashg'ulotlar, musiqiy mashg'ulotlar tarkibiga kiritadi.

2-bosqich - uch yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davr

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning nutqi rivojlanishni davom etadi. Ushbu yoshda lug'at yig'iladi, aniqlashtiriladi va takomillashtiriladi. Bolalar so'zlarni mazmuniga qarab aniqroq ayta boshlaydilar. Ular grammatik shakllardan to'g'ri foydalana boshlaydilar, kichik ertaklar, hikoyalarni mantiqiy izchilikda hikoya qilish va suratlar mazmunini aytib berishga qodir bo'ladilar. Nutqning tovush jihati ham jadal rivojlanadi. Bolalar ona tilining ko'pgina tovushlarini o'zlashtirib oladilar va to'g'ri talaffuz qiladilar, so'zlar va iboralarni sof va aniqroq ayta boshlaydilar, o'z nutqining sur'atiga e'tibor bera boshlaydilar.

Mazkur bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishdagi asosiy vazifa bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish hamda so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli qilib talaffuz qilgan holda ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bu yoshda asosiy vazifani xalq etish bilan bir qatorda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning boshqa bo'limlariga oid ishlarni ham amalga oshirish, ya'ni: ovoz balandligini vaziyatga qarab moslashtirish, so'zlarni ulardagi urg'ularni aniq qo'ygan holda shoshmasdan, to'g'ri va aniq qilib aytish qobiliyatini tarbiyalashga doir ishlarni ham amalga oshirish zarur.

Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda tovushga taqlid qilish keng qo'llaniladi. 3-4 yoshli bolalar uchun nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga oid ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Uni shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasasida nihoyasiga yetkazilishi lozim, nutqning tovush madaniyatiga oid qolgan bo'limlarni

takomillashtirish esa maktabda davom ettiriladi. Ayni paytda tovush talaffuzi bo'yicha ishlarni nutqni tinglash qobiliyatini, nutqiy nafas olishni, ovozni, artikulyatsiya apparati, diksiya va intonatsiyani rivojlantirish bilan qo'shib olib borish osondir.

To'g'ri tovush talaffuzini tarbiyalash ona tilining barcha tovushlarini izchil mashq qilish jarayonida amalga oshiriladi. Bunda nafaqat u yoki bu tovushni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish, balki bolaning tinglash va talaffuz qilish imkoniyatlarini shakllantirish, ya'ni tinglash va artikulyatsiya nazorati o'rtasidagi bog'liqlikni ham shakllantirish zarur, zero ularsiz tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish mumkin emas.

Agarda 3 yoshli bolalar - s, z, sh, ch, r, l kabi tovushlarini yetarli darajada yaxshi talaffuz eta olmasalar, darhol ularni mashq qilishga kirishish kerak emas, chunki bu bolalarning ularni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanib qolishlariga olib kelishi mumkin. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarining barcha bo'limlari bo'yicha ishlarni olib borish zarur. Nutqni tinglash qobiliyati va talaffuz imkoniyatlarini takomillashtirish bu tovushlarning bola nutqida paydo bo'lishi hamda ularning to'g'ri talaffuz etilishiga yordam beradi.

Masalan, 3 yoshli bolalar bilan talaffuz uchun nisbatan oson bo'lgan - «f», «v» tovushlarini mashq qilishda tarbiyachi yangi tovushlar guruhi - ya'ni artikulyatsiya apparati organlarining «i» tovushiga yaqin bo'lgan muayyan joylashuvi xos bo'lgan, shuningdek «f», «v» tovushlarini mashq qilishda hosil bo'ladigan maqsadli havo to'lqini mavjud bo'ladigan shuvillovchi - «s», «z», tovushlarining paydo bo'lishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Bir tovushlar guruhi uchun ishlab chiqilgan ko'nikmalarning boshqasiga o'tish imkoniyati shu tariqa yaratiladi.

Tovushlarni ketma-ket mashq qilish nutqning tovush madaniyatini shakllantirish va uni yanada takomillashtirish borasidagi ishlarni muntazam ravishda o'tkazib borish imkoniyatini yaratadi.

Ona tilining barcha tovushlarini mashq qilish bir-birini ketma-ket almashtiruvchi to'rt ish turini ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish (bo'g'inlarda) va ushbu tovushni boshqa tovushlardan ajrata olish, so'zlarda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash, iborali nutkda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

So'nggi uchta ish turiga nutqiy tinglash qobiliyatini rivojlantirish ham kiradi. Bu ish turlari mashg'ulotlarda mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu barcha ishlar turlarini bitta mashg'ulotda amalga oshirish tavsiya etilmaydi, chunki tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'zlashtirish jarayoni - bu muayyan ko'nikmaga ega bo'lishdan iborat, uni yaratish esa izchillik va doimiylikni talab etadi. Yuqorida sanab o'tilgan ishlar turlarini 3-6 kun oralig'ida bajarish bolalarga artikulyatsiya apparati organlarining muayyan joylashuvi va harakatini o'zlashtirish hamda mustahkamlash imkonini beradi, tovushni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish hamda uni yaxshi tinglay olishga yordam beradi.

Tovush talaffuziga oid ishlar nutq tovush madaniyatining boshqa bo'limlariga doir ishlar (nutqni tinglash qobiliyati, artikulyatsiya, nutqiy nafas olish, ovozlar, diksiya, nutq sur'ati, uning intonatsion ifodaliligini rivojlantirish) bilan birgalikda olib boriladi. Endi har bir ish turini batafsil ko'rib chiqamiz.

1-ish turi - artikulyatsiya apparati organlari harakatini aniqlashtirish. Tarbiyachi harakatlarni rivojlantirish yoki aniqlashtirish, tovushning to'g'ri artikulyatsiyasiga yordam beradigan muayyan holatlarni ishlab chiqish uchun o'yin mashqlarini o'tkazadi. Bunda nutq tovush madaniyatining navbatdagi bo'limlariga oid ishlar ajratiladi: aniq va to'g'ri

artikulyatsiyani, og'izdan uzoq muddat davomida bir tekis nafas chiqarishni o'rgatish, tovush balandligini rivojlantirish.

2-ish turi - ajratib qo'yilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish va nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish. Tarbiyachi ajratib qo'yilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish yoki uni taqlid asosida atash uchun o'yinlarni yoki o'yinli mashqlarni olib boradi. Bolalarning diqqat-e'tibori ushbu tovushni talaffuz etishda artikulyatsiya apparati organlarining holatiga va uning jaranglashiga qaratiladi. Ushbu tovushni tovushlar guruhi ichidan ajratib olish uchun o'yinlardan foydalaniladi.

Bu ish turi nutqni tinglash, ovoz balandligini taqqoslay olish qobiliyatlarini tarbiyalash, artikulyatsiya apparatini, nutqiy nafas olishni rivojlantirishga yordam beradi.

3-ish turi - so'zlarda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash va fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyachi so'zlarda tovushlarni aniq va to'g'ri qo'llashga yordam beruvchi turli materiallarni (asosan, didaktik o'yinlar) beradi. Dastlab mashq qilinayotgan tovush urg'uli bo'g'inda turgan so'zlarda beriladi. Bolalar uni yanada aniqroq, cho'zib talaffuz qilishni o'rganadilar, ya'ni tovushni ovoz yordamida ajratish ko'nikmasini mashq qiladilar, keyinchalik esa ularni nafaqat ajrata olish, balki uning bo'g'indagi joyini aniqlashni o'rganadilar. Bir vaqtning o'zida fonematik tinglash, so'zlarni orfoepiya me'yorlariga muvofiq holda talaffuz qilish vazifalari xal etiladi.

4-ish turi - tovushlarni iborali nutqlarda to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash va nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Pedagog maxsus tanlab olingan nutqiy materiallar, ya'ni: so'zli o'yinlar, tez aytishlar, topishmoqlar, she'rlar va hikoyalarni beradi. U mazkur tovushning yuqorida sanab o'tilgan materialda to'g'ri qo'llanishini kuzatib boradi. Mustaqil nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash nutqni tinglash va nutqiy nafas olish qobiliyatlarini rivojlantirish, nutqning oxista sur'ati va intonatsion ifodaliligidan foydalana olish qobiliyatini shakllantirish bilan birgalikda olib boriladi.

3-bosqich - besh yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar ko'p xollarda ona tilidagi barcha tovushlarni o'zlashtirib oladilar va to'g'ri talaffuz qiladilar, so'zlar va iboralarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishni, nutq balandligini vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zgartirishni, ifoda qilishning intonatsion vositalaridan foydalanishni biladilar, yetarli darajada rivojlangan tinglash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Biroq bu yoshda hali ham ayrim tovushlar va murakkab so'zlarni, ayniqsa bir necha undoshlar ishtirokidagi so'zlarni unchalik aniq talaffuz qila olmaydigan bolalar ham uchraydilar. Ular har doim ham oxista nutq sur'atlaridan foydalana olmaydilar, ancha baland yoki past ovozda so'zlaydilar va x.k. Ayrim bolalar esa tovushlarni to'g'ri talaffuz etgani holda ularni tinglash jarayonida ajratib olishni qiynaladilar, bu esa kelgusida savod chiqarishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bolalar odatda maktabgacha ta'lim muassasalariga turli yoshlarda kelishi va nutq tovush madaniyatining barcha bo'limlarini har xil o'zlashtirishlari tufayli uni shakllantirishga doir ishlar katta guruhlarda davom ettirilishi lozim. 5-7 yoshli bolalar nutqida tovush madaniyatini shakllantirishning asosiy vazifasi nutqni tinglash qobiliyatini yanada takomillashtirish, aniq, to'g'ri va intonatsion ifodali nutq ko'nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Ushbu bosqichda nutq tovush madaniyatini shakllantirishni bolalar tomonidan ko'pincha aralashtirib talaffuz qilinadigan tovushlarni tabaqalashtirish ishlari bilan bog'liq holda amalga

oshirish mumkin: shippilovchi va chiyillovchi tovushlar - sh-s, j-z; jarangli va jarangsiz tovushlar - v-f, z-s, j-sh, b-p, d-t, g-k; «l» va «r» tovushlari va boshqalar.

Zarur xollarda ko'pincha bolalar tomonidan aralashtirib yuboriladigan boshqa tovushlar juftliklarini ham tabaqalashtirish mumkin.

Tovushlarni tabaqalashtirishga doir ishlar tovushlarni farqlash bilan bir vaqtning o'zida ularning akustik va artikulyatsiya xususiyatlariga qarab o'tkazilgan xollardagina to'g'ri tashkil etilishi mumkin. Bu xususiyatlar bolalar tomonidan ancha ilgari, tovushlarni mashq qilish chog'ida ajratilgan. Masalan, «s-sh» tovushlarini mashq qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga ushbu tovushlarning asosiy akustik va artikulyatsiya xususiyatlarini ajratgan holda ularni bir-biriga taqqoslashga undaydi: sovuq havo nasosdan chiqadi va xushtak chaladi: ssss....-biz «s» tovushini talaffuz qilganimizda til pastki tishlar ortida turadi; yorilib ketgan shinadan shuvillab issiq havo chiqmokda: shshshshsh.....biz «sh» tovushini talaffuz qilganimizda til yuqori tishlar ortiga ko'tariladi.

Tovushlarning farqlovchi xususiyatlarini amaliy o'rganishga qaratilgan bunday tizimli ish maktabgacha ta'lim muassasasiga kechroq qatnay boshlagan bolalarga o'z tovush talaffuzini aniqlashtirib olishda yordam beradi, fonematik tinglash qobiliyati rivojlanishi va artikulyatsiya apparatining tovushlarni farqlashga xos bo'lgan tabaqalashtirilgan nozik harakatlarini o'zlashtirishda ko'maklashadi. Bularning barchasi ona tilini muvaffaqiyatli o'qitishni davom ettirishning zarur sharti hisoblanadi.

Ajratib qo'yilgan tovushlarni tabaqalashtirish bilan bir qatorda so'zlar va iborali nutqlardagi tovushlarning ham tabaqalashtirilishi bir vaqtning o'zida bolalarda nafas olishni, diksiyani, intonatsion ifodalilikni, ya'ni takomillashtirish ishlarini ham olib borish imkonini yaratadi.

Har qanday tovush juftligini tabaqalashtirish uch xil turdagi ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

1-ish turi - ajratib qo'yilgan tovushlarni tabaqalashtirish. Tarbiyachi tovushlarni ularning akustik va artikulyatsiya xususiyatlariga qarab farqlashga doir ishlarni bajaradi. Bunda u «obrazli» suratlardan foydalangan holda, ya'ni tovushni xayvonlar, narsalar va harakatlar chiqaradigan muayyan tovushlar bilan shartli ravishda taqqoslashni amalga oshiradi.

Bir vaqtning o'zida ushbu ish turi fonematik tinglash qobiliyatini takomillashtirish, tovushlarni aniq talaffuz qilishni o'rganishga yordam beradi.

2-ish turi – so'zlardagi tovushlarni tabaqalashtirishdan iborat. Tarbiyachi nomlarida tabaqalashtiriladigan tovushlar ishtirok etadigan turli suratlar, narsalar, o'yinchoqlarni tanlab oladi hamda bolalarga ularni farqlashni o'rgatadi. Dastlab tabaqalashtiriladigan u yoki bu tovush mavjud bo'lgan so'z olinadi, so'ngra esa faqat bir dona tabaqalashtiriladigan tovush mavjud bo'lgan so'zlar, keyin esa har ikki tabaqalashtiriladigan tovushni o'z ichiga olgan so'zlar tanlanadi. Bolalar ularni aniq, to'g'ri talaffuz qilishlari va ularning farqlarini ko'rsata olishlari lozim. Bir vaqtning o'zida ushbu ish diksiyani yaxshilashga yordam beradi, so'zlarni talaffuzning orfoepik me'yorlariga muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi.

3-ish turi - nutqda tovushlarni tabaqalashtirish. Tarbiyachi so'zli o'yinlar, hikoyalar, syujetli suratlar, she'rlar, tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar, matallar hamda tabaqalashtiriladigan tovushlar bilan boyitilgan boshqa nutqiy materiallarni tanlab oladi. Ayni paytda u bolalarning ushbu tovushlarni to'g'ri qo'llashlarini va ularni o'z talaffuzlari bilan aralashtirib yubormasliklarini nazorat qiladi.

Pedagog she'rlar, hikoyalarda tovushlarni tabaqalashtirish uchun materiallar berar ekan, u bir vaqtning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diksiya, ovozdan to'g'ri foydalanishni mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda so'zlarni talaffuz etishning adabiy me'yorlarini hisobga olgan holda ularning to'g'ri talaffuz qilinishini kuzatib boradi.

Endi ko'rsatib o'tilgan ish turlaridan har bir yosh bosqichida foydalangan holda talaffuz ko'nikmalari, nutqning tovush madaniyatini amaliyotda qanday ishlab chiqish (shakllantirish) zarurligini ko'rib chiqamiz.

1 yilu 6 oydan 3 yoshgacha bo'lgan davr

«A» tovushi

«Mexmonlar»

Maqsad: tovush tinglay olish va tovush taqlidlarini to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash. Bir vaqtning o'zida ovozdan o'rtacha balandlikda foydalanish mashq qilinadi.

Mazmuni: Pedagog bolalarga ular mexmonlarni kutib olishlari lozimligini ma'lum qiladi. Tarbiyachi bolalardan biri bilan xonadan chiqar ekan, unga kuchuk surati tasvirlangan niqob-qalpoqchani kiydiradi. So'ngra ular «taq-taq» deb, eshikni ochishadi. Bolalar so'raydilar: «kim u?» Bola javob beradi: «vov-vov». Tarbiyachi bolalarga murojaat qiladi: «Bizga kim mexmon bo'lib kelibdi?». Bolalar javob beradilar: «kuchukcha». Tarbiyachi: «kuchukcha qanday vovullaydi?». Bolalar: «vov-vov». Pedagog bolalarga g'oz, qurbaqa, tovuq, echki va boshqa jonzoqlar tasvirlangan niqob-qalpoqchalarni kiydirgani holda o'yinni takrorlaydi.

Metodik ko'rsatmalar. Bolalar tovush birikmalarini aniq va yetarli darajada baland talaffuz etishlarini nazorat qiling.

«Qo'g'irchoqni allalash»

Maqsad: artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va tinglash qobiliyatini shakllantirish. Bir vaqtning o'zida uzoq muddat mobaynida nutqiy nafas chiqarish va ovoz balandligini o'zgartira olish qobiliyati mashq qilinadi.

Mazmuni: Pedagog bolalarga qo'g'irchoqlarni tarqatadi va «a» tovushini uzoq vaqt mobaynida cho'zib aytish - aaaa - orqali ularni allalashni taklif qiladi. Dastlab bolalar «a» tovushini baland ovozda talaffuz qiladilar. So'ngra tarbiyachi qo'g'irchoqlar uxlab qolayotganini aytadi va bolalardan sekinroq allalashni so'raydi. Bolalar «a» tovushini past ovozda ayta boshlaydilar.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalar «a» tovushini ancha uzoq vaqt mobaynida, bir nafasda aytishlarini nazorat qiling; ovozidan unchalik yaxshi foydalana olmaydigan bolalarni yaxshiroq nazorat qilish uchun ularni kichik guruhlariga ajrating.

«U» tovushi

«Bu kimligini (nimaligini) top»

Maqsad: Tinglash qobiliyatini tarbiyalash (talaffuz etilgan tovush taqlidining turli balandliklarini tinglash orqali aniqlash qobiliyati)

Mazmuni: Tarbiyachi turli tovush birikmalarini narsalar va xayvonlar bilan taqqoslagan holda talaffuz qiladi. Bolalar buning nimaligini yoki kimligini aniqlashlari zarur. Masalan, tarbiyachi parovozning chinqirig'iga, sigirning ma'rashiga, xo'rozning qichqirig'iga, nay tovushiga taqlid qiladi. Takroriy o'yinda pedagog bolalardan narsa yoki jonzoqlarning uzoq yoki yaqindaligini aniqlashni so'raydi.

Metodik ko'rsatmalar: Tegishli narsalar, jonzoqlar tasvirlarini tanlash; tovushga taqlidlarni baland ovozda ijro etish.

«Xay-xuylash»

Maqsad: Artikulyatsiya apparati organlarining aniq harakatlarini mashq qildirish.

Mazmuni: Pedagog bolalarga ular boqqa gul terгани kelganligini ma'lum qiladi. Ayrim bolalar uzoqqa ketib qolishdi, ularni xay-xo'ylab chaqirish lozim (kaftlarini og'ziga karnay qilib qo'yadi va qanday qilib «xoy-xuv» deb talaffuz qilish kerakligini ko'rsatadi). Bolalar ikki kichik guruhga bo'linadilar. Bir guruh pedagog yonida qoladi (ular past ovozda «xoy-xuv» deb talaffuz qilishlari kerak), boshqa guruh esa ajratilgan joyga yo'l oladi (ular «uzoqda» va baland ovozda chaqiradilar).

Metodik ko'rsatmalar: Past ovozda so'zlaydigan bolalar baland ovozda «xoy-xuv» deb talaffuz qiladigan» guruhga kiritiladi. Barcha bolalar har ikki tovushni bir tekisda talaffuz etishlari, ovoz balandligidan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilish darkor.

«V» tovushi

Bo'ri va it

Maqsad: Tinglash qobiliyatini va «v» tovushini aniq talaffuz qilishni tarbiyalash. Bir vaqtning o'zida og'izdan uzun nafas chiqarishni, ovoz balandligini o'zgartirishni mashq qilish.

1-variant: Tarbiyachi bolalarga bo'ring qanday uvillashini tinglashni taklif qiladi (sekin ovozda: uvvvv...), so'ngra itning qanday xurishini tinglashni taklif qiladi (baland ovozda: vov-vov). Uning ko'rsatmasi bo'yicha bolalar ovoz balandligini oshiradilar, bo'ring uvillashi va itning xurishiga taqlid qiladilar.

Metodik ko'rsatmalar: Taqlidlarning to'g'ri talaffuz etilishini nazorat qiling. Bo'ring uvillashi past ovozda, itning xurishi baland ovozda.

2-variant: Tarbiyachi bolalarga bir nafasda bo'ring uvillashi, itning xurishi va yana bo'ring uvillashini ko'rsatishni taklif qiladi. Bolalar bu jonzotlar ovoziga ketma-ket taklid qiladilar: past-baland-past.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning ovozni pasaytirish va kuchaytirishni boshqa nafas olmasdan bir nafasda amalga oshirishlari, past ovozdan baland ovozga oxisa o'tishlarini nazorat qiling.

3 yoshdan 5 yoshgacha.

«S» tovushi

Maqsad: Artikulyatsiya apparati organlarining aniq harakatlari va ularning to'g'ri holatini mashq qilish.

«Farruxning qanday jaxli chiqishi va uning qanday quvonishini ko'rsat»

Mazmun: Tarbiyachi bolalarga Farruxning jaxli chiqqanida uning lablarini mana bunday qilib cho'chchaytirishini (lablarini shishiradi), Farrux xursand bo'lganida esa uning jilmayishini (lablarini cho'zadi, yuqori va pastki tishlarini ko'rsatadi) aytadi.

Tarbiyachi: «Endi esa men sizga Farrux haqida hikoya qilib bermoqchiman. Uning jaxli chiqqanida siz lablaringizni cho'chchaytirasiz (lablarini shishirib ko'rsatadi), u xursand bo'lganida esa siz jilmayasiz... Farruxning oyisi unga mashina olib berdi. Farrux xursand, u jilmaymokda... U mashinasini ko'tarib, ko'chaga o'ynagani chiqdi, tashqarida esa yomg'ir yog'moqda, u nima qilishini bilmay qoldi. Alisher Farruxdan mashinasini o'ynash uchun berib turishni iltimos qildi. Farrux mashinani bergisi kelmadi, u lablarini cho'chchaytirdi. Ko'p o'tmay bulutlar tarqab, quyosh chikdi. Farrux jilmaydi va Alisherga dedi; «Ketdik, mashinamni birga o'ynaymiz».

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning jilmayish uchun lablarini qiynalmasdan cho'zishlarini va old tishlarini ko'rsatishlarini nazorat qiling. Lablar oldinga cho'zilganida ular bir-biriga tegib turishi lozim.

«Sayrda»

Mazmuni: Pedagog bolalarga qarab, deydi: «Bizning tilimiz sayr qilishga qaror qilibdi. U o'z uyini ochdi (og'zini ochadi), dastlab chapga, so'ngra o'ngga qaradi, keyin yana chapga, o'ngga qaradi, qarasa hech kim yo'q. SHuning uchun panjaraga yotib, quyoshga toblanmoqchi bo'ldi (tilini pastki tishlari ustiga qo'yadi)».

Bu vaqtda bolalar tarbiyachi harakatiga taqlid qiladilar.

Metodik ko'rsatmalar: Keng tilning pastki old tishlar ustida bemalol yotishini nazorat qiling.

«Qorcha uchqunlamokda»

Mazmuni: Bolalarga «qor uchqunlari» - ipga terilgan paxta tutamchalari tarqatiladi. Bolalar, shamolni tasvirlaganlari holda shoshmasdan «qor uchqunlarini» puflaydilar.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning yuzlarini shishirmagan holda uzoq vaqt mobaynida bir tekis puflashlarini nazorat qiling.

2-ish turi:

Maqsad: Artikulyatsiya apparati harakatlarini aniqlashtirish, alohida ajratilgan «S» tovushini to'g'ri talaffuz etish. Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish, uzoq vaqt davomida og'izdan nafas chiqarishni mashq qilish.

«Nasos»

Mazmuni: Tarbiyachi deydi: «Bolalar velosipedda sayr qilishga qaror qilishgan edi, lekin ular g'ildiragining dami chiqib ketibdi. Ular nasoslarni olib, g'ildiraklarni damlashga kirishdilar. Nasosdan chiqayotgan havo xushtak chalmokda: ssss..sss..Barchamiz birgalikda g'ildiraklarni damlaymiz. Bolalar ana shu harakatlarga taqlid qiladilar, tarbiyachi bilan birgalikda «s» tovushini cho'zib aytadilar.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning tovushni aniq, to'g'ri va cho'zib aytishlarini nazorat qiling.

3-ish turi:

Maqsad: so'zlarda «s» tovushining to'g'ri talaffuz qilinishini mustahkamlash, fonematik tinglashni rivojlantirish, so'zlarning adabiy me'yorlarga muvofiq holda aniq talaffuz etilishiga erishish.

«Sen bilasanmi?»

Mazmuni: Tarbiyachi: «Bolalar, men sizlarga bir nechta savollar beraman, ularga javob berishingizda har biringizning stolingizda yotgan suratlardan foydalanishingiz mumkin. To'g'ri javobni topgan bola yoki qiz bu yoqqa chiqadi va suratda tasvirlangan narsa nomini aytib beradi». Keyin savollar boshlanadi: «Nimani minib yurish mumkin?» (Bolalarda samokat, samolyot, avtobus, trolleybus va boshqa narsalarning suratlari mavjud.);

«Do'konda nimalar bor?» (sariyog', mineral suv, non); «Xayvonot bog'ida kimlar yashaydi» (sirtlon, yo'lbars, fil, sarlochin va boshq.). Bolalar narsalar nomini to'g'ri aytganlaridan so'ng, tarbiyachi ushbu so'zlarda qaysi tovush takrorlanayotganligini so'raydi.

Metodik ko'rsatmalar: So'zlarning aniq talaffuz qilinishini, so'zlarda «s» tovushining to'g'ri talaffuz qilinishini nazorat qiling. Agarda bolalar tovushni aniqlashda qiynalsalar, bu holda tarbiyachining o'zi bir nechta so'zlarni aytadi va ularda «s» tovushini ajratib talaffuz qiladi.

4-ish turi:

Maqsad: Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish, yaxshi diksiyani mashq qilish, «s» tovushini iboralarda bir nafasda aytilishini mustahkamlash, intonatsion ifodalilik bilan oxir sur'atda so'zlash qobiliyatini tarbiyalash.

«Pochtalon»

Mazmuni: Pochtalon bolalarga syujetli suratlarini tarqatadi. Har bir bola suratni olgach, uni boshqa bolalarga ko'rsatadi va unda nimalar chizilganligini aytadi. Masalan, mana bunday suratlar turkumi foydalaniladi: bog'da skameyka turibdi, samolyot o'rmon ustidan juda balandda uchib o'tmokda, it sho'rva ichmoqda va x.k.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning aniq, baland va bir nafasda iboralar aytishlarini nazorat qiling.

5 yoshdan 7 yoshgacha.

1-ish turi.

«V-f» tovushlari.

Maqsad: «v» va «f» tovushlarini farqlash, ularning to'g'ri talaffuz qilinishiga erishish. Og'izdan davomli nafas olish, ovozni ixtiyoriy ishga sola olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

«YOzmi yoki qishmi?»

Mazmuni. Tarbiyachi: «YOzda quyosh nur sochadi, mayin va iliq shamol esadi. U shunday esadi: fff...Qishda sovuq bo'lib, kuchli shamol esadi, u shunday ovoz chiqaradi: vvv...». Tarbiyachi dastlab bolalarga mayin shamol qanday esishini, so'ngra esa, kuchli shamol qanday esishini ko'rsatib berishni taklif qiladi.

So'ngra tarbiyachi «f» tovushini, keyin - «v» tovushini davomli talaffuz qiladi, bolalar esa qaysi fasl ekanligini, ya'ni qishmi yoki yozligini aniqlashlari lozim.

Metodik ko'rsatmalar. Bolalar «f» va «v» tovushlarini bir nafasda to'g'ri va davomli talaffuz qilishlarini nazorat qiling. «F» va «v» tovushlarini talaffuz qilishda pastki lab yuqori qatordagi tishlar bilan birga darcha hosil qilishi va undan havo chiqishini, ayni paytda «f»ni talaffuz qilishda havo sekin chiqishi, «v» tovushini aytishda esa kuchli bosim ostida chiqishini ko'rsating.

2-ish turi.

Maqsad. So'zlarda «f» va «v» tovushlarining farqlanishiga, ushbu tovushlar qatnashadigan so'zlarning aniq talaffuz qilinishiga erishish. Fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish. «Koptokni uzat».

Mazmuni. Bolalar doira hosil qiladilar. Koptok tarbiyachida turibdi. Bolalarga koptokni bir-biriga uzatishda «v» yoki «f» tovushini aytish vazifasi qo'yiladi. Koptokni olayotgan bola esa ushbu tovushlardan biri ishtirok etadigan so'zni aytishi zarur.

Metodik ko'rsatmalar. O'yinlarni o'tkazishda bolalarga zarur so'zlarni esga olishlari uchun vaqt berish zarur.

3-ish turi.

Maqsad. Bolalarga iborali nutqda «v» va «f» tovushlarini aralashtirib yubormasdan, to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish.

«Kimga nimani berish kerak?»

Mazmuni. Tarbiyachi bolalarga o'zaro bolalar va qizlarning «f» yoki «v» tovushi ishtirok etadigan ismlarini aytishni taklif qiladi. So'ngra u deydi: «Valida va Farrux xonani yig'irishmoqdalar. Valida nomida «v» tovushi ishtirok etadigan narsalarni yig'irishmoqdalar, Farrux esa nomida «f» tovushi qatnashadigan narsalarni yig'irishmoqdalar». Tarbiyachi bolalarga «v» yoki

«f» tovushli narsalar tasvirlangan suratlarni tarqatadi (vaza, kofta, fartuk, samovar va x.k.). 2-ar bir bola narsaning nomini aytadi va uni kim olishi lozimligini aytadi. Masalan: «Mening suratimda kofta tasvirlangan. Koftani Farrux oladi».

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning «v» va «f» tovushli suratlarni to'g'ri tanlashlarini hamda so'zlarni aniq va baland ovozda aytishlarini nazorat qiling.

Xulosa

• «Nutq madaniyati» atamasi ko'p qirralidir: 1-uni keng ma'noda tushunish mumkin, bunda u «nutq madaniyati» sinonimiga ega bo'ladi (bu o'rinda u namunaviy xusnixat matnlarini va umuman olganda, til tizimining potensial xususiyatlarini ko'zda tutadi); 2-tor ma'noda, nutq madaniyati - bu kundalik, og'zaki va yozma muloqot sharoitida til xususiyatlari hamda imkoniyatlarini aniq yuzaga chiqarishdir; 3-nutq madaniyati - bu mustaqil lingvistika fanidir.

• Nutq madaniyati - og'zaki va yozma adabiy nutq me'yorlarini (talaffuz, urg'u, grammatika, so'zni qo'llash qoidalari va boshq.), shuningdek nutq maqsadi va tarkibiga muvofiq holda til vositalaridan foydalana olish qobiliyatini o'zlashtirish.

• Lingvistik adabiyotlarda odatda, adabiy tilni o'zlashtirishning ikki bosqichi haqida, ya'ni: nutqning to'g'riligi va nutqiy maxorat haqida aytish qabul qilingan.

• Maktabgacha yoshda nutqda tovush madaniyatini tarbiyalash vazifasi bu - bolalarda so'zdagi tovushlarni sof va tushunarli qilib talaffuz etishni, so'zlarni o'zbek tili orfoepiyasi me'yorlariga muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilishni, aniq talaffuz qilishni (yaxshi diksiya) hamda nutq ifodaliligini tarbiyalashdan iborat.

• Bolalarning tovush artikulyatsiyasini o'zlashtirish jarayoni ancha davomli bo'lib, u 5-7 yilga cho'ziladi.

• Agarda bolalarga o'z vaqtida va muntazam ravishda o'rgatilsa ular hech bir qiyinchiliksiz barcha prosodemalarni (intonatsiyalarni) o'zlashtirib olishlari mumkin.

• Intonatsiyalarning 6 ta turi mavjud: sanash intonatsiyasi, qarama-qarshi qo'yish, chaqirish, ogoxlantirish (yoki ikki nuqta), kirish, ajratib qo'yish.

• O'zbek tilining fonetik va fonologik vositalaridan ravon nutqda bir vaqtning o'zida foydalanilmoqda.

• Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash nutqning boshqa jihatlarini ham, ya'ni: lug'at, ravon, grammatik to'g'ri nutqni rivojlantirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

• Nutqiy rivojlantirishning dastlabki bosqichida tinglash qobiliyatiga alohida o'rin beriladi (garchi asosiy mazmun yuki yuqori tovushni tinglay olish qobiliyati zimmasiga tushsa ham).

• Yaxshi rivojlantirilgan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq, tushunarli va to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlaydi, so'zni talaffuz qilish balandligini to'g'ri boshqara olish, oxista sur'atda, intonatsion ifodali so'zlash imkoniyatini beradi.

• Artikulyatsiya apparati organlarining yaxshi harakatchanligi, yaxshi tinglash qobiliyati bolaning tovush talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish imkonini beradi.

• To'g'ri nutqiy nafas olish normal tovush vujudga kelishini ta'minlaydi, tegishli nutq balandligiga, pazualarga aniq rioya qilishni ta'minlash, nutqning bir tekisligini va intonatsion ifodalilikni saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

• Ovoz sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

- Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. 7 yoshgacha bola ona tilining barcha tovushlarini adabiy til me'yorlariga muvofiq holda talaffuz qilishni o'rganib olishi shart.

- Diksiya (tovushlar, so'zlar, iboralarni to'g'ri talaffuz qilish) artikulyatsiya apparati faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir vaqtda asta-sekin shakllantiriladi.

- Pedagog (bola atrofidagi kattalar) bolalarning adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishlari, barcha xatoliklarni to'g'ri talaffuz namunalari ko'rsatgan holda bartaraf etishlari lozim.

- Maktabgacha yoshda barcha bolalarda so'zlar ancha tiniq talaffuz etiladigan oxista nutq sur'atini shakllantirish darkor.

- Intonatsiya - bu jaranglayotgan nutqqa oid barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo'lib, uning yordamida muloqot jarayonida fikrlar va ifodalarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniqlashtirish amalga oshiriladi.

- Bolalar nutqining intonatsion ifodaliligi ustidagi ishlar asosan taqlid yo'li bilan amalga oshiriladi.

- Nutqni rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni 3 ta bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqich - 1 yil 6 oydan 3 yoshgacha; 2-bosqich - 3 yoshdan 5 yoshgacha; 3-bosqich - 5 yoshdan 7 yoshgacha.

- 1-bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish kattalarning bolalar bilan muntazam muloqoti orqali amalga oshiriladi. Asosiy vazifa -tinglash qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borish, artikulyatsiya apparati organlarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunda har xil tovush taqlidlarini o'zida jamlagan o'yinlar, she'rlar, qo'shiqlar, hikoyalardan foydalanish mumkin.

- 2-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga doir ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa -bolalarda fonematik tinglash va ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq hamda tushunarli qilib talaffuz etish; ovoz balandligini vaziyatdan kelib chiqqan holda boshqarish qobiliyatini tarbiyalash, so'zlarni ulardagi urg'ularga aniq rioya qilgan holda to'g'ri va aniq talaffuz qilishdan iborat. Ayni paytda tovush taqlididan foydalanish darkor. Ona tilidagi barcha tovushlarni mashq qilish navbati bilan bir-birini almashtiruvchi to'rtta turni ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish va ushbu tovushni boshqalari ichidan ajrata olish, iborali nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

- 3-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni bolalar tomonidan ko'p xollarda aralashtirib yuboriladigan tovushlarni (shuvillovchi, xushtaksimom, jarangli, jarangsiz va boshq.) tabaqalashtirishga doir ishlar bilan bog'liq holda amalga oshirish lozim. Bunda asosiy vazifa nutqiy tinglashni yanada takomillashtirish, aniq, to'g'ri, intonatsion ifodali nutq ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat.

- Tabaqalashtirish ajratib qo'yilgan tovushlar bo'yicha ham va ayni paytda so'zlar hamda iborali nutqlar bo'yicha ham amalga oshiriladi. Bu esa bir vaqtning o'zida bolalarda nutqiy nafas olish, diksiya, intonatsion ifodalilik, ya'ni nutq tovush madaniyatining barcha qirralarini takomillashtirish imkonini beradi.

• Har qanday tovush juftligini tabaqalashtirish uch turdagi ishni amalga oshirishni ko'zda tutadi: ajratib qo'yilgan tovushlarni tabaqalashtirish; so'zlarda tovushlarni tabaqalashtirish; nutqda tovushlarni tabaqalashtirish.

• Tovushlarni tabaqalashtirish uchun materiallarni she'rlar, hikoyalar, tez aytishlar orqali berish va bir vaqtning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diksiya, ovozdan to'g'ri foydalana olish, so'zlarni adabiy me'yorlarni hisobga olgan holda talaffuz qilishni mashq qilish lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

- «Nutq madaniyati» atamasi nimani anglatadi?
- Maktabgacha ta'lim muassasasida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash borasidagi vazifalarni aniq misollar orqali tushuntirib bering.
 - Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning qaysi bo'limlarini bilasiz?
 - Bolalarning nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirishga doir ishlar mazmunini aniq misollar yordamida tavsiflab bering.
 - Artikulyatsiya apparati harakatchanligini qanday qilib rivojlantirish mumkin?
 - Nutqiy nafas olishni rivojlantirish borasidagi ishlar nutq uchun qanday ahamiyatga ega? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
 - Ovoz ustidagi ishlarni qanday amalga oshirish lozim?
 - Ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish qanday ahamiyatga ega? O'z javobingizni aniq misollar yordamida asoslang.
 - Diksiya ustidagi ishlarni qanday qilib amalga oshirish lozim?
 - Orfoepiya ustidagi ishlar nimani anglatadi?
 - Bolalar bilan nutq sur'atiga doir ishlarni amalga oshirish shartmi? Qaysi maqsadda va qanday qilib?
 - Nutqning intonatsion ifodaliligi nimani anglatadi? U muloqotda qanday ahamiyatga ega?
 - 1-bosqichda (1 yil 6 oydan 3 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash jarayonida qaysi metod va usullardan foydalanish lozim?
 - 2-bosqichda (3 yoshdan 5 yoshgacha) qo'llaniladigan ishlar turlarini tavsiflab bering.
 - 3-bosqichda (5 yoshdan 7 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga doir ishlar mazmuni va metodini tavsiflang.
 - Nutqning tovush madaniyati ko'nikmalarini amaliyotda qanday qilib tarbiyalash lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.

14-mavzu: Hikoya va ertaklarni qayta hikoya qilishga o'rgatish. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatish metodikasi

Reja:

1. Ertak va hikoya janrining o'xshash va farqli jihatlari
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hikoya va ertak janridagi asarlar bilan tanishtirish
3. Hikoya va ertaklarni qayta hikoya qilishga o'rgatish
4. Hikoya qilishni o'rgatish.
5. Hikoyalar turlari va ularning izchilligi.
6. Ijodiy hikoya qilishga o'rgatish

Tayanch tushunchalar va iboralar: badiiy adabiyot, kichik janrlar, hikoya, ertak, maktabgacha ta'lim muassasasi, ijodiy hikoya, matn va mazmun.

Bolalarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatish. Bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular asosida mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish: „Quvonchli kun“, „Xafa bo'lgan kunim“, „Mehmonda“, „Bizning oila“, „Eng yaqin o'rtog'im“, „Dam olish kuni“, „Dadanga qarashdim“, „Qo'g'irchoq teatriga bordim“ va boshqalar.

Bolalarni tuzayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini bilishga o'rgatish; „Birinchi qor“, „Yaxmalakda“, „Yangi yil bayrami“, „Qorbobo“, „Men sevgan fasl“, „Tashqarida qor, uyimizda bahor“, „Xola-xola o'ynadik“, „Kim oladi-yo, shuginani-yo“ o'yini, „Men onamga yordamchi“, „Ukamga mehribonman“ va boshqalar.

Bolalarga suratlar bo'yicha hikoya tuzishni o'rgatayotganda. avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak. Shu bilan birga, rasmda aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lgani va keyin nima bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o'rgatib borish.

Bolalarning birgalikdagi hayot tajribalaridan olingan voqealar: ekskursiya, sayr, mehnat jarayoni, jonli va ravon hikoya qilib berish malakasini tarbiyalash. Hikoya qilayotganda tevarak-atrofdagi buyum, voqea-hodisalarning nomini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlarini to'g'ri ifodalashga, voqealarning vaqti va joyini ko'rsatishga o'rgatish. Topishmoqlar o'ylab topishga undash.

Ikkinchi yarim yillik. Bolalarni badiiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishni davom ettirish.

Bolalarni manzarali suratlar bo'yicha maxsus hikoyalar to'qishga o'rgatish, ularni surat mazmunini tushunishga, suratdagi manzarani tevarak-atrofdagi manzaralar bilan taqqoslashga. o'z hikoyalarida tasviriy so'z va iboralardan foydalanishga o'rgatishni davom ettirish. Bolalar mustaqil hikoya tuzayotganlarida og'zaki nutq shakllaridan foydalanishlariga erishish.

Ijodiy hikoya qilish: tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzu bo'yicha voqeani izehil davom ettirib, tugal mazmunli hikoya tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash, voqea sodir bo'lgan joy, vaqt, tabiat manzarasini qisqacha tasvirlash, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ko'rsatishlariga ahamiyat berish: „Gul bayrami“, „Navro'z“, „Onamlarning bayrami“, „Bahor keldi“, „Men qushlarga don berdim“, „Men onamga yordamchi“, „Tomorqada“, „Mening mushugim“, „Metroda“, „Avtobusda“, „Trolleybusda“, „Ko'chada“, „Bozorda“, „Do'konda“, „Arqon o'ynadik“, „Quvlashmachoq“, „Bekinmachoq“, „Mehmon-mehmon“ mavzularida hikoya o'ylab topishga undash.

Mustaqil tuzgan hikoyalardagi personajlarga qisqacha ta'rif berishlariga, ularning xatti-harakatlarini baholashlariga ham diqqatni qaratish va o'rgatib borish.

Mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha hikoya tuzishda voqealarning izchilligiga, tugal mantiqqa ega bo'lishiga, tasviriy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanishlariga ahamiyat berish.

Monolog nutqini o'zlashtirishning yuqoridagi dastur vazifalari va mazmuniga ko'ra bog'chaning o'rta guruhidagi bolalar hikoya qilib berishning quyidagi turlarini egallashlari lozim:

1. Tanish ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilib berish.

2. Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan hikoya va aytib berilgan qisqa ertaklarni qayta hikoya qilib berish.

3. Ko'rib turgan narsa-buyumlar: o'yinchoqlar, o'simliklar, kiyimlar, idish-tovoqlar, mebellar va hokazolar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

4. Voqeaviy-sujetli rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

5. Bolalar o'z tajribalari asosida xotiradan hikoya qilib berishlari.

Katta guruh dasturida hikoya qilishning quyidagi turlari bayon etilgan:

1. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berish.

2. Narsa-buyumlar: o'yinchoqlar, o'simliklar, kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar, mebellar va hokazolar haqida hikoyalar, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarni tuzish.

3. Rasmlar bo'yicha tasviriy va voqeaviy hikoya tuzish.

4. Xotiradan o'z shaxsiy tajribasida kuzatgan voqea va hodisalarni, narsalarni, bog'chada va uyda nimalar qilganini, guruhda va uyda bo'lib o'tgan eng qiziqarli voqealar haqida hikoya qilib berish.

5. Ta'limiy o'yinlar asosida tasviriy hikoya tuzish: „Qo' g'irchoq, o'yinchoqni top“, „Qo'g'irchoq, menda qanaqa gul bor“, „Qo'g'irchoq, top-chi, yonimda kim o'tiribdi?“, „Qo'g'irchoq, qo'limdagi suratlar qaysi ertakdan olinganini top-chi?“ va boshqalar.

6. Ijodiy hikoya qilishga, tarbiyachi tomonidan boshlangan ertak va hikoyani oxiriga yetkazish, tarbiyachi taklif etgan mavzu va reja asosida ertak yoki hikoya to'qish, berilgan 3 — 4 so'z yordamida ertak yoki hikoya to'qishga o'rgatish.

Maktabgacha tayyorlov dasturida ham hikoya qilib berishning xuddi katta guruhdagi kabi turlari ko'rsatilgan.

Bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan usullar

Bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiylarini aytib o'tamiz:

1. Hikoya namunasini berish usuli. Bunda qandaydir buyumni (predmetni) yoki voqeani jonli va qisqa tasvirlanadi. Bu usul birmuncha yengil usul bo'lib, tarbiyachi bolalarga narsa-buyum, rasm, voqea haqida tayyor hikoya aytib beradi, bolalar hikoyani tinglab, o'z hikoyalari uchun mazmun tanlaydilar, uning hajmini, izchilligini belgilab oladilar. Shuning uchun bu usul bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishga yordam beruvchi ta'limiy usul bo'lib hisoblanadi.

Namuna bolalarning taqlid qilishiga mos bo'lishi, ya'ni hajmi kichik, fikrlar izchil bayon qilinishi, jumlar qisqa va grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim. Masalan, tarbiyachi o'yinchoqni tasvirlashga o'rgatishda o'zi bitta o'yinchoqni olib, u liaqda shunday tasviriy hikoya tuzadi:

— Mana bu ayiqcha. U jigarrang, yumshoq baxmaldan yasalgan. Uning bosh qismida ikkita kichkina quloqlari, ikkita qop-qora, dum-dumaloq ko'zlari, tumshug'i bor. Tumshug'ida esa burni bor. Tanasida 4 ta oyog'i bor. Ayiqcha o'yinchoqni bizga o'ynash uchun kerak.

Bolalar namuna hikoyadan yaxshi foydalanishlari uchun uning matni qisqa gaplardan iborat bo'lishi va izchil bayon qilinishi kerak.

Hikoya namunasi boshqa usullarga nisbatan hikoya qilishga o'ngatish jarayonini yengillashtiradi, bolalar erishishi kerak bo'lgan natija ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, namuna bolalarning hikoya qilishlari lozim bo'lgan mavzularning taxminiy mazmunini, ularning hajmini, kctma-ketligini belgilaydi.

Tarbiyachining namuna hikoyasidan bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishning dastlabki bosqichlaridan, shuningdek, yangi vazifa qo'yilganda yoki hikoya qilib bera olmaydigan bolalarga yordam berishda foydalaniladi. Tarbiyachining namuna hikoyasini yomon hikoya qiladigan I — 2 bola takrorlashi mumkin.

Namuna hikoya usulidan mashg'ulotning boshida foydalanish kerak. Undan mashg'ulot oxirida foydalanish esa hech qanday ijobiy natija bermaydi, chunki bolalar namuna hikoyaga taqlid qila olmaydilar, o'z nutqlarida undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

2. Hikoya rejasini berish usuli. Hikoya rejasi 2 — 3 asosiy savoldan iborat bo'lib, fikrning ketma-ketligini va mazmunini belgilaydi. Namuna usulidan foydalanib hikoya qilib berish bilan bog'liq 2 — 3 mashg'ulotdan keyin hikoyani reja asosida so'zlab berishga o'rgatish mustaqil, yetakchi usullardan biri bo'lib qoladi. Bolalar hikoyasi xilma-xil bo'lishi uchun tarbiyachi oldindan asosiy va qo'shimcha reja tayyorlab qo'yishi kerak. Bir mashg'ulot jarayonida savollarni almashtirish (yangilash) bolalar diqqatini faollashtiradi.

Masalan, maktabga tayyorlov guruhi bolalariga o'z guruh xonalarini tasvirlash uchun taxminan quyidagi rejani taklif etish mumkin:

1. Xonani kim toza saqlaydi?

2. Sen xonani yig'ishtirishda (tozalashda) qanday yordam berasan?

2 yoshli bolalar guruhi bilan dastlabki mashg'ulotlarda, agar bola rejadani chetlashsa, uning nutqini bo'lmasdan, oxirigacha tinglab turish lozim. Ammo asta-sekin hikoyaning to'liq yoki izchil emasligini aytib, boshqa bolalarni javobni to'ldirishga jalb qilishi kerak.

3 yoshli bolalarning hikoyasiga dastur talablarini (ularning maqsadga qaratilganligi va izchilligiga) qo'yadi. Shuning uchun bolalarni hikoya rejasiga amal qilishga o'rgatish kerak. Ayniqsa, bu rasm asosida hikoya qilish va o'z tajribalaridan hikoya tuzishga taalluqlidir.

Tarbiyachi hikoya qiluvchining mavzudan yoki rejadani chetga chiqib ketganini o'zi ko'rsatibgina qolmay, balki bolalarni o'rtog'ining hikoyasini nazorat qilib borishga jalb qilishi kerak.

(Hozir nima haqida hikoya qilib berish kerak? Hammaga tushunarli bo'lishi uchun avval nimani hikoya qilib berish yaxshiroq?)

Hikoya namunasini berish hikoya qilishga o'rgatishning eng yengil usuli, hikoya rejasi berish usuli esa ancha qiyin. Bu usul murakkab bo'lishiga qaramay, bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda keng tarqalgan muhim usul hisoblanadi.

3. Rejani jamoa bo'lib muhokama qilish usuli. Reja asosida hikoya tuzish va uning mazmunini boyitishni yengillashtirish maqsadida, rejani jamoa bo'lib muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu usuldan katta va maktabga tayyorlov guruhlarida reja asosida hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi. Masalan, tarbiyachi bolalarga shunday yo'llanma beradi: „Biz qanday qilib jo'ja boqqanimizni gapirib bering. Jo'jalar qayerdan paydo bo'ladi? Ularni qanday parvarish qildingiz? Jo'jalar katta bo'lganda, ular qanday bo'lishdi?“

Bu usulning mohiyati nimadan iborat?

Hikoyani tuzishga qadar tarbiyachi bolalar bilan birgalikda rejadagi ayrim savollarni muhokama qiladi, ya'ni hikoya mazmunining xilma-xil bo'lishi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Rejadagi bir savolga (masalan, „Bola qanday kuchukcha topib oldi?“) bir necha bola joyida o'tiigan holda javob berishini taklif etadi. Bolaning joyida o'tirgan holda javob berishi — bu hali hikoya emas, balki bir yoki bir necha gap. Hikoya rejasini jamoa bo'lib muhokama qilish usuli esa bolalarning tashabbuskorligini jonlantiradi, faollashtiradi, bolalarni murakkab jarayon hisoblangan mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi.

4. Jamoa bo'lib hikoya tuzish usuli.

Bu usul o'ziga xos bo'lib, undan bolalarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda foydalaniladi. Oldindan belgilab qo'yilgan hikoya rejasini ketma-ket muhokama qilish jarayonida tarbiyachi va bolalar ayrim javoblarni tinglaydilar, ulardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini muhokama qiladilar. Tarbiyachi ularni o'ylab topilgan hikoyaning boshlanishi sifatida takrorlaydi. So'ngra navbatdagi eng yaxshi savol tanlanadi, tarbiyachi esa aytilgan eng yaxshi jummalarning va o'zining gapini birlashtirib, kichik hikoya tuzadi.

Oxirida hikoya tarbiyachi tomonidan takrorlanadi, so'ngra 2, 3 bola takrorlaydi. Bu usulning mohiyati shundaki, mashg'ulotda barcha bolalar faollik ko'rsatishadi, ularning xayollari asta-sekinlik bilan shakllanadi. Biroq bu usulning bir qator kamchiliklari mavjud: bolalarning nutq faoliyati jummalarni tuzish. So'zlarni tanlash bilangina chegaralanadi, ular monolog nutqni rivojlantirish ustida koin mashq qiladilar. Shuning uchun bu usuldan foydalanish chegaralangan.

Hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usuli.

Ayrim mashg'ulotlarda hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usulidan foydalanish mumkin, bu usul hikoya tuzishni yengillashtiradi, chunki topshiriq hajmi kamayadi. Shuningdek, mashg'ulot ancha qiziqarli va xilma-xil bo'lib, hikoyalar to'liq va chuqur mazmunga ega bo'ladi, ko'p bolalardan so'rash imko- niyati vujudga keladi.

Mazmuni alohida qismlarga yengil ajraladigan rasmlarni qism bo'yicha tasvirlash mumkin. Masalan, bolalar ushbu rasmlarni qism bo'yicha tasvirlashlari mumkin: „Tovuqlar“, „Mushuk bolalari bilan“, „Echki bolalari bilan“, „Sigir buzog'i bilan“, „Qishki o'yinlar“ va hokazolar.

Tarbiyachi tasviriy hikoya uchun mavzu taklif etishdan awal rasmini kichik-kichik qismlarga ajratib chiqadi. Masalan, „Quyonglar“ degan mavzuda tasviriy hikoya tuzishda tarbiyachi bolalarni shunday ogohlantiradi: „Quyonglar haqida hikoya qilamiz, ammo hammasini bir yo'la emas, balki quyonglar haqida hamma narsani xotirlash (esga tushirish) uchun tartib bilan gapiramiz“. So'ngra har bir qism uchun reja taklif etish mumkin. Masalan: „Hozir, bolalar quyongni tanasi nima bilan qoplan- ganligini, uning tumshug'i qanday ekanligini, u qanday harakat qilishini (yurishini) eslaymiz“.

Bu reja asosida 2 — 3 bola hikoya qilib bergach, navbatdagi qismga o'tiladi: „Bizning quyonglarimiz qayerda yashashini, katagida nimalar borligini, ular nima uchun kerakligini gapirib bering“. So'ngra quyongning oziqlari, kim ularga g'amxo'rlik qilishi va hokazolar haqida hikoya qilib berish mumkin. Mashg'ulot oxirida nutqi yaxshi, hikoya qilish malakasi rivojlangan bir bola rasmda tasvirlangan narsalar haqida batafsil gapirib berishi mumkin.

Savollar berish usuli.

Baholash usuli.

Bu usuldan foydalanishning asosiy maqsadi shundaki, baho faqat hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta'sir etib qolmasdan. balki hikoya tuzishi lozim bo'lgan boshqa bolalarga ham ta'sir qilsin. Shuning uchun bu usuldan mashg'ulot davomida foydalaniladi. Mashg'ulot oxirida berilgan baho. o'z mohiyati bilan foydasizdir, bundan tashqari, barcha tinglangan hikoyalarning sifati qanday bo'lganligini bola esda saqlashda qiynaladi, mashg'ulotning oxirida ular toqatsizlanadilar va buning natijasida tarbiyachining ko'rsatmalarini idrok eta olmaydilar. Har bir hikoyani batafsil baholash shart emas, biroq ayrim hikoyalardagi biror ahamiyatli tomonni, izchillikni, yangilikni yoki kamchiliklarni (lug'ati, ovoz kuchi, qomatini noto'g'ri tutish va hokazo) aytib o'tish kerak.

Masalan, ikkita o'yinchoqni stol bo'ylab yurgizib, harakatlarni aniq aytib, hikoya qilib berish topshirig'i berilgan.

Tarbiyachi hikoya qilib bergan bolaning hikoyasini shunday baholaydi: „Yasha, Salim. Sen birinchi bo'lib hikoya qilib bersang- da, o'rdakchalar qanday harakat qilishlarini aytishni esingdan chiqarmading, Sening hikoyangni qiziqib tingladik“.

Ba'zan o'rtoqlarining hikoyasini muhokama qilishga bolalarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Bu usul katta guruhlarda qo'llaniladi. Chunki 6 yoshli bolalar hikoyaning sifatini (to'liq- ligini, qiziqarliligini, ifodaliligini va boshqalarni) ayta oladilar.

Shunday qilib, tarbiyachi bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan hamma usullarni juda yaxshi bilishi va bu usullardan sharoitga qarab, mashg'ulot uchun yetakchi usulni tanlashi kerak.

Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish

Qayta hikoya qilish — hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish bolalar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli

so'zni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib berish olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish samarali bo'lishi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish uchun matnlarni to'g'ri tanlash lozim.

Har bir asar bolalarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy-mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazlilik, voqealarning ketma-ketlilik, mazmunining qiziqarliligi. Shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning bola yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdek, dasturda bolalarning qayta hikoyalarga bir qancha talablar qo'yilgan:

- 1) ma'nosiga tushungan holda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;
- 2) asarni to'liq bayon etish, ya'ni asardagi muhim joylarni tashlab ketmasdan bayon etish;
- 3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;
- 4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;
- 5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq pauzalarning bo'lmasligi;
- 6) og'zaki nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda g'aybani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma'nodorligidan (ifodalili- gidan) foydalanish, yetarlicha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish.

Ushbu talablarning barchasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish usullari

Ma'lumki, qayta hikoya qilish monolog nutqni shakllantirishda eng birinchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun har bir bola qayta hikoya qilishni yaxshi egallab olishi shart. Buning uchun har xil usullardan foydalaniladi. Bular quyidagilar:

1. Tarbiyachining bola bilan birga qayta hikoya qilishi.

Tarbiyachi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalanishi kerak.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga sezdirmagan holda gavdasini to'g'rilashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg'ulotning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: „Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin“.

2. Qayta hikoyani takrorlash.

Bu usuldan ko'proq o'rta va katta guruhlarda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bo'lgan usuldir, chunki u tarbiyachining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jummalarni ham takrorlashiga to'g'ri keladi.

3. So'z va jummalarni aytib turish.

Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi.

Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda sekin bo'lsa, tarbiyachi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini to'plashi kerak.

Agar bola hikoya qilayotgan vaqtda tebranib (chayqalib) tursa, boshini egsa, qo'li bilan ortiqcha harakatlarni qilsa, uning hikoyasini bo'lib tanbeh berish yaramaydi, balki bunday hollarda imo-ishora, ko'z qarashi bilan uning xatosini, kamchiligini tuzatishi, hikoya qilib bergandan keyin esa hammaga eshitilardi qilib: „Hikoya qilayotganingda tinch turishing. boshingni pastga egmasdan, o'rtoqlaringga qarab turishing kerak. axir ular sening hikoyangni tinglashadi-ku“, deb aytishi kerak. Tarbiyachi bolaning bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo'ysa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib berish mashg'ulotidan oldin yana bir marta bolani ogohlantirishda bundan foydalanadi.

Tarbiyachi aytib turish orqali, bolani qayta hikoya qilayotganida yo'l qo'ygan grammatik xatolarni to'g'rilaydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o'rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo'llaniladi.

4. Savollar berish.

Bu usul keng tarqalgan bo'lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg'ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatilishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan bolalarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: „Sen nima haqida hikoya qilasan, o'la quyon to'g'risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina o'la quyon sheriklariga...“. Yoki: „Turna Tulkini o'zi bilan olib, osmonga ko'tarilibdi va unga nima debdi? Yerni ko'ryapsanmi? Mana shu Turnaning aytgan gaplarini, Tulkining esa javobini aytib bering... Ha, mushtumday... Bu yog'ini o'zing davom et“.

Bola qayta hikoya qilib bergandan keyin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini bola qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joylarini tiklashga yordam beradi.

Ayrim hollarda qayta hikoya qilishdan keyin qahramonlarning fe'l-atvori yoki ularning ifodali nutqi haqida savol berish mumkin.

Qayta hikoya qilish o'rtasida uncha katta bo'lmagan mashqlar o'tkazish yoki ko'rsatma berishdan foydalanish mumkin. Shuningdek, asar matnining ayrim joylarini yana bir marta takrorlash usulini qo'llash mumkin.

5. Rag'batlantirish.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolani jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so'z aytish („Yasha“, „Barakalla“) bilan rag'batlantiradi.

Qayta hikoya qilib bergandan so'ng bolani maqtaidi. Bunda qayta hikoya qilishning biror ijobiy sifatini ta'kidlab o'tadi.

6. O'yin usuli (dramalashtirilgan o'yin).

Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: bolalar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozlari taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o'yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. Tarbiyachi avval o'zi muallif nomidan gapiradi, so'ngra bola gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo'sh rivojlangan bolalar chiqariladi. Dramalashtirilgan o'yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotining tuzilishi (o'tkazish uslubiyoti) har xil bo'ladi.

Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn bolalar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Qayta hikoya qilish mashg'ulotlari har bir yosh guruhining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Bu yoshdagi bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatish ularga tanish bo'lgan ertaklarni („Bo'g'irsoq“, „Sholg'oir“, „Bo'ri bilan echki“, „Ochko'z it“) takrorlashdan boshlanadi. Tarbiyachi kichikintoy bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda quyidagi usuldan foydalanadi. Bolalar tarbiyachining takroriy hikoyasidagi bitta-ikkita so'zni yoki to'liq gapni takrorlaydilar:

- Choi bilan kampir...
- Yashashar ekan.
- Bir kuni cliol...
- Sholg'om ekibdi.

So'ngra bolalar sekin-asta savollar yordamida qayta hikoya qilishga o'rgana boshlaydilar. Savollar voqealar ketma-ketligini belgilashga, ishtirok etuvchilarning nomini aytishga qaratilgan bo'ladi:

- Bo'g'irsoq kimni uchratdi?
- Quyonna.

Agar bola ertakning boshlanishini yaxshi eslab qolgan bo'lsa, u holda uni mustaqil hikoya qilib bera oladi. So'ngra qayta hikoya qilish jarayonida bola qiynalsa, tarbiyachi yordamlashadi, ya'ni matnni esiga tushirishdan foydalaniladi, bu ertak mazmunini oson takrorlashga yordam beradi.

Qisqa xalq ertaklarini qayta hikoya qilishdan so'ng kichik hajmdagi hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'tishi mumkin (Mirnuhsin. „Olxo'ri“, „Tosh“).

Mashg'ulotda asarga ishlangan illustratsiyalar ko'rsatiladi. Ko'rsatish savollar, ko'rsatmalar berish bilan birga qo'shib olib boriladi. Illustratsiyalarni asarni o'qib berishdan avval yoki o'qib bergandan keyin ko'rsatgan ma'qul. Tarbiyachi shunday deydi: „Hozir men sizlarga rasmlarni ko'rsataman, so'ngra hikoya o'qib beraman" yoki „Hozir hikoyani o'qib beraman, so'ng rasmlarni ko'rsataman“.

O'rta guruhda bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda ancha murakkab bo'lgan vazifalar hal etiladi: bolalarni kichik hajmli va tanish bo'lgan ertak va hikoyalarni hikoya qilib berishga o'rgatib qolmasdan, balki asar qahramonlarining gaplarini ifodali qilib bayon etishga, boshqa bolalarning qayta hikoya qilishlarini diqqat bilan tinglashga va matnga taalluqli bo'lmagan jummalarni topishga o'rgatadi. Ushbu guruhda bolalar butun yil davomida 8—10 ta adabiy matnni (o'zbek ertaklaridan „Tulki bilan Turna“, „Maqtanchoq quyon“, „Fil va xo'roz“, „Ikki o'rtoq“, A. Oripov- ning „Bobo va nabira" she'rining mazmunini qayta hikoya qiladilar.

O'rta guruh bolalariga qayta hikoya qilishlari uchun tavsiya etilgan asarlar mavzusi, mazmuni va shakli jihatdan katta farq qiladi. Shuning uchun o'rta guruh bolalarini qayta hikoya qilishga o'rgatishdagi muhim vazifa — bu ularga asarning mantiqiy bog'lanishini, uning

mazmunini tushunib olishga yordam berishdir. Bunga asarni dastlabki o'qishdan so'ng o'tkaziladigan suhbat orqali erishish mumkin. Bunday suhbatda tarbiyachining savollari asosiy metodik usul bo'lib hisoblanadi.

Badiiy asarlar yuzasidan ikki guruhdagi savollar berilishi mumkin:

- 1) asar mazmunini tushunib olishga yordam beruvchi;
- 2) voqeaning ketma-ketligini esga tushirishga yordam beruvchi.

Shuningdek, asar o'qib berilgandan keyingi suhbat bola nutqidagi lug'at boyligini aniqlash va faollashtirish, qahramon- larning ovozlari ifodali bayon etishga ta'sir etish kabilarni amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiy matn o'qib berilgandan so'ng, bolalar asar mazmunini tushunib olganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan qisqa suhbat o'tkaziladi.

Tarbiyachi bolalarga shunday savollar beradi: „Ertak nima haqida ekan? Bu ertakdagi quyon qanday? (qo'rzoq, yolg'onchi, tarbiya ko'rmagan.) Quyon sheriklariga nima deb maqtanibdi va u bilan qanday voqea ro'y beribdi? Agar siz maqtanchoq quyonchani uchratib qolsangiz, unga nima degan bo'lar edingiz? (Uyalmaysanmi, maqtanchoqlik qilishga. Yolg'onchi, qo'rzoqsan- ku. Bundaylarni biz o'zimizga sherik, o'rtoq qilib olmaymiz, u bilan birga o'ynamaymiz.) Asar matni yuzasidan suhbat o'tkazilgach, u ikkinchi marta o'qib yoki hikoya qilib beriladi va bolalar tomonidan qayta hikoya qildiriladi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: „Endi diqqat bilan tinglanglar. Hozir men bu ertakni yana bir marta o'qib (hikoya qilib) beraman. So'ngra sizlar menga qayta hikoya qilib berasizlar“. O'rta guruhda tarbiyachi va bolaning birgalikda (hamkorlikda) qayta hikoya qilishlaridan keng foydalaniladi. Bola qayta hikoya qilayotganda tarbiyachi jummalarni uning esiga tushirib turadi, esidan chiqqan so'zlarni aytib turadi. Bu qayta hikoya qilishining ravonligini ta'minlaydi, jummalari uzilib qolishining oldini oladi. Sekin-astalik bilan bolaning qayta hikoya qilishiga talab orta boradi. Endi tarbiyachi boladan hikoyaning to'liq bo'lishini („Sen nima haqida hikoya qilib berishni esingdan chiqarding?“), asarni qayta hikoya qilib berayotganda bola diqqatini asardagi personajlarning so'zlarini ifodali qilib aytib berishga jalb qilish kerak. Masalan: „Tulki xo'rozdan derazadan qarashini qanday so'raydi?“ — „Samimiy, ayyorona“; „Maqtanchoq quyon o'rtoqlariga nima deb maqtandi?“ — „Vs-e. Ycm bo'lib bo'pniyan. Boshiga chiqib bir tepdim, til tortmay o'lib qoldi“ — (Maqtanib, gerdayib.) Ushbu guruhda savollar bo'yicha qayta hikoya qilishdan ham foydalanish mumkin. Ba'zi hollarda bolalar asar mazmunini o'z so'zlari bilan bayon etadilar. Bunday holda bola tomonidan tanlangan so'zlarni muallifning fikrini aniq va to'g'ri ifodalashini nazorat qilib borishi kerak.

Bolalarning qayta hikoya qitishlarini baholash muhim uslubiy (nietodik) usullardan hisoblanadi. O'rta guruhda bolalarning hikoyasini tarbiyachi baholaydi. Bolalarning qayta hikoya qilishini baholashda uning yaxshi tomonlarini va kamchiliklarini, harakatchanligini aytib. qisqa tahlil qilish lozim. Bu bilan quyidagi dastur vazifasini bajarish zarur: bolalarda qayta hikoya qilishda matnga to'g'ri kelmaydigan joylarni seza olish qobiliyatini tarbiyalash. Tarbiyachi bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali ularning nutq faolligini, mustaqilligini rivojlantirishga ta'sir etadi.

Katta guruhlarda adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda yangi vazifalarni hal etish nazarda tutiladi: tarbiyachining yordanchi savollarisiz ertak va hikoyalarning mazmunini bir-biriga bog'lab, izchillik bilan, ifoda vositalaridan foydalanib, grammatik tomondan to'g'ri bayon eta olishga o'rgatish. Endi bu guruhda ancha murakkab, hajmi kattaroq bo'lgan asarlarni qayta hikoya qilish taklif etiladi. (Bu guruhlarda qayta hikoya qilish uchun tavsiya etilgan asarlar ro'yxati „Badiiy terma kitob“da ko'rsatilgan. Masalan: „Bo'ri bilan tulki" (o'zbek xalq ertagi), „Chum- chuq" (o'zbek xalq ertagi), Gulxaniyning „Toshbaqa bilan chayon" masali, „Zumrad va Qimmat" (o'zbek xalq ertagi) va hokazolar.

Bolalarni hikoya qilishga xuddi suhbatga tayyorlagandek tayyorlash lozim: bolalar hikoya predmetini butun hayotiy to'liqlikda, sezgilari bilan birgalikda (hajmi, shakli, rangi, xidi, ta'mi, ovozi, harakat tusi va boshq.) o'ziga tasavvur qilishi zarur; narsaning barcha belgilarini, harakatlarini va ularning munosabatlarini aytish uchun bolalarda zahirada so'zlar,

grammatik shakllar bo'lishi lozim. Hikoya qilishni mashq qilishdan oldin leksik, grammatik (zarur xollarda – fonetik) mashqlar bajarilishi, shuningdek, suhbatlashishni mashq qilish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

– qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);

– xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya);

– tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod maxsul bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga qarab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi.

Hikoya – biron-bir fakt, voqeaning mustaqil tuzilgan keng qamrovli bayonidir.

Hikoya tuzish – hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o'zi ushbu mavzu bo'yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, uni ketma-ket (tarbiyachi yoki o'z rejasi asosida) bayon qilishlari zarur.

Hikoyalar shakliga ko'ra tavsifiy va syujetli bo'lishi mumkin.

Tavsiflash – narsa yoki hodisaning o'ziga xos belgilarini bayon qilishdir. Tavsiflash qisqa bo'lishi va muayyan tuzilma asosida tuzilishi lozim: dastlab narsaning nomi aytiladi, so'ngra uning o'ziga xos belgilari, uning qismlarining nimaga mo'ljallanganligi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda narsaning vazifasi bayon qilinadi. Tavsifiy hikoyalar qiyosiy (qarama-qarshi belgili hamda hajmi, rangi, materiali, qismlari, shakliga qarab bosqichma-bosqich taqqoslanadigan ikki narsani tavsiflash) va izoxlovchi (mulohaza yuritish, isbotlash bilan birgalikda hikoya qilish va aytilayotgan harakatlarni bajarib ko'rsatish) bo'lishi mumkin.

Syujetli (bayoniy) hikoya – voqealarni biron-bir qahramon bilan birgalikda vaqt bo'yicha ketma-ketlikda aytishdir. Bolalarga uni odatdagi tuzilma asosida tuzishni o'rgatish zarur – dastlab qahramonning nomi aytiladi, ba'zan uning tashqi ko'rinishi tavsiflanadi, birinchi voqea bayon qilinadi, u qachon va qayerda yuz berganligi tushuntiriladi, so'ngra ikki-uch lavxa keltiriladi va hikoya yakunlanadi.

Bitta mashg'ulotda bitta fikrdagi hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l qo'yish mumkin: bola o'yinchoqni tavsiflab (qabul qilish asosida hikoya) bo'lganidan so'ng uni qayerdan sotib olganligi yoki uni qanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin.

YUqorida sanab o'tilgan barcha hikoyalar turlari ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash, bayon qilish yoki shunchaki mulohaza yuritish sifatida bajarilishi mumkin.

Hikoyaning maxsus vazifasi (qayta hikoya qilish vazifasi kabi) – monologik nutqni rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachi hikoya qilishni o'rgatishni savollar zanjiri yordamida, ya'ni bolaning bayon qilish, tavsiflash yoki mulohaza yuritishda mantiqqa amal qilishni ko'zda tutuvchi reja yordamida amalga oshiradi.

Hikoya rejasi oddiy bo'lishi, ya'ni bir chiziqdagi savollar zanjiri shaklida yoki murakkab, ya'ni keng tarmoqlangan qo'shimcha (aytib turuvchi yoki faqat yo'naltiruvchi) savollar zanjiri shaklida bo'lishi mumkin.

Turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan mashg'ulotlar turlicha o'tkaziladi va ushbu mashg'ulotlarda bolalarga qo'yiladigan talablar ham turlicha bo'ladi.

Hikoyaga oid mashg'ulotlarda doimo taniqli she'rlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlarni esga olish maqsadga muvofiqdir: bu bolalarning emotsional kayfiyatini ko'taradi va ularning hikoyalarni yanada ifodali qiladi.

Monologik nutqqa oid mashg'ulotlarni real ob'ektlarga (quyoncha) tayanish usullari yordamida va real narsalarni eslash (farrosh mexnati haqida hikoya) asosida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar suratlariga qarab hikoya qilishni tegishli suratlarini (harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan) ko'rib chiqish jarayonida o'rganadilar.

Statik suratlar – bu tavsiflash uchun didaktik materiallardir: ularda tasvirlangan narsalar yoki harakatlar haqida hikoya qilish bir vaqt rejasida olib boriladi.

Harakatlanadigan suratlar – (bosmaxonada chop etilgan turkum suratlar, diafilmlar, diapozitivlar va boshq.) – bayon qilish uchun didaktik materiallardir: ularda tasvirlangan narsalar yoki harakatlar bir-biridan keyin keladigan vaziyatlardan iboratdir.

Mulohaza yuritish uchun materialni har qanday surat berishi mumkin, faqat buning uchun “nima uchun?” (u yoki bu voqea, harakat yuz berdi) yoki “qanday vaziyatda?” (narsa u yoki bu belgiga ega bo'ladimi-yo'qmi?) degan savol to'g'ri qo'yilsa bo'ldi.

Bolalar tarbiyasi mavzusiga oid statik suratlardan didaktik material sifatida foydalaniladi: ular oson kompozitsiyaga ega bo'lib, ularda ayrim ob'ektlarni ajratib ko'rsatish, ularning o'zaro munosabatini aniqlash ham osondir (“Biz o'ynayapmiz”, “Uy xayvonlari”, “YOvvoyi xayvonlar”, “Yil fasllari” va boshq.).

Harakatlanadigan suratlar bilan ishlash metodikasi kitobning o'z shakli bilan belgilanadi. Bolalarga yaxshi tanish bo'lgan ertaklar va hikoyalarga ishlangan diafilmlar va diapozitivlar bolalarga monologik nutqni o'rgatish uchun ayniqsa, juda qulaydir. Dastlab bolalar ularni ko'p marta tomosha qiladilar, uning titrlari o'qib chiqiladi (pedagog yoki ota-ona tomonidan), so'ngra titrlarni o'qishdan bolalarning kadrlarda tasvirlangan lavxalarni hikoya qilib berishiga o'tiladi.

Monologga o'rgatish jarayoni (bayon qilish, tavsiflash, mulohaza yuritish) shundan iboratki, tarbiyachi o'z rejasini (savollar zanjiri) asosida birinchidan, bolaga mavzudan chiqib ketmaslikka, voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilishga yordam beradi, ikkinchidan, hikoyachi nutqining emotsional ifodaliligi haqida qayg'uradi va ushbu mavzu uchun mos keladigan she'rlar, ertaklar, topishmoqlar, yozuvchilar hikoyalari parchalarini taklif qiladi.

Bolalarning tasavvur asosidagi og'zaki to'qima hikoyalari monologik nutq turlaridan biri hisoblanadi. Xayolparast bolalar suratlarining boshlanishi yoki nihoyasini ishtiyoq bilan o'ylab topadilar, ya'ni suratlarda tasvirlangan voqealardan oldin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni yoki suratda tasvirlangan voqealardan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni o'zlari to'qiydilar; tanish ertaklar yoki hikoyalar mavzusida kontaminatsiya¹³ tuzadilar, qahramon nomidan (1 –shaxs nomidan hikoya qilish) hikoya qiladilar, unda yil faslini o'zgartiradilar va x.k.; o'zlari ertak hamda hikoyalar to'qiydilar.

Bolalar ijodlarini quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

- suratlar asosida ijodiy to'qima;
- badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar;
- ertaklar, hikoyalarni erkin to'qish.

Surat asosida ijodiy to'qishni maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan amalga oshirish tavsiya etiladi. Hikoya suratda tasvirlangan har qanday narsa haqida bo'lishi mumkin.

Badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar. Bolalar katta ishtiyoq bilan o'zlarini o'z sevimli qahramoni (qahramonlari) tushib qolgan vaziyatlarga qo'yib ko'radilar, uning harakatlarini o'zlashtiradilar, muallifni “tuzatadilar», asar qahramonlarining muayyan vaziyatlardagi sarguzashtlarini ijodiy jihatdan qayta hazm qiladilar. Bolalarning ushbu xususiyatidan eng avvalo, ularda oliyjanob karakter qirralarini tarbiyalashda foydalanish zarur. Nutqni rivojlantirish uchun – monologni o'rgatish: tarbiyachi yoki ota-onalardan birortasining iltimosi bilan rag'batlantirilgan bolalar ishtiyoq bilan xayol sura boshlaydilar, o'zlarini badiiy asarning biron-bir qahramoni (ijobiy yoki salbiy) sifatida tasavvur qiladilar.

¹³ Kontaminatsiya (lotincha Contaminatio – to'qnashish, o'rini almashtirish; matn usuli, bir asarning turli tahrirdagi qismlarini birlashtirish), BSE, 622-bet, 4-nashri, M., 1987.

Yaxshilik va go'zallikka qarama-qarshi qo'yilgan ertakdagi hamda real hayotdagi yomonlik va badbaxshilik obrazlari ham tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Hikoya to'qish – kombinatsiyani o'rgatish metodikasi quyidagicha: bolaga ertak yoki hikoyaning muayyan lavxasini bu xuddi uning o'zi bilan yuz bergani kabi o'z nomidan aytib berish taklif qilinadi. Pedagog «to'qish»ning borishini hamdardlik bilan kuzatib boradi, o'zini bolaning har so'ziga ishonayotgandek qilib ko'rsatadi, ayni paytda bolaning nutqini kuzatib boradi, uning nutqidagi kamchiliklarni unga xalaqit bermasdan tuzatib boradi. Asarni tanlashda pedagog uning bola asar qahramonlarining ijobiy xususiyatlaridan namuna oladigan darajada munosib bo'lishiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Zero, ushbu yoshda bolaning o'rganganlari butun umrga muhrlanib qoladi.

Erkin to'qish shundan iboratki, bunda bolaga ertak yoki «bo'lishi mumkin bo'lmagan» loflarni to'qish uchun to'liq erkinlik beriladi. To'qishga ataylab o'rgatilmaydi, ammo erkin (mustaqil) ijod qilish qobiliyati maktabgacha ta'lim muassasasida va uyda bola nutqini rivojlantirish ishlarining butun tizimi doirasida tarbiyalab boriladi. Bola nutqiy jihatdan qanchalik yaxshi tayyorlangan bo'lsa, undagi tasavvur va ijodiy qobiliyat shunchalik yaxshi rivojlanadi.

Leksikasi boy, grammatik to'g'ri bo'lgan, eng asosiysi – mantiqiy va ifodali mustaqil ijod qilish olti-etti yoshli bolalarning qo'lidan keladi. Bungacha ularning to'qimalari – o'zlariga tanish bo'lgan badiiy asarlarning mantiqiy jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan so'zlar to'plamidan iborat bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning hikoya to'qishga qodir emasliklarini me'yordan chekinish, deb hisoblamaslik lozim. Bu tabiiy bo'lib, bolalarning nutqi va fikrlash darajasi hali hikoya to'qish uchun yetarli emasligi bilan izoxlanadi.

Qayta hikoya qilishni mashq qilishni hikoya to'qish borasidagi tayyorgarlik ishi hisoblanadi.

Ravon nutqni (hikoya qilishni) rivojlantirishning asosiy sharti kattalar va bolaning birgalikdagi so'z ijodkorligi hisoblanadi. Yuqorida qayd etilganidek, hatto besh yoshli bolalar ham tanish ertaklarni, to'qima voqealarini hikoya qilishga, o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib hikoya qilishga qiziq boshlaydilar. Katta odam yo'naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollar berish, o'zining qiziqayotganligini bildirish, o'yin vaziyatlarini hosil qilish (o'yinchoqlar, rasmlar to'plami, qo'g'irchoq teatri qahramonlari yordamida) bola tashabbusini qo'llab-quvvatlashi zarur. Pedagogning hikoya mavzusini, voqealar rivojini, voqealarning ehtimoliy yakunini, so'z shaklini aytib berishi birgalikdagi so'z ijodkorligi uchun katta ahamiyatga egadir. Birgalikda hikoya qilib berish dastlab dialog ko'rinishiga ega bo'ladi, bunda katta odam savol beradi, bola javob beradi, katta odam gapni boshlaydi, bola esa uni nihoyasiga yetkazadi. Bunday dialogdan – monolog nutqi tug'iladi. Keyinchalik bola monologi asosida bolalarning birgalikdagi ijodkorligi boshlanadi, u kattaning bola bilan dialogi shaklini takrorlaydi. Birgalikda hikoya qilish uchun yaxshi asos rasmlar turkumi bilan ishlashda, rollarga bo'linib hikoya qilib berishda, o'yin sahnalashtirishlarda yaratiladi.

Maktabgacha katta yosh – bolaning nutqni o'rganishga qizg'in kirishish, til voqeligini eng oddiy tarzda anglash davridir. Maktabgacha yoshdagi bolaning til sohasidagi boy tajribasi, aniq, obrazli so'zda ifodalangan yorqin taassurotlari, kechinmalari uning til va nutq sohasidagi mustaqil faoliyatining muhim shartidir.

Muammoli nutq holatlari fonetik, leksik va grammatik mazmundagi turli so'zli didaktik o'yinlarda modellashtiriladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik o'yinlarni tashkil qilishni bolalarda so'zga nisbatan lingvistik munosabatni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Leksik mazmundagi o'yinlar va mashqlar nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli buyumlar va ob'ektlarni qiyoslash, ularning turli umumiy xususiyatlari va vazifalarini ajratish muhim ahamiyatga egadir.

Real ob'ektlar (o'yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebellar va x.) ham va tasavvur qilinadigan vaziyatlar (quvnoq va ma'yus ayiqcha, ertagi va kechki ob-havo, qahramonning voqea boshidagi va uning yakunidagi kayfiyati) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoyani boshlashdan oldingi lug'at mashqlari bolalar ravon nutqining aniq va obrazli so'zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Turli toifadagi so'zli o'yinlar, mashqlar, muammoli vaziyatlarning o'zaro bog'liqligi, ularning asta-sekin murakkablashuvi, muammoli nutq vazifalarini muntazam ravishda qo'yib borish-to'laqonli nutqiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar tili va ularning ravon nutqini rivojlantirishga doir doimiy ishlarning maqbul shakli maxsus nutq mashg'ulotlari hisoblanadi, unda nutqni rivojlantirishga oid vazifalar yalpi tarzda va o'zaro bog'liqlikda xal etiladi.

Xulosalar:

- Monologik nutqni qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish va unga o'rgatish bola hayotining ikkinchi yilida – kichik folklor namunalarini o'rganish jarayonida olib borilishi lozim.
- Bolalarga monologik nutqni muntazam ravishda o'rgatishni besh yoshdan boshlash zarur.
- Bolalarga monologik nutqni to'g'ri o'rgatish uchun pedagog bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishi lozim.
- Qayta hikoya qilish va hikoya to'qish – bu bolalarga monologik nutqni o'rgatishning asosiy metodlari hisoblanadi.
- So'zli obrazlarga tayanish barcha yosh guruhlarida monologni o'rgatishning asosiy usullari hisoblanadi. Real narsalar va suratlarga tayanish esa – qo'shimcha usullardir.
- Monologik nutq bo'yicha ishlar har bir yosh guruhida matnning murakkabligi va uning hajmi bilan farqlanadi.
- Bolalarning og'zaki monologik nutqning har xil turlarini: qayta hikoya qilish, hikoya qilish, hikoya to'qishni o'zlashtirib olishlari hikoya qilishni o'rgatish vazifasi hisoblanadi.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yosh – bolaning nutqqa nisbatan oddiy bilish qiziquvchanligi paydo bo'lishi, til borlig'ining oddiy anglash davridir.
- Turli toifadagi so'zli o'yinlar, mashqlar, muammoli nutqiy vazifalarning muntazam ravishda qo'yib borilishi – to'laqonli nutqiy rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.
- Nutqiy mashg'ulotlar – bolalarning ravon nutqini rivojlantirishga doir muntazam ishlarning asosiy shaklidir.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Bolalarga monologik nutqni o'rgatishga qaysi yoshdan boshlab tayyorgarlik ko'rish lozim?
- Monologning bola uchun qiyinligi sababi nimada?
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqiy imkoniyatlari xususiyatlari nimalardan iborat?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bola nutqi vazifalarining turli-tumanligini aniq misollar orqali tavsiflang.
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- Monologik matnni qayta hikoya qilishda yordam beradigan savollar toifalarini tavsiflang.
- Qabul qilish, xotira va tasavvur asosida qayta hikoya qilishni aniq misollar orqali tushuntirib bering.
- Real ob'ektlarga tayanish usullarini tavsiflab bering.
- Bolalar to'qimalarini tasniflang va ularni tavsiflang.
- Nutqni mazmun jihatidan rivojlantirishning asosiy shartlarini tavsiflab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

15-mavzu: Badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, drama janridagi asarlar bilan tanishtirish. Poeziya, proza, drama janridagi asarlarning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining ahamiyati
2. Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish
3. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish
4. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Tayanch tushunchalar va iboralar: badiiy adabiyot, drama, poeziya, proza, folklor, badiiy asarlar o'qitish, bolalar kitobxonligi, badiiy asar mutolaasi.

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy xis-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z tas'ir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musiqiylikni, ohangdorligini ilg'aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari - bironing dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu prinsipiiallik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. His-tuyg'ular bilimdan oldin keladi; kimki haqiqatni his qilmagan bo'lsa, u buni tushunmagan va tanimagandir.

Xalq - bolalarning betakror o'qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zo'rg'a farq qiladigan so'zlarning xayron qolarli darajada yonmayon terilishini uchratish qiyin. Beozor xazillar, nozik yumor, sanoq she'rlar – pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm)kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malxamdir».

Ertaklar olamiga sayoxat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruxida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

Va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasixatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha xaddan tashqari ko'p nasixat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning xam qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

K.D.Ushinskiy shunday yozadi; «Bola ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'krigidan ma'naviy hayot va kuchni xam emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar karakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hech qanday tarixchi bunga qodir emas; U bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hech bir estetik bunga qodir emas, nixoyat u

bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, adbatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas»¹⁴. Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafaqat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafaqat ko'p narsani o'rgatadigan, balki xayron qolarli darajada oson, qandaydir yetishib bo'lmaydigan metod asosida o'qitadigan»¹⁵ o'qituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, pedagog har tomonlama tarbiyalash vazifasini xam bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. YOshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi xam ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi - bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni: folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, xayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqlid qiladi.

Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga xam tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi.

Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. SHuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni xis qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar extiyojlariga mos keladi, chunki, u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar xayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chipor tovuq» va boshq.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalarning vazifalari:

- Bolaga so'z san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mexrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emotsional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qayg'urish va «ularga yordamlashish» xissini tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo'lajak kitobxon sifatida shakllantirish;

- Hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda bilish malakasini hosil qilish;

- Bolalarga sanoq she'r matniga mos keluvchi o'yin harakatlarini bajarishni o'rgatish;

- Bolalarda xalq asarlari, she'rlar, qo'shiqlar ohangdorligi va musiqiyiligiga nisbatan emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash;

¹⁴ Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. Т., М., 1974, 148-бет.

¹⁵ Уша жойда, 149-бет.

- Bolalarga adabiy asarlar ko'p marta o'qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;

- Bolaning she'rlar va ertaklardan ayrim so'zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag'batlantirish;

- Illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berishni o'rgatish (Kim bu? Quyoning quloqlari qani? U nima qilayapti? Sichqon qani? va x.k.).

- Bolalarga dastlab ko'rgazmali asosda (suratlar, o'yinchoqlar, harakatlar), so'ngra esa ko'rgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa she'rlar, sanoq she'rlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o'rgatish;

- Bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va maxoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari qanday bo'lmog'i lozim?

Tarbiyachining badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu voqealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emotsional tarzda qo'shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Aynan bir asarning o'zi ko'p marta takrorlanishi lozim: tarbiyachi suratli kitobdan «SHolg'om» ertagini o'qiydi, so'ngra uni kitobsiz hikoya qilib beradi, o'yinchoqlar bilan ko'rsatadi, guruhga boshqa rassom tomonidan ishlangan illyustratsiyalarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o'qiydi va hikoya qiladi.

Kattalar badiiy so'zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, qarog'im mening), bolaning o'z ismini u yoki bu o'yin yoxud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq qo'shig'iga qo'shib aytishlari lozim (Allayu-alla, Gulnor qizim uxlasin, alla va x.k.).

Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustratsiyalar va o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek badiiy matnning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga («Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim momomdan...») undashi darkor.

Ayniqsa, 4-5 nafar boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko'rib chiqish va o'qish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratilishi alohida ahamiyatga egadir.

Bolalarga barcha notanish so'zlar ma'nosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yoxud u yoki bu ertakdan kelib chiqadigan ma'noni o'z so'zlari bilan aytib berishga intilmaslik zarur.

Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur.

Bilish qobiliyati: kattalarning hikoya yoki kitob o'qishlarini diqqat bilan tinglash, tanish asarlarni esda saqlab qolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, illyustratsiya, o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olish, she'rlar qatorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saqlab qolish.

Nutqiy malaka: asar, sanoq she'r, o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar mazmunini so'z, imo-ishora, harakat orqali tasvirlash; so'zni va tanish she'rlar qatorlarini ilib olish, ularning ayrimlarini yoddan aytib berish;

Munosabat: badiiy asar bilan uchrashuvdan xursandchilikni, emotsional xamkorlikdan quvonchni va birgalikdagi qayg'urishlarni ifodalash. Tarbiyachi bolani kattalar va bolalar bilan

birgalikda she'rlar, qo'shiqlar aytishda ishtirok etishga, tovushlar, jarangdor qofiya, so'zlar bilan o'ynashdan zavq olishga undaydi.

Bolaning o'zlashtirish darajasi quyidagilarda ifodalanadi: Bola kitob tinglash, o'yinda ishtirok etish haqidagi taklifga faol javob beradi. Uning o'zi kattalardan she'rlar, ertaklar o'qib berishni iltimos qiladi. Qabul qilishga oson qo'shiladi. Asar mazmuniga oid savollarni diqqat bilan tinglaydi va ularga javob beradi. Matnga mos o'yin harakatlarini bajaradi. Tinglagan asarlarining mazmunini biladi, illyustratsiyalarda tanish asar epizodlari va ularning qahramonlarini taniydi. O'qilgan kitobga nisbatan yorqin munosabat bildiradi; kuladi, quvonadi, yig'laydi, qo'shiqlar, sanoq she'rlarni jo'r bo'lib aytishda faol ishtirok etadi.

Ilk yoshdagi bolalarda yuqorida aytilgan bilish, nutqiy qobiliyatlarni, badiiy asarga nisbatan munosabatni shakllantirish uchun ularga badiiy asarlarni tanishtirish metodikasini bilish va uni to'g'ri qo'llay olish zarur.

Kichik guruhdan boshlab bolalarga janrlarni farqlashni o'rgatish lozim. Tarbiyachi badiiy asar janri nomini albatta aytishi darkor: «Men sizlarga ertak aytib beraman», «Hikoya, she'r o'qib beraman».

Janrlar yo'nalishini, ularning xususiyatini chuqur tushunish nisbatan katta yoshlarda ro'y beradi. Ilk yoshda esa bolalar janr nomini eshitganlari holda uni shunchaki esda saqlab qoladilar. «Laylak bilan tulki» - bu ertak, Y.Sulaymon yozgan «Buvim» - bu she'r.

«Men sizlarga she'r hikoya qilib beraman», «ertak o'qib beraman» kabi noto'g'ri ifodalardan saqlanish lozim. Janr nomi aniq va to'g'ri berilishi zarur: ertak, hikoya, she'r. Ertak aytiladi, hikoya o'qiladi, she'r o'qiladi va yod olinadi.

Turli adabiy janrlar turlicha usulda yetkazishni talab qiladi. Ilk yoshdagi bolalarga ertakni kitobdan o'qib emas, balki uni aytib bergan ma'qul; bu emotsional ta'sirni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida ertakning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Katta yoshli odam kitobga emas, bolalarga qaraganida u xuddi har bir bola bilan suhbatlashgandek bo'ladi va shu bilan monologik nutqni eshitish hamda tushunishdek muhim qobiliyatni tarbiyalaydi.

Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo'lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorqin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo'lgandan so'ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya qilinadiki, toki ular eng qiziqarli jixatlarni esga olish va ularni ertakdagi so'zlar bilan takrorlashga majbur bo'lsin.

Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq ertaklari qahramonlarining qo'shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so'zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi, va ular buni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga o'qib berish uchun unchalik katta bo'lmagan hikoya va she'rlar (Mirmuxsinning «Olxo'ri», Q. Abdullayevaning «Quyvon» she'rlari) tavsiya qilinadi, bular kichik tinglovchilarda ijobiy emotsiyalarni tarbiyalashga yordam beradi. Ularning bolaning shaxsiy tajribasiga yaqin bo'lgan oson mazmuni oddiy va sodda shaklda ifodalangan: qofiyalar o'xshash, she'r qatorlari qisqa. Bolalar ularni takrorlar ekan, qatorlarning jarangdorligini, she'rning musiqiyiligini ilg'ab oladilar, ularni oson qabul qiladilar. So'ngra esa butun she'rni esda saqlab qoladilar.

Bolalarni ilk yoshda ko'proq she'rlar o'ziga jalb qiladi, chunki ular aniq qofiyalari, ohangdorligi va musiqiyiligi bilan aloxida ajralib turadi.

Takror o'qishda bolalar she'r mazmunini o'zlashtirib oladilar, qofiya va ritmni xis qiladilar, ayrim so'zlar va ifodalarni esda saqlab qoladilar hamda shu bilan o'z nutqlarini boyitadilar.

Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she'r o'qishda kichikintoylarga har bir so'zni aniq aytgan holda ularni shoshmasdan talaffuz qilishni o'rgatish zarur. Bolalarda qofiyalanayotgan so'zlarga urg'u berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'yishi va bolalarning xam she'rni to'g'ri aytishlariga erishishi lozim.

Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yaqin bo'lgan ertak hamda she'rlar o'qib bo'linganidan so'ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidagi ana shunday holatlarni eslatib o'tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o'z fikrlarini faqat bir-ikkita oddiy gaplardan tuzadilar, lekin buning o'zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir.

Kichkintoylarga ko'p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni qanday tushunganliklarini, qaysi so'zlarni esda saqlab qolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan qay darajada bog'lanishini aniqlovchi ikki-uchta savol berish kifoya.

She'riy obrazlar yaxshi o'zlashtirilishi va unutilib ketmasligi uchun yil mobaynida bolalarga tanish hikoyalar, she'rlar, ayrim ertaklar yoki ertaklardan ritmik qatorlarni takror o'qish lozim.

She'rlar va ertaklarni esda saqlab qolish lug'atni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning mashg'ulot davomida eshitgan so'zlari ularning faol lug'ati tarkibiga kirishiga intilish zarur. Buning uchun esa ushbu so'zlarni turli ko'rinishlarda tez-tez takrorlash lozim, bo'lmasa kichkintoy yangi so'zlarni shunchaki tovushlar uyg'unligi sifatida qabul qiladi va ularning ma'nosini tushunib yetmaydi.

Tarbiyachining vazifasi - bolalarga o'zlari aytayotgan so'zlar ma'nosini tushunishni o'rgatish, ularni boshqa so'zlar bilan birgalikda qanday qilib qo'llash mumkinligini ko'rsatishdan iboratdir. Masalan, «Novvoscha» she'rini (Novvos borar chayqalib, xansiraydi yo'lida. Voy, taxta chayqalmoqda, men xam yiqilaman-da.) o'qib bo'lgandan so'ng bolalarga yana nimalar chayqalishini ko'rsatish mumkin: novdada barg chayqalmokda, ipga bog'langan soqqa chayqalmokda, arg'imchoqda qiz chayqalmoqda va x.k.

Ish jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirishga nisbatan shunday yondashuv tez-tez uchraydiki, bunda pedagog ertak yoki she'rni ifodali, emotsional o'qib beradi va shu bilan «tanishtirish» nixoyasiga yetadi. Bolalar balkim, uning ma'nosini tushunib yetar, lekin o'qish ularning fikrlarini rivojlantirmaydi, ular tinglagan asar mazmuni va so'zlari tezda esdan chiqib ketadi. Bunda me'yor xissiga amal qilish juda muhim, ammo asar ustida ishlash, bolalar eslab qolgan so'zlar va ifodalarni takrorlashni davom ettirish juda zarurdir.

Har bir mashg'ulotdan so'ng so'zlarni takrorlash, mustahkamlash lozim. Ularni eng turli-tuman ko'rinishlarda talaffuz qilish darkor, faqat shundagina bolalar ona tili lug'ati va tuzilishini o'zlashtiradilar, ularning faol lug'ati kengayadi, ular bu so'zlarni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Ayniqsa, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga aloxida e'tibor qaratish zarur. Bunda bolalarning adabiy asar mazmunidan kelib chiqib savollarga javob berishida to'g'ri grammatik shakldagi so'zlardan foydalanishini kuzatib borish lozim.

Shunday qilib, badiiy asar bilan tanishtirish nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni: tovush madaniyatiga, grammatik qatorga, lug'atga ta'sir ko'rsatadi. Ilk yoshlardan boshlab ravon nutqni rivojlantirish poydevori shakllantiriladi. Bu nisbatan murakkab asarlarni qabul qilish, nutqni yanada rivojlantirish uchun zarurdir.

Bolalarga badiiy adabiyotlarni tanishtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida

bola uch yoshga kelib adabiy rivojlanishning quyidagi ko'rsatkichlariga erishadi:

- Adabiy asar borasida kattalar bilan muloqot qilishdan zavq oladi, ularni qiziqib tinglaydi;
- Unga aytib berilayotgan yoki o'qilayotgan asarlarni chalg'imasdan, diqqat bilan tinglaydi;
- Takror tinglaganda tanish asarlarni, illyustratsiyalar va o'yinchoqlardagi ertaklar, hikoyalar va she'rlar qahramonlarini taniydi;
- Asar (sanoq she'rlar, qo'shiklar, ertaklar) mazmunini so'z, harakat, imo-ishora bilan ko'rsatib beradi;

- Tanish she'rlardagi so'zlar va qatorlarni ilib olishga intiladi;
- Kichikintoylarga mo'ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishga qiziqish bildiradi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni bolalar

badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko'p qirrali bo'ladi. Bu endi nafaqat tabiatga va atrofni o'rab turgan tabiat muxitiga munosabat, balki insonlar olamiga – o'ziga, yaqinlariga, tengdoshlariga, boshqa kattalarga bo'lgan munosabat xamdir.

Bola o'z tashqi ko'rinishini, kostyumini ko'rish va ularga baxo berishni boshlaydi; qo'llari, yuzi, kiyimlarining tozaligiga e'tibor beradi; to'g'ri va ozoda ovqatlanishni o'rganadi. U muloqot va odamlar borasida nima chiroyliyu, nima xunukligini tushuna boshlaydi. Mohiyatan yagona bo'lgan estetik va axloqiy munosabatlar muayyan bola ongida va xulq-atvorida birlashadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emotsional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emotsional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash xam qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan qiyoslaydi va o'zining birinchi umumlashtirmalariga keladi.

To'rt yoshga kelib bolalar badiiy matnni emotsional va yaxlit qabul qilganlari holda uni tushunganliklarini nafaqat nutqda (qayta hikoya qilish, yoddan aytib berish, savollarga javob berish), balki predmetli va o'yinli vaziyatlarda xam ifodalaydilar. Ular ikki-uch personaj yoki hodisani ajratadilar, ular o'rtasida aloqida aloqa o'rnatadilar va shu tariqa asar syujetini gavalantiradilar. Tavsiflashni takrorlash ko'pincha ularda ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Bu yoshda adabiy matnni qabul qilish bolalarning amaliy va o'yin faoliyatiga yaqin bo'lgan «harakat»dan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar bilan to'laqonli xamkorlik qilish uchun bola uni tinglashi, suratlarni tomosha qilishi, kitobni qo'llari bilan ushlab ko'rish, o'yinchoklar bilan o'ynashi, matnning ayrim qismlarini deklamatsiya qilishi yoki «baqirib aytishi», ularni muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini aniqlashi lozim. Ushbu yoshda badiiy asarni qabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chegaralab bo'lmaydi.

Bola hayotining beshinchi yilida badiiy matnni mazmun-mohiyatli yagonalik sifatida qabul qilish mexanizmini shakllantirish boshlanadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog endi bola harakatlari va fikrlarining qabul qilingan badiiy asarga qanchalik mos kelishi haqida bevosita xulosalar chiqarishi mumkin. Ko'pchilik bolalar matn mazmunini yoyiq nutqiy shakllarda bayon qila olmaydilar, ammo uni suratlar, o'yinchoqlar bilan o'yinli vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlari bilan dialoglarda mos ravishda tushunishlarini namoyish qiladilar.

Ushbu yoshda boshqacha vaziyat xam yuzaga kelishi mumkin – ya'ni, bolalar tushunishda qiynalgan ancha murakkab matnni yoki uning ayrim qismlarini so'zlar bilan aytib beradilar.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bolalar syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratganlari holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavxalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni -yagona emotsional-mazmun dominantasi asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari xam yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- Turli janr va mavzulardagi adabiy asarlarni – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- Bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;

- Tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

- Bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variatsiyalari uchun qulay sharoit yaratish;

- Bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;

- Kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish. Ilyustratsiyalarni mustaqil ravishda va takror ko'rib chiqish, aynan shu kitobni takror tinglash istagi.

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga doir ishlarning mazmuni va shart-sharoitlari masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyotning quyidagi janrlari maqsadga muvofiqdir: follarning kichik shakllari, prozaik va she'riy ertaklar, hikoyalar, she'rlar. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emotsional jozibadorligi quyidagi xollardagina ortadi: ya'ni, agarda badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo'lsa; badiiy asar yorqin va ifodali taqdim etilsa; bola badiiy matn mazmunini tashqi harakatlarda ifodalasa; badiiy asar asosida o'zi xam improvizatsiya qilsa.

Pedagogik ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib borish lozim.

Birinchisi badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'ekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan bog'liq. Bolalar aynan bir asarga ko'p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o'qiydi, mazkur asarni sahnalashtirishni, diafilmlar va videofilmlar namoyishini tashkil etadi. Bolalar she'rni yoddan o'qiydilar (yaxlit yoki qisman), bunda ular o'qishning ifodaliligini sahnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruhda bolalarga yoqib qolgan kitobdan bemalol foydalanish mumkin bo'lgan sharoitni yaratish zarur. Bunda tarbiyachining o'ziga qanday kitoblar yoqishini bolalarga xaqqoniy bildirishi juda muhimdir.

Ikkinchi yo'nalish ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Bu asarlarni o'xshashlik yoki qarama-qarshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko'rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirilishi mumkin.

Ilyustratsiya bolaga harakat rivojini kuzatib borish va matnni tushunish imkonini beruvchi asosiy tayanch vositalardan biri hisoblanadi. SHu munosabat bilan turli badiiy usullarda va texnikalarda bajarilgan yuqori badiiy ahamiyatli qiziqarli ilyustratsiyalardan foydalanish zarur. Biroq, uch-to'rt yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ko'pincha shunday vaziyat yuzaga keladiki, bunda surat matnni bezamaydi, aksincha matn suratga jon baxsh etadi. SHuning uchun ayrim asarlar bolaning tasavvurini, badiiy nutqni tinglash va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun albatta, ko'rish tayanchlarisiz taqdim etilishi lozim.

Ayniqsa, bu obrazlari yuqori darajada noaniq bo'lgan va obrazlari yuqori darajada ifodali bo'lgan (folklor she'rlarining kichik shakllari) asarlarga taalluqlidir.

Yuqorida sanab o'tilgan rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda bolalarda quyidagi qobiliyatlar shakllantirilishi lozim:

Bilish qobiliyati: kattalarning kitob o'qishi va hikoya qilishini diqqatni jamlagan holda tinglash, chalg'itmaslik, asarni oxirigacha eshitish. Kattalar yordamida matn mazmunini tushunish, undagi voqealar tartibini belgilash, qahramonlarning muallif so'zi bilan yaratilgan eng yorqin xatti-harakatlarini ko'rish, ularni illyustratsiyalardan tanib olish.

Nutqiy qobiliyat: o'qigan asardan olingan taassurotlarini kattalar va tengdoshlari bilan o'rtoqlashish. Taassurotlar, fikrlar, obrazlarni so'zlar bilan ifodalash. Tanish ertaklarni aytib berish, she'rlarni yoddan aytish, adabiy syujetlarni sahnalashtirishda, sahnalashtirilgan o'yinlarda ishtirok etish.

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qahramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, xazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni hamda o'z nutqida qo'llashni xoxlaydilar.

Besh yoshga kelib bola:

- O'ziga yoqqan nechta asarlar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

- Suratlarini o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qahramon xam ertakda ishtiroq etsa nima ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi;

- O'zi xoxlagan kichik she'r (ovunmoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin.

- Mustaqil faoliyatda – o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos bo'ladi:

- Qahramonlarga qayg'urish va ularga hamdard bo'lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emotsionallikning pasayishi;

- Voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish qobiliyati;

- Qahramonlarning tashqi harakatlarini ko'rish va qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni tushunish, ularning yashirish niyatlari ma'nosiga va harakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;

- Hosil bo'lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko'proq ertakka o'xshash bo'lishi uchun adabiy vaziyatni talqin qilish va o'zgartirishga urinish;

- Janr asosi (ertak, hikoya, she'r) va maqbul mavzularning (xayvonlar, sexrgarlik ko'rinishlari, bolalar va boshq.) paydo bo'lishi;

- Tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo'lishi;

- Adabiy asarlarning karakterli tuzilmasi va shakli haqidagi tasavvurlarni o'z ijodida ifodalash (kompozitsiyalarning uch qismliligi, adabiy qahramonlarning asosiy harakatlari va boshq.).

Besh-olti yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari – bolalarning psixologik rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo'lgan uyg'unligidan iborat. Bir tomondan – bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan – besh-etti yoshli bolalarning taqlidchilikka, me'yoriylikka intilishi xammaga yaxshi ma'lum. Bola qoidalarni, harakat usullarini o'zlashtirishga intiladi va u bunga qodirdir. Yuqori baxolanadigan natijalarga erishish uchun unda obrazli stereotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adabiy matnni talqin qilish hamda uni to'g'ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Biroq, adabiy qahramonlarni faqat «so'zda» tushunish va ularning harakatini axloq me'yorlari nuqtai-nazaridan baxolash tasvirlanayotgan vaziyat ma'nosiga kirib borilganlikdan dalolat bermaydi. Bola «yashab ko'radigan» ziddiyatli vaziyatlarni gavdalantirish natijasidagina ularning badiiy obraz va muallif g'oyasini tushunishi mumkin bo'ladi. Bu nafaqat axloqiy nomuvofiqliklarga, balki universal bilish muammolariga xam taalluqlidir, zero badiiy asarlar ularning ko'p qirrali talqinlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday tushunish ko'pincha verbal emas, balki obrazli ifodalangandir (tanlov harakatida, obrazli harakatda, suratda, o'yin syujetida, voqealarni o'ylab topishda va boshq.). Bolaning individual xususiyatlari uning faoliyatning reproduktiv yoki ijodiy turlarini afzal ko'rishiga yordam beradi. Adabiy asarlar motivlari bo'yicha sahnalashtirish o'yinlari reproduksiya va ijodkorlikning estetik imkoniyatlarini o'zida birlashtirgan shakl hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- Bolalarni yuqori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasini shakllantirish;

- Ifodali badiiy nutqni shakllantirish;

- Bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emotsional va ifodali tarzda yetkazish hamda kichik she'rlarni yoddan aytib berishni o'rgatish. Ma'lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish.

- Bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o'ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni ijodiy qo'llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

- Asosini bolalarning adabiy obrazlarni talqin qilishi tashkil qiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;

- Bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o'zgarishi, uning ko'p qirraliligi va ko'p tomonlama bog'liqligi haqidagi tezkor tasavvurlarni shakllantirish;

- Bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko'rishni rivojlantirish;

- Bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni qo'lyozma kitoblar yozishga jalb qilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni xal etish uchun pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini to'g'ri belgilash zarur. Ular qanday bo'lishi lozim?

Bolaning badiiy adabiyot bilan o'zaro xamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidagi qator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning diqqat-e'tiborini aloxida adabiy asarning badiiy qimmatiga – she'rlarning obrazli ifodaliligiga, hikoyada syujetning kutilmagan rivojiga qaratish.

Bolaning adabiy asarni yoki o'zi to'qigan asarini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda o'qish) uchun emotsional boyitilgan ijro muxitini yaratish. Biroq, badiiy asar faqat so'z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim yorqin

jixatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modellar bilan ko'rsatilishi mumkin.

Pedagog bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy (xayvonlar va sexrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan'anaviy (bolalar, tabiat hodisalari, predmetlar haqida) zamonaviy mualliflik ertaklari ruxida o'z ertaklarini to'qishlari uchun sharoit yaratib berishi lozim; bolalarni ularning o'z hayotlarida yuz bergan qiziqarli voqealar haqida hikoyalar tuzishga undash zarur.

Bolalarning adabiy asarlarning o'ziga xos tuzilmasi va tipik personajlari haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida «Agarda bo'lsa, nima bo'lar edi» toifasidagi ijodiy o'yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o'yinlarda tipik qahramonlar, syujet elementlari erkin qo'shiladi, natijada g'ayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

SHuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi aloxida so'zlar va jaranglashlar bilan o'tkaziladigan o'yinlar xam muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'rni davom ettirish va she'r to'qish, tashbexlar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi. Masalan, adabiy asarlar personajlarining harakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki asarda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o'ylab topish.

Pedagog bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy asarlar syujetlari asosida o'yinli «xayoltdagi olamni» yaratishlariga ko'maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy asar (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning «xayoltdagi olamini» olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o'yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.

Estetik qabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun asarlarni mavzusiga qarab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli asarlarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir asar doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo'nalishlarini ko'rib chiqishda kontekstlarni o'zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o'zaro bog'liqligini (so'z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi.

SHuningdek, quyidagi shakllar xam mumkin: pedagog bolalarga asarlar guruhini tanishtiradi va ular asosida ishni bolalarning ochiq turdagi universal bilish muammolarining (tirik va o'lik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik muammolari) turlicha obrazli yechimlarini qidirishlariga yo'naltiradi. Ravshanki, qidiruv jarayonida muammolarning o'zlari umumlashtirilgan ko'rinishda shakllanmaydi, balki faqat turli adabiy obrazlar va syujetlar, shuningdek bolalarning o'zlari tomonidan vujudga keltiriladigan vaziyatlarning birgalikdagi muxokamasi ro'y beradi, xolos.

Dialog – pedagogik ishlarning yetakchi vositasi bo'lishi lozim. Pedagog bolalarning adabiy asar bo'yicha ijodiy dialogda, muammoli vaziyatlarni xal etishda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bolalar bir-birlarini to'ldirganlari holda adabiy asar mazmunini birgalikda tasvirlaydilar, muxokama jarayoniga talqin elementlari va ta'riflangan voqealarni, adabiy qahramonlarni va ularning xatti-harakatlarini baxolashni olib kiradilar. Dialogik muxokama jarayoniga pedagog adabiy mazmunni muammolashtirish elementlarini, ya'ni: talqinlarning bir xil emasligi, ochiq turdagi savollarni qo'yish va ular bo'yicha mulohaza yuritishni (masalan, ertakni aytib bo'lgandan so'ng undan nima qoladi?) olib kirishi zarur.

Pedagog o'z ishining samaradorligini nafaqat bolalarning mashg'ulotlarda o'zlarini qanday tutishlari bilan baxolaydi, balki u ularning erkin faoliyatdagi xulq-atvorini kuzatadi: adabiy mavzudagi o'yin va suratlar syujetlarini qayd etadi, bolalarning fikrlarining mazmuniga, ularning mustaqil so'z ijodkorligiga e'tibor beradi; bolalarning kitoblar bilan harakatlarini – yakka tartibda yoki birgalikda uni ko'rib chiqishlari, o'qishlarini rag'batlantiradi. Pedagog bolalar savollariga javob beradi va ularga yoqib qolgan asarlar (dasturdagi va dasturga kiritilmagan) mazmuni bo'yicha ular bilan yakka tartibda suhbatlashadi.

Pedagog bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o'ylab topilgan she'rlar va ertaklarni to'plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o'zlari tomonidan «kitob» yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to'qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo'shiqlar, sanoq she'rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to'plami, qo'lyozma jurnali va komikslari bo'lishi mumkin. Guruhda o'qib chiqilgan, bolalar suratlari, variantiv syujetlar, improvizatsiyalar va to'qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid «kitoblar» xam aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Pedagogning bolalarga o'zining qaysi adabiy asarlarni yoqtirishini ma'lum qilishi, o'zining badiiy ta'bi va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish borasida to'g'ri amalga oshirilgan ishlar natijasida yetti yoshga kelib bolada quyidagi rivojlanish ko'rsatkichlari shakllanishi lozim:

- Bola o'ziga yoqqan bir nechta adabiy asarlar nomlarini aytishi mumkin.
- Kichik she'r yoki she'riy asardan kichik parchani ifodali o'qib berishi mumkin.
- O'zi tanlagan asarni mustaqil ravishda yoki pedagog yordamida hikoya qilib berishi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin: u shunga o'xshash boshqa asarlarni xam biladimi? Ularning o'xshashligi nimalardan iborat? (o'xshash personajlar, syujet harakatlari);
- Kitobga qiziqish paydo bo'ladi: o'qilgan kitoblarni mustaqil ravishda varaqlab chiqadi, mazmunini aytib yoki o'qib beradi, uydan sevimli kitoblarini keltiradi.
- Ertak syujetiga mos tarzda qo'shimcha personaj kiritadi, ushbu personaj qo'shiladigan vaziyatlarni to'qib, qo'shib qo'yadi.
- Yaxlit ertak to'qishi mumkin, bunda u uning extimoliy qahramonlarini tasvirlash vositalariga tayanadi, ayni paytda ertaklarga xos mazmun-mavzu birligidan, tipik kompozitsiyalar va stilistik vositalar to'plamidan xam foydalanadi.

XULOSALAR

• Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo'shadi.

• Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.

• Ilk yoshdagi bolalarning (1-3 yosh) badiiy asarlarni qabul qilishlarining asosini ularning badiiy asarlarga nisbatan emotsional munosabati, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, qahramonlarni tanish va ular haqida qayg'urish qobiliyatlari tashkil etadi.

• Ushbu yosh bosqichida maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning vazifasi – bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini xozirlash, ularni bo'lajak o'quvchilar sifatida shakllantirishdan iboratdir.

• Kattalarning (pedagoglar, ota-onalar va boshq.) badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilib berish jarayoniga emotsional qo'shilishlari ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.

• Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarni hamda unga nisbatan munosabatni rivojlantirish zarur.

• Maktabgacha kichik yoshdagi bola (3-5 yosh) san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallash borasida keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu yoshda emotsional munosabat bildirish va sensor qobiliyatlar bilan bir qatorda badiiy fikrlash xam qaror topadi.

• Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bola syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratgani holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydi. Ayni paytda u uni to'qib to'ldiradi, ayrim lavxalarni takomillashtiradi, o'z ertaklarini to'qiydi, adabiy janrlarni (ertak, hikoya, she'r) farqlay boshlaydi, tilning ayrim ifodali vositalarini ko'rishga qodir.

• Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga oid pedagogik ishlarni ikki yo'nalishda olib borish lozim. 1- badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'ekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan. 2 – ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish.

• Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning (5-7 yosh) adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ular qahramonlarga qayg'urish va hamdard bo'lish; voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish; qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni ko'rish va tushunish qobiliyatlari paydo bo'ladi.

• Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishidagi ikki qarama-qarshi tamoyilning ziddiyatli birikuvi ularning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi: 1- yuqori ijodiy salohiyat, 2-taqlidchilik va me'yoriylikka intilish.

• Maktabgacha katta yoshdagi bolaning badiiy asar bilan o'zaro xamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish potensialini amalga oshirish imkonini beradi.

• Dialog – maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarning yetakchi vositasi bo'lishi lozim.

• Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug'atga, ravon nutqqa ta'sir ko'rsatadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Bolalarni har tomonlama tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
- Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotning tutgan o'rnini aniq adabiy misollar orqali tavsiflab bering.
- Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish kerakmi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
- Bolalarga jamiyat va tabiat hayoti, insoniy xis-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini badiiy adabiyotlar yordamida qanday qilib tushuntirish mumkin?
- Badiiy adabiyot asosida bolalarda qanday axloqiy sifatlarni shakllantirish mumkin? O'z javobingizni bolalar badiiy adabiyotining aniq manbalari bilan asoslang.
- Ilk yoshdagi bolalarning bolalar badiiy adabiyotini qabul qilishining o'ziga xosliklarini tavsiflang.
- Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila oldida ilk yoshdagi bolalarni adabiy rivojlantirish sohasida qanday asosiy vazifalar turibdi?
- Ilk yoshdagi bolalarning bolalar badiiy adabiyotlari bilan tanishtirishga doir pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini tavsiflab bering.
- Ilk yoshdagi bolalarda bolalar badiiy adabiyotiga nisbatan qaysi bilish va nutqiy qobiliyatlarini shakllantirish lozim?
- Ilk yoshdagi kichik yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish dasturini o'zlashtirish darajasini tavsiflang.
- Bola o'z hayotining uchinchi yili oxiriga kelib adabiy rivojlanish borasida qanday ko'rsatkichlarni qo'lga kiritadi?
- Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning yosh imkoniyatlarini tavsiflang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

16-mavzu: Bolalarni ifodali she'r yodlashga o'rgatish. Turli yosh guruhlarida she'r yodlatish metodikasi. Rasmlarga qarab hikoyalar tuzish

Reja:

1. Bolalarni ifodali she'r yodlatishga o'rgatish
2. Bolalarni ifodali she'r yodlatishga o'rgatishda tarbiyachi oldidagi vazifalar.
3. Turli yosh guruhlarida bolalarni ifodali she'r yodlatishga o'rgatish
4. Rasmlarga qarab hikoya tuzish ishining mazmuni va uning vazifalari.
5. Tanish rasmlar orqali hikoya tuzishga o'rgatish. Turli yosh bosqichlarida rasmlarga qarab hikoya tuzishni o'rgatish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ifodali o'qish, badiiy did, she'r yodlatish, poeziya, «Ilk qadam» tayanch dasturi, poeziya.

Bolalar bog'chasida bolalarga she'r yodlatishning asosiy maqsadi va ahamiyati ularda she'r yaratga bo'lgan muhabbatni, badiiy didni tarbiyalash, poeziyaning eng yaxshi namunalari idrok etishni shakllantirishdir.

Shuningdek, bolalarga estetik tarbiya berishda ham she'r yod oldirishning ahamiyati benihoya kattadir. «Ilk qadam» tayanch dasturida yod oldirilishi lozim bo'lgan she'rlarning ro'yxati berilgan. Bu she'rlar bolalar hayotidan olingan bo'lib, ular quvnoq o'yintar, o'kunchoqar, uy hayvonlari, tabiat to'g'risidagi she'rlardir. She'r yod oldirishda tarbiyachi oldida bir qancha vazifalar turadi:

1. O'qilgan she'rni hamma bolalar esda saqlab qolishlariga erishish.
2. Bolalarda she'rga (poeziyaga) nisbatan qiziqish uyg'otish va mustahkamlash.
3. She'r mazmunini va undagi ayrim qiyin so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam berish.
4. Tinglovchilar oldida she'rni ifodali aytib berishga o'rgatish.

Bu vazifalarning barchasi bir vaqtda amalga oshiriladi. Yodlatish uchun she'r tanlashda „Dastur“ vazifalariga, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, esda saqlash qobiliyatlariga e'tibor berish kerak. Yodlatish uchun she'r tanlashda shuni hisobga olish kerakki, she'r hajm jihatidan uncha katta bo'lmasligi, kichik guruhlarda 1 banddan oshmasligi, o'rta guruhda 2 band, katta guruhlarda 3—4 banddan oshmasligi kerak.

Bolalar bir oy ichida kuni bilan 1—2 ta she'rni (mashg'ulotda) yod oladilar. Ba'zilarini (sanamalar, kichik amallar, ashulalarni) mashg'ulotdan tashqari vaqtda (sayrda, o'yin jarayonida) beixtiyor eslab qoladilar. Tarbiyachi bolalar bilan she'r yod oldirish mashg'ulotini tashkil etishdan avval guruhdagi bolalarning qaysisi tez, qaysi birlari sekin, qaysilari puxta, qaysilari bo'sh yod olishlarini aniqlab olishi kerak.

Kichik guruhda she'r yod oldirishda ko'rsatmalilik, o'yin harakatlari orqali ko'rsatish, ovozga taqlid qilish usullaridan keng foydalaniladi. Masalan, “Ayiqcham” she'rini yodlatish.

Dastur mazmuni. Bolalarni she'r mazmuni bilan tanishtirish, uning ma'nosini tushunishga va yod olishga yordam berish. Bolalarni o'z o'rtoqlari oldida she'r aytishga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun material. Katta ayiqcha o'yinchog'i.

Mashg'ulotning borishi. Bolalar yarim doira hosil qilib o'tiradilar.

Tarbiyachi: Bolalar, qaranglar, bizga kim mehmon bo'lib kelibdi? Bu nima? Bolalarning javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Biz sizlar bilan bu ayiqchani ko'rganmiz. Ayiqchanning bosh qismida ikkita qulog'i, dum -dumaloq, munchoqdek ko'zlari, tumshug'i va tana qismida to'rtta oyog'i borligini bilamiz. Ayiqcha o'rmonda, hayvonot bog'ida yashaydi, u asalni juda yaxshi ko'radi. Qaranglar, u qanday chiroyli, biz bu ayiqchani juda yaxshi ko'ramiz, u bilan

o'ynaymiz. O'yinchoq ayiqcha haqida chiroyli she'r yozilgan (she'rni yoddan aytib beradi):

Ayiqchamning oyog'i tushdi uzilib,
Qarab turar ayiqcham ko'zi suzilib .
Ayiqchamni men juda yaxshi ko'raman,
Uzilgan oyog'ini o'zim tikib qo'yaman .

Tarbiyachi bu she'rni aytish bilan bir vaqtda matn mazmuniga taalluqli harakatlarni bajaradi, ayiqchamning uzilib tushgan oyog'i, ko'zini ko'rsatadi, bag'riga bosadi, tikish harakatini bajaradi. So'ngra bir bolani yoniga chaqirib, she'rni yoddan aytib turadi, bola esa harakatlarni bajaradi. Shu tariqa 2—3 bolani yoniga chaqirib, she'r matniga mos harakatlarni bajarishni taklif etadi. Keyin she'rni (harakatlarini ko'rsatish bilan) takrorlash uchun tez eslab qoladigan bolalarni chaqiradi. Bolalar she'rni harakatlarini ko'rsatish bilan aytib beradilar, tarbiyachi esa bolalarga ayrim so'zlarni, jummalarni (agar esdan chiqarsa) aytib turadi. Mashg'ulotning oxirida bolalar ayiqcha bilan o'ynaydilar. Bu she'r ona tili mashg'ulotining boshqa turlaridan (didaktik o'yin, rasm yuzasidan suhbat va h.k.) farqli ravishda mashg'ulotning ikkinchi qismi sifatida rejalashtirilib, takrorlanadi.

„Ajoyib xaltacha“ didaktik o'yini o'ynalib, mashg'ulot oxirida „Ayiqcha“ she'rini takrorlatish mumkin. Kichik guruhlarda yiliga 1—2 marta tanish she'rlarni, ovutmacholarni, ashulalarni bolalar xotirasida mustahkamlash uchun mashg'ulot o'tkazish mumkin. Masalan: „Ajoyib xaltacha“ didaktik (ta'limiy) o'yini o'ynaladi. Xaltachaga bolalarga ilgari yod olgan she'r va ashulalaridan ma'lum bo'lgan o'yinchoqlar: ayiqcha, toychoq, mushuk, xo'roz, koptok, qo'g'irchoq va h.k.lar solinadi. Bolalar yarim doira hosil qilib o'tiradilar. Tarbiyachi o'yinchoqlar solingan xaltachani bolalarga ko'rsatib: Bolalar, bu nima? Uni silkitib, ichida nimalar borligini ayta olasizmi? — deb so'raydi. So'ng bolalar javobi tinglanadi.

Tarbiyachi: To'g'ri, kimki xaltachaning ichidan bitta o'yinchoqni olsa, shu o'yinchoqning nomini aytib, u haqda she'r aytib beradi, deb aytadi va o'zi xalta ichidan bitta o'yinchoqni olib, u haqda yod olingan she'rni aytib beradi. So'ngra bolalarni yoniga bitta-bittadan chaqirib, xaltacha ichidan o'yinchoq olishni va u haqda she'r aytib berishni taklif etadi.

O'rta guruhda she'r yodlatishda yilning boshida kichik guruhdagi usullar: o'yinchoqni, buyumni, harakatlarni ko'rsatish usullaridan foydalaniladi. Yilning ikkinchi yarmidan boshlab o'yin usullari yoddan aytib berilgan she'r ustida suhbatlashish bilan almashinadi.

Katta guruhda mavzusi jihatdan turli xildagi: ona -Vatan, tabiat, bayramlar, kishilarning mehnatlari, bolalar hayoti, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi she'rlar yod oldiriladi. Bu guruhda tarbiyachining vazifasi faqat bolalarning she'rni yod olishlariga yordam berishgina emas, balki uni emotsional tarzda idrok qilishlariga erishish hamdir. Bolalarni she'rni ifodali aytib berishga o'rgatishga alohida ahamiyat berish lozim. Tarbiyachi suhbat vaqtida bolalarga bayramlar haqidagi she'rlarni sevinch ifodasi bilan, kuz haqidagi she'rlarni esa biroz g'amgin ohangda aytilish sabablarini tushuntiradi. She'rni nutq o'zlashtirishga doir bir necha mashg'ulotlarning ikkinchi qismida, ertalabki va kechki soatlarda takrorlash rejalashtiriladi. Quyida misol tariqasida tayyorlov guruhlarida she'r yodlatish mashg'ulotining ishlanmasini keltiramiz.

Z. Diyorning „Binafsha“ she'rini yod oldirish .

Dastur mazmuni. Bolalarga binafsha bahor faslining elchisi ekanligi to'g'risida tushuncha berish va mustahkamlash. She'rning mazm unini tushunishga. unda aks etgan ko'tarinki ruhdan, quvnoq ohangdan, sevinch, shodlikdan ta'sirlanishga undash.

Mashg'ulotga tayyorgarlik. Binafsha gulini guldonga solib, bolalarga ko'rinmaydigan joyga qo'yish.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi: Hozir o'lkamizda qaysi fasl? Bu faslda ob-havo qanday bo'ladi? Qanday gullarni bahor elchisi deymiz? Binafshalar qayerlarda ochiladi? Siz shu gulni ko'rganmisiz? (Binafsha gulini ko'rsatadi.) Bolalar javobidan

so'ng tarbiyachi ularning javoblarini umumlashtirib, shunday deydi: To'g'ri, hozir bahor fasli. Bahor faslida hammayoq chiroyli libosga burkanadi. Bog'larda qushlar sayraydi, kapalaklar guldanda gulga qo'nib yayraydi. Bahor elchilari binafsha, lola ochiladi. Hamma bog'larga, dala va adiriarga gul terгани chiqishadi. Bahor fasli, gullar haqida shoirlar she'rlar yozishgan. Mana, bolalar shoiri Zafar Diyor ham binafsha haqida she'r yozgan.

Tarbiyachi she'rni yoddan aytib beradi. So'ngra she'r mazmuni yuzasidan quyidagi savol-javob tarzidagi suhbat o'tkaziladi:

Zafar Diyorning „Binafsha“ she'ri sizga yoqdimi? Sizlarga hammadan ko'ra ko'proq nimasi yoqdi? Binafsha haqida nima deyilgan? Binafshaning hididan nimalar lazzat olar ekan? Bu she'rda kapalak haqida nima deyilgan? Bu she'rda kimlar binafshani maqtashlari haqida yozilgan? Kimning esida qoldi? Kim aytib bermoqchi?

Tarbiyachi bolalar javobini to'ldirib: „Endi diqqat bilan tinglang. Bu she'rni sizlarga aytib beraman. Sizlar she'rni yod olishingiz kerak“, — deydi. She'rni ikkinchi marta ifodali qilib yoddan aytib bergach, takrorlashga istagan bolani chaqiradi, so'ngra o'zi belgilab qo'ygan bolani she'rni yoddan aytish uchun chaqiradi.

Mashg'ulotning 2- qismida „Gullar do'koni“ ta'limiy o'yini o'tkaziladi

Bolalar bog'chasida bolalarga she'r yodlatishning asosiy maqsadi va ahamiyati ularda she'riyatga bo'lgan muhabbatni, badiiy didni tarbiyalash, poeziyaning eng yaxshi namunalari ni idrok etishni shakllantirishdir.

Shuningdek, bolalarga estetik tarbiya berishda ham she'r yod oldirishning ahamiyati benuhoya kattadir. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da yod oldirilishi lozim bo'lgan she'rlarning ro'yxati berilgan. Bu she'rlar bolalar hayotidan olingan bo'lib, ular quvnoq o'yinlar, o'yinchoqlar, uy hayvonlari, tabiat to'g'risidagi she'rlardir. She'r yod oldirishda tarbiyachi oldida bir qancha vazifalar turadi:

1. O'qilgan she'rni hamma bolalar esda saqlab qoiishlariga erishish.
2. Bolalarda she'rga (poeziyaga) nisbatan qiziqish uyg'otish va mustahkamlash.
3. She'r mazmunini va undagi ayrim qiyin so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam berish.
4. Tinglovchilar oldida she'rni ifodali aytib berishga o'rgatish.

Bu vazifalarning barchasi bir vaqtda amalga oshiriladi.

Yodlatish uchun she'r tanlashda „Dastur“ vazifalariga, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, esda saqlash qo'lib olinishi kerak. Yodlatish uchun she'r tanlashda shuni hisobga olish kerakki, she'r hajm jihatidan uncha katta bo'lmasligi, kichik guruhlarda 1 banddan oshmasligi, o'rta guruhda 2 band, katta guruhlarda 3—4 banddan oshmasligi kerak. Bolalar bir oy ichida kuni bilan 1—2 ta she'rni (mashg'ulotda) yod oladilar. Ba'zilarini (sanamalar, kichiklar, ashulalarni) mashg'ulotdan tashqari vaqtda (sayrda, o'yin jarayonida) beixtiyor eslab qoladilar. Tarbiyachi bolalar bilan she'r yod oldirish mashg'ulotini tashkil etishdan avval guruhdagi bolalarning qaysisi tez, qaysi birlari sekin, qaysilari puxta, qaysilari bo'sh yod olishlarini aniqlab olishi kerak.

Kichik guruhda she'r yod oldirishda ko'rsatmalilik, o'yin harakatlari orqali ko'rsatish, ovozga taqlid qilish usullaridan keng foydalaniladi. Masalan, „Ayiqcham“ she'rini yodlatish.

Dastur mazmuni. Bolalarni she'r mazmuni bilan tanishtirish, uning ma'nosini tushunishga va yod olishga yordam berish. Bolalarni o'z o'rtoqlari oldida she'r aytishga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun material. Katta ayiqcha o'yinchoqi.

Mashg'ulotning borishi. Bolalar yarimdoira hosil qilib o'tiradilar.

Tarbiyachi: Bolalar, qaranglar, bizga kim ronehmon bo'lib kelibdi? Bu nima?

Bolalarning javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Biz sizlar bilan bu ayiqchani ko'rganmiz. Ayiqchanning bosh qismida ikkita qulog'i, dum-dumaloq, mun-choqdek ko'zlari, tumshug'i va tana qismida to'rtta oyog'i borligini bilamiz. Ayiqcha o'rmonda, hayvonot bog'ida yashaydi, u asalni juda yaxshi ko'radi. Qaranglar, u qanday chiroyli, biz bu ayiqchani juda yaxshi ko'ramiz, u bilan o'ynaymiz. O'yinchoq ayiqcha haqida chiroyli she'r yozilgan (she'rni yoddan aytib beradi):

Ayiqchanning oyog'i tushdi uzilib,

Qarab turar ayiqchani ko'zi suzilib.
Ayiqchamni men juda yaxshi ko'raman,
Uzilgan oyog'ini o'zim tikib qo'yaman.

Tarbiyachi bu she'ni aytish bilan bir vaqtda matn mazmuniga taalluqli harakatlarni bajaradi, ayiqchani uzilib tushgan oyog'i, ko'zini ko'rsatadi, bag'riga bosadi, tikish harakatini bajaradi. So'ngra bir bolani yoniga chaqirib, she'ni yoddan aytib turadi, bola esa harakatlarni bajaradi. Shu tariqa 2—3 bolani yoniga chaqirib, she'r matniga mos harakatlarni bajarishni taklif etadi. Keyin she'ni (harakatlarini ko'rsatish bilan) takrorlash uchun tez eslab qoladigan bolalarni chaqiradi. Bolalar she'ni harakatlarini ko'rsatish bilan aytib beradilar, tarbiyachi esa bolalarga ayrim so'zlarni, jumalarni (agar esdan chiqarsa) aytib turadi. Mashg'ulotning oxirida bolalar ayiqcha bilan o'ynaydilar. Bu she'r ona tili mashg'ulotining boshqa turlaridan (didaktik o'yin, rasm yuzasidan suhbat va h.k.) farqli ravishda mashg'ulotning ikkinchi qismi sifatida rejalashtirilib, takrorlanadi. „Ajoyib xaltacha“ didaktik o'yini o'ynalib, mashg'ulot oxirida „Ayiqcha“ she'rini takrorlatish mumkin.

Kichik guruhlarda yiliga 1—2 marta tanish she'rlarni, ovutmacholarni, ashulalarni bolalar xotirasida mustahkamlash uchun mashg'ulot o'tkazish mumkin. Masalan: „Ajoyib xaltacha“ didaktik (ta'limiy) o'yini o'ynaladi. Xaltachaga bolalarga ilgari yod olgan she'r va ashulalaridan ma'lum bo'lgan o'yinchoqlar: ayiqcha, toychoq, mushuk, xo'roz, koptok, qo'g'irchoq va h.k. lar solinadi. Bolalar yarim doira hosil qilib o'tiradilar. Tarbiyachi o'yinchoqlar solingan xaltachani bolalarga ko'rsatib: Bolalar, bu nima? Uni silkitib, ichida nimalar borligini ayta olasizmi? — deb so'raydi. So'ng bolalar javobi tinglanadi.

Tarbiyachi: To'g'ri, kimki xaltachaning ichidan bitta o'yinchoqni olsa, shu o'yinchoqning nomini aytib, u haqda she'r aytib beradi, deb aytadi va o'zi xalta ichidan bitta o'yinchoqni olib, u haqda yod olingan she'rni aytib beradi. So'ngra bolalarni yoniga bitta-bittadan chaqirib, xaltacha ichidan o'yinchoq olishni va u haqda she'r aytib berishni taklif etadi.

O'rta guruhda she'r yodlatishda yilning boshida kichik guruhdagi usullar: o'yinchoqni, buyumni, harakatlarini ko'rsatish usullaridan foydalaniladi. Yilning ikkinchi yarmidan boshlab o'yin usullari yoddan aytilib berilgan she'r ustida suhbatlashish bilan almashinadi.

Katta guruhda mavzusi jihatdan turli xildagi: ona-Vatan, tabiat, bayramlar, kishilarning mehnatlari, bolalar hayoti, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi she'rlar yod oldiriladi. Bu guruhda tarbiyachining vazifasi faqat bolalarning she'rni yod olishlariga yordam berishgina emas, balki uni emotsional tarzda idrok qilishlariga erishish hamdir.

Bolalarni she'rni ifodali aytib berishga o'rgatishga alohida ahamiyat berish lozim. Tarbiyachi suhbat vaqtida bolalarga bayramlar haqidagi she'rlarni sevinch ifodasi bilan, kuz haqidagi she'rlarni esa biroz g'amgin ohangda aytilish sabablarini tushuntiradi.

She'rni nutq o'zlashtirishga doir bir necha mashg'ulotlarning ikkinchi qismida, ertalabki va kechki soatlarda takrorlash rejalashtiriladi. Quyida misol tariqasida tayyorlov guruhlarida she'r yodlatish mashg'ulotining ishlanmasini keltiramiz.

Z. Diyorning „Binafsha“ she'rini yod oldirish.

Dastur mazmuni. Bolalarga binafsha bahor faslining elchisi ekanligi to'g'risida tushuncha berish va mustahkamlash. She'rning mazmunini tushunishga, unda aks etgan ko'tarinki ruhdan, quvnoq ohangdan, sevinch, shodlikdan ta'sirlanishga undash.

Mashg'ulotga tayyorgarlik. Binafsha gulini guldonga solib, bolalarga ko'rinmaydigan joyga qo'yish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: Hozir o'lkamizda qaysi fasl? Bu faslda ob-havo qanday bo'ladi? Qanday gullarni bahor elchisi deymiz? Binafshalar qayerlarda ochiladi? Siz shu gulni ko'rganmisiz? (Binafsha gulini ko'rsatadi.) Bolalar javobidan so'ng tarbiyachi ularning javoblarini umumlashtirib, shunday deydi: To'g'ri, hozir bahor fasli. Bahor faslida hamma yoq chiroyli libosga burkanadi. Bog'larda qushlar sayraydi, kapalaklar guldun gulga qo'nib yayraydi. Bahor elchilari binafsha, lola ochiladi. Hamma bog'larga, dala va adirlarga gul terгани chiqishadi.

Bahor fasli, gullar haqida shoirlar she'rlar yozishgan. Mana, bolalar shoiri Zafar Diyor ham binafsha haqida she'r yozgan.

Tarbiyachi she'rni yoddan aytib beradi. So'ngra she'r mazmuni yuzasidan quyidagi savol-javob tarzidagi suhbat o'tkaziladi:

Zafar Diyorning „Binafsha“⁴ she'ri sizga yoqdimi? Sizlarga hammadan ko'ra ko'proq nimasi yoqdi? Binafsha haqida nima deyilgan? Binafshaning hididan nimalar lazzat olar ekan? Bu she'rda kapalak haqida nima deyilgan? Bu she'rda kimlar binafshani maqtashlari haqida yozilgan? Kimning esida qoldi? Kim aytib bermoqchi?

Tarbiyachi bolalar javobini to'ldirib: „Endi diqqat bilan ting- lang. Bu she'rni sizlarga aytib beraman. Sizlar she'rni yod olishingiz kerak“,— deydi. She'rni ikkinchi marta ifodali qilib yoddan aytib bergach, takrorlashga istagan bolani chaqiradi, so'ngra o'zi belgilab qo'ygan bolani she'rni yoddan aytish uchun chaqiradi.

Mashg'ulotning 2- qismida „Gullar do'koni“¹ ta'limiy o'yini o'tkaziladi.

Rasmga qarab hikoya qilish illustratsiyali materiallar tarkibiga kiradi. Tarbiyachi rasmlar y ordam ida bolalarning tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, tafakkurlarini rivojlantiradi, xotirani mustahkamlaydi va nutqni boyitadi. Slumingdek, ko'rish imkoniyati bo'lmagan narsa va hodisalar bilan tanishtiradi, ular to'g'risidagi bilinilarini aniqlaydi va to'ldiradi, yuqori axloqiy sifatlarni (mehnatga qiziqish, ona tabiatga muhabbat, o'z o'rtoqlariga sadoqat va hokazolar) shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish uchun narsa-buyumlarni tasvirlovchi predmetli rasmlardan, sujetli rasmlardan, reproduksiyalardan, peyzaj va naturmort, etud rasmlardan foydalaniladi. M.M.Konina bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning quyidagi mashg'ulot turlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) narsa-buyumlarni tasvirlovchi rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish;
- 2) voqeaband rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish;
- 3) voqeaband rasmlar asosida mazmunli hikoya tuzish;
- 4) voqealar ketma-ket keladigan rasmlar to'plami asosida hikoya tuzish;
- 5) peyzajli (manzarali), naturmort rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

Tarbiyachi hikoya qilish uchun rasm tanlashda quyidagi talablarga amal qilishi kerak: a) voqealar oddiy bo'lish i, bolaning yoshiga qarab voqeaning murakkablashib borish tamoyiliga amal qilishi; b) mazmuni jihatidan bolalarning yoshiga va nutqining rivojlanish darajasiga mos bo'lishi; d) bolaning xayolini, tafakkurini, estetik his-tuyg'ularini, kuzatuvchanligini, nutqini rivojlantirishga yordam berishi; e) rasmda tasvirlangan narsa-buyumning ko'rinishi yoki voqeaning biror-bir qismida haqiqatni buzib tasvirlash hollari bo'lmasligi.

Turli yosh guruhlarida rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatish uslubiyoti

Kichik guruh. Bu guruhda rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatishga tayyorgarlik bosqichi amalga oshiriladi. Bu guruh bolalari hali o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab bayon eta olmaydilar. Ularning nutqi dialog ko'rinishiga ega boladi. Bu yoshdagi bolalar rasmdagi narsa-buyumlarning nomini, ularning ayrim sifatlarini va harakatlarini aytib berish bilangina kifoyalanadilar, bu bolalarda idrokning yaxshi rivojlanmaganligi, so'z to'plamining kamligi, gaplarni to'g'ri tuza olish malakasining shakllanmaganligi bilan bog'liqdir.

Rasm bo'yicha ishlashda tarbiyachining asosiy vazifasi quyidagilar: 1) rasmni ko'rib chiqishga, undagi eng muhim narsani seza olishga o'rgatish; 2) rasmda tasvirlangan narsa- buyumlarning nomlarini aytishdan sekin-astalik bilan bog'langan nutq ustida

(savollarga javob berish va uncha katta bo'lmagan hikoyalar tuzish) mashq qilishga o'tish.

Bolalarni rasmlar bilan tanishtirish mashg'uloti turli xilda olib borilishi mumkin. Mashg'ulot asosan ikki qismdan iborat boladi:

1. Savollar yordamida rasmni ko'rib chiqish.
2. Tarbiyachining namuna-hikoyasi bilan yakunlash.

Mashg'ulot uncha katta bo'lmagan kirish suhbatini bilan boshlanishi mumkin. Uning maqsadi rasmda tasvirlanganlar to'g'risida bolalarning tasavvurini aniqlashdan va emotsional kayfiyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Tarbiyachining savollari mashg'ulotdagi asosiy metodik usullardan biri hisoblanadi, Shuning uchun savollarni oldindan puxta o'ylab olish muhimdir. Bolalarga beriladigan savollar tushunarli bo'lishi va unga javob berishda qiyinchilik tug'dirmasligi kerak. Kichik yoshdagi bolalar rasm asosida ikki-uch so'zdan iborat bo'lgan gaplar yordamida hikoya qilib berishga o'rganadilar. Rasmni ko'zdan kechirish bolalar nutqining to'g'ri va aniq rivojlanishiga yordam beradi. Tarbiyachi, rasmda tasvirlangan narsa-buyumlarni va voqealarni to'g'ri aytishlarini nazorat qilib borishi kerak.

Tarbiyachi o'z nutq namunasi, savollari, ko'rsatmalari bilan bolalarga rasmda tasvirlangan narsa-buyumlarning sifat va belgilarini aniq belgilovchi so'zlarni tanlay olishlarida yordam beradi. Kichik guruhlarda dastlabki rasmlar alohida narsa-buyumlar (o'yinchoqlar yoki tanish uy jihozlari), uy hayvonlari, bolalar hayotidan olingan murakkab bo'lmagan voqealar tasviridan iborat bo'ladi. Mashg'ulotdan so'ng rasm guruh xonasida bir necha kunga qoldiriladi. Bolalar yana bir marta rasmni ko'zdan kechirib chiqadilar. Ilgari ko'rmagan narsalarini ko'radilar, bir-birlariga fikrlarini aytishadi. Tarbiyachi bunday ko'zdan kechirishlarga rahbarlik qiladi, ya'ni ularning aytayotgan fikrlarini aniqlashtiradi, qo'llab-quvvatlaydi, rag'batlantiradi.

O'rta guruh. Bu guruh bolalarining nutqi takomillashadi, fikrlashi faollashadi, uncha katta bo'lmagan hikoya tuza oladilar. Dastlab bolalar tarbiyachining savollari yordamida hikoya qilib beradilar. Bu bolalarning jamoa bo'lib tuzgan yoki tarbiyachi va bitta bolaning hamkorlikda tuzgan hikoyasi bo'lishi mumkin. Mashg'ulot oxirida tarbiyachi bolalarning barcha aytgan fikrlarini umumlashtirib, o'zi to'liq hikoya qilib beradi. So'ngra bolalar tarbiyachining namuna-hikoyasini takrorlaydilar. Bu guruhda tarbiyachining namuna hikoyasi bolalarning undan nusxa olishlari uchun beriladi. „Xuddi mendek hikoya qilib bering“, „Yasha, mening hikoyamni eslab qolibsana“, - deb tarbiyachi bolalarni rag'batlantiradi, ya'ni ushbu guruhda bolalardan mavzudan chetga chiqib ketmaslik talab etiladi. Namuna hikoya ma'lum bir talablarga javob berishi kerak. O'rta guruh bolalarini narsa-buyumlarni tasvirlovchi va voqeali rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzishga o'rgatish mumkin. Tarbiyachi bolalarni o'z hikoyasida lug'atidagi so'zlardan, sifat-doshlardan, aniqlovchidan, holdan va boshqalardan keng foydalanishga o'rgatishi kerak. Bolalar rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzishga (bir yoki bir qancha narsa-buyumlarning yoki obyektlarning sifatlari, xususiyatlari, harakterlari to'g'risidagi hikoya) o'rganib olganlaridan so'ng voqeaband suratlar bo'yicha voqeaband hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. Bolalar tarbiyachi yordamida tasviriy harakterga ega bo'lgan bog'langan hikoya tuzadilar. Bu skin-astalik bilan bolalarni mustaqil ravishda voqeaband hikoyalar tuzishlariga yordam beradi.

Katta guruhda bolalarning faolligi o'sadi, nutqi takomillashadi, turli rasmlar bo'yicha mustaqil hikoya tuzadilar. Rasmlardan foydalanilgan mashg'ulotlarda ularning mazmuniga qarab har xil vazifalar qo'yiladi:

- 1) bolalarni rasmlarning mazmunini to'g'ri tushunishga o'rgatish;
- 2) his-tuyg'ularni tarbiyalash (rasmlarning mazmuniga qarab aniq rejalashtiriladi: tabiatga muhabbat, kasb-hunarga hurmat va hokazolar);
- 3) rasmlar bo'yicha bog'langan hikoya tuzishga o'rgatish;
- 4) lug'at to'plamini kengaytirish va faollashtirish (bolalar xotirada saqlashlari lozim bo'lgan yangi so'zlar yoki aniqlanishi va mustahkamlanishi lozim bo'lgan so'zlar oldindan aniq rejalashtiriladi).

2.2. O'qitishning kundalik hayotdagi tashkiliy shakllari.
Yasli bog'chalarda bolalar hayotini tashkil etish har tomonlama tarbiyalash vazifalariga kompleks yondoshish asosida, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida quriladi.

Hayotning tashkil etish-bu hayot faoliyatning asosiy jarayonlarini turli yosh guruhlaridagi bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiy guruhlar shaklidagi faoliyati va ta'limini maqsadga muvofiq joriy etish, birga qo'shib olib borish va navbatlashtirib turish, shuningdek har bir bolani har tomonlama va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishdir.

A.S. Makarenko bola hayotini to'g'ri tashkil etishning uning tarbiyasi va rivojlanishidagi rolini ta'kidlab shunday degan edi: «Tarbiyaviy ishning haqiqiy mohiyati umuman, sizning bola bilan ko'rgan suhbatlaringizda, bolaga ko'rsatadigan bevosita ta'sirda emas, balki oilangizning, shaxsiy va ijtimoiy hayotimizning va hamda bola hayotining tashkil etilganligidadir».

Hozirgi paytda bolalar bog'chalarida o'quv tarbiya jarayoni sifatini oshirish va bolalar hayotini tashkil etish zarurati vujudga keldi.

Bolalar bog'chalari ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhlaridagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga fiziologlar, psixologlar, pedagoglar (e.I.Tixeeva, e. A. Flerina, A. P. Usova, N. M. Shelovanov, N. M. Aksarina va boshqalarning) tadqiqotlari asos bo'lgan. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning quyidagi umumiy printsiplarini ishlab chiqqan.

1. Bolalarning har bir yosh guruhlaridagi birgalikda hayot tarzi. Bu printsiplarni asosida guruhdagi barcha bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni jamoatchilik ruxida tarbiyalash uchun bir xil sharoitni ta'minlash ko'zda tutiladi.

2. Guruhlarni komplektlashning yosh printsiplari bolalarning har bir guruhida bir yoki ikki yoshning bo'lishni taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini ta'minlaydi.

3. Guruhning bolalarini har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish. Bu printsiplarga ko'ra guruhlar xonalarini va uchastkalarini pedagogik gigienik va estetik talablarning yagona birligi asosida jihozlash va obodonlashtirish amalga oshiriladi.

4. Kun tartibining doimiyligi va yosh xususiyatiga bog'liqligi. Ilk va maktabgacha tarbiya yoshida asosiy hayotiy faoliyat ritmi bir xil emas. Ilk yoshdagi

birinchi va ikkinchi guruh bolalarining o'z xatti- harakatini idora etishdagi ixtiyoriy qobiliyatining yo'qligi nochorligi ular hayotini tashkil etishda har bir

bolaga parvarish uchun ko'p vaqt ajratish zaruratini keltirib chiqaradi. Kun tartibini bajarishda o'z-o'zini tashkil eta olish ko'nikmasi tufayli mashg'ulotga, o'yinga, mehnatga vaqt qoladi. Bolalar hayoti bu faqat kattalarning bo'lg'usi hayotiga tayyorgarlik emas,

bolalalik davri bolalarni qiziqtiradigan va uni zavqli qiladigan, ular tomonidan ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan rang-barang faoliyat bilan qiziqarli.

5. Turli faoliyat ko'rinishlarini (o'yin, mehnat, ta'lim) joriy etish: ularning kun tartibidagi o'rni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko'ra bu faoliyat turlarini qo'shib va navbatlashtirib turish, bola shaxsining shakillanishidagi roli.

Kun mobaynida o'yinlar, mehnat va ta'lim uchun vaqt ajratiladi. Ularning bolalar bog'chasidagi turli guruhlaridagi o'rni bolalarning yosh imkoniyatlariga yakka tarzda yoki guruh bo'lib harakat qila olish ko'nikmasiga, bir-birlari bilan muloqotda bo'la olish malakasiga bog'liq. O'yin faoliyati va boshqa faoliyat turlarining asta-sekin kuchaya borishi ham ahamiyatga ega bo'la boradi.

6. Yosh guruhlarida bolalar hayotini ular hayoti va sog'ligini muhofaza etishga yo'naltirilgan holda tashkil etish. Mazkur printsip asosida yasli bog'chalaridagi yosh guruhlar uchun xonalar ajratiladi, mebel va jihozlar tanlanadi, qo'llanma va materiallar joylashtiriladi, ovqat tayyorlanadi, chiniqish sistemasi va harakat faoliyati rejimi joriy etiladi. Tarbiyachilar, enagalar va bolalar, shuningdek bolalar o'rtasidagi munosabatlarda vazminlik, olijanoblik, insonparvarlik ruhi hukm suradi. Ziddiyatlar oldi olinadi va odilona hal etiladi, bolalar asabiyligining payi qirg'iladi.

7. Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish ulardan faqat xonalarni jihozlashda foydalanishni emas, balki pedagogik jarayonda foydalanishni ham ko'zda tutadi.

Bolalar muassasalariga borish bola uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda ko'pchilik bolalar betoqat, yig'loqi, odamovi bo'lib qoladilar. Tahlakali holat, hayajon tufayli zo'riqish bola atrofida yaqin kishilarning bo'lmasligi, maishiy sharoitning ko'nikilgan sharoit va hayot tarzining o'zgarishi tufaylidir.

Funksional norasidalik, ko'ngli noziklik bola organizmining yangi sharoitga ko'nikishini qiyinlashtiradi. Bolalar bog'chasiga kelishi bilan bolaning ijtimoiy ahvoli ham o'zgaradi. U oilada cheklangan miqdordagi odamlar bilan muloqotda bo'lar, ko'proq oila a'zolari diqqat markazida bo'ladi. Maktabgacha tarbiya muassasasida esa u bolalar jamoasi a'zosiga, boshqa bolalar tengdoshiga aylanadi. Shu tufayli bolaga psixologik jihatdan

o'zini qayta qurishga o'z xulqini o'zgartirishga, notanish katta kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi bola faoliyati va xulqida shakllangan odatlarning buzilishiga olib keladi, undan yangi sharoitlarga biologik va ijtimoiy jihatdan moslashishni talab qiladi.

Biologik jihatdan moslashish deganda tor ma'noda organizmning yangi hayot sharoitiga maqsadga muvofiq moslashishni ta'minlaydigan fiziologik sistemasining qayta qurilishi tushuniladi. Ushbu qayta qurish tug'ma

mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Yangi tug'ilgan bola uning tug'ilishidan so'ng maxsus yaratilgan sharoitga tezda moslashadi.

Biologik qayta qurish bolaning maktabgacha tarbiya muassasidagi dastlabki kunlarda ham kechadi. U kun tartibida belgilangan yangi havo va yorug'lik rejimiga, ovqatlanishdagi o'zgarishlarga ko'nikishi lozim. Biologik moslashish qatorida ijtimoiy moslashish amalga oshiriladi, ya'ni o'z xulqini yangi ijtimoiy sharoitga ko'ra o'zgartirish qobiliyati hosil qilinadi.

Bola oiladayoq kattalar, oila a'zolari bilan dastlabki muloqotga kirishadi. U atrof-muhit bilan muloqotga kirishishining dastlabki ko'nikmalarini o'zlashtiradi, unda elementar mehnat harakatlari shakllanadi, uyinlar paydo bo'ladi.

Bola oila a'zolari o'rtasidagi munosabat normalarini o'zlashtira boshlaydi, ular asosida esa xulqning elementar ko'rinishlari shakllanadi. Bola bog'chaga kelishi bilan shakllangan xulqiy odat va munosabatlar ancha o'zgaradi. U tengdoshlari bilan faol aloqaga kirisha boshlaydi. Uning hayoti oila a'zolari tomonidan emas, balki kattalar tomonidan yangi qoida va rejimga ko'ra tashkil etiladi, unga yangi talablar qo'yiladi. Shunday ekan, bola atrofdagi sharoit o'zgarishlariga tez moslashishini, yangi odatlarni singdirishi yoki mavjud odat va xulq shakllarini qayta qurishi lozim.

Biologik va ijtimoiy moslashishilar o'zaro bog'liq va ular bir-birini taqozo etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidan, ayniqsa, ilk yoshda muhit va odatdagi hayot tarzining o'zgarishi ruxiy zo'riqishga olib keladi, bu ruhiy holatni o'zgartiradi, xatti-harakatda buzilishlarga olib keladi (jizzakilik, tengdoshlari bilan janjal boshlanadi, sustlik paydo bo'ladi va boshqalar) uyqu yomonlashadi va ishtaha yo'qoladi shu bilan birga boshqa funktsional sistemalarda (vegetativ) reaktiv sistemasida ham bir muncha siljishlar paydo bo'ladi, organizmning himoya kuchi susayadi, bu esa ko'pincha kasalliklarga olib keladi. Bu holatlar bolalarda turli darajada ifodalanadi va o'zlashish mexanizmlarning etarlicha mashq qildirilmagani bilan izohlanadi. Bolalarning o'zlashish imkoniyatlari o'rtasida katta farq mavjud ular ayniqsa bolalar bog'chasida bo'lishning dastlabki kunlarida yorqin namoyon bo'ladi. Juz'iy ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni ko'proq 9 10 oylikdan 1,6 yoshgacha va 3 yoshda

3,5 yoshgacha bo'lgan bolalar kiyinroq kechiradilar. engil moslashishdan nutqiy faollikning susayishida, xatti-harakatdagi ba'zi buzulishlarda, uyquning va ishtaxaning yomonlashuvida namoyon bo'ladigan qisqa muddatli salbiy ruhiy holat kuzatiladi. Odatda, bu holatlar bolalar bog'chasida bo'lishning dastlabki ikki xaftasi davomida kechadi.

O'rta darajadagi moslashish xatti-harakatdagi birmuncha katta va uzoq davom etadigan siljishlarda ifodalanib, u faqat oyning oxirida normallasadi. Bola qisqa vaqt ichida ozadi nutqi buziladi, asoratlarsiz tugaydigan engil 7-10 kun davom etadigan kasalliklar vujudga keladi.

Og'ir moslashishda bolaning ko'nikishi uzoq va murakkab kechadi, ba'zan bir necha oyga cho'ziladi. U tez-tez qaytalanib turadigan, asoratli kechadigan

kasalliklar, xatti-harakatlarning barqaror buzulishi, qator holatlarda asabiy holatlar birgalikda voqe bo'ladi. Jismoniy rivojlanishning susayishi, nutq va ruhiyatda o'zlashtirishning kechishi kuzatiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bolalarning har bir yosh guruhlardagi birgalikda hayot tarzi haqida fikr yuritish?
2. Guruhlarni komplekslashning yosh printsiplari bolalarning har bir guruhida bir yoki ikki yoshning bo'lishni taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayoni haqida gapiring.
3. Guruhning bolalarini har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish nimalardan iborat.
4. Kun tartibining doimiyliigi va yosh xususiyatiga bog'liqligi.
5. Turli faoliyat ko'rinishlarini (o'yin, mehnat, ta'lim) qanday joriy etiladi.
6. Yosh guruhlarda bolalar hayotini ular hayoti va sog'ligini muhofaza etishga yo'naltirilgan holda tashkil etish.
7. Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish nimalardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H. Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M. Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993.
3. F.R. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.
5. F.R. Qodirova. R.M. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R. Qodirova. R.M. Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

6-mavzu: Kalendar rejasiga va bolalar nutqini rivojlantirishni hisobotiga nisbatan qo'yiladigan talablar

Reja:

1. Kalendar rejasiga muvofiq bolalar nutqini rivojlantirish

2. Kalendar rejasi ustida ishlash

Tushunchalar va iboralar: ta'lim va tarbiya, mashg'ulot, musiqa, didaktika, printsiplar, vazifa, metod, rejalashtirish, nutq, tasviriy faoliyat.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqiga qo'yiladigan talablar: O'qib berilgan badiiy asarni qayta hikoya qilish; ' Taklif etilgan mavzuda suhbatlasha olish; ' Surat asosida hikoya tuzish; ' O'qilgan asar mazmunini tushuntira olish; ' Ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etish; ' Grammatik jihatdan to'liq va to'g'ri jumlar bilan gap tuzish; ' She'rlarni ifodali o'qish; ' Ertak so'zlay olish; Suratlarni tavsiflash; □ Ertak boshi, davomi, oxirini bog'lay olish. Nutqning rivojlanishi qo'l barmoqlari harakatlari bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun bola bilan tinimsiz ravishda tizimli mashq qilish kerak. Yaxshisi plastilindan yasash, minoracha yig'ish, munchoqlar terish, bog'ichlarni tirqichdan o'tkazish, konstruktor o'ynash, mozaika terish, don-dun (mosh, guruch, meva donaklari) ni saralash mashqlarini qo'llash mumkin. Qo'l panjalarining harakatlari sust rivojlanganligi bolaning maktabga o'qishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qo'lning harakatchanligi sustlashgan bo'lsa, harakat aniqligi ham buziladi. Bolaning yozishga o'rganishi qiyinlashadi. U boshqa bolalarga qaraganda sekin yozadi, husnixati xunuk, tushinarsiz bo'ladi. Hatto yozuv mashg'ulotlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi ham mumkin. Natijada, bola dars tayyorlash, maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. Mayda qo'l muskullarining yaxshi rivojlanmaganligi va ular harakatining noaniqligi, oxir oqibat, bolaning umumiy ahvoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning qo'lini yozuvga tayyorlash va bu malakani hosil qilish uchun turli maxsus mashqlar o'tkazilishi lozim.

Bolaning qo'lini yozuvga tayyorlash uchun maxsus mashqlar:

- Qalamcha va cho'plardan namunaga qarab shakl hosil qilish;
- Mayda narsalarni qo'lning ikki barmog'i bilan olish, bunda
- boshqa narsalarga tegib ketmaslik;
- Qalam yoki flomaster yordamida harf elementlarini chizish;
- Ko'z bilan chamalab, chalkash yo'llardan qalam yoki barmoq uchini yurgizish;

- Nuqtalar ustidan chiziq tortish, bunda qalamni uzmaslik;
- Katakli varaqda aytib turilgan yo'nalishda chiziqlar chizish;
- Barmoq mashqlari bajarish;
- Narsalar tasvirini shtrixlash;
- Ko'chirib chizish orqali tasvirni takrorlash.

Bolaning qo'l panjasi va barmoqlarini harakatlantirish o'ziga xos

rivojlantiruvchi ta'sirga ega. Mutaxassislarning fikricha, qo'l va

barmoqlar ishtirokidagi o'yinlar tana va ongning o'zaro bog'liqligini

ta'minlaydi.

Bolalarni qabul qilishda bog'cha xodimlari bolalar hayotini ularning ahvoli, alohida o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishlari uchun uzoq vaqt talab etiladi. Moslashish davrida (2-3 hafta) bola emlanmaydi, barcha mavjud odatlari, xatto salbiy odatlari ham saqlab qolinadi, uyidagi o'yinchoklardan foydalanishga ruxsat etiladi. Ijtimoiy moslashishning ko'pchilik bolalarda murakkab kechishi va cho'zilib ketishining asosiy sababi bola qoshida yaqin kishilarining yo'qligi va odamlar bilan muomala tajribasining kamligidir (N. D. Vatutina). Shuning uchun bolaning bog'chadagi dastlabki kunlarida uning yonida onasining ham bo'lishiga yo'l qo'yiladi, u notanish sharoitni o'zgartirishga, tarbiyachi bilan aloqa o'rnatishga, so'ng u bilan hamkorlik qilishga yordam beradi. Bolaning vaqti-vaqti bilan kuladi bo'lishi, unga e'tibor bilan suyib muomila qilish, tarbiyachi tomonidan maqtalish unga nisbatan ishonch va ijobiy munosabat yaratadi, boshqa kattalar va tengdoshlar bilan aloqa o'rnatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijobiy xis-tuyg'ular, bolani mikro-ijtimoiy muhitga olib kirgan tarbiyachiga o'rganish tufayli unda tengdoshlari bilan muloqatga kirishga istak va intilish shakillanadi. Bunda guruhda bolaga quyiladigan talablar birligini saqlaydigan doimiy tarbiyachilarning ishlashi muhimdir. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlarida birgalikdagi harakatlar xis-hayajonli zo'riqishni kamaytiradi, quvonch va zavq baxsh etadi, muomalaga ehtiyojni oshiradi. Shunday qilib, ijtimoiy aloqalarning kengayishi, pedagogik ta'sirini to'g'ri tashkil etish, moslashish davrining kechishini osonlashtiradi, bolani boshqa bolalar bilan birgalikda hayot kechirishga tezroq ko'niktirishga imkon beradi. Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur. Kichkina rpyh bolalarining ko'p vaqti guruh xonasida o'gadi. Yaxshi jihozlangan xona, o'yinchoq va qo'llanmalarni to'g'ri tanlash bolalarning to'la qonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 2-3 ta bo'lib o'ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, 47 «Oila», «Bolalar bog'chasi» va shunta o'xshash o'yinlarni o'ynashlari uchun o'yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak, qolgan o'yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jihozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi. Il kichik guruh. Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun (tabiat burchagiga akvariumda baliq, to'rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Bog'cha maydonchasida sport o'yinlari bilan shug'ullanish uchun maxsus joy bo'ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo'yiladi: velosipedda uchish uchun yo'lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya

narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g'olla va shunga o'xshashlar bo'ladi. Olib chiqilgan o'yinchoqlarni o'ynash uchun maxsus stollar, skameykalar, suv bilan o'ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo'lishi kerak. O'rta guruh. Guruh xonasi uxlash xonasi, tualet xonasi va echinish xonasi bo'lishi kerak. Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchok bilan o'ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo'ladi. Ikkinchi o'yin bo'limida qurilish materiallari qo'yiladigan shkaf va ular bilan o'ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ullanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqqa joylashtirgan ma'qul. Xona amaliy san'at asarlari va ko'kalamzorlashtiruvchi o'simliklar bilak bezatiladi. 48 Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'yinlari uchun kerakli asboblardan jihozlanadi. Katta rpyh. O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jihozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, o'yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafu, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak. Bulardan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur. Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, iring'itish uchun kagta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi. Tayyorlov guruhi. Bu erdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli, shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni etishtiradilar. Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning bogchada 9-12 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog'chadagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishni ta'minlaydi. Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chexra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixox munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning guruh xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi. 49 Nonushtadan keyin dasturda ko'rsatilgan vaqt mobaynida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotgacha va mashg'ulot o'rtasi o'yinlar tashkil etiladi. Qanday o'yin o'tkazilishi mashg'ulotning mazmuni va xususiyatiga bog'liq. Bolalar o'tirib shug'ullanadigan mashg'ulotdan oldin harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg'ulotdan oldin tinch o'yinlar o'ynashadi. Mashg'ulotdan keyin sayr o'tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Harakatli o'yinlar o'tkazadi, mustaqil o'yin o'tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yin turlari bilan shug'ullanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o'yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o'xshashlar bolalarning harakat faolligini o'zlashtirishga ham katta ahamiyat beriladi. Bolalarning sayrdan qaytishlari, echinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoqlik bilan o'tishi kerak. Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg'otib, faoliyatga kirishlarini ta'minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg'uloti o'tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy, didaktik o'yinlar, tinch harakatli o'yinlar, kuzatish, qo'l mehnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati, ko'ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning

birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligini ta'minlashdir. Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi: 1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shartsharoitlar yaratish. 2. Har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish. 3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash. 4. Mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida aloqa o'rnatish. 50 5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish. 6. Bolani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashul bo'lishga o'rgatish. 7. Har bir bolani ijobiy xohish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish. 8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi. 9. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish. Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi. Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga, shuningdek kun tartibida egallagan o'ringa qarab birbiridan farq qiladi. Bolalar bog'chasida ta'limning frontal (umumiy), gruppaviy va yakka tartibdagi shakillardan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, dedaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning Mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida va shunga o'xshashlarda amalga oshirib boriladi. Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy-gigienik, xulq madaniyati, gaplashishi nutiqi, sanoq - hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rol ni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lim o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlaydi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashki etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. 51 Mashg'ulot bolalarni maktabga tayorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot yaxshi tashkil etadigan bo'lib qoladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlari rivojlana bori. Bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamochilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'xshashga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi. Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialini yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi. Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajratib olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirib boriladi, ularni mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi. Bolalarni mustaqillikka

o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi. Bolalar bog'chasida kichkintoilarni tevarakatdagi xet tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematika tasavvurlarini o'zlashtirish 52 mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, tasviriy san'at mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi. Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejarli suratda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daklar ixtiyoriy diqqat o'sib borgan sari bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalarni bilan bir yo'la olib boriladi. Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolaning aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatni e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini, dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri olmashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olishi zarur. Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'liq bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Har bir yosh guruhda necha marta mashg'ulot utkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqa davom etishi bolalar bog'chasi tarbiya tasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan. Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda o'tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot setkasini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki, haftaning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojlantirish, savodga o'rgatish va h. k.) Jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi 53 mashg'ulotlarni (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yiladi. Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Bog'cha dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tabiiy eshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni (bular tabiatga muhbbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishini nazarda tutadi bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shaqriga, o'z vataniga, xalqiga muqabbat, ulug' kishilarga muqabbat va hurmat, o'lkani ijtimoiy haetiga qiziqish paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya eshidagi bolalarda ijtimoiy hodiisalar, voqealar to'g'risida umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabgi bilimlar asosida vatan to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o'qituvchining mehnati haqidagi ma'lumotlar sistemasining bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy karakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o'xshash ko'pdan-ko'p mehnat turlari bilan tanishishi lozim. Mashg'ulotning turlari. Didaktik maqsadiga ko'ra mashg'ulotlar quydagi xillarga bo'linadi: bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlar, bolalarning egallagan bilimlarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar; bolalarning bilimni tekshiruvchi-sinovchi mashg'ulotlar; kompleks mashg'ulotlar. 1. Bolalarga Yangi bilim berovchi mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad-ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarakatdagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarni aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotlarga yangi ob'ektni kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruhlari o'tkaziladi. 2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar. Undan ko'zlanga asosiy maqsad idrok etilgan narsalarni 54 anglab olish va dastlabki umumlashtirishga. Buning

uchun tanish ob`ekt kuzatiladi, ikki narsa solishtiriladi (xona o`simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o`yinlar, suhbatlar o`tkaziladi. Bunday mashg`ulotni o`tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o`zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o`zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg`ulot jarayonida bolalarning bilimni yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi. 3. Bolalarning bilimni sinovchi mashg`ulotlar. Bunday mashg`ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo`yicha o`zlashtirilishi lozim bulgan bilim va malakalarni o`zlashtirib oldilarmi-yo`qmi, shuni bilib oladi va o`zining bo`lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg`ulotni tarbiyachi o`z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirigida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o`tkazishi mumkin. 4. Kompleks mashg`ulotlar bolalar bog`chasi tajribasida keng tarqalgan bo`lib, bunday mashg`ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarini amalda qo`llashga o`rgatiladi. Bolalar bog`chasida tasviriy faoliyat konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutiqni o`zlashtirish, savdo o`rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg`ulotlari o`tkaziladi. Mashg`ulotga to`g`ri tayorgarlik ko`rilib, uyushgan holda o`tkazilganda, bolalar oldigi ma`lum aqliy vazifa qo`yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi va ularning diqqatini ma`lum tomonga yo`naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani hal etish yo`lidagi qiyinchilikni engish imkoniyati to`g`iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyqonib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o`ylaydi va vazifaning uddasidan chiqish uchun faqar-farosatini ishga soladi. Nusqa olish tarizdagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachining ko`rsatmasi, namunasiga qarab malaka va ko`nikmalarni o`rganadi. Bu bolalarning amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mo`yqalamni, qayshini ushlashni, rasm chizish, narsa yasash, solishtirish, 55 umumlashtirish, abstaktsiyalashni o`rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning hadeb takrorlanaverishiga yo`l qo`ymasligi kerak. Mashg`ulotning tuzilishi. Mashg`ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism. Bolalar mashg`ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o`ylab olinishi kerak. Bolalar o`quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e`tibor bilan tinglab, o`yindan mashg`ulotga osanlik bilan o`tadilar. Tarbiyachi bolalarni yig`ib, ularning mashg`ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko`rinishi, joy-joyiga to`g`ri o`ltiriganligi, diqqatini to`plaganini sinab kuradi. Mashg`ulot muvaffaqiyatli o`tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg`otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har qil usullarni qo`llashi kerak. Kichik guruh bolalarida mashg`ulotga qiziqish uyg`otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo`g`irchoq biznikiga mehmonga kelibda», - deb mashg`ulotni boshlash mumkun. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to`g`risidagi tasavvurini tartibga solivchi mashg`ulot manna shunday boshlanadi. Katta guruhlarda qanday mashg`ulot bo`lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib quydi. Bu bolalarning bo`lajak mashg`ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o`tadi va ularga rasimlarni ko`ribshni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko`rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo`r qiziqish bilan kutishadi. Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg`ulotning zarurligi va majburiyiligini tushinishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur. Asosiy qism. Mashg`ulotda bolalarga Yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo`l-yo`riq ko`rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo`ladigan jamochilik munosa`atlarini alohida munosabat bilan qo`shib olib 56 boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo`llaydi. Mashg`ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkileta bilishi kerak. Bu bolalar lodiga qo`yilgan aqliy vazifaga bog`liq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko`rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma

bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak. Zarurat tug'ilsagina takrorlash mumkin. Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganligi uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi. Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi vash u narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqirlashtiradi. Mashg'ulotni dastur maqsad va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi. Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan materil so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, sonsaanoqqa o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishini tushuntirib berishi talab etiladi). Mutahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, son-sanoq mashg'ulotlarda bolalar sanash materiali bilan o'zlari mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshiriqiga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin. Mashg'ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o'z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg'ulot yakka 57 tartibda olib boriladigan bo'lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurishyasash, konstruksiyalash), bolalar ishni har xil vaqitda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg'ulot tugashga bir necha daqiqa qolganda mashg'ulotni tugatish kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi. Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkaziladi mashg'ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kegusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi. Bolalarning o'qiv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq. Qo'yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to'g'ri baholab, «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyshi bola uchun oddiy maxtovdan ancha qimmatlidir. Ish qanchalik yaxshi tahlil qilsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Mashg'ulotni dastur maqsad va bolalar yoshiga qarab mustahkamlash usullari
2. Bolaning ishini to'g'ri baholash yo'llari
3. Mexanik qaytarishning salbiy oqibatlari
4. Mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H. Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999
2. R.M. Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993.
3. F.R. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.
5. F.R. Qodirova. R.M. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R. Qodirova. R.M. Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'rtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

7-mavzu: Katta pedagog va mudiraning maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish borasidagi kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tarbiyachilar bilan olib boradigan ishlari shakllari

Reja:

- 1. Katta pedagog va mudiraning maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish borasidagi kasbiy mahoratini takomillashtirish**
- 2. Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan talablar**

Tayanch tushuncha va iboralar: mashg'ulot, «Ilk qadam», DTS, fikrlash, davlat talablari, kasbiy faoliyat, boshqirish, mudira, bilim, ko'nikma, malaka.

Pedagog va mudiraning maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish borasidagi kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tarbiyachilar bilan amalga oshiradi. Ular pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun mudira o'z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha meyoriy xujjatlarni jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni, «Ilk qadam» tayanch dasturini, Davlat ta'lim standartlarini, Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi lozimdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada tayyorlanadi. Ayniqsa bolani oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida maktab ta'limiga tayyorlashda hamkorlikda ish olib borish muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni tashkil etishda mudiraning o'rni juda kattadir. Maktabgacha ta'limni tashkil etish va boshqarish mudiralarni amaliy faoliyatga tayyorlash bilan birga ularda yuksak kasbiy faoliyat malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan asosiy ixtisoslik fan bo'lganligi sababli Respublikadagi MTMLarga yuksak salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni yetkazib beradi.

Mashg'ulot tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarni umumiy holda xabardor qilish demakdir. mashg'ulotlar kun davomida utkazilib boriladi. Kuning birinchi kismiga muljallangan mashg'ulotlar ancha samara beradi.

Mashg'ulot jarayonida bolalarda mustakil fikrlash kunikma va malakalari xosil kilinadi, tarbiyachining suzini tinglash, urtoklari bilan gaplashmaslik har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat kilish tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga urganib boriladi. Har bir yosh guruxlarda necha marta mashg'ulot utkazish bolalar bogchasi ta'lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi.

Mashg'ulotning turlari haqida gapiradigan bulsak, mashg'ulotning turlari kuyidagichadir:

Bolalarni bilimlarini sinovchi mashg'ulotlar – ushbu mashg'ulotlarni utkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida ishlarni inobatga oladi.

Kompleks mashuglotlar – bu mashg'ulot bolalar bogchasi tajribasida keng tarkalgan bulib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi.

mashg'ulotni tuzilishi esa:

- bolalarni uyushtirish
- asosiy kism
- yakuniy kism

mashg'ulotga tayyorlanish mazmuni xam mavjud bulib, ushbu mazmunga

Kuyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Mashg'ulotni rejalashtirish.
2. Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash.
3. Bolalarni mashg'ulotga tayyorlash.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi mashg'ulotni bir bulimidan

bitta emas, balki butun bir mashg'ulotni sistemasini rejalashtirib olib borilsa ijobiy natijani kulga kiritladi.

Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida metodik kullannmalardan foydalanib mashg'ulot utishi tavsiya etiladi. Har bir bogchada metodik xonalar mavjuddir. Unda bolalar bogchasi ta'lim-tarbiya dasturining, xamda xamma bulimlari buyicha metodik kullannmalar buladi.

Yetishmovchiliklarni tarbiyachi uzi tayyorlaydi va bu ishga ba'zan tayyorlov guruxidagi ya'ni maktabga tayyorlov guruxidagi bolalarni jalb etadi. Tarbiyachi mashg'ulot uchun kerakli mashuglotlarni mashg'ulotlardan bir kun avval tayyorlab kuyadi

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bolalarni bilimlarini sinovchi mashg'ulotlar nimalar iborat.
2. Kompleks mashuglotlar
3. Mashg'ulotga tayyorlanish mazmuni nimalardan iborat
4. Bolalarni mashg'ulotga tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

8-mavzu: «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dolzarb muammolari» mavzusida pedagogik kengashni tayyorlash va o'tkazish

Reja:

- 1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish**
- 2. «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dolzarb muammolari» mavzusida pedagogik kengashni tayyorlash**

Tayanch tushuncha va iboralar: maktabgacha ta'lim, ta'lim, tarbiya, nutqni rivojlantirish, barkamol shaxs, vatan taraqqiyoti.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining funksiyalari ko'p qirralidir. Bunda bola nutqdan atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish, o'ziga, o'z ishlari va kechinmalariga e'tiborni jalb qilish, bir-birini tushunish, sherigining xulqiga, fikr va hissiyotlariga ta'sir qilish, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zining va birga o'ynayotgan o'rtoqlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun foydalanadi. Nutq atrofdagilar haqidagi bilimlarning muhim manbai, tabiat, narsalar va kishilar olami haqidagi tasavvurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyatining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bola uchun nutq ob'ektiv munosabatlarning alohida sohasi bo'lib, bola ularni so'zlar, tovushlar, qofiyalar, ma'nolar bilan o'ynash orqali anglab etadi.

Bola o'zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'zida mavjud bo'lgan barcha vositalardan va noixtiyoriy vaziyatlarda fikr bildirishdan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralardan, mimika va harakat) va bevosita nutqning o'zidan foydalanadi. Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual portretini hosil qilgani holda o'zaro birgalikda mavjud bo'ladi.

Dialogni rivojlantirish faqatgina nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirishdan iborat bo'lib qolmay, balki u bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi va uning shaxsi shakllanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib ham hisoblanadi. Dialogik muloqot nafaqat xabar qilishga (intellektual mazmundagi xabarga) va o'z manfaatlariga yo'naltirilishni, balki sherigining mavqesini, uning manfaatlari, istak-xohishlari va kayfiyatini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Dialogda nutqiy harakatlarni muvofiqlashtirish to'g'ridan-to'g'ri

sherigini tushuna olish, uning nuqtai-nazarini qabul qilishni bilishga ham bog'liqdir. Bunday tajribani bolalar o'zaro uyushgan faoliyatda (birgalikda yasash, rasm chizish, hikoya qilish, jamoaviy o'yinlar) orttiradilar. Tengdoshlar bilan muloqotda bola nutqi mazmunlilik (muloqot vaziyatidan qat'iy nazar til vositalaridan foydalanish asosida mazmunning tushunarlilik) kasb etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning dialogik muloqoti jarayonida nutqning yangi shakli – monolog vujudga keladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, hissiyotlari, atrofdagi olam haqidagi bilimlari bilan o'rtoqlashishni istashi tufayli vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shaklida ro'y beradi. Hikoyada bolani hayron qoldirgan va hayajonga solgan qandaydir qiziq narsa (yangi o'yinchoq sotib olish, oila a'zolarining kulgili vaziyatlarga tushib qolishi va h.k.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish ertaklarni hikoya qilish, multfilmlar mazmunini aytib berish, o'qigan narsalarini aytib berishni yaxshi ko'radilar.

Jaranglayotgan nutqqa bo'lgan qiziqishning shiddat bilan rivojlanishi, til borlig'ini eng oddiy anglashning shakllanishi maktabgacha katta yoshdagi bolalar erishgan eng muhim yutuq hisoblanadi. So'zga nisbatan lingvistik munosabat tovushlar, qofiyalar, mazmunlar bilan to'satdan boshlangan o'yinlar, so'z mazmuni, ularning jaranglashi va mazmuni haqidagi masalalarda ko'rinadi. Til borlig'ini anglash uning barcha – fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. Nutqqa nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunishga), nutqning tovush madaniyatini (tovush talaffuzi, talaffuz, tinglay olish qobiliyati, ohang ifodaliligi) rivojlantirishga, nutqning grammatik to'g'riligini (morfologiya, so'z hosil qilish, sintaksisni) shakllantirishga, ravon nutqni rivojlantirishga ta'sir qiladi.

Lug'atni rivojlantirishda uni sifat jihatdan takomillashtirish dastlabki o'ringa chiqadi. Bu antonimiya (*o'tkir-o'tmas, achchiq-chuchuk*), sinonimiya (*o'tkir - uchi o'tkirlangan, o'tkirlangan*), ko'p ma'nolilik (*o'tkir pichoq, achchiq qalampir, achchiq til*) kabi hodisalarni tushunish va ularni nutqda faol qo'llashga taalluqlidir. Bolalar narsalar, tabiat hodisalari, insonlar qilmishlarini ko'rib, ulardagi har xillik va umumiylikni aniqlashni hamda ularni ma'nosi qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar, taqqoslashlar, aniq fe'llar, tashbeh (epitet)lar yordamida nutqda aks ettirishni o'rganadilar. So'z birikmasiga sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarga so'zlarning ko'p ma'noga egaligini tushuntiradi. Narsalarning funksiyalarini taqqoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar (hayvonlar, idish-tovoqlar, transport va boshq.) shakllanadi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ham til borlig'ini eng oddiy anglashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar so'zlar, tovushlar,

qofiyalar bilan faol o'ynaydilar. Ular so'z jaranglagandagi umumiy va alohida jihatlarni payqay oladilar, artikulyasion va akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni (S-SH, S-Z) farqlay oladilar, maqol, matal va tez aytilishlardagi 4-5 ta so'zda uchragan tovushlarni sezadilar.

Maktabgacha katta yoshda nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'lishi hamda rivojlanishi, aniq va to'g'ri so'zlashga intilish bilan bog'liq. To'g'ri so'zlashga intilish grammatikaning barcha sohalari – morfologiyada (aniq shakl hosil qilishda, shakllarning turli-tumanligini o'zlashtirishda: stollar, stullar, qavatlar va boshq.), so'z hosil qilishda, (non uchun – nondon, tuz uchun tuzdon va boshq.) sintaksisda (og'zaki nutq qurilmasini engib o'tish: va bog'lovchisini ko'p marta qo'llash orqali gapni cho'zib yuborish, bitta gapda to'g'ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish va boshq.) ko'zga tashlanadi. Nutqning grammatik to'g'riligiga intilish ko'proq etti yoshli bolalarga xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu so'z bilan mashqlar kelajakda grammatik jihatdan to'g'ri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi.

Lug'atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bog'lovchilar, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida bog'lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Turli funksiyalarni bajarish bilan bog'liq dialogli muloqot negizida rivojlangan nutqning barcha tomonlari til ongining shakllanishiga bevosita bog'liq bo'ladi va ular buning uchun bolaning kattalar bilan muayyan shakldagi muloqotiga, to'g'rirog'i, nafaqat tashqi olam va boshqa odamni bilishga qaratilgan muloqotga, balki tilning o'zini, uning tuzilishi va faoliyatini anglab etishga qaratilgan muloqotga muhtoj bo'ladi.

Nutqiy rivojlanishdagi individual qobiliyatlar kirishimlilikda ham, til hamda ravon nutqni o'zlashtirish sur'atlarida ham ifodalanadi. Ko'pchilik bolalar o'z harakatlarini sharhlashni, atrofdagilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilishni yoqtiradilar. SHu bilan birga bunda ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning amaliy faoliyatiga mos kelmaydi, natijada bunday sergap bola ish bajarishda guruhdagi boshqa bolalardan ortda qoladi. Unchalik kirishimli bo'lmagan bolalar kam gapiradilar, biroq odatda amaliy vazifalarni boshqalardan ko'ra tezroq va to'g'riroq bajaradilar.

Ravon nutqning vujudga kelish muddatlari va uning mahsuldorligi ham farqlanishi mumkin. Nutqiy rivojlanishning ilk xilida bolaning maxsus o'qitilmasidan turib hikoya qilishi 4-5 yoshlarda paydo bo'ladi. Bolalar sehrli ertaklarni bir-birlariga aytib beradilar, o'yinchoqlar

yordamida o'zlari ham original voqelarni to'qiydilar. Agarda bola etti yoshda an'anaviy tanish ertakni mustaqil aytib bera olsa, o'yinchoqlar, suratlariga qarab kichik og'zaki hikoya tuza olsa – bu normal holat hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining yuqori darajada rivojlanganligi quyidagilarni nazarda tutadi:

- bola ona tilining barcha tovushlarini va tovush birikmalarini to'g'ri, ya'ni adabiy til normalariga muvofiq holda talaffuz qiladi; ovozni ko'tarishni (pasaytirishni) biladi; aniq talaffuzga ega; fonematik qabul qilish va nutqni tinglash qobiliyati rivojlangan; nutqdagi xatoliklarni sezadi va ularni tuzatadi; maishiy leksikaga ega, mebel, poyabzal, kiyim, daraxtlarni anglatuvchi umumlashtiruvchi so'zlarni, narsalarning ayrim detallari va qismlarini biladi; antonimlar, otlarga ta'riflarni to'g'ri tanlay oladi; otdan sifat yasay oladi (yog'och-yog'ochdan ishlangan va boshq.); barcha ranglarni aytib bera oladi; turli kasb kishilarining (vrach, oshpaz va boshq.), hayvonlarning harakatlarini ko'rsatib bera oladi (vovullaydi, miyovlaydi, pishqiradi va boshq.); nutqda ravish, sifatdosh, ravishdoshlarni qo'llaydi;

- nutqda barcha kundalik so'zlarni, ayrim turlanmaydigan otlarni (pianino, metro, palto) to'g'ri qo'llaydi; otlarni sona, kelishikda sifat bilan moslashtira oladi; qaratqich kelishik shaklini to'g'ri qo'llaydi; old qo'shimcha, suffiks, qo'shimchalar yordamida so'zlar hosil qiladi; nutqda oddiy (yoyiq, yig'iq), qo'shma (bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gap) gaplardan, har xil turlanadigan fe'llardan (xohlashmoqda, yugurishmoqda, uxlashmoqda, va boshq.) foydalanadi; hikoyani mustaqil aytib bera oladi; matn mazmunini voqealar ketma-ketligiga rioya qilgan holda ortiqcha pauzalarsiz aytib beradi; nutqda ifoda vositalaridan foydalanadi; asosiy qismlarni o'zga darajali qismlar bilan bog'lay oladi; narsalarni mustaqil bayon qiladi, o'z shaxsiy hayotida ro'y bergan voqealar (hodisalar) haqida hikoya qilib bera oladi.

O'rtacha daraja:

- bola ona tilining barcha tovushlarini va tovush birikmalarini to'g'ri talaffuz qiladi; o'rta-miyona baland nutqqa, aniq talaffuzga ega, lekin intonatsion ifodalilik etarli emas; unda fonematik qabul qilish qobiliyati rivojlangan; nutqdagi mazmuniy xatoliklarni payqaydi; maishiy leksikani biladi va uni nutqda qo'llaydi; umumlashtiruvchi so'zlarni (mebel, poyabzal, kiyim, daraxtlar) biladi, narsalarning ayrim detallari va qismlarini aytib bera oladi; antonimlarni tanlay oladi; barcha ranglarni biladi; otdan sifat yasay oladi (yog'och-yog'ochdan ishlangan); turli kishilar, hayvonlarning harakatlarini aytib beradi; otlarni sona, kelishikda sifat bilan moslashtira oladi, biroq har xil turlanadigan fe'llarni (xohlashmoqda, yugurishmoqda, uxlashmoqda, va boshq.) qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yadi;

- old qo'shimcha, suffikslar, qo'shimchalar yordamida so'z hosil qilishni biladi; nutqda

oddiy yoyiq gaplardan foydalanadi; hikoya qilib berishda ba'zan kattalarning yordamiga muhtoj bo'ladi; matn mazmunini deyarli muallif matniga yaqin darajada aytib bera oladi, lekin matnning ayrim qismlarining o'rnini almashtirib yuboradi; ba'zan ifoda vositalaridan foydalanadi; asossiz pauzalarga yo'l qo'yadi; hikoyani faqat kattalar yordamidagina tuza oladi; hikoya qilishda faqat asosiy tafsilotlarni qayd etadi, bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlikka rioya qiladi; shaxsiy tajribaga oid voqeani (hodisani) bayon qilishda qiynaladi; ortiqcha so'zlarni ishlatadi (o'sha..., keyin..., shunaqa... va boshq.) va ularni noo'rin qo'llaydi.

Past daraja:

- bola ona tilining tovushlarini va tovush birikmalarini talaffuz qilishda xatoliklarga yo'l qo'yadi, artikulyasiya va akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan (qattiq va yumshoq, bo'g'iq va jarangdor, chiyillovchi va shuvillovchi, sonor tovushlar) tovushlarni tinglab, bir-biridan ajrata olmaydi va ularni to'g'ri talaffuz qila olmaydi; talaffuz sur'ati va balandligini boshqara olmaydi; nutqning intonatsion ifodaliligi mavjud emas;

- bola maishiy leksikani tushunadi, lekin ulardan foydalanmaydi, umumlashtiruvchi so'zlarni ayta olmaydi (daraxtlar, mebel, poyabzal, kiyim); narsalarning qismlari, detallari nomini ayta olmaydi, antonimlar, otlarga ta'riflarni tanlashni bilmaydi; sifatdan ot yasay olmaydi (loy-loydan yasalgan va boshq.); ba'zi ranglarni biladi; turlanmaydigan otlarni (pianino, metro, palto) qo'llashda; roditelno'y padejning birlik va ko'plikdagi otlarini qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yadi; old qo'shimcha, suffikslar, qo'shimchalar yordamida so'z hosil qilishda qiynaladi; nutqda qo'shma gaplardan foydalanmaydi;

- hikoya qilishda kattalarning yordamiga muhtoj bo'ladi; mazmun jihatdan muhim bo'lgan ayrim qismlarni tushirib qoldiradi; nutqda ifoda vositalaridan foydalanmaydi, ko'pincha asossiz to'xtab qoladi, uzoq pauzalarga yo'l qo'yadi; bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlik mavjud emas; o'z hayotida ro'y bergan biron-bir voqeani mustaqil ravishda hikoya qilib bera olmaydi, narsani tavsiflab berolmaydi; nutqda tugamagan gaplarni, ortiqcha so'zlarni qo'llaydi.

Tadqiqotchi F.R.Qodirova tomonidan 76 nafar maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ona tilidagi (rus, o'zbek) nutqi fonetik, leksik, grammatik jihatdan va ularning negizida ravon nutqning rivojlanganligi nuqtai-nazaridan tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalari asosida F.R.Qodirova¹⁶ tomonidan maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ona tilini bilish darajasi aniqlandi:

¹⁶ Кадырова Ф.Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку. Ташкент, Изд-во «Фан» АН РУ, 2005 й., 255 стр.

Jadval 1.

<i>Ta'lim tili</i>	<i>Bolalar soni</i>	<i>Nutqni egallash darajasi</i>		
		YUqori	O'rta	Past
1. Rus tili	38	7 (18,42%)	19 (49,91%)	12 (31,67%)
2. O'zbek tili	38	-	20 (52,6%)	18 (47,43%)

Rus tilida «R», «L» tovushlaridagi fonetik buzilishlar (noto'g'ri talaffuz) 3 nafar bolada kuzatildi. Leksik buzilishlar shundan iborat bo'ldiki, bunda bolalar bir so'z o'rniga boshqasini qo'lladilar, masalan, *pustil strelu* o'rniga *strelnul*; *vstretil* o'rniga *vstretilsya*; *jila babka s dedom* o'rniga *jila baba s detkoy*.

Grammatika sohasidagi kamchiliklar shundan iboratki, bunda bolalar so'zlarni rodda noto'g'ri moslashtirdilar (*vstretilsya kolobok lisu*), gap bo'laklari ham noto'g'ri joylashtirilgan (inversiya): - *A doktora tam ne bylo, a volk tolko byl*; *I navstrechu emu vstretilsya zayas va boshq.*

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini tadqiq etish natijalarini sifat jihatdan tahlil etish shuni ko'rsatdiki, eng ko'p fikr bildirishlar hajmi sevimli ertaklarni aytib berish hissasiga, eng kam esa, o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, hikoya tuzish hissasiga to'g'ri keldi.

Fikr bildirish hajmi va nutqning tezkorligi nafaqat bolaning faol lug'at zahirasini, balki uning «o'ta tezkor sintez» qila olish qobiliyatini ham tavsiflaydi. Bundan tashqari, fikr bildirish hajmi uning ob'ekt bilan tanishlik darajasidan dalolat bermoqda. Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik chuqur va xilma-xil bo'lsa, ularning fikr bildirishlari ham shunchalik keng bo'ladi.

Bolalarning nutqida oddiy gaplar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ba'zan ESA, VA kabi bog'lovchilar ishtirokida tuzilgan va ba'zan esa ularsiz bog'langan qo'shma gaplar ham uchraydi. Bildirish xususiyatiga ko'ra bolalar hikoyalaridagi aksariyat gaplar darak gaplardir, nutq bir xil ohangda jaranglaydi, ko'pincha so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'liqlik, ya'ni: gapdagi so'zlar tartibi, inversiya buzilishiga oid xatoliklarga yo'l qo'yiladi.

Hikoya qilib berishda so'z birikmalarini tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi kuzatildi

- eganing kesim bilan noto'g'ri bog'lanishi: *prishyol lisa*;

- aniqlovchining aniqlanuvchi so'z bilan noto'g'ri bog'lanishi: *vstretilsya medved, vstretilsya lisa*;

- kelishikda va kelishik-gap boshqaruvidagi xatoliklar: *my s mishkoy xodili na zoopark*.

Bolalar fikrlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning nutqida aniq ma'noli otlar ustunlik

qiladi. Nutqni otlar bilan boyitish quyidagi sharoitlar ta'sirida ro'y beradi: bola o'zi uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan narsalarninggina nomlarini o'zlashtirib olmoqda; unga tanish narsalar va shaxslar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

SHuni ta'kidlash lozimki, bolalar nutqida sifatdosh va ravishdosh uchramaydi. Ularning nutqida qiyosiy daraja mavjud emas. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning ravon nutqini tadqiq etish natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- 18 nafar bola ertakni mustaqil aytib bera oldi; 20 nafar bola esa kattalar yordamida aytib berdi.

Ertakni aytib berishda bironta ham bola o'z nutqida nutqning ifoda vositalaridan foydalanmadi. Nutqning bir maromdaligi faqat 15 nafar bolada kuzatildi, 23 nafar bolada esa, u mavjud bo'lmadi.

Ertakni aytib berishda bolalar tomonidan qo'llanilayotgan so'zlar soni 19 dan 65 tagacha etdi; gaplar soni esa 5-14 ni tashkil qildi. Bolalar nutqda asosan, oddiy, ikki tarkibli gaplardan foydalanishdi.

Suratga qarab mustaqil ravishda hikoya tuzishni 11 nafar bola eplay oldi, 15 nafar bola esa uni kattalar yordamida (yo'naltiruvchi savollar bilan) tuzishdi, 12 nafar bola esa faqat sinov o'tkazuvchining savollariga javob berishdi, xolos.

Hikoya qilib berishda 17 nafar bolada mantiqiy ketma-ketlik qayd etildi, 21 nafar bolada esa u mavjud bo'lmadi. Suratga qarab hikoya qilishda so'zlarning soni 6-46 tani, gaplar soni esa 3-9 tani tashkil etdi.

«Alvon gul» ertagini (qisqacha mazmunini) 2 nafar bola, «SHolg'om» ertagini 14 nafar bola, «qurbaqa malika» ertagini (qisqacha mazmunini) 2 nafar bola, «Bo'g'irsoq» ertagini 15 nafar bola, «g'ozlar-oqqushlar» ertagini (qisqacha mazmunini) 4 nafar bola, «Etti echkicha» ertagini (qisqacha mazmunini) 1 nafar bola aytib berdi.

SHaxsiy tajriba haqida 10 nafar bola mustaqil ravishda, 28 nafar bola esa kattalar yordamida hikoya qilib berishdi; sevimli o'yinchog'i haqida 17 ta bola, dam olish kuni haqida 15 ta bola, hayvonlar haqida 2 ta bola hikoya qilib berishdi; 5 nafar bola esa sevimli o'yinchog'i va dam olish kuni haqida bitta hikoya tuzishdi. Bolalar hikoyalaridagi so'zlar soni 11-54 tani, gaplar soni esa 4-12 tani tashkil qildi. Bolalar asosan, oddiy, ikki tarkibli gaplardan foydalandilar. Bolalarning ravon nutqidagi kamchiliklar quyidagilardan iborat edi: ortiqcha so'zlarni qo'llash 27 nafar bolada kuzatildi. SHu o'rinda qayd etish lozimki, o'zbek millatiga mansub bolalar ruscha nutqda ortiqcha so'zlarni o'zbek tilida qo'lladilar (yana, emas va boshq.) O'zbek tilidagi nutq madaniyatini tadqiq etish natijalari shundan dalolat bermoqdaki, o'rganilayotgan bolalarning artikulyasiya apparatlarida biron-bir organik kamchiliklar qayd etilmagan (qisqa qizilo'ngach, dislaliya – tinglash qobiliyati normal bo'lgani holda tovushlarni

talaffuz qilishning buzilishi va boshq.). 3 nafar bolada yashirin rinolaliya (ovoz tembri va tovush talaffuz qilishning buzilishi) – ya'ni, poliplar tufayli burundan havo o'tmasligi aniqlangan; 4 nafar bolada disfoniya – haddan tashqari baland ovozda gapirish (qo'shiq aytish, o'yin paytida qichqirish) natijasidagi zo'riqish sababli ovoznining zaiflashib, xirillab qolishi kuzatildi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Tilga o'rgatish, nuqtani rivojlantirish nafaqat lingvistik sohada (bolaning til ko'nikmalarini shakllantirish)
2. Bolalarning o'zaro hamda kattalar bilan muloqotini shakllantirish
3. Muloqot madaniyatini shakllantirish usullari
4. Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning asosiy vazifasi
5. Kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H. Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M. Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993.
3. F.R. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.
5. F.R. Qodirova. R.M. Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R. Qodirova. R.M. Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

15-mavzu: Nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida metod va vositalardan foydalanish

Reja:

- 1. Nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida metod va vositalari**
- 2. Nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida metod va vositalardan foydalanish**

Tayanch tushunchalar va iboralar:nutq o'zlashtirish, leksik buzilishlar, uslubiy bo'yoqdor so'zlar, hikoya tuzish, ravon nutq, axborot, monotong, savol, undov ovozlari, pauza, darak gap.

Bolalar nutqida nutqiy nafas olishning shakllanmaganligi, bolalarning nutqiy nafas chiqarishni so'zlanayotgan jumlaning uzunligiga mos ravishda taqsimlay olmaganliklari tufayli pauzalar kuzatildi.

Leksik buzilishlar shundan iborat bo'ldiki, bolalar kerakli so'zlar o'rniga ushbu vaziyatga mos kelmaydigan boshqa so'zlarni qo'lladilar.

Grammatika sohasidagi kamchiliklar shundan iborat bo'ldiki, bolalar gapda so'zlarni noto'g'ri joylashtirdilar (inversiya).

Axborot tusiga ko'ra bolalar hikoyalaridagi aksariyat gaplar darak gaplardan iborat bo'ldi. Hikoya tuzishda bolalar nutqi bir xil ohangda jarangladi (monoton), savol yoki undov ovoz bilan ta'kidlanmaydi,

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ona (o'zbek) tilidagi ravon nutqini tadqiq qilish natijalari og'zaki matnni so'zlab berishda jumlar hajmi 4-10 ta gap doirasida, yoki 13-45 ta so'zdan iborat bo'lishini aniqlash imkonini berdi. Eng ko'p jumlar hajmi ertakni aytib berish, suratga qarab hikoya tuzish hissasiga to'g'ri keladi. Bolalarning hikoyalari leksik jihatdan juda sayoz bo'lib, ularda sifat, fe'lining sifatdash va ravishdash shakllari mavjud emas. Hikoyalar faqat sanab berish bilan cheklanildi, ularda obrazli so'zlar va ifodalar mavjud emas, o'z fikrlarini bayon etishda ketma-ketlikka rioya qilinmaydi. Bolalarning nutqi ifodali emas.

Bolalar hikoyalarida so'zlar soni 11-26 tani, gaplar soni esa 2-6 tani tashkil qildi. Bolalar asosan oddiy, ikki tarkibli gaplardan foydalanishdi. 29 nafar bolada ortiqcha so'zlardan (keyin, yana, emas va boshq.) foydalanish, shuningdek takrorlashlar kuzatildi; 9 nafar bolada fonetik nuqsonlar (noto'g'ri talaffuz, tushunarsizlik, so'zlarning oxirini yutib yuborish) qayd etildi.

13 nafar bola ertakni o'zi aytib bera oldi, 15 nafar bola esa pedagog yordamida aytib berishdi, 10 nafar bola esa ertaklarni bilmasliklarini bahona qilib, uni aytib berishdan bosh tortishdi. Bolalar amalda nutqda ifoda vositalaridan foydalanmadilar. Ravon bayon qilish faqat 11 nafar bolada kuzatildi, 27 nafar bolada esa bunday holat umuman kuzatilmadi.

Hikoya qilish chog'ida bolalar tomonidan qo'llanilgan so'zlar 13-45 tani, gaplar esa 4-10

tani tashkil qildi. Bolalar asosan oddiy, ikki tarkibli gaplardan foydalandilar.

«Bo'g'irsoq» ertagini (qisqacha mazmunini) bor-yo'g'i 5 nafar bola aytib berdi, «SHolg'om» ertagini 6 nafar bola, «Ona echki» ertagini esa 2 ta bola aytib berdi.

Shaxsiy tajriba haqida 7 nafar bola mustaqil ravishda hikoya qilib berishdi, 21 nafar bola esa pedagog yordamida (yo'naltiruvchi savollar bilan) hikoya qilishdi. Sevimli o'yinchoq haqida 11 nafar bola, dam olish kuni haqida 13 nafar bola, hayvonlar haqida 9 nafar bola hikoya qilishdi, 5 nafar bola dam olish kunini qanday o'tkazganliklarini eslay olmasliklarini bahona qilib, hikoya qilib berishdan bosh tortdilar.

Yuqorida bayon qilinganlar bolani har tomonlama rivojlantirish omili sifatida ona tiliga o'qitishning umumiy muammolarini tadqiq etish zarurligidan dalolat bermoqda.

Nutqning barcha jihatlarini rivojlantirish bolaning turli janrlarda – ertaklar, hikoyalar tuzish, she'r to'qishda namoyon bo'ladigan mustaqil so'z ijodkorligi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. **Sinektika**-alternativ fikrlash asosida muammoni guruhlarda hal etish, ijodkorona o'ylash modeli bo'lib, turlicha hodisa va predmetlarni o'zaro bog'liklikda o'rganish hisoblanadi. Uning vositasi analog yoki metafota bo'lib, bu model kichik guruhlarda biror muammoga yechim topishda kreativ javoblar topishning takomillashtirilishiga imkon beradi. Bunda yangi ma'lumotga ega bo'linadi, yangi yechim topish uchun motivatsiya hosil qilinadi, muammoning turli sabablari kashf qilinadi. Bu usul uning foydalanuvchilariga miyada mavjud "qolip"lardan chiqishga va mavhum tushunchalarni ham anglashga yordam beradi.

Sinektika talabalarning ijodkorligi faollashtiruvchi instruktiv model, u talabalarga eski fikrlarni yangicha yo'l bilan bog'lashga turtki beradi. Garchi ba'zi talabalar boshqalariga nisbatan ijodkorroq bo'lsalar ham, sinektika modeli har bir talabada "creative thinker" - "ijodkor o'ylovchi, ijodiy fikrlovchi" ni uyg'ota oladi. Bu model metoforik usul bilan izohlaydi. Bu model, "It's one big brainstorming party!" (miyada kata zakovat hujumi kechasi) izohi orqali ifodalanadi va bu kichik guruhlarda yoki yakka holda talabalarning ijodkorona va quvnoqlik bilan yangi bilimlar olishga yordam beradi

Modelning afzalliklari:

- chuqur o'ylash;
- eski narsalardan yangisini hosil qilish;
- diologlar.


Modelning amalga oshirilishi:

1. Bevosita analog (Direct Analogy) – o'qituvchi muayyan tushunchani boshqa tushunchaga tenglashtiriladi. ("Learning is a circus." – o'rganish bu sirkdir) va talabalardan ikki tushunchaning harakterli xususiyatini yoritish so'raladi va bu ikki tushunchaning o'xshash jihatlari aniqlanadi.

2. Shaxsiy analoglar (Personal Analogy) – bunda ba'zi talabalarning tortishivi kuzatiladi. Ularda obyekt va uning analogiga oid fikrlar uyg'ongan fikr aytiladi. ("Learning – I feel shunned and very unappreciated at times." Circus – "I feel excited because I'm the life of the party!" – O'rganish – o'zimni olib qochgandek his qilaman va hozirda qadrsiz.; Sirk – o'zimni rohatda sezaman, chunki shu kechani hayotiman). Bu jarayonda sinfda yuzaga keluvchi bahslar ham foydalidir.


3. Analog qarama-qarshiligi (**Analog Contrast**) – talabalar muayyan obyekt va uning analogini qiyoslaydilar va zidlaydilar. Qiyoslash jarayonida talabalar turli ijodkorona va bir-biridan farqlanadigan fikrlarini bayon etadilar. (“Learning is not like a circus because it’s not always entertaining and exciting!” – O’rganish sirkka o’xshamaydi, chunki u har doim ham ajoyib emas.)

4. Yangi analog (New Analogy) – talabalar o’zlarining yangi analoglari yakka yoki guruhli tarzda yaratishga harakat qiladilar. Bu modelning so’nggi bosqichi bo’lib, talabalar o’zlarining yangi analoglarni taqdim etadilar. Bu ularda yangi analogning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Bu ularda yangi analogning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. (“Learning is like a



box of chocolates.” – O’rganish bir quti shkoladga o’xshaydi).

Boshlang’ich sinflarda sinektika usulidan foydalanish mumkin. Masalan, maktabgacha ta’lim muassasida “ Ravon nutq ” so’zining analogini



topamiz, sharhlaymiz.

Maktabgacha ta’lim muassasi “ Nutq ”ga analoglar topamiz:

1. Daraxtga o’xshaydi-tarmoqlari ko’p, ildizlari ko’p omillarga taqaladi.
2. Baland binoga o’xshaydi-fundamenti zo’r bo’lmsa, bino qulaydi. Demakki, nutq texnikasi to’g’ri bo’lishi uchun biz nutq fundamentiga e’tibor qaratishimiz lozim.
3. Billur idish- sal tegsa sinib ketadi. Nutq texnikasida ham jiddiy turmas ekanmiz, nutq texnikasi o’zgaraydi, chiroyli ko’rinish aks etmaydi. Ammo nutq shunchalar chiroyli, goyoki u billur qadah. Faqat bu qadahni chiroyli va mazmunli, adabiy til me’yorlaridagi so’zlar bilan boyitishimiz lozim.
4. Ko’zguga o’xshaydi-biz avlodlarga nima bersakkina, ular kelajakka qaytaradi. Kelajakda o’z aksimizni ko’ramiz. Kelajak nutqi go’zal va chiroyli, bilimli va dono bo’lmog’i bo’lishi uchun biz tarbiyalangan bo’lishimiz lozim.

5. Globusdagi davlatlarga o'xshaydi-har xil davlatlar bor. Rivojlangan-rivojlanmagan, boy va kambag'al, tabiiy,ma'naviy, me'moriy meroslarga boy davlatlar mavjud. Nutq texnikasi ham har bir insonda har xil...xuddi davlatlar kabi.







Bu usul judayam ijodkorlikni oshirishda xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida bunday anologlar bilan mashg'ulotlar olib borish judayam yaxshi samara beradi. Nutq ravonligini ta'minlaydi va nutqni rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi guruhlarida intellekt harita ijodiy fikrlarni bir qolipga solish, rejalashtirish, fikrlar haritasini tuzishga ko'maklashadi.

- ▶ **Intellekt xarita** darslarda qo'llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen "Superthinking" asarida intellect xaritaning detallari belgilangan:
- ▶ 1) asosiy fikr muammo yoki so'z markaziga joylashtiriladi.(u rasm ko'rinishda , belgi yoki so'z ko'rinishida)
- ▶ 2) Rasmlar markaziy fikrni ifodalashi kerak;
- ▶ 3) Har bir tarmoq turli ranglar bilan ifodalanishi kerak;
- ▶ 4) Kartani tayyorlashda faqat rangli markerlardan foydalaniladi;
- ▶ 5) Asosiy tarmoqlar markazdagi asosiy tushuncha bilan bog'lanadi, kichik tarmoqlar markazdagi asosiy tushuncha bilan bog'lanadi, kichik tarmoqlar asosiy tarmoqlarga bog'laandi.
- ▶ 6) Har bir tarmoqqa faqat bir kalit so'z yoziladi;
- ▶ 7) Intellekt xarita hosil qilishda assosiativ tushunchalardan foydalanish lozim

Intellekt xarita –namoyishlarni o'tkazish, qarorlar qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o'tkazish, o'z-o'zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta'lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi.



	1-bosqich.Mavzuni tanlash: Husnixat malakalarini shakllantirish	<i>O'rmondagi</i>
	2-bosqich.Individual aqli hujum: Ananaviy shaklda g'oyalarni yozishadi (tanqidlarsiz). Yozilgan vazifa ustida bosh qotirish va barcha intellect xarita ko'rinishida "g'oyalarni" qoramamaga tushirib olamiz.So'ng oqlamaga ko'chiramiz.	<i>daraxtlarni emas, kompleks o'rmon</i>
	3-bosqich.Jamoaviy intellekt xaritanı yaratish:Individual yozilgan xarita umumiy xaritaga birlashtiriladi.	<i>ko'rinishini beradi.</i>
	4-bosqich.Inkubatsiya (Yashirin davr): eng zo'r g'oyalar ishga tushish jarayoni	Toni Byuzen "Superthinking"
	5-bosqich.Ikkinchi redaksiya: yashirin davrida yuzaga kelgan fikrlarni umumlashtiradi,ishtirokchi bu asosda muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan fikr va g'oyalar yana bir bor o'z xaritasini yaratdi.	asaridan
	6-bosqich: qarorlarni qabul qilish	

Mavzu yuzasidan savol va topshiriq:

1. Tarbiya jarayonida nutq usullari
2. Nutq o'zlashtirishda metod va usullari
3. Individual va jamoaviy metodlarni tashkil etish usullar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma

16-mavzu: Nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish

Reja:

- 1. Zamonaviy ta'limni tashkil etishda interfaol metodlar**
- 2. Nutq o'zlashtirish mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish**

Tayanch tushunchalar va iboralar: Ta'lim – tarbiya jarayoni, tahsil, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, dialogik va monologik matn, bahs-munozara metodi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallagan bilim ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Interfaol metodlarni qo'llashdan maqsad: - pedagogik faoliyat (Ta'lim – tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirish; - o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish; - Tahsil oluvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarni - egallanishini ta'minlash; -Tahsil oluvchilarda mustaqil erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish; - Tahsil oluvchilarning o'z imkoniyatlarini royobga chiqara olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish; Interfaol metodlardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida kata tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar –interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarningustivorligiga tayanib va darsda erkin bahs – munozara sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Bu metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda tahsil oluvchilarni faollashtirish, shuningdek mazmun mohiyatiga kirib borish uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.

2. Fikriy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo tahsil oluvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshutiladi va o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jumalalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun sinf guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh topshiriq bo'yicha o'z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma'lum qiladi.

Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlarsh bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilishi mumkin. Tahsil oluvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash uchun qo'yidagi talablarga amal qilish zarur:

1. Guruhlarga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.

3. Har bir guruhdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo'lishiga

erishish kerak.

4. Guruh doira shaklida o'tirishi lozim.

5. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalari e'tibor beriladi.

Dars jarayonida guruh a'zolarini almastirib borish ham mumkin. Quyidagi ta'lim jarayonida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

Fikriy hujum metodi.

Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni engishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi. A. F. Ojborin tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (Baxs) ning har bir ishtirokchisi tomonidan

o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutloqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad tahsil oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli

foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

“6X6X6” METODI

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar tahsil oluvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali muayyan topshiriq yoki masalani hal etishmshuningdek guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning

qarashlarini bilib olish mumkin.

“6x6x6” metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi oltita guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi oltita guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofida 6 tadan stol qo'yib chiqadi.

2. Tahsil oluvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. Tahsil oluvchilarni guruhlarda bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har birida muayyan ob'ekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula)

sur'ati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchadan birini olish taklif etiladi. Har bir tahsil oluvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofida qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. Tahsil oluvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini ko'zatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi. Yo'l – yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlarning tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng, guruhlardan munozaralarni yakunlashni so'raydi.



5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi oltita guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tahsil oluvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olishganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvaliga guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriqlar echimlari) ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llanadigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammoxususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiriladi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlanadi.

Kungaboqar usuli



Interfaol metodlar

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
<p>Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.</p>	<p>Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar</p>	<p>Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.</p>

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi:

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari;
- Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

«Qora quti» metodi

- O'quvchilarni 6ta guruhga bo'lamiz. Har bir guruhga bittadan topshiriq beramiz. Qaysi guruh topshiriqni aniq va to'g'ri bajarsa u guruhdan bir kishi o'qituvchi vazifasini bajaradi. "o'qituvchi" har bir guruhga berilgan so'zlarga o'ntadan misol yozishni buyiradi. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ham sinchkovlik bilan kuzatib boriladi.

Insert jadvali

Grafik tashkil etuvchining turi ahamiyati va xususiyatlari

“INSERT” jadvali

Mustaqil o'qish vaqtida olingan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi

Insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o'zlari to'ldiradilar

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida o'zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga “kiritadilar” matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq: “V” - men bilgan ma'lumotlarga mos; “-“ - men bilgan ma'lumotlarga zid; “+” - men uchun yangi ma'lumot; “?” - men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi.

An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari tasnifi

9-ilova

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma'ruza Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish, O'rganish, Nazorat qilish

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. An'anaviy ta'lim metodlari
2. Og'zaki va yozma usullar
3. Ko'rgazmali metodlar
4. Amaliy tasnif metodlar
5. Videometod turlari va olish borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; New York; Lang, 1999
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
4. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
6. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'zlashtirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma